

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

G'oyibnazar ERNAZAROV

BOSHLANG'ICH SINFLARDА ONA TILI O'QITISH METODIKASI

Pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma

6-nashr

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2016

UO‘K 373.31(075)
811.512.133
KBK 74.268. IO‘zb.ya722
E67

*Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi ilmiy-metodik
birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash
tomonidan nashrga tavsya etilgan.*

Mazkur uslubiy qo‘llanma pedagogik yo‘nalishdagi kollejlarning o‘quvchilariga mo‘ljallangan. Mavzularni rejalashtirish «Boshlang‘ich sinflarda ta’lim-tarbiya ishlari» yo‘riqnomasi talablariga muvofiq tuzilgan bo‘lib, uni yorish Sharq va G‘arb mutafakkirlarining fikrlari hamda ilg‘or pedagogik-metodik qarashlar ko‘magida amalga oshirildi.

Metodikaga doir nazariy bilimlarning amaliy tarzda asoslanishi boshlang‘ich ta’limning «O‘qish kitobi» va «Ona tili» darsliklariga tayangan holda ochib berildi.

Qo‘llanma tuzilishi, tarkibi, mazmun va mohiyatiga ko‘ra, uslubiy darslarning o‘qitilishida amaliy ahamiyatga egaligini ta’kidlash maqsadga muvofiqdir.

Ushbu qo‘llanmadan nafaqat kollej talabalari, balki pedagogika instituti metodika fakulteti talabalari ham foydalanishlari mumkin

Taqriban chilar: T. NIYOZMETOVA — filologiya fanlari nomzodi;
R. INOG‘OMOVA — pedagogika fanlari nomzodi;
R. ABDULAHATOVA — filologiya fanlari nomzodi;
N. HUSAINOVA — Bekobod pedagogika kollejining oliy toifali o‘qituvchisi.

KIRISH

«ONA TILI O‘QITISH METODIKASI» FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI, UNING TARKIBIY QISMI HAMDA BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI

R E J A:

1. «Ona tili o‘qitish metodikasi» fanining predmeti va maqsadi.
2. Fanning o‘z oldiga qo‘ygan vazifasi.
3. Ona tili o‘qitish metodikasining tarkibiy qismlari va boshqa fanlar bilan aloqasi.

Ona tili o‘qitish metodikasi (*yunoncha method*— yo‘l-yo‘riq, usul) til nazariyasiga asoslangan holda talabalarga o‘zbek tilidan bilim va malaka berish usulining amaliy vazifalarini o‘rgatadi. Bu fan, bir jihatdan, o‘z tekshirish manbayiga ega bo‘lgan mustaqil fan sifatida ayrim xususiyatlari bilan ajralib turadi. Buni ixcham-lashtirgan holda quyidagicha izohlash mumkin:

1. Nutqni sayqallashni o‘rgatish.
2. Yozuv sifatiga e’tiborni qaratish.
3. Namunali o‘qish me’yorini egallah ko‘nikmasiga diqqatni tortish.
4. Ona tilini o‘rgatish vositalari hamda shart-sharoitlari, shuningdek, leksikani o‘zlashtirishning soddadan murakkabga o‘tadigan qoidalari haqida bahs yuritish.

Ta’lim jarayonida faoliyat yuritadigan o‘quvchilar amalda nutq madaniyatini egallab, xatosiz yoza olishsa, adabiy til normalarini puxta o‘zlashtirib, ona tilidan olgan bilimlari mustahkam bo‘ladi. Biroq maktab tajribasidan kelib chiqib aytish kerakki, o‘quvchilarda materialni mustaqil egallahsga intilish sust bo‘lib, ular mavzulararo manbalarni solishtirishmaydi, natijada nazariy bilimlar mohiyati ochilmaydi va aksariyat o‘quvchilar berilayotgan materialni shunchaki yodlab olishadi. Deylik, o‘quvchi otlardagi olti kelishikni yoddan biladi, lekin yozma nutqda qaratqich va tushum kelishiklarini farqlamaydi. Ba’zilar esa so‘z turkumlarini ayta oladi-yu, grammatik tahlilda u yoki bu so‘z turini chegaralay olmaydi. Bayon yoki insho kabi mustaqil fikrlashga tayanadigan yozma ishlarda esa imlo qoidalariga bo‘ysunmaydigan shevachilikka o‘tib ketiladi. Bunday hol

ona tili o‘qitishda nazariya va amaliyot o‘rtasida sezilarli farq mavjudligidan kelib chiqadi. Shuning uchun «Umumiyo‘rtta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi»da o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarining minimal darajasi belgilab berilgan. Bular boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish darajasidan:

- a) o‘qish texnikasi bo‘yicha;
- b) matn mazmuni va o‘zgalar fikrini anglash malakasi bo‘yicha;
- c) diktant yozish malakasi bo‘yicha;
- d) fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi bo‘yicha olib boriladi.

«Ona tili o‘qitish metodikasi» fanining predmeti ona tili va o‘qish darslari hisoblanadi. Mazkur darslarning subyekti, xususan, asosiy maqsadi o‘quvchilarga milliy odob-axloq tarbiyasini singdirish, ilmga qiziqishni, shuningdek, ularda g‘oyaviy ishonchni, ezgu niyatlarini amalga oshirishda qat’iylik, intizomlilik, vatanparvarlik, baynalmilallik kabi faxrli sifatlarni kamol toptirishdan iboratdir. Birgina axloqiy tarbiyaga chuqurroq nazar tashlasak, pedagogikada uni shartli ravishda uch qismga bo‘linganligini ko‘ramiz:

1. Axloqiy onglilik.
2. Axloqiy qadriyatlar.
3. Axloqiy his-tuyg‘ular.

Axloqiy onglilik — bu mayjudlikning inson ruhiyatida aks etishidir. *Axloqiy qadriyatlar* esa ajodolarimizdan meros bo‘lib, asrlar davomida to‘planib kelingan yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalardir. «Tarix xotirasi, deb uqtiradi yurtboshimiz I.A. Karimov, xalqning, jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoni tarixini tiklash milliy o‘zlikni anglashni, ta’bir joiz bo‘lsa, milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi».

Axloqiy his-tuyg‘ularga shaxsning ichki kechinmalarini kiritish mumkin. Bularning hammasi barcha qirralari bilan ona tili va o‘qish darslariga daxldor bo‘lgan hayotiy tamoyillar sanaladi. «Ona tili o‘qitish uslubiyoti» fani xuddi mana shunday muhim masalalarga yondashib, uni hal qilish vazifasini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Bu vazifani mohir uslubiyotchilar quyidagicha tasnif qilishadi:

1. Ta’limning har bir bosqichida ona tili predmetining hajmi, mazmuni, maqsadi, mavzulararo bog‘lanish va materiallarning sinflar bo‘yicha taqsimotini aniqlash.

2. Bilimni egallash samaradorligini oshirish maqsadida o‘qitishning eng qulay usullarini, zamon bilan hamnafas bo‘lgan noan’anaviy yo‘l-yo‘riqlarni tavsiya etish.

3. Ona tili dasturida belgilangan bilimlar tizimini muayyan tartibda o‘zlashtirib, shu asosda, o‘quvchilarning muntazam malaka va ko‘nikma hosil qilishlari uchun manzur bo‘ladigan shart-sharoitlarga bog‘liq masalalarini hal etish.

4. Nimani o‘rgatish? Qancha o‘rgatish? O‘qitishning qanaqa turlarini qo‘llash? Qaysi dars metodi afzal? Nima uchun afzal? kabi savollarga javob berish.

Shu yo‘sinda «Ona tili o‘qitish uslubiyoti» fani ta’limning turli bosqichlarida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini o‘rganadi, o‘qitishning yutuq, nuqsonlarini tekshiradi, nutqiy, imloviy va boshqa tipik xatolarni yo‘qotish yo‘llarini izlaydi.

Boshlang‘ich ta’limga mo‘ljallangan bu kursning tarkibini iqtidorli metodist-olima K. Qosimova haqli ravishda ixchamlashtirib, quyidagi qismlarga bo‘ladi:

1. Savod o‘rgatish metodikasi.
2. O‘qish metodikasi.
3. Grammatika va imlo metodikasi.
4. O‘quvchilar nutqini o‘stirish metodikasi.

Ona tili o‘qitish metodikasi o‘z zimmasiga olgan maqsad va vazifalarini hal etishda maxsus imkoniyatlarga tayangan holda boshqa fanlar bilan aloqaga kirishuvni tabiiydir. U eng avval tilshunoslik, adabiyot, pedagogika va psixologiyaga suyanib ish ko‘radi. Bilim dargohidagi ilg‘or o‘qituvchilar tajribasi bu fanning amaliy asosi hisoblanadi. Metodika fani bo‘lajak tarbiyachining pedagogik dunyoqarashini va ona tili o‘qitishga bo‘lgan ijodiy rag‘batini shakllantiradi, o‘z kasbini e’zozlashga o‘rgatadi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Ona tili o‘qitish metodikasining o‘ziga xos xususiyatlari qaysilar?
2. Fanning maqsadini qanday tushunasiz?
3. Metodika o‘z oldiga qanday vazifalarini qo‘yadi?
4. Davlat ta’lim standartida ona tili va o‘qish darslarining minimal darjasini qanday belgilangan?
5. Davlat ta’lim standartida ona tili va o‘qishdan 1—4-sinflar bo‘yicha miqdoriy ko‘rsatkich va talablar yuzasidan ma’lumot tayyorlang hamda konseptlashtiring.
6. Noan’anaviy usullardan o‘zingizga ma’qulini tanlang va uni darsga joriy qilishni ishlab chiqing.

I. SAVOD O'RGATISH METODIKASI

BOSHLANG'ICH TA'LIMNING SAVOD O'RGATISH BOSQICHIDA ANALITIK-SINTETIK TOVUSH METODI

REJA:

1. Analitik-sintetik tovush metodi haqida.
2. Bu metodning an'anaviy tarmoqlari.
3. Yangi tovush va harfni o'rganishda analiz (yo'yish)dan foydalanish.
4. Yangi tovush va harfni o'rgatishda sintez (yig'ish) usulini qo'llash.

Endigina maktabga qadam qo'ygan bolaga savod o'rgatish juda nozik ish bo'lib, uning qulay usullarini topishga intilish ta'lim jarayonida uzoq tarixga borib taqaladi. Bu haqda Sharq qo'lyozmalari, jumladan, «Donishnoma», «Qobusnom» kabi nodir kitoblarda qimmatli fikrlar bitilgan. So'nggi paytlarda pedagogik tajriba yangi metodlarni maktablarga olib kirmoqda. Aslida, pedagogik tadqiqotlar ijodkori K. D. Ushinskiy savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodini kashf etib, «Osonroq narsalarni o'rganishdan qiyinroq narsalarni o'rganishga qarab borish» (Y.A. Komenskiy) tizimiga yo'l ochdi. Mazkur usul hozirgi davrgacha ancha takomillashib, o'zining an'anaviy tamoyilini yaratdi. Bu metodning afzallik jihat shundaki, unga savod o'rgatish jarayonida so'zning eng kichik bo'lagi, ya'ni nutq tovushlari asos qilib olinadi. So'zda ma'no o'zgartiruvchi tovushlarning harfiy ifodasi ishlaniib, o'qish va yozish parallel tarzda o'rgatib boriladi. Keyinroq atoqli metodist S. R. Redazubov va A.I. Voskresenskayalar tovush metodida xat-savod chiqarishni takomillashtirib, uni *analitik-sintetik tovush metodi* deb atadilar.

O'tgan asrning boshlarida tashkil etilgan, rus-tuzem maktablari ning o'zbekcha sinflarida tovush metodidan foydalanish boshlanib, tatarcha alifbe o'rgatildi, biroq kitobning tili va mazmuni sinfga mos kelmas edi. 1902-yilda peshqadam pedagoglardan Saidrasul Saidazizov analitik-sintetik tovush metodi talablariga muvofiq keladigan alifbeni tuzdi va «Ustodi avval» nomi bilan nashr ettirdi. Bu qo'llanma, asosan, uch qismdan iborat edi:

1. *ALIFBE DAVRI*. Bunda arab harflarining so‘z tarkibida ikki xildan to‘rt xilgacha bo‘lgan ko‘rinishlari o‘quvchilarga tanishtirilib, «Qor», «Uyqu», «G‘or», «Tog‘» kabi o‘zbekcha so‘zlar misol tariqasida keltirildi.

2. *ALIFBEDAN KEYINGI DAVR*. Bunda bilim olish xususiyatiga va tarbiyaviy mazmunga ega bo‘lgan 50 ta maqola hamda hikoya berildi.

3. *ALIFBOYI QUR’ONIY*. Bu qismda muallif bolalarni «Qur’oni karim»ni qiroat bilan o‘qishga o‘rgatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

«Ustodi avval» O‘rta Osiyo hududida hijo metodining o‘rniga tovush metodi tarqalishidagi dastlabki qo‘llanma bo‘lib qoldi.

Bugungi kunda ham yozuvimizning to‘rt marta o‘zgartirilganiga qaramay (arab, lotin, kirill, lotin), analitik-sintetik tovush metodi savod o‘rgatishda takomillashgan usulga aylanib qoldi. Endilikda analiz va sintez (yoish va yig‘ish) savod o‘rgatishning hamma bosqichlariga uyg‘unlashtirilib, bir-biriga bog‘liq holda olib boriladi. So‘z tarkibidan tovushlarni ajratish va uni to‘g‘ri talaffuz qilish mashqida, o‘quvchilarga yangi tovush hamda uning yozuvdagini belgisini o‘rgatishda, mustahkamlash mashqlarida, albatta, analiz-sintez metodidan foydalaniлади. Chunki bu usul o‘quvchilarning o‘qish va yozish malakalarini ongli ravishda o‘zlashtirishga imkon beradi, ularda harflab o‘qishdan bo‘g‘inlab o‘qishga o‘tish malakasini osonlashtiradi.

Buning uchun o‘qituvchining mahorati, sinfning ruhiy holatini chuqur anglashi, bo‘g‘in, so‘z va gapga doir ko‘rgazmalarni o‘rinli qo‘llay olishi, darsda didaktik mashhg‘ulotga keng o‘rin berishi asosiy rol o‘ynaydi. Shunda Davlat ta’lim standartidagi «harflarni to‘g‘ri talaffuz etish», «So‘zlarni to‘g‘ri o‘qish», «So‘z urg‘ulariga rioya qilish», «Gap ohangiga amal qilgan holda ravon va obrazli o‘qish» talablari yuzaga chiqadi. Pedagogik tajribalarga tayangan holda yangi tovush va harflarni analiz-sintez metodi asosida o‘rgatish quyidagi tartibda olib borilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

ANALIZ UCHUN

1. Nutq tarkibidan gapni ajratish.
2. Gapdan so‘zlarni ajratish va so‘zlarning bosh shaklini topish.
3. So‘z ichidagi yangi tovushni aniqlash va uning bo‘g‘indagi o‘rnini belgilash.

4. Bo‘g‘in tarkibidagi yangi tovushlarning talaffuzini orfoepik me’yorda o‘rganish.
5. Bosma harfda o‘rgatilgan yangi tovushning yozma shaklini tanishtirish.

SINTEZ UCHUN

1. Kesma harflardan foydalanib, so‘z tuzish va bo‘g‘inga ajratish.
2. Yangi o‘qitiladigan matn so‘zlarining bosh shaklini aniqlash va kesma harflardan foydalanib o‘sha so‘zlarni bo‘g‘inlash.
3. Berilgan so‘zlardan gap tuzish.
4. Berilgan kichik-kichik gaplardan matn yaratish.
5. Uch-to‘rt so‘zli sodda gaplardan nutq hosil qilish.

«Alifbe» ruhiy-lisoniy nuqtayi nazardan tovush va harfni o‘rgatishning tartibini o‘zida mujassam etgan darslik bo‘lib, analiz-sintez metodiga shaklan va mazmunan moslanganki, shu jihatdan biz uni savod o‘rgatishning manbayi, deb tan olamiz. Shu manba orqali o‘quvchilar axloqiy, g‘oyaviy-ma’naviy, milliy-an’anaviy, tabiatni sevish, qadriyatlarni anglash, mehnat va nafosat tarbiyasini olish, kelajakka yangi nigoh bilan qarash sharafiga muyassar bo‘lishadi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Tovush metodiga kim asos soldi va uning afzalligi nimada?
2. O‘zbek maktablarida analitik-sintetik tovush metodi qachondan boshlab o‘rgatiladi?
3. Analizada nimaga ahamiyat beriladi?
4. Sintez qanday amalga oshiriladi?
5. «Analitik-sintetik tovush metodi — savod o‘rgatishning asosi», degan fikrni kengaytirib, ma’lumot to‘plang va konspektlashting.

O‘ZBEK TILIDA TOVUSHNI O‘RGATISH. YOZUVNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

REJA:

1. O‘zbek tilining tovush tili ekanligi.
2. Savod o‘rgatishda tovushlar tizimidan so‘z hosil qilish.
3. So‘z va bo‘g‘indan tovushni ajratish.
4. Tovushning yozuvdagи ifodasi — harf.
5. Yozuvning o‘ziga xos xususiyatlari.

Tilshunoslikdan ma'lumki, nutq tovushlari til (leksika) uchun moddiy ashyo sanaladi. Inson tovushlar kompleksidan so'z hosil qiladi. Tildagi iboralar, gaplar, tasviriy ifodalar, umuman, nutq ana shu tovushlar vositasida shakllanadi. Demak, o'zbek tili tovush tilidir.

Tovush nima? Akustik (aytilish) jihatdan biror jismning boshqa bir jism ta'sirida tebranishi va bu tebranishning qulqoqqa eshitilishi tovush deyiladi. Jismdag'i tebranish havoni to'lqinlantirganda tovush yuzaga keladi. Nutq tovushlari esa tovush psychalarining tebranishidan hosil bo'lvchi ovozdan va nutq organlarida paydo bo'ladigan shovqindan iboratdir. Bu jarayon murakkab bo'lganligi uchun boshlang'ich ta'limda tovushga ta'rif berilmaydi. Lekin o'quvchi tovush haqida to'g'ri ilmiy tasavvur hosil qilishi uchun amaliy mashqlar o'tkaziladi. Savod o'rgatish davridayoq so'zning tovush tarkibi ustida ishlanadi. O'quvchilar ketma-ket o'tkaziladigan mashhg'ulotlardan keyin aytilgan yoki eshitilgan so'z tovushlardan tuzilganligini anglay boshlaydilar, lekin yetti yoshli bola uchun tovush nimaligini aniq-tiniq tushunish so'z va bo'g'inni tushunishga nisbatan qiyinroq kechadi.

Maktab tajribasi shumi ko'rsatadiki, o'quvchilarni dastlab tovush bilan tanishtirishda ularga yaqin va tushunarli bo'lgan so'zni tanlab, shu so'z tarkibidagi tovushlarni ajratish maqsadga muvofiqdir. Masalan, *o-t-a*, *o-n-a*, *s-u-v*, *n-o-n* kabi. Bu xil ish «Kesma alifbo» bilan amaliy tarzda bajarilsa, yaxshi natija beradi yoki bo'g'inlar jadvalidan ham foydalanish mumkin. «Savod o'rgatish metodikasi» (*Q. Abdullayeva, 1966*)da bo'g'in jadvali bilan ishlash tartibi quyidagicha ko'rsatilgan:

- o'qituvchi ko'rsatgan bo'g'lnlarni o'quvchilar o'qiydilar;
- o'qituvchi bo'g'inni aytadi, xattaxtaga chiqqan o'quvchi jadvaldan topib ko'rsatadi;
- o'qituvchi jadvaldan ikkita bo'g'inni ko'rsatadi, o'quvchi ularni bir so'z qilib o'qiysi;
- o'qituvchi so'z kartochkasidan ikki bo'g'inli so'zni ko'rsatadi, o'quvchi jadvaldan o'sha bo'g'lnlarni topadi;
- o'qituvchi biror bo'g'inni ko'rsatadi, o'quvchi so'z yasash mumkin bo'lgan unga mos bo'g'inni aniqlaydi;
- so'z yasash mumkin bo'lgan ikki bo'g'inni jadvaldan ko'rsatish o'quvchilarning o'ziga topshiriladi.

Savod o'rgatishda so'z va bo'g'lnarni analiz-sintez qilishni interaktiv (faol o'qitish usuli) texnologiya asosida tashkil etish o'qituvchi faoliyatidagi ijodiy jarayon bo'lib, o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikda tashkil etiladi. Bunday paytda o'qituvchi o'zini birgina bilim beruvchi shaxs emas, balki o'quvchilarning faolligini pedagogik va psixologik jihatdan tashkil etuvchi hamkor, murabbiy sifatida his qilmog'i zarur bo'ladi. Shundagina o'quvchi o'zini o'qituvchiga yaqin tutadi, barcha hadik va qimtinishlardan forig' bo'lib, tez toliqmaydi, ayni damda, erkin fikrlaydi. Bolaning tovushlardan so'z yasash, so'zdan bo'g'in va tovushlarni ajratish malakasiga erishishi ancha osonlashadi. Tovush va harf o'rganish ilmi bolalarni o'ziga jalb etadi. Ular o'rganish zarur bo'lgan narsaga (yangi harf, yangi tovush, yangi matnga) diqqat bilan yondashadilar. Zotan, ilm o'rganuvchilardan, Y.A. Komenskiyning fikricha, to'rt narsa talab etiladi:

- sof aqlga ega bo'lish;
- o'rganish zarur bo'lgan narsani ko'rish;
- diqqatni to'plab olish;
- kuzatilishi lozim bo'lgan narsalarni ma'lum tartibda ketma-ket ko'rish.

O'quvchilarda bunday xislatlarni tarkib toptirish o'zlashtirish sifatini yuqori darajaga ko'taradi. Darvoqe, 1-sinfning ikkinchi yarim yilligida «Ona tili» darsligiga amal qilib, undagi 2-dars «Tovush va harf»larni o'rganishga bag'ishlanadi. Birinchi mashqdayoq so'zlarni to'g'ri o'qib, tovushlar sonini aniqlash talab etiladi: *aka-uka, ota-onা, bola-xola, buva-buvi* kabi.

«So'zlar qaysi tovush bilan farq qilyapti?» degan savolga o'quvchilar farqlovchi tovushlarni aniqlab, «Tovushlarni talaffuz qilamiz va eshitamiz», degan qoidani keltirib o'tadilar.

Savod o'rgatish davrida tovush bilan harf parallel ravishda o'zlashtiriladi. Tovushning ma'lum bir yozuv belgisini olishi harf deyiladi. Bunda «Harfni ko'ramiz, o'qiymiz va yozamiz», deb javob beradi o'quvchilar. Yozuv bilan shug'ullanish alifbe davridayoq boshlanadi va muntazam sur'atda davom etadi.

Tovush metodi tamoyiliga muvofiq, o'qish va yozish birligi saqlanadi. O'qishga o'rgatishdagi tartib harflar yozuviga ham asos bo'ladi. O'qish darsida o'quvchilar harfni o'zlashtiradilar, matnni o'qiydilar, yozuv darsida esa shu harfni va shu harfli so'zni yozishadi. Yozuvga o'rgatishda genetik tamoyil buziladi, ya'ni oson harfni

yozishdan asta-sekin qiyin harfni yozishga o‘tilmaydi. (Masalan, «Alifbe»dagi 1-yoziladigan «A» harfi «O»ga nisbatan oson emas.)

Yozuvga o‘rgatish, asosan, grafik malaka hosil qilishdir. Shundan kelib chiqib, yozuvning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bular:

1. Harflarning ikki ko‘rinishda: bosh va kichik shaklda yozilishi.
2. Yangilangan fikrning bosh harf bilan boshlanishi.
3. Harflarni o‘ng tomonga 65—70° qiyalikda yozish.
4. Qo‘lni uzmasdan harflarni bog‘lab yozish.
5. Yozuvda hoshiyaga amal qilish.

Boshlang‘ich sinflarda yozuv malakasini egallash uchun ikki chiziqli daftar tavsiya etiladi. Savod o‘rgatish davrining so‘ngida, kuzatishlarga ko‘ra, 30 daqiqa yozuv bilan shug‘ullangan o‘quvchi 20 tagacha so‘z yoza oladi.

Yozuvga o‘rgatishni mo‘tadil yo‘lga qo‘yish yozma nutq malakasini egallashda ishonchli omildir.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Tovush nima?
2. Savod o‘rgatish davrida so‘zning tovush tarkibi qanday o‘rganiladi?
3. Bo‘g‘in jadvali bilan ishlash tarkibiga nimalar kiradi?
4. Harf nima?
5. Yozuvning o‘ziga xos xususiyatlarini bayon eting.
6. O‘qish va yozish malakasi haqida ma’lumot to‘plang va konseptlashtiring.

Amaliy ish. Boshlang‘ich sinflar dasturida savod o‘rgatishga oid qismning tuzilishi va tarkibi

Bu dars kollejlar amaliyot o‘taydigan tayanch maktablarning 1-sinfida yoki imkoniyatga qarab maxsus auditoriyada dastur muhokamasi tarzida o‘tkaziladi. E’tibor uchun eslatma:

1. Talabalarni amaliyotga tayyorlash uchun boshlang‘ich ta’lim dasturi bilan tanishtirish.
2. «Alifbe»ni o‘rgatish uchun tuzilgan taqvim-rejani ko‘rsatish va savod o‘rgatishga oid qismini talabalar diqqatiga havola etish.
3. Dasturning tarkibini tahlil etish va savod o‘rgatishga doir taqvim-reja namunasini bo‘lajak amaliyotchilarga o‘rgatish.
4. Dastur mundarijasi bilan «Alifbe» darsligining muvofiqligini tanqidiy o‘rganishga talabalarni jalb etish.

SAVOD O'RGATISH MASHQLARI. DIKSIYA — IFODALI NUTQ ASOSI

REJA:

1. So'z va bo'g'inlarni tovush tomonidan analiz qilish.
2. Savod o'rgatishda sintez mashqlari.
3. Sintezda noan'anaviy «BU — BIZNIKI» o'yin-mashqini o'tkazish.
4. Diksiya — ravon va burro talaffuz qilish.
5. Diksiya — ifodali nutq asosi.

Tovush va harflarga doir asosiy bilim o'quvchilarning savod o'rgatish davrida olgan amaliy bilimlariga asoslangan holda 1—2-sinflarda berilib, shular yuzasidan malaka va ko'nikmalar hosil qilinadi. Ular so'z va bo'g'inlarni tovush tomonidan analiz-sintez qilish, tovushlarning artikulatsiyasini (hosil bo'lish o'rnini) o'rganadilar hamda diksiya (burrolik)ni mashq qilishadi. Tovush ustida ishslash harf ustida ishslash bilan, ayniqsa, kesma harflar yordamida sintez o'tkazish bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

So'z va bo'g'inni tovush tomonidan analiz va sintez qilish usul-larini K. Qosimova va Q. Abdullayeva o'zining metodik qo'llanmalarda aniq bayon qilishgan. Boshlang'ich ta'lim murabbiylari an'anaviy darslarda bu usullardan samarali foydalanishmoqda. Shu manbalarga suyangan holda so'z va bo'g'indan tovushlarni ajratishda, ya'ni tahlil qilishda quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

1. O'quvchilarni unlilar bilan tanishtirish uchun ikki bo'g'inli so'zning birinchi bo'g'inini tashkil etgan unli tovush ajratiladi: *o-ta, i-liq, a-nor, o'-tin, e-lak* kabi.
2. Undosh tovushlarni ajratishda so'z yoki bo'g'inning oxirida keladigan undosh ajratiladi.

«Alifbe» ning 18—20-betlarida cho'zib aytish mumkin bo'lgan tovushlar berilgan. Masalan, «L» undoshini ajratib olishda so'z oxiridagi «l» tovushi cho'zib «oll» tarzida, ikki bo'g'inli so'zning birinchi bo'g'inida kelsa, «Uss-mon» tarzida talaffuz etiladi.

3. Portlovchi undoshlarning o'zini sof holda unli aralashtirmasdan aytish qiyin. «T» bilan «D»ni, «R» bilan «Y»ni 1-sinf o'quvchilari almashtirib talaffuz etadilar. Shuning uchun o'sha tovushlar qatnashgan so'zlarni taqqoslab, *dil—til, oldi—olti* tarzida o'rgatish lozim. Yoki «i» egalik qo'shimchasini qo'shib, aniq aytishga o'rgatish mumkin: *kitob(p)—kitobi, sa-vod(t)—savodi* kabi.

4. So‘zdagi tovushlarni tartib bilan aytish, sonini aniqlash va bo‘g‘inga ajratish: *bilim—bi-lim* — *b -i -l -i -m*. Beshta tovush, ikkita unli, uchta undosh, ikki bo‘g‘in...

Savod o‘rgatishda analiz sintezdan avval o‘tkazilsa-da, ular bir-birlariga bog‘liq bo‘lib, analiz o‘qish malakasini egallahsga zamin yaratса, sintez uni shakllantirishga yordam beradi. Sintezda ham turli usullar mayjud. Bularдан:

1. O‘rganilgan unli yoki undosh tovush ishtirokida bo‘g‘in jadvali tuzish: *ba, bo, bi; la, lo, li; na, no, ni* kabi.

2. O‘quvchilar ishtirokida unli yoki bir undosh almashganda ma’nosи o‘zgaradigan so‘zlarni topish: *ona—ana, qor—bor, bildi—tildi* kabi.

3. So‘z o‘rtasida bir tovush orttirish bilan yangi so‘z hosil qilish: *kurak — kurmak, zirak — ziyrak, to‘la — to‘pla* kabi.

4. So‘z boshiga yo oxiriga bir tovush qo‘shish bilan yangi ma’noli so‘z yasash: *ola—lola, o‘ra—so‘ra, sava—savat, olti—oltin, ela—elak* kabi.

5. So‘z tarkibidagi tovush yoki bo‘g‘inni tushirib qoldirib yangi ma’noli so‘z yasash: *anor—nor, gulzor—gul, tilak—tila* kabi.

6. Qo‘sh undoshlardan birini tushirib qoldirish asosida ma’nosи o‘zgargan so‘z yaratish: *qattiq—qatiq, cho‘qqi—cho‘qi, kurra—kura* kabi.

7. So‘z tarkibida ketma-ket kelgan undoshlardan birini qo‘llamay yangi ma’noli so‘z hosil qilish: *inson—inon, erkin—ekin, osmon—oson* kabi va boshqalar.

Sintez ishlarining bu usullari tovush ustida ishlashni harf ustida ishslash bilan birligida namoyon qiladi. Bu usul qiziqarli bo‘lib, o‘quvchida motivatsiyani (undash, o‘qishga bo‘lgan qiziqish, nimagadir ehtiyoj hosil qilish) uyg‘otadi. Natijada, yangi pedagogik texnologiyaga xos bo‘lgan o‘yin-mashqlar o‘tkazishga imkon tug‘iladi. Shu o‘rinda, «BU — BIZNIKI» o‘yin-mashqini (Sh. Yusupovning «O‘qituvchi kitobi»da tavsiya etilgan pedagogik o‘yin) tashkil etishga e’tiborni tortaylik.

Dastlab, o‘quvchilarning darsdagи ruhiy erkinligiga sharoit yaratiladi. Ularga bajariladigan mustaqil ishning mazmun-mohiyati tushuntiriladi. Keyin o‘qituvchi sinfnı uch guruhga bo‘ladi. 1-guruh—«TOPQIRLAR» (analiz usulidagi «t» eshitilsa ham «d» yoziладиган, «p» eshitilsa ham «b» yozиладиган со‘злар), 2-guruh—«SEZGIRLAR» (bir unli yoki bir undosh almashganda ma’nosи o‘zgaradigan, so‘z o‘rtasida bir tovush ortib yangi ma’no hosil qilадиган со‘злар), 3-guruh—«ZUKKOLAR» (qo‘sh undoshlardan

birini tushirib yoki so‘z tarkibida ketma-ket kelgan undoshlardan birini qo‘llamay yangi ma’no bildiradigan so‘zlar).

Guruhlarning e’tibori qo‘sishmcha doskaga qaratiladi. Unda quyidagi so‘zlar aralash tarzda yozilgan bo‘ladi: *aslo, hisob, taxta, ikki, qanot, zavod, erkin, inon, savod, sot, zehn, sezgi, bor, zirak, qattiq, oson, tilla, ip, kitob, to‘la, kurak, kel, talab, cho‘qqi, mehr, Asad, did, ona, tarqoq, birov, olib, dard, zarra, tikla, darra, qalqon, oy, sirg‘a*.

1-guruh o‘quvchilari — «TOPQIRLAR» quyidagi so‘zlarni, ya’ni «t» eshitilsa ham «d» yoziladigan, «p» eshitilsa ham «b» yoziladigan so‘zlarni ajratib, «o‘ziniki» qiladilar va yozadilar: *hisob, zavod, kitob, savod, talab, olib, dard, did, Asad*.

«TOPQIRLAR» berilgan so‘zlardan *qanot, sot, ip, qalqon, kel, oy* so‘zlarini yozmaydilar, chunki bu so‘zlarning aytilishi va yozilishida farq yo‘q.

2-guruh o‘quvchilari — «SEZGIRLAR» doskadagi so‘zlardan o‘z shartlariga muvofiq keladigan so‘zlarni terib yozadilar. Ma’nosi o‘zgargan so‘zni qavs ichida ko‘rsatadilar: *taxta (paxta, to‘xta), ikki (ukki), inon (inson), zirak (ziyrak), oson (osmon), to‘la (to‘pla), kurak (kurtak), birov (qirov), zarra (barra), mehr (muhr)*.

3-guruh o‘quvchilari — «ZUKKOLAR» berilgan so‘zlardan qo‘sh undoshlar yoki ketma-ket kelgan undoshlardan birini qo‘llamay yangi ma’no anglatadigan so‘zlarni ajratib, qavs ichiga isbot bo‘luchchi so‘zni yozadilar: *aslo (aso), erkin (ekin), qattiq (qatiq), tilla (tila), cho‘qqi (cho‘qi), darra (dara), sirg‘a (sira)*.

O‘yin-mashq o‘tkazilgandan keyin mavzuga doir ayrim qoidalar eslanadi, o‘yinda yo‘l qo‘yilgan xatolar aniqlanadi va izohlanadi. Faol ishtirokchilar rag‘batlantiriladi.

Analiz-sintez ishlari tizimida tovushning o‘zini tahlil qilish o‘quvchilar nutqini tartibga keltiradi, talaffuz me’yorini aniqlash-tiradi. Bu me’yor diksiya orqali amalga oshadi. Diksiya ustida ishslash o‘quvchilar nutqining tushunarli, sof, tiniq va jarangdor bo‘lishiga erishish demakdir. Talaffuz yorqinligi uchun o‘tkaziladigan mashqlarni diksion mashqlar deyiladi.

1. Unli tovushlar mashqi

a) unlilarni aniq-tiniq talaffuz qilish:

A, O, I, U, E, O‘;

b) har bir unlini urg‘u bilan navbatma-navbat aytish:

I-E/-A-O-O‘-U-I;

I-E-A/-O-O‘-U-I;

I-E-A-O/-O‘-U-I;

**SAVOD O'RGATISH JARAYONI.
SAVOD O'RGATISHGACHA BO'LGAN DAVR
VA UNING VAZIFALARI**

REJA:

1. Savod o'rgatish jarayoni haqida.
2. Savod o'rgatishga tayyorgarlik davri.
3. Tayyorlov davrida bolalar faoliyatiga murabbiylilik qilish.
4. Alifbegacha bo'lgan davrning asosiy vazifalari.

Davlat ta'lif standartining ona tili o'qitish dasturida savod o'rgatish jarayoni oddiy sinflarda 21-martgacha, iqtidorli sinflarda yanvar oyigacha davom etadi, deb ko'rsatilgan. Ammo oddiy va iqtidorli sinflarda o'quvchilarga beriladigan ta'lif, tarbiya va talab bir xil bo'lib, ular muddat jihatidangina farq qiladi. Oddiy va iqtidorli sinflarning har birida alohida o'quv rejasi tuziladi. Qizg'in, nozik hamda jiddiy bu jarayonni mohir metodistlar uch davrga bo'lishadi:

1. Alifbegacha bo'lgan davr (bir hafta).
2. Alifbe davri (uch oy-u bir haftadan olti oygacha).
3. Alifbedan so'nggi davr (ikki hafta).

Alifbegacha bo'lgan davr tavsifiga o'tishdan avval boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi 6—7 yoshli bolalarni fiziologik va ruhiy holatini pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan mo'tadil o'rgangan bo'lishi kerakligiga e'tibor beraylik. Endigma mактабга qadam qo'ygan bola uzoq davom etadigan mashg'ulotlarga ko'nikishi qiyin. Tez toliqadi. Chunki u kechagina o'yin bolasi edi. O'qituvchi buni hisobga olib, mashg'ulotlar shakli va usullarini o'zgartirib turishi va ayniqsa, tayyorgarlik davridagi mashg'ulotlarni ixcham va jozibali tarzda tashkil etishi lozim. Chunki bolalar birdaniga o'yindan voz kechib, aqliy faoliyatga kirishib ketolmaydi. Shunday ekan, o'qituvchi alifbegacha bo'lgan davrning ish ko'lamenti puxta rejalashtirib olishi, uning vazifalarini belgilab qo'ygan bo'lishi zarur. Zotan, o'qituvchi faoliyatining muhim bosqichi, bu—didaktik jarayon (yoki o'quv-bilish tuzilmasi)ni rejalash (loyihalash) hisoblanadi. Aynan shu didaktik jarayon yangi pedagogik texnologiyaning asosini tashkil qiladi.

Shu o'rinda fikrimizga aniqlik kiritmoq ma'qul, ya'ni didaktik jarayon mohiyati nima va uni loyihalashga qanday pedagogik talablar qo'yiladi? Bu savolga qisqacha javob berish uchun «Yangi pedagogik texnologiyalar» kitobi muallifi Nurali Saidahmedov bilan uning

ustozi akademik V.P. Bespalko o'rtasida bo'lib o'tgan bir munozara matniga murojaat qilsak:

«N.S.: — Vladimir Pavlovich, siz nima uchun o'qitish jarayonini didaktik jarayon deb uqtirasiz, ular o'rtasidagi farq nimadan iborat?

V. P. : — O'qitish jarayoni «klassik qoida»ga bo'ysunadi. Ya'ni o'qituvchi sinf (auditoriya)ga kirib, dars mavzusini e'lon qiladi-yu, darhol uning mazmunini bayon qilishga kirishib ketadi. Didaktik jarayon esa har bir darsni boshlashdan oldin o'quvchilar diqqatini jalb qila oladigan faoliyat bosqichi — motivatsiyani vu-judga keltirishdan boshlanadi. Ana shu motivatsiya bosqichi o'qishbilish faoliyatining kaliti hisoblanadi».

Ushbu ta'rifdan keyin olim yana qo'shib qo'yadi: «Afsuski, bu kalitdan hanuzgacha o'qituvchilar ta'limning sehrli sandig'ini ochish uchun foydalanishmaydi».

Tadqiqotchi yuqorida fikrlarni ixchamlashtirib, o'qitish jarayoni tuzilmasini ramziy tarzda quyidagi shartli formula bilan ifodalaydi:

$$O'J = O'F + O'qF,$$

bu yerda, $O'J$ — o'quv jarayoni; $O'F$ — o'quvchining o'quv faoliyati; $O'qF$ — o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyatini bildiradi.

O'qituvchi har bir dars yoki mashg'ulot maqsadi va mazmuniga mos keladigan motivatsiya me'yorini aniqlashi lozim. Savod o'rgatishning alifbegacha bo'lган davrida maktabga endi qadam qo'yayotgan bolaning hafsalasini so'ndirmaslik uchun o'qituvchi faoliyatida didaktik jarayonning nechog'liq muhimligini tushunish izoh talab qilmas haqiqatdir. Maktab o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq bo'lган ma'naviyat maskani bo'lib, bolaning ichki dunyosini nurlantirmog'i, axloqiy barkamolligini shakllantirmog'i shartdir.

Ta'lim islohoti «Uchinchi mingyllikning bolasi» tayanch dasturini e'lon qilarkan, maktabga tayyorlov davri (6 yoshdan 7 yoshgacha)da bolalarni ma'nан rivojlantirishning quyidagi ta'lim yo'nalishiga e'tiborni qaratdi:

- bolalarda nafosat va orastalikni tarbiyalash;
- milliy odob-axloq me'yorlarini singdirish;
- jamoat joylarida, uyda tartib va ozodalikni saqlash;
- o'zini kamtarona tutish;
- bolalarni «Keling, marhamat!», «Mumkinmi?», «Kechirasiz», «Oq yo'l», «Osh bo'lsin», «Labbay», «Xo'p bo'ladi», «Xush

kelibsiz», «Rahmat», «Marhamat», «Xayrli tun» kabi so‘zлarni o‘z о‘rnida qo‘llashga o‘rgatish;

— bolalarни go‘zallikni farqlashga, orasta va chiroyli kiyinishga odatlantirish;

— bolalarning badiiy didini o‘stirish;

— bolalarни o‘zi bilgan hikoya, ertak, voqeа-hodisalarni so‘zlab berishga, mustaqil ravishda hikoya tuzishga o‘rgatish;

— bolalarda o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini, mumtoz adabiyot vakillari va hozirgi zamon ijodkorlari haqida dastlabki tushunchalarни uyg‘otib, obrazli ifodani his etishga odatlantirish;

— bolalarning adabiy nutqini o‘stirish.

Biz alifbegacha bo‘lgan davrni bog‘cha, oila va maktab musharakligi asosida tahlil etishni nazarda tutdik. Bundan tashqari, alifbegacha bo‘lgan davrning tashkiliy-tarbiyaviy vazifalari ham mavjud. Bular:

1. O‘qituvchining bola xarakterini o‘rganishi.
2. Bolalarни maktab va uning ichki intizomi bilan tanishtirish.
3. O‘quv predmeti va o‘quv qurollaridan foydalanish tartibini tushuntirish.
4. Qo‘lni yozuvga tayyorlovchi mashqlar o‘tkazish.
5. Nutq o‘stirish — so‘z talaffuzi, gap tuzish va hikoya qilishni kuzatish.
6. Sodda matnlarni analiz va sintez qilish.
7. Bolalarning fonetik hushyorligini sinash (suhbat asosida).

Alifbegacha bo‘lgan tayyorlov davrida bolalar o‘quv ishlari bilan mashg‘ul bo‘ladigan yangi faoliyat turiga o‘tishadi. Barqaror diqqat, kuchli iroda talab qilinadigan bu aqliy mehnat bolalarning yangi sharoitga ko‘nikishida ancha qiyinchilik tug‘diradi. Uni yengillash-tirish uchun darsni aqliy mehnat bilan jismoniy mashqlar galmagal o‘tkaziladigan va «o‘n daqiqa» ish turini almashtirib turiladigan yo‘sinda tashkil etish zarur. Unda dars 35 daqiqa davom etadi.

Mashg‘ulot yengil muammoli, bahsli, anjuman tarzida o‘tkazilsa, murabbiyning pedagogik mahoratiga bog‘liq holda o‘quv-chilarda hosil bo‘ladigan motivlar kuchayadi. Ular topshiriqni to‘g‘ri bajarishga o‘rganadi, o‘quvchilar mashg‘ulot qoidasiga bo‘ysunib, o‘rtoqlari bilan savol-javob qilish odobiga rioya etadi va bir-birlarining xatolarini aniqlashga odatlanaadi. O‘quvchilarda ta’limga bo‘lgan mehr va jamoatchilikka nisbatan hurmat uyg‘o-nadi, go‘zal axloqiy fazilatlar tarkib topa boradi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Savod o'rgatish jarayonining muddati ta'lim standartida qancha deb ko'rsatilgan?
2. Savod o'rgatish jarayoni necha davrga bo'linadi?
3. Didaktik jarayon haqidagi nimalarni bilasiz?
4. Motivatsiya nima?
5. Tayyorlov davrining ta'lim yo'nalishiga nimalar kiradi?
6. «Tayyorlov davrida bolalar faoliyatiga murabbiylilik qilish» to'g'risida ma'lumot to'plang va konseptlashtiring.
7. Motivatsiya bosqich haqidagi metodik bilimni mustaqil ravishda o'rganining va munozara mashg'uloti tashkil qiling.

SAVOD O'RGATISH DAVRI BOSQICHLARI

R E J A:

1. Alifbe davri — savod o'rgatishning eng mas'uliyatli jarayoni.
2. Alifbe davrining bosqichlarga bo'linishi:
 - 1-bosqichda unlilar va aytilishi oson bo'lgan undoshlarni o'rgatish;
 - harflar yozuvini o'rgatish;
 - bo'g'in va so'z hosil qilib o'qish va ularning yozuvdagi ifodasini o'zlashtirish;
 - ongli va ifodali o'qish malakasini shakllantirish;
 - 2-bosqichda tovush va harflarning analiz-sintezini takomillashtirish, artikulatsiyasi qiyin bo'lgan tovushlarni o'rganish;
 - 3-bosqich mohiyatini belgilash.
3. Alifbe davrining so'nggi bosqichida o'quvchilar egallashi shart bo'lgan malaka va ko'nikmalar.

Mashhur pedagoglardan biri Y.A. Komenskiy shunday degan edi: «Faylasuflar insonni mikrokosm (kichik olam) deyishadi... Hamma narsani bilish inson tabiatiga juda xosdir. Agar yetti yoshli boladan falsafaga oid hamma narsalar oqilona so'ralsa, bola hamma savollarga javob berishi mumkin, chunki aql-idrok barcha narsani qamrab olishga qodir».

Ana shu yetti yoshli bola — ja'ji mikrokosm barcha donoliklarning kaliti bo'lgan bilimni egallashga sa'y-harakat qilsa, birinchi qadamni savod o'rganishdan boshlashi lozim. Unda birgina o'qish va yozishni o'zlashtirishning o'zi o'tkir aql-idrok bilan hal qili-nadigan kashfiyotdir. Bu kashfiyot esa «Alifbe»ni o'qitish davrida

hal etiladi. Boshlang‘ich ta’limda «Alifbe»ni o‘qitish davri eng uzoq davom etadigan mas’uliyatli jarayon bo‘lib, unda tirishqoq o‘quvchilar o‘z ona tilisidagi tovushlarni bilib oladilar, barcha harflarni tanib, o‘qish va yozishga o‘rganadilar.

Bu davrni shartli ravishda uch bosqichga bo‘lish mumkin:

1-bosqichda *a, o, i, u, e, o*‘kabi unli tovushlar, *n, m, t, l, b, k, d, g* kabi undosh tovushlarning o‘qilishi va yozilishi o‘rgatiladi. Bosqichning asosiy vazifasi quyidagicha belgilanadi:

- tovushlarning bosma va yozma shakllarini darslik talabi asosida o‘rgatish;
- so‘z va bo‘g‘inni tovush tomonidan analiz qilish (*ana, a-na, a-n-a*);
- rangli rasmlarda aks etgan predmet atamasi bo‘lgan so‘zni bo‘g‘inlab, kitobda berilgan kubikchalarga joylash;
- bo‘g‘inlab o‘qish asosini yaratish (*ma, mi, mo; ma-na, O-mi-na*);
- o‘rganilgan tovushlarning grafik ifodasi bo‘lgan bosh va kichik harflarni yozish va so‘z yasash (*N,n; O, o; Non*);
- ayrim bo‘g‘indan bir necha so‘z hosil qilish (*o-na, o-la; lo-la, bo-la, to-la, xo-la, no-la*);
- ikki-uch gapdan tuzilgan dialogni o‘qish va yozish:
 - Shukriya, mana, kitob.
 - Yaxshi, lekin bu kitob kimniki, Akmal?
 - Kitob — Muhammad Amminni.
- harflar tartibini o‘zgartirish bilan so‘zda yangi ma’no yaratishga o‘rganish (*o b o d, o s m o n*);
- *I 4 3 2, 2 1 3 4 5;*
- matnlardagi katak o‘rniga so‘z topib qo‘yish, o‘qish va qayta o‘z so‘zlar bilan aytish («Odobli bo‘l», «Bo‘ri bilan turna» kabi matnlar).

Bu bosqichda bolalarning og‘zaki nutqini o‘stirishga, ifodalilikka, so‘zlardagi ma’noni yo‘qotmaslikka, urg‘uli bo‘g‘inlarga e’tibor berib, diksiyani rivojlantirishga diqqati jalb etiladi. O‘rganilgan so‘zlar ko‘lami oz bo‘lgani uchun o‘quvchilar «Alifbe» sahifalaridagi so‘z va matnlarni yodlab olishga erishadilar. Bundan tashqari, bolalarning mustaqil fikrlash imkoniyatini, so‘zlardan to‘g‘ri foydalanim, adabiy til normalariga amal qilgan holda gap tuzish malakalarini shakllantirishga mo‘ljallangan mashqlar ham o‘tkaziladi. Masalan, «E» harfi o‘rganilganda, ertak matni shunday boshlanadi:

«Karim ertak aytди:

— Bir tulki bor ekan. Tulki bir kuni...»

Uzilgan matn ostiga ertakning davomini aks ettiruvchi ikki bo‘lak rangli rasm chizilgan bo‘lib, o‘quvchilar shu rasmlarga qarab, ertak davomini o‘z fantaziyalari asosida yaratadilar.

Alifbe davrining 1-bosqichida yana quyidagilarga e’tibor berish muhim:

- o‘qish paytida qatordan adashmaslik, so‘z tartibini yo‘qotmaslik;
- o‘qishda yo‘l qo‘ylgan xatoni o‘rtoqlarcha to‘g‘rilashni talab etish;
- ongli o‘qishni aniqlash uchun savol-javob o‘tkazish;
- kerakli o‘rinda muammoli vaziyat yaratish (so‘roq asosida);
- orfoepik o‘qish malakasini hosil qilish.

Alifbe davrining 2-bosqichida yuqorida qayd etilgan vazifalar o‘z o‘rnida qolsa-da, ish sifati o‘zgaradi. Tovush va harflarning analiz va sintezida avvalgi bosqichdagiga nisbatan artikulatsiyasi qiyin bo‘lgan (*q, x, h*) tovushlar hamda *ng, sh, ch* kabi harf birikmalari o‘rganiladi. Shuning uchun tovushlarning nutq organlari yordamida hosil bo‘lish o‘rnini aniqlash ishlari biroz qiyinlashadi. Xususan, «*ng*» tovushi o‘zbek tilida so‘z boshida kelmasligi, so‘z o‘zagi va qo‘srimcha tarkibida kelganda ajratib bo‘g‘inlash mumkin emasligi aytildi. Masalan, *ko‘n-gil emas ko‘-ngil, o‘zin-giz emas o‘zi-ngiz, sin-gil emas si-ngil* kabi.

Bu bosqichda bog‘lab o‘qish vazifasi murakkablashadi, ketma-ket kelgan undoshli so‘zlar hamda ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga duch kelinadi: *to‘-kin-lik, meh-ri-bon, bod-ring, yo‘l-bars, stol* kabi.

«*Sh*» harf birikmasi o‘rganilganda, «Alifbe» darsligida berilmagan bo‘lsa ham shu tovush tarkibidagi «*s*» va «*h*» harflari «*Is’hoq», «*as’hob*» kabi arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarda ajratilishi va yozuvda harflar o‘rtasiga tutuq belgisi qo‘yilishi aytilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.*

Alifbe davrining 3-bosqichida avvalgi bosqichdagi amallar rivojlantiriladi, shu bilan birga, bir harf bilan ifodalanadigan *jajji, jay-ra, ja-so-rat* kabi so‘zlardagi portlovchi «*j*» tovushi, *ajdar, journal, Pa-rij, ji-ra-fa* kabi so‘zlardagi sirg‘aluvchi «*j*» tovushi hamda tutuq belgisi (‘) o‘rgatiladi. Bundan tashqari, tez aytishlar va «*Bulbul chamanni sevar, odam — Vatanni*», «*Sog‘ tanda — sog‘lom aql*», «*Do’stsiz boshim — tuzsiz oshim*» kabi xalq maqollari yodlatiladi.

3-bosqich oxirida o‘quvchilar quyidagi muhim ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur:

1. Alfavitdagi barcha tovushlarni yakka holatda ham, so‘z ichida ham aniq talaffuz qilish.
 2. So‘z va bo‘g‘indagi tovushlar tartibini o‘z o‘rnida ishlatalish, urg‘uli bo‘g‘inni ko‘rsata olish, so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish.
 3. Jarangli va jarangsiz undoshlarni farqlash hamda kesma harflardan so‘z yasash.
 4. Bo‘g‘inlab o‘qishdan sidirg‘a o‘qish ko‘nikmasiga erishish.
 5. O‘qiganda to‘g‘ri talaffuz qoidasiga amal qilish.
 6. Matnni o‘qiganda ohangga e’tibor berish va mantiqiy urg‘uni o‘z o‘rniga qo‘yishga erishish.
 7. Matn mazmunini qayta hikoya qilish, erkin fikrlash hamda uni gap bilan ifoda eta olish.
- Savod o‘rgatish davridagi bu bosqichlar o‘quvchilarining bilim olish uchun intilishidagi asosiy omil hisoblanadi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Nega alifbe davrini savod o‘rgatishning muhim jarayoni deymiz?
2. Alifbe davrining 1-bosqichidagi vazifalar nimalardan iborat?
3. Yozuvga o‘rgatish qay tartibda amalga oshiriladi?
4. 2-bosqichning vazifasini qanday tushunasiz?
5. 3-bosqichda o‘quvchilar egallashi shart bo‘lgan ko‘nikmalarni aytинг.
6. «Alifbe» kitobidagi tutuq belgisiga doir mavzuni o‘quvchilarga o‘rgatish usulini mustaqil ishlang.
7. Harf birikmalarini o‘rgatishga doir ma’lumot to‘plang va konseptlashtiring.

Amaliy ish. O‘quvchilarining savod o‘rganishga tayyoragarlik darajasini aniqlash

Bu dars tayanch maktablarning 1-sinfida o‘tkazilishi mumkin. Ammo bu sinflar «Alifbe»ni o‘rganishga kirishgan bo‘lib, ancha muncha tovush, harflarni o‘zlashtiradi. Shuni hisobga olib, bog‘chalarning maktabga tayyorlov guruhlarida darsning amaliy ishi o‘tkazilishi ma‘qulroqdir.

1. Bolalarning nutqi o‘rganiladi.
2. Bolalarning harflarni tanishi, bo‘g‘in hosil qila olishi kuzatiladi.
3. Nutqiy ravonligi, tovushlarni aniq talaffuz etilishiga e’tibor qaratiladi.
4. Savol-javob o‘tkazilib, gap tuzish qobiliyati sinaladi.
5. She’r ayttirilib yoki hikoya qildirilib fikrlashi, nutqining ifodaliligi tekshiriladi.

SAVOD O'RGATISHDAN KEYINGI DAVRNING VAZIFASI

REJA:

1. Alifbedan keyingi davrning asosiy vazifasi.
2. Bu davrda o'qituvchi belgilagan ish turlari.
3. O'quvchilarning nutqi va fikriy qobiliyatini o'stirish.
4. Yozish malakasini mustahkamlash mashqlari.
5. Alifbedan keyingi davrda o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishga bo'lgan talab.

Alifbedan keyingi davrning asosiy vazifasi o'quvchilarning o'quv va yozuv malakalarini takomillashtirish hamda «O'qish kitobi» va «O'zbek tili» darsliklariga o'tish uchun tayyorlab borishdan iboratdir. Aniqrog'i, bolalar ravon, ongli ravishda, matn gaplaridagi tinish belgilariiga rioya qilgan holda ifodali, harflamay sidirg'a o'qishlariga e'tibor kuchaytiriladi. Avvalgilariga nisbatan kattaroq hajmdagi she'riy, nasriy matnlarni o'qitish va mazmunini tahlil qilish, yod olish, rollarga bo'lib o'qish, she'riy matnni nasriy matnga aylantrish singari suhbat usullari keng qo'llaniladi. To'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalari rivojlantiriladi. Bu davrda tinch o'qishga alohida e'tibor beriladi. Chunki tinch o'qishda o'quvchi tez uqib, yaxshi tushunadi.

Bundan tashqari, bolalarning nutq va mustaqil fikrlash iqtidorini o'stirish uchun «Alifbe»ning so'nggi qismida berilgan she'riy va nasriy matnlar o'rjaniladi. O'qituvchi Usmon Qo'chqorning «Alifboni o'rgandim» she'ri ustida ifodali o'qishni tashkil etadi va yodlashga beradi. Keyin «Alifbe bayrami» matniga doir «Siz Alifbe bayramiga qanday tayyorgarlik ko'ryapsiz?» degan savolga bir necha boladan javob oladi. «To'g'ri yo'l» ertagi o'rjanilgandan so'ng tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi savollar o'rta ga tashlanadi:

1. Otaning boyligini o'g'illar qanday sarf qilishadi?
2. O'g'illarning qilgan ishini nima uchun ota to'g'ri deb bildi?

Shunda bolalar ota taqsimlab bergan boylikka uch o'g'il binalar qurdirganini, bog' barpo qilganini, kambag'allarga tarqatganini aytishadi.

O'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikmasini tahlil qilish jarayonida o'qituvchi bog'lanishli nutqning quyidagi jihatlariga e'tibor beradi:

- matn mazmuniga va ustoz savoliga amal qilgan holda ijodiy fikrlash;
- matnni qismlarga bo‘lish va sarlavha topish («O‘rgimchak va ipak qurti» masali, «Bo‘ri bilan echki» ertagi bo‘yicha);
- matn mazmuni asosida tuzilgan test savollarini aniqlash;
- topishmoqli va manzarali she’rlar (E. Vohidovning «Qara-g‘ay», «Terak», «O‘rik», D. Matjonning «Anor», «Qovun», «Yong‘oq» she’rlari)ga tuzilgan muammoli vaziyat savollariga to‘g‘ri javob berish.

Bu darsga xos bo‘lgan xususiyatlardan yana biri yozuv mala-kasini mustahkamlash bo‘lib, quyidagi ishlar nazorat qilinadi:

- harflarning o‘zaro birikish unsurlarini o‘zgartirib borish;
- *a, d, e, h, l, k* singari ostki qismidan ulanadigan harflar yozuvini o‘rganish;
- *b, f, g, r, q, g'* kabi o‘rta qismidan qo‘shiladigan harflar yozuvini mashq qildirish;
- *o, v, o'* kabi ustki qismidan ulanadigan harflarni so‘z tarkibida qo‘llanishiga e’tibor qaratish;
- tutuq belgisining yozuvdagi o‘rni va vazifasini tushuntirish;
- harflarni o‘ng tomonga 65—70° qiyalikda yozilishini mun-tazam kuzatish;
- harflar tekisligi va so‘zlar orasidagi masofaning bir xillagini ta’minalashga o‘rgatish;
- kichik hajmdagi gapni eshittirib yoddan yozdirish;
- bosma matnni yozmaga o‘girib ko‘chirish;
- o‘quvchilarining bilim va malakalarini aniqlash uchun yozuv qoidalariga amal qilgan holda tekshiruv diktanti o‘tkazish.

Alifbe davrining oxiridagi ishlardan yana biri o‘quvchilarining og‘zaki nutqini o‘stirish bo‘lib, Davlat ta’lim standarti o‘quv dasturida bu haqda alohida ta’kidlangan. Unda og‘zaki nutq mada-niyatini shakllantirish uchun o‘quvchi o‘zining va boshqalarning nutqiga e’tiborli bo‘lishi, eshitish qobiliyati va nutq a’zolarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar muntazam o‘tkazib turilishi tavsiya etilgan. Shu bilan birga, ona tili lug‘atidagi so‘zlarni grammatik jihatdan shakllangan holda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini hosil qilish, nutqda adabiy normasi buzilgan so‘zlardan foydalanishga yo‘l qo‘ymaslik, fikrni qiyoslash, misollar bilan boyitish talabi ilgari surilgan. Bu talablar savod o‘rgatishning asl maqsadidir.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Alifbedan keyingi davrning asosiy vazifasi nimadan iborat?
2. Bu davrda o'qituvchi qo'llaydigan ish turlari qaysilar?
3. O'quvchilarning nutq va fikriy qobiliyatini o'stirishga qanday erishiladi?
4. Yozuv malakasini mustahkamlash mashqlariga nimalar kiradi?
5. Alifbedan keyingi davrda o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish uchun Davlat ta'lim standarti o'quv dasturida qayd etilgan talablarni o'rganining va konseptlashtiring.

HOZIRGI YOZUV. YOZUVGA O'RGTISH VA UNDAGI ORFOGRAFIK ELEMENTLAR

REJA:

1. O'zbek tilining hozirgi yozuvi haqida.
2. Yozuvga o'rgatishning vazifalari.
3. Grafik malakani shakllantirish bosqichlari.
4. Yozuvga o'rgatishni tashkil etishdagi sharoit.
5. Yozuvga o'rgatishda orfografik yo'nalishlar.
6. Yozuvning ma'rifiy ahamiyati.

Yozuv hayot tarzi va aql kashfiyotidir. U qadimiyyidir. Atoqli yozuvchi va olim Abdurauf Fitrat aytganidek, «Inson boshqa vositalar bilan onglata olmag'on fikri va muhokamalarini til ham yozuv bilan keng sur'atda onglatadur».

O'zbekiston mustaqilligi sharofatidan davlat tili sifatida o'zbek tiliga e'tibor kuchayib, ona tilimizning ijtimoiy mavqeyi kengaydi. Uning istiqboliga g'amxo'rlik ko'rsatilib, bir qancha qarorlar qabul qilindi. Uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan yozuvimiz (sug'd, xorazmiy, runik, arab, lotin, kirill yozuvlari) xususida 1993-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinishi Vatanimizning madaniy-ma'rifiy hayotida olamshumul ahamiyat kasb etdi. Yangi alifboga kiritilgan o'zgarishlar asosida «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995-yilning 24-avgust qarorida tasdiqlandi. Shundan buyon yangi yozuv savod o'rgatishda «Alifbe» kitobimizga asos qilib olindi. Mustaqillikning yangi avlodini yangi yozuv bilan Vatan taraqqiyoti yo'lida bilimlarini boyitishga qadam qo'ydi. Ma'lumki, jahondagi xalqlarning 30 foizi bu yozuvdan foydalanadi. Uning o'ziga xosliklarini quyidagicha izohlash mumkin:

— juda ko‘p harflarning shakli sodda ko‘rinishga ega (*i, j, z, l, v* kabi);

— bosh harflar shakli kichik harflar qiyofasiga o‘xshatilgan (*Zz, Vv, Xx, Kk, Ss, Jj* va boshq.);

— bu harflarni bir maromda, qo‘lni uzmasdan bog‘lab yozish ancha qulay;

— o‘zbek kirill yozuvidagi yolashish (*e, yo, yu, ya*) muammosi yo‘q;

— bu yozuvda kirilldagi 35 harf 29 taga qisqartirilgan.

Umumiy o‘rtta ta’limning boshlang‘ich bosqichiga jalb etilgan o‘quvchilar savod o‘rganish jarayonida o‘qish bilan bir paytda lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosini o‘rgana boshlaydilar. Endilikda, o‘quv dasturi talablaridan kelib chiqib, o‘quvchilar yozuv bo‘yicha quyidagi malakalarni egallashlari lozim:

1. Yozuv paytida gigiyenik malakalar (to‘g‘ri o‘tirish, yozuv qurollaridan o‘rinli foydalanish)ni hosil qilish.

2. Ikki chiziqli daftarda husnixat qoidalariga rioya qilgan holda yozish malakasini egallah.

3. Yordamchi ish daftari yoki «Alifbe»dagi yozuv saboqlari asosida alifbodagi barcha katta va kichik harflarni yozish.

4. So‘z va kichik gaplarni ritmik yozish.

5. Og‘zaki nutqdan olingan gapni yozma ifodalash. Bosma matnni yozma matnga aylantirish.

6. O‘quv yili davomida o‘rganilib, imlosi qiyin bo‘lgan so‘zlarning aytilishi va yozilishini bilib olish: *alifbo, vazifa, Vatan, davlat, do’st, yomg‘ir, lavlagi, minnatdor, piyola, sabzi, Samarqand, sayr, sinf, xursand, qo‘ng‘iroq, hikoya, soydali, sa’va, sirk, Toshkent, fasl, shahar* kabilari (so‘zlar Davlat ta’lim standartining 1-sinflar uchun o‘quv dasturidan olindi).

Analitik-sintetik tovush usulidagi ko‘rsatmaga muvofiq o‘qish va yozuv birligiga amal qilinadi, ya’ni o‘quvchilar o‘qish darsida harf tanib matn o‘qishsa, yozuv mashg‘ulotida o‘sha harfning bosh va kichik shaklini hamda o‘sha harf ishtirot etgan so‘zni yozishadi. Bunda «osondan qiyingga» deyiladigan genetik tartib buziladi, chunki «Alifbe»ning o‘zi ham oz harf o‘rganib, ko‘proq so‘z hosil qilish qoidasi asosida alfavitga bo‘ysunmay ish tutadi, ammo bu usul o‘rgatishni osonlashtiradi.

Yozuvga o‘rgatishni, hurmatli olima K. Qosimova, birinchi navbatda, grafik malaka hosil qilishdir, deb tushuntiradi. Qo‘l harakat malakasi grafik malakaga sayqal beradi, o‘rganilgan tovushni

«harfga tarjima qiladi, bu esa yozuvga ongli faoliyat tusini beradi». Yozishdan birdan bir maqsad fikrni yozma ifodalash bo‘lib, o‘quvchi uni qancha erta tushunsa, unda yozma nutq malakasi shuncha erta shakllanadi. Biroq bu jarayon ancha qiyin kechadi. Bolada o‘z fikrini yozma shaklda ifodalash malakasi biroz bar-qarorlashsa, bu malaka nutqqa va fikrni ifodalash jarayoniga ijobiy ta’sir qiladi. Grafik malakani ushbu tartibda ko‘rish mumkin:

1. Uzuq chiziqlardan shakl hosil qilish, to‘g‘ri tayoqchalar chizish, yozuv qurolini to‘g‘ri tutish, xatning oraliq masofasini to‘g‘ri chamalash.
2. Teng o‘lchovga amal qilib, harf elementlarini yozish.
3. Bosh va kichik harflarni alohida-alohida yozish.
4. Bo‘g‘inlab yozish, harflarni tartib bilan qo‘llash malakasiga ega bo‘lish uchun so‘zlar yozish.

Grafik malaka to‘liq shakllansagina, o‘quvchilar harflarni elementlarga ajratmay, bir maromda so‘zlar tizimini qatorga to‘g‘ri joylashtirish ko‘nikmasiga ega bo‘lishadi.

Maktab sharoitida asosiy yozuv quroli sifatida binafsharang sharikli ruchka va yumshoq qora qalamdan foydalilanadi. Doskaga esa bo‘r bilan yoziladi. Yozuvga o‘rgatish uchun ikki chiziqli daftar tutilib, quyidagi ko‘rsatmaga amal qilish darkor:

- sahifada hoshiya qoldirish;
- varaq chizig‘iga rioya qilib yozish;
- so‘z tarkibidagi harflarni bir xil hajmda yozish;
- xat boshidan (abzasdan) yozganda ichkariroqdan boshlashni unutmaslik.

Yozuv daftari ikkita bo‘ladi: biri o‘sha kundagi mashg‘ulot uchun, ikkinchisi o‘qituvchining tekshirishi uchun. Daftar betiga o‘quv yilining birinchi yarimida «Yozuv daftari», ikkinchi yarimida «Ona tili daftari» deb yozdiriladi. Daftar sahifalarini iflos qilmaslik uchun yozuv mashqlari o‘tkazilayotganda kaft ostiga bosma qog‘oz yoki biror toza qog‘oz to‘salgani ma’quldir.

O‘quvchilar husnixati uchun daftar stol yoki parta ustiga 25° yonlanma qilib qo‘yiladi.

To‘g‘ri, xatosiz yozishda orfografiya (yunoncha to‘g‘ri yoza-man)ga amal qilishning elementar xususiyatlari amaliy ravishda o‘quvchilarga singdirib boriladi. Savod o‘rgatish davrida bolalarga grafik malakani o‘rgatish bilan bir paytda imloga oid malakani ham shakllantirib borish zarurdir.

Savod o‘rgatish davrida o‘quvchilar quyidagi malakalarni amaliy tarzda o‘zlashtiradilar:

- talaffuzi va yozilishida farq qilmaydigan so‘zlarda tovush bilan harf mosligini bilish;
- so‘zda harflar birikuvini, so‘z esa alohida yozilishini anglash;
- satrga sig‘may qolgan so‘zni bo‘g‘in asosida keyingi qatorga ko‘chirishni va bir unli bo‘g‘in hosil qilsa-da, satrdan satrga ko‘chirib bo‘lmasligini tushunish;
- atoqli otlar hamisha bosh harf bilan yozilishini bilish.

Savod o‘rgatish davrida o‘quvchilar o‘z-o‘zini tekshirish yuzasidan boshlang‘ich malakaga ega bo‘la boshlaydilar, ijodiy yozuvga intilish iqtidori kuchayib, yozganlarini namunasi berilgan matnga solishtiradigan bo‘lishadi. Asta-sekin ularda yuqori savodxonlik garovi bo‘lgan orfografik ziyraklik paydo bo‘ladi. Bu esa ularni yuqori sinflarda imlo qoidalarini puxta o‘zlashtirishga tayyorlaydi.

Yozuvga o‘rgatish bosqichlarida orfografik savodxonlikka erishish — ma’rifiy ahamiyat kasb etuvchi kamolot belgisidir.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Lotin yozushi asosidagi yangi o‘zbek alifbosini joriy etilishini qanday izohlaysiz?
2. Yangi o‘zbek alifbosida qanday qulayliklar mavjud?
3. Yozuvga o‘rgatishning vazifalari nimalardan iborat?
4. Grafik malakani shakllantirish bosqichlariga nimalar kiradi?
5. Maktab sharoitida yozuvga o‘rgatish uchun nimalarga e’tibor beriladi?
6. Yozuvga o‘rgatishning orfografik yo‘nalishlari va yozuvning ma’rifiy ahamiyati haqida ma’lumot to‘plab, uni konseptlashting.
7. «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini»ni kichik muktab yoshidagi o‘quvchilarga o‘rgatish usulini mustaqil ishlang va muhokama qiling.

Laboratoriya mashg‘uloti. O‘qish va va yozuv parallel tarzda olib boriladigan darsni kuzatish

Bu mashg‘ulot kollej talabalari amaliyot o‘taydigan tayanch maktablarning 1-sinflarida o‘tkaziladi. Mashg‘ulotni «Alifbe» kitobidagi yangi harf o‘rgatish darsini tashkil qilish asosida uyush-tirish mumkin. Iqtidorli talabalardan biri oldindan tayyorlanadi. O‘qituvchi uning dars berish mahoratini auditoriyada kuzatadi va baholaydi. Qolganlar darsni tahlil qilib, yutuq va kamchiliklari haqida o‘z fikrlarini bildiradilar.

Mashg‘ulotda biror harfni o‘rganishda o‘qish va yozuvning parallel olib borilishi uchun zarur bo‘lgan eng yaxshi metod, usullar qo‘llanishini e’tiborga olinishi va uslubiyot o‘qituvchisi uni mukammallashtirishi lozim.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARGA HUSNIXAT O'RGATISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

REJA:

1. Husnixat — savodxonlikka asos.
2. Husnixat o'rgatishning maqsad va vazifalari.
3. Boshlang'ich ta'limdi o'quvchilarning husnixat malakalarini o'stirishga e'tibor.
4. Husnixat va savodxonlikning o'zaro bog'liqligi.
5. Husnixat o'rganishning ta'limiy ahamiyati.

Husnixat savodxonlikning asosi, deyishlari bejiz emas. Chunki husnixatni savodxonlik darajasi yuksak bo'lgan bugungi xalqlardan birining ixtirosi deyish noqulay. Dunyoda yozuv paydo bo'lgan zamonlardan buyon barcha ilm ahli o'z ma'naviy merosini avlodlarga qoldirishni istagan ekan, nafosati bilan ilm toliblarini o'ziga jalb etadigan husnixatga murojaat qilganligi tabiiydir. Uzoqqa bormay, o'zbek yozuvining yaqin tarixiga nazar tashlasak, yozuv ijtimoiy-madaniy hayotda alohida ahamiyatga ega bo'lganligini ko'ramiz.

Buyuk o'zbek shoiri Alisher Navridan XX asr boshlari-gacha husnixat bilan shug'ullanib, xattotlikda beqiyos iqtidorga ega bo'lgan ko'plab ijodkorga duch kelamiz. Shoир Xo'janazar Huvay-doning nabirasi Salohiddin Sohib mohir xattot bo'lgan. Bobosi merosini mukammal devon holiga keltirib, qayta ko'chirgan. Shoир Shermuhammad Munis esa husnixat bo'yicha yo'l-yo'riqlar beruvchi «Savodi ta'lim» risolasini yozib qoldirdi. O'zi yoshligidan husnixat bilan jiddiy shug'ullanib, xattotlik san'atida peshqadam bo'ldi. Hazrat Navoiyning «Mezon ul-avzon», «Holoti Sayyid Hasan Ardashev» nomli ilmiy, tarixiy asarlarini go'zal husnixat bilan ko'chirdi. XIX asr o'zbek adabiyotining taniqli vakili, shoир, olim va tarjimon Fazlulloh Almaiy husnixatning turli usullarini, jumladan, «nastaliq» va «xatti noxuniy» san'atlarini mahorat bilan egallagan xattot edi.


Bulardan tashqari, o'zbek ma'rifati darg'alaridan Is'hoqxon Ibrat «Jome' ul-xutut» («Yozuvlar majmuasi»), Saidrasul Aziziy «Ustodi avval», A. Fitrat «Arab alifbosining tarixi» asarlarida «xat ilmi»ga ma'rifiy nuqtayi nazardan alohida mulohazalar bildirishgan. Eski maktablarda esa yozish va husnixat mashqidan musobaqalar o'tkazilgan. Unda «Mufradot» («Sarxat») kitobidan asosiy qo'llanma sifatida foydalilanilgan.

Tarixiy yozuv an'analarini davom ettirgan husnixatimiz bugungi kunda ham o'z nafosatini yo'qotmagan holda yosh avlod

savodxonligini oshirishga o‘z hissasini qo‘shamoqda. Umumiy o‘rtalimning boshlang‘ich sinflaridayoq husnixat mashqiga e’tibor qaratiladi. Davlat ta’lim standartining o‘quv dasturida 1—2-sinflar uchun alohida-alohida husnixat talablari qayd etilgan. 2-sinf dasturida husnixat uchun 32 soat ajratilgan bo‘lib, chiziqli daftarda tez takrorlanadigan unsurli harflarni yozishga va ikki harfni bir-biriga tutashtirishga doir tayyorgarlik mashqlari o‘tkazish, unsurli harflarni guruhash, ularni tutashtiruv unsurlariga ahamiyat berib, ayrim yozuv qoidalariga amal qilish zarurligi uqtirilganki, uni aynan keltirish maqsadga muvofiqdir:

1. To‘g‘ri, aniq va chiroyli yozuvni o‘rganish.
2. Daftarning past tomonidagi burchagini ko‘krak o‘rtasining qarshisiga to‘g‘rilab qo‘yish.
3. Daftarni chap qo‘l bilan ushlab turib yozish.
4. Boshni salgina pastga egib, to‘g‘ri o‘tirish.
5. Oyoqni bo‘sh tutib yoki parta bandiga qo‘yib o‘tirish.
6. Qo‘lni to‘g‘ri tutish, ruchkani qattiqroq ushlash.
7. Daftarni toza tutish, iflos bo‘lmasligi uchun muqovasini qog‘ozga o‘rash.
8. Har bir harfni to‘g‘ri tutashtirishga rioya qilgan holda bo‘g‘in va so‘zlarni aniq yozishga harakat qilish.
9. Shoshmasdan, chaplashtirmasdan yozish.
10. Har bir mashqni 3—4 marta takrorlab yozish.

Husnixat qoidalaridan keyin tez takrorlanuvchi unsurli harflarni yozishga va ikki harfni o‘zaro tutashtirishga oid tayyorgarlik mashqlari ko‘rsatiladi:



Tayyorgarlik mashqlarining turli ko‘rinishlari M. G‘ulomovning 2-sinf uchun yozgan «Husnixat» qo‘llanmasida mukammallashtirilib berilgan. Unda harflarni guruhlarga ajratib yozish mashqlari o‘quv dasturiga mos keladi. O‘quv dasturida o‘xshash unsurli kichik harflar quyidagi tartibda guruhlarga ajratiladi:

1-guruuh: *i, u, n, m, t, y.*
 2-guruuh: *h, j, k, f.*
 3-guruuh: *o, ö, q, a, g, ġ, p.*
 4-guruuh: *e, l, x, b.*
 5-guruuh: *r, v, s, sh, ch.*

O‘xhash unsurli bosh harflarning guruhanishi esa quyidagiicha:

1-guruuh: *L, U, Z, Ð.*
 2-guruuh: *A, K, N, M, H.*
 3-guruuh: *O, Ö, Q, X, Ch.*
 4-guruuh: *E, S, Sh, Z.*
 5-guruuh: *V, G, Ģ, Y.*
 6-guruuh: *T, F, R, B, P.*

M. G‘ulomovning «Husnixat» qo‘llanmasida har bir harfning yakka holda ko‘rinishi bir qatordan yozilib, keyin o‘sha harfning so‘zda qo‘llanishiga misollar keltiriladi:

$\sim \mathfrak{J} \sim \mathfrak{J} \mathfrak{Z} \mathfrak{Z} \mathfrak{Z} \mathfrak{Z} \mathfrak{Z} \mathfrak{Z} \mathfrak{Z}$
Zalol, Jamila, Jahon, Jõja.

Bundan tashqari, o‘rganilgan bir guruuh harflarning yakka holdagi yozuvi ko‘rsatilib, gap mashqi bilan yakunlanadi:

$\mathfrak{L} \mathfrak{d} \mathfrak{d} \mathfrak{d} \mathfrak{d} \mathfrak{Z} \mathfrak{Z} \mathfrak{Z} \mathfrak{Z} \mathfrak{L} \mathfrak{L} \mathfrak{U} \mathfrak{U}$

Izzat bilan Jamila bir sinfa õqiydilar.

Qo'llanmada yozma alifbo tartibi berilib, tinish belgilari va matematik raqamlar ham husnixat harflarida yozib ko'rsatiladi:

., : ; ! ? „ — () ...
1 2 3 4 5 6 7 8 9 0

Shundan so'ng «Sidirg'a xatlar» qismi boshlanib, unda husnixat mashqi matnlari beriladi va bu matnlar bir necha ko'rsatmani o'z ichiga oladi:

1. Sana va sarlavhalarni to'g'ri yozish.
2. Ko'chirib yozish (bir qancha nasriy va she'riy matnlar berilgan).
3. Rasmlar o'rniga ularning nomlarini qo'yib ko'chirish.
4. Nuqtalar o'rniga zarur so'zlarni qo'yib ko'chirish.
5. Tabrik xatlarni yozishni o'rganish.
6. Matematik belgi va raqamlarni to'g'ri yozish.
7. Shakllar yasashni o'rganish (uchburchak, to'rburchak va kub kabilar).

Husnixatni savodxonlikka bog'liq ekanligi o'quv darsida alohida ko'rsatilgan bo'lib, 2-sinf o'quvchilari yil davomida imlosi qiyin bo'lgan so'zlarning talaffuzi va yozilishini bilish zarurati qayd etiladi.

Husnixatning ilm va savod bilan uzviyligi hamda uyg'unligi uning ma'rifiy ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Husnixatning tarixiyligi haqida nimalarni o'rgandingiz?
2. XX asr boshlarida husnixat targ'ibotiga doir qaysi asarlarda fikr yuritiladi?
3. 2-sinf o'quv dasturida husnixat qoidalariga qanday talablar qo'yilgan?
4. Chiroyli yozuvda harflar qaysi talablariga qarab guruhlanadi?
5. Husnixatning savodxonlikka aloqadorligini qanday izohlaysiz?
6. Husnixatning ma'rifiy ahamiyati haqida gapiring.
7. Mustaqil ravishda matn tanlang va uni husnixat qoidasiga amal qilgan holda ko'chiring.
8. She'riy matnlarning yozilishiga alohida diqqat qiling.

II. O'QISHGA O'RGATISH VA NUTQ O'STIRISH METODIKASI

SINFDA O'QISH DARSLARINING OLIB BORILISHI VA UNING VAZIFALARI

R E J A:

1. Sinfda o'qish darslarini tashkil etish va uning ta'limiy-tarbiya-viy xarakteri.
2. O'qishda g'oyaviy, axloqiy tarbiyani shakllantirish.
3. O'qilgan asarlar tahlili tufayli o'quvchilarda hayotiy saboqning boyishi.
4. Sinfda o'qish darslarining vazifalari.

Bolaning toza ruhiyatiga maktab ko'p narsalarni bitadi — ta'lim jarayonida axloqiy fazilatlarni singdiradi, barkamol inson tarbiyasiga oid milliy qadriyatlarni o'rgatadi, Vatanni, ona zaminni, insonni qadrlash, mehnatni ulug'lash, nafosatni his qilish kabi tayanch xislatlarni kompleks tarzda hal qiladi. Bunday mas'uliyatli ishni bajarishda o'qish darsining o'z o'rni bor.

Boshlang'ich ta'limning savod o'rgatish bosqichi yakunlangach, o'qish darslari boshlanadi va 2—4-sinflarda izchil davom ettiriladi. Bu dars o'quvchilarning nutqini boyitish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, mustaqil fikrlashga o'rgatishning muhim omili sanaladi. «O'qish kitobi» deb atalgan 2, 3, 4-sinf darsliklari mavzusi rang-barangligi bilan yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi abadiy kurashlar ustiga qurilgan hayotning turfa manzaralarini, atrofimizdagi olam go'zalligini badiiy tadqiq etadi va tasavvurni kengaytirib, mustaqil fikrlash uchun ma'naviy oziqa beradi. Unda o'quvchilar tom ma'nodagi YAXSHILIKnii anglagan holda hazrat Navoiyning:

*Har kim ayon etsa yaxshi qiliq,
Yetar yaxshiliqdin anga yaxshiliq,*

degan hikmatlari barkamol insonning yashash mazmuni ekanligini chuqurroq fahmlashga intiladi. Davlat ta'lim standarti o'quv das-turining tushuntirish xatida o'qish mavzularini sharhlab shunday

deyiladi: «O‘qish dasturini tuzishda g‘oyaviy-estetik, mavsumiy-tadrijiy asoslar hisobga olinadi. O‘quv materiallari bolalarga ta’lim berish, ularni tarbiyalashda muhim bo‘lgan borliq haqidagi bilimlar va yuksak insoniy munosabatlarni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarni badiiy, ilmiy, ommabop asarlar bilan tanishtirish orqali kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirish o‘qish dasturining tub mohiyatini tashkil etadi».

Darhaqiqat, 1—4-sinf «O‘qish kitobi» darsliklari ta’lim standarti talablariga mos tuzilgan bo‘lib, undan o‘rin olgan «Ona yurtim—oltin beshigim» (2-sinf), «Ona bitta, Vatan yagona» (3-sinf), «O‘zbekiston—Vatanim manim» (4-sinf) ruknlari ostidagi she’riy, nasriy asarlar o‘quvchilarni mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayoti va mehnatsevar xalqning jangovar yumushi bilan tanishtirishga yordam beradi. Shuningdek, Vatanga muhabbat tuyg‘usini kuchaytiradi, zamin saxovati, diyor ko‘rki, ona tabiatdagi ulug‘vorlik uning qalbida iftixor uyg‘otadi, istiqlol tufayli erishgan yantuqlarimiz, xususan, ozod Vatanimizning ramzları (bayrog‘i, tug‘rosi (gerbi), madhiyasi) haqidagi asarlar («O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi», «O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i» mavzusidagi ma’lumotlar, «Vatanimiz gerbi—tug‘ro haqida ertak» nomli E. Malikov asari (3-sinf), «Istiqlolim—istiqbolim» ruknidagi «Asrga tatigulik kun» nomli S. Barnoyev asari, «Iqboli buyuksan» nomli A. Oripov she’ri (4-sinf)) milliy iftixor tuyg‘usini tarbiyalashga xizmat qildi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim o‘qish kitoblarida komil inson tarbiyasi S. Nishonova («Komil inson tarbiyasi». T., 2003) tomonidan ilgari surilgan (bolalarning yosh xususiyati hamda iqtidoriga mos keladigan janr, til va uslubda). Bular:

- talabalarning milliy-ma’rifiy qadriyatlarni o‘rganishga tayyorgarlik darajasini hisobga olish;
- uning ilmiyligi va milliyligiga erishish;
- milliy-ma’rifiy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlikda o‘rganishga e’tiborni qaratish;
- milliy-ma’rifiy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishishga xizmat qiladigan darslardir.

Berilgan ushbu talablarni ixchamlashtirib, «O‘qish kitobi» darsliklaridan mavzular asosida ruknlar jadvali tuzishni ma’qul topdik:

Darsliklar	Tartib raqami	Ruknlar
2-sinf «O‘qish kitobi» (Sinfda o‘qish — 120 soat)	1.	Ona yurtim — oltin beshigim
	2.	Oltin kuz — hosiling yuz
	3.	Maktabim — qutlug‘ makonim, Kitobim — oftobim
	4.	Mehnat baxt keltirar
	5.	Kumush qish — misoli oqqush
	6.	Zumrad bahor bahri diling ochar
	7.	Ertaklar — yaxshilikka yetaklar
	8.	Tabiatni asrang, avaylang!
	9.	Yoz — o‘tadi soz!
3-sinf «O‘qish kitobi» (Sinfda o‘qish — 170 soat)	1.	Ona bitta, Vatan yagona
	2.	Xalq og‘zaki ijodi
	3.	Kuz manzarasi va mehnat
	4.	O‘tmishni o‘rganish — burchimiz
	5.	Kumush qish
	6.	Vatan posbonlari
	7.	Tengdoshlar
	8.	Ulug‘lardan o‘rganmoq — oqillik
	9.	Bahor manzarasi va mehnat
	10.	Tabiatni asrang va seving
	11.	Go‘zal fazilat — inson husni
	12.	Yoz manzarasi va mehnat
4-sinf «Oqish kitobi» (Sinfda o‘qish — 152 soat)	1.	Istiqlolim — istiqbolim
	2.	O‘zbekiston — Vatanim manim
	3.	Oltin kuz
	4.	Ma’naviyat — qalb quyoshi
	5.	Xalq og‘zaki ijodi
	6.	Vatanimiz o‘tmishidan

	7.	Kumush qish
	8.	Nima yaxshi-yu, nima yomon?
	9.	Hayvonot olamida
	10.	Zumrad bahor
	11.	Yashasin tinchlik, bor bolsin do'stlik!
	12.	Ajdodlarimiz — faxrimiz
	13.	Jahon bolalar adabiyoti
	14.	Yoz — o'tadi soz

Shunday qilib, ta'lim standartlari yo'l-yo'rig'iga muvofiq har bir sinf uchun mazmuni, til va kompozitsion tuzilishi jihatidan murakkablashtirib borilgan o'qish materiallari quyidagi izchillikda o'quvchilarga bilim beradi:

1. O'quvchilar 1-sinfning o'quv yili oxirida Vatan va uning tabiatini, insoniy qadriyatlar haqida kichik-kichik asarlarni o'qiydi.

2. 2-sinfda o'quvchilar shakl va mazmun jihatdan uncha murakkab bo'lmagan Vatan, ona tabiat, istiqlol, kishilarning hayoti va mehnati, buyuk ajdodlarimiz ma'rifati, axloqiy munosabatlar haqidagi asarlar bilan tanishadilar.

3. 3- va 4-sinflarning o'quv dasturida mavzular ko'lamni kengayadi. Bu sinflarda o'qish darslarining kattagina qismi (30—35 daqiqa) asarni o'qish va matn ustida ishlashga qaratiladi. Dars usullari mazmun bilan uzviy bog'langan bo'lib, o'quvchilarda his-hayajon va qiziqish uyg'otishi, asar g'oyasini, mazmunini tushunishga yordam berishi lozim.

O'qituvchi uchun eng muhim narsa shuki, o'quvchi o'zi ola-digan bilim, qalbida yetiladigan his-tuyg'u hayotda ahamiyatli ekanini anglab yetsin. Shunda o'qishga o'rgatishning muhim vazifalari hal bo'ladi. Bu vazifalar quyidagilar:

1. Boshlang'ich o'qish malakalarini (to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish) takomillashtirish.

2. Bolalarni o'qigan asarlarining adabiy-estetik xususiyatlarini chuqur idrok etish, tasvirlangan voqeа-hodisalar mag'zini chaqish, muayyan xulosalar chiqarishga tayyorlash.

3. Bolalarda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

4. O'quvchilarni matn ustida ishlashga o'rgatish.

5. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish.

Bu vazifalar darsliklardagi badiiy, ilmiy-ommabop asarlar va xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida amalga oshadi hamda o‘quvchilarning dunyoqarashini o‘stiradi, bog‘lanishli nutq malakalarini shakllantiradi, mushohada ko‘lamini kengaytiradi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. O‘qish darslarining muhim xususiyatlari nimada?
2. Ta’lim standartida o‘qish mavzulari qanday sharhlangan?
3. O‘qish darslarining ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati nimadan iborat?
4. Komil inson tarbiyasiga qo‘yilgan talablarini qanday izohlaysiz?
5. «O‘qish kitobi» darsliklari o‘quvchilarga qaysi izchillik asosida bilim beradi?
6. O‘qishga o‘rgatishning muhim vazifalari nimalarni o‘z ichiga oladi?
7. Komil inson tarbiyasiga oid ma’lumotlarni to‘plang va konspektlashtiring.
8. Maxsus tayyorlarlik asosida milliy-axloqiy fazilatlarga doir ma’ruza tayyorlang va uni tarbiyaviy soatlarda muhokama qiling.

NAMUNALI O‘QISH MALAKASINING SIFATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH USULI

R E J A:

1. Namunali o‘qish malakasining sifatlari haqida.
2. O‘qish malakasi uzoq vaqtli murakkab jarayon ekanligi.
3. Namunali o‘qish malakalarini takomillashtirish:
 - to‘g‘ri o‘qish;
 - tez o‘qish;
 - ongli o‘qish;
 - ifodali o‘qish.
4. Ifodali nutq asoslarini egallash shartlari.
5. Nutq odobiga erishishda namunali o‘qishning ahamiyati.

Ma’lumki, kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilar ishonuvchan, tashqi ta’sirga beriluvchan bo‘ladi. Fe’l-atvor ham ko‘proq hayotning boshlang‘ich davrlarida tarkib topadi va o‘sha sifatlar mustahkam o‘rnashib, shaxsning ikkinchi tabiatiga ko‘chadi. Insonning ana shu tabiatida ijobiy fazilatlarni ko‘paytirish, yuqori axloq normalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ulug‘ donishmand Abu Nasr Forobiyning: «Munosib inson bo‘lish uchun odamda ikki imkoniyat — ta’lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta’lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa, bu — kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni

va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo‘ldir», degan hikmatli fikri avvalgi mulohazalarga uyg‘unlashar ekan, yana bilim manbayi bo‘lgan o‘qishga murojaat qilmog‘imiz tayindir.

O‘sha jarayonning ishtirokchisi talaba ekanligini nazarda tutib, uning faol bo‘lishini to‘suvchi omillarga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Yangi pedagogik texnologiya tahliliga kirishgan Sh. Yusupova bu to‘sinqi quyidagilarda ko‘radi:

1. Gapirishdan hayiqish hissi.
2. O‘quvchi bildirayotgan fikrga hurmatsizlik bilan qarash.
3. Berilgan materialni yodlashga yo‘l qo‘ymaslik.
4. Bilim oluvchining xotira va qobiliyatini hisobga olmaslik.
5. O‘qishga bo‘lgan qiziqish — motivatsiya hosil qilishga keng yo‘l ochib bermaslik.

Nutq madaniyatini egallash, adabiy til nazokatini tushunish uchun g‘oyat erkinlik va ichki qiziqish bilan to‘laqonli o‘qish malakalariga erishish lozim. Bu malakaning esa o‘ziga xos sifatlari mavjud:

- to‘g‘ri o‘qish;
- tez o‘qish;
- ongli o‘qish;
- ifodalii o‘qish.

Yuqoridagi sifatlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqlikda namunali o‘qishni yuzaga keltiradi. Bunday o‘qish malakasini egallash mактабда o‘рганилайдиган барча фанларинг о‘злаштирилшини та‘минлагди. Ammo namunali o‘qish malakasi ko‘проq o‘qish darsiga mas‘уliyat yuklaydi. O‘quvchida bu malakani shakllantirish uzoq vaqtga cho‘ziladi. U avtomatlashgunga qadar analitik-sintetik bosqichlarni bosib o‘tadi. Boshlang‘ich ta‘limning oxirgi bosqichida o‘quvchilar namunali o‘qish ko‘nikmasiga ega bo‘la oladilar.

Shuning uchun bu murakkab jarayonni savod o‘rgatish davridan boshlash va o‘qish darslarida uni rivojlantirib, matn ustida ishslash usulini asar mazmunini tahlil etishga qaratgan holda namunali o‘qish malakalarini takomillashtirish lozim bo‘ladi.

O‘qish sifatlaridan bo‘lgan TO‘G‘RI O‘QISH tushunchasiga e’tibor bersak, avvalo, u yanglishmay, xatoga yo‘l qo‘ymay o‘qishni anglatadi. Yanglishmaslik shartlari:

- tovushlarni aniq talaffuz qilish;
- so‘z tarkibini buzib o‘qimaslik;
- so‘zning grammatik shakllarini buzmaslik;
- o‘qiganda tovush o‘zgarishlariga, ya’ni tovushni tushirish,

tovush qo'shish yoki tovushni almashtirish kabi ma'noga putur yetkazadigan holatlarga yo'l qo'ymaslik;

- so'zning logik urg'usini to'g'ri qo'yish;
- obrazlilikni yuzaga keltiradigan ohangga mantiq bilan yondashish.

To'g'ri o'qish ko'proq so'zning o'quvchiga qay darajada tanish ekanligiga ham bog'liq. O'qituvchi matn ustida ishlaganda izohtalab so'zlarga to'xtab, uning mazmunga daxldor ma'nosini tushuntirishi lozim. Aks holda, morfemik tarkibi qiyin bo'lgan so'zni o'qishda xatoga yo'l qo'yiladi. Buning oldini olish usulini o'qituvchi hal qiladi:

- o'quvchilarning lug'at daftariga matndagi izohtalab so'zni yozdirish;
- qiyin so'zni bo'g'inlab o'qitish;
- matnni ichda o'qitish va kimga qaysi so'z notanishligini savol-javob orqali aniqlash va izohlash;
- tizimlilik tamoyiliga amal qilib, qiyin so'zning grammatik xususiyatini anglatish;
- faollik tamoyili asosida bir o'quvchi bilmagan so'z ma'nosini boshqalardan so'rab bilihni tashkil etish;
- oddiy xatolarni qayta o'qitish yo'li bilan to'g'rilash va boshqalar.

Namunali o'qishning navbatdagi sifati TEZ O'QISH bo'lib, u mo'tadil tezlikda o'qish demakdir. Bunga amal qilib o'qish matn mazmunini tushunishni, o'qishning ongliligini, ifodaliliginini ta'minlaydi. Juda tez o'qish ham, juda sekin o'qish ham mazmun-mohiyatini anglashda qiyinchilik tug'diradi. O'qish tezligi bir daqiqada o'qilgan so'zlar soni bilan belgilanadi.

Hozirgi kunda Davlat ta'lif standarti o'quv dasturi talabiga asosan, o'qish tezligi 1-sinf oxirida 25—30 so'zdan, 2-sinfning birinchi yarmida 30—35 so'z, ikkinchi yarmida 40—50 so'zdan, 3-sinfda o'quv yilining birinchi yarmida 50—60 so'z, ikkinchi yarmida 60—70 so'zdan, 4-sinfda esa adabiy til talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda ongli, to'g'ri va o'rtacha tezlikda ovoz chiqarib bir daqiqada 90—100 so'z va ichda 110—130 so'zni o'qishdan iborat bo'lishi darkor.

O'rtacha o'qish tezligiga erishish uchun, avvalo, o'quvchining o'qishga qiziqishi, motivatsiya hosil qilishi muhim o'rinn tutadi. Buning uchun:

- dialog mashqlarni rollarga bo'lib o'qish;

- monologik matnni obrazga kirib o‘qish;
- she’rni ohang bilan ifodali o‘qish;
- cheklangan matnni musobaqa usulida (kim to‘g‘ri va tez o‘qiydi) tashkil etish;
- matndan tanlangan materialning mazmunini qayta hikoyalash kabi usullardan foydalanish yaxshi natija beradi.

ONGLI O‘QISH namunali o‘qishning asosiy sifati hisoblanadi. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- asar mazmunini to‘la-to‘kis anglashga o‘rgatish;
- asardagi g‘oyaviy yo‘nalishni belgilash, qo‘yilgan masalaga o‘quvchining diqqatini jalb etish;
- asardagi timsollarning fe‘l-atvorini tahlil qila bilish va qiyoslay olish;
- asardagi badiiy vositalar rolini tushunish;
- asar voqealariga o‘zining mustaqil munosabatini ifodalay olishga o‘rgatish.

Xulosa shuki, ongli o‘qishning asosiy vazifasi o‘quvchilarga o‘rganilayotgan asarning kompozitsiyasi va g‘oyaviy mazmunini tushunishlariga imkoniyat yaratib berishdan iboratdir.

Namunali o‘qishning keyingi sifati IFODALI O‘QISH bo‘lib, u jozibali ohang yordamida asar mazmunini va g‘oyasini yozuvchining niyatiga mos ravishda ifodalay oladi. Adabiyotshunoslikda ohang so‘zini ko‘proq baynalmilal INTONATSIYA (lotincha *intonare* — baland tovush bilan o‘qish) atamasи bilan ifoda etiladi. Intonatsiya — tovushning baland yo past ohangi, gapirish tarzi, so‘zlarni talaffuz etish usullaridir. Adabiyotshunos olim T. Boboyev «She‘r ilmi va ta’limi» kitobida: «Intonatsiya (ohang) badiiy fikrni tinglovchiga jozibali tarzda yetib borishiga xizmat qiladi. Badiiy asarda ohang juda muhim ahamiyat kasb etadi», deydi va ohangning mazmun bilan uzviy bog‘liqligini aytib, filolog L. I. Timofeyevning quyidagi fikrini keltiradi: «... intonatsiya jonli so‘z yashaydigan zamon va makondir. So‘z faqat intonatsiya orqaligina yashaydi va real ma’noga ega bo‘ladi».

Darhaqiqat, biz o‘qiydigan har bir so‘z matndagi o‘rniga qarab xitob, kinoya, shama, gina, o‘pkalash, iltimos, hayratlanish, shodlanish, g‘azab, g‘urur, murojaat, taajjub kabi ma’nolarni anglatadi va shu ma’noga mos ohang bilan o‘qiladi, shunda ifodali nutq yuzaga keladi.

O‘quvchilar ifodali nutq asoslarini egallashlari uchun quyidagi shartlarni bilishlari lozim:

- nafasni taqsimlay bilish;
- har bir tovushning to‘g‘ri artikulatsiyasi va aniq dixsiya malakasini egallash;
- adabiy talaffuz normalarini o‘zlashtirish.

Ifodali o‘qishdagi asosiy vosita ovozdir. O‘qituvchi ovozdan to‘g‘ri foydalanish jarayonida o‘quvchilarni pauza (yunoncha *pausis* — to‘xtam) va mantiqiy urg‘u bilan ham tanishtiradi. Ifodali o‘qishga tayyorlanishni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1. Asarning g‘oyaviy mazmunini teran tushunish va undagi timsollarni hamda badiiy vositalarni sintezlay olish.

2. Mantiqiy urg‘uning o‘rnini, matnning qayerida pauza qilishni belgilash.

3. Voqeа-hodisa yoki his-tuyg‘u yo‘nalishiga qarab, o‘qish sur‘atini (nasriy matnda), o‘qish ritmini (she’riy matnda) tatbiq qilish.

4. Muallif fikrini, uning voqeа-hodisa va o‘z obrazlariga nisbatan munosabatini ovoz bilan berish.

5. Dialogik matnlarda ishtirok etgan shaxsning nutqi va ruhiy holatini o‘zgaruvchi ovoz va tovlanuvchi ohang asosida yoritib berish.

Shunday qilib, ifodali o‘qish malakalarini egallash namunali o‘qishga erishishning asosiy omili sanaladi. O‘quvchilarda nutq odobi hosil qilish uchun ular o‘qigan asarlariga real yondashishi va mustaqil fikr bildira olishi zarur. Asardagi axloqiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyatni chuqur anglashda, uning ijobjiy tomonini o‘zlarining fe’l-atvoriga muvofiqlashtirishda namunali o‘qishning ahamiyati beqiyosdir.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. O‘quvchi tarbiyasiga namunali o‘qishning qanday ahamiyati bor?
2. Munosib inson bo‘lish haqida Forobiy nima degan?
3. O‘qishda o‘quvchi faolligiga salbiy ta’sir etuvchi omillar qaysi?
4. Namunali o‘qish malakasining sifatlarini aytинг.
5. To‘g‘ri o‘qish sifatini qanday izohlaysiz?
6. Tez o‘qishning dasturda ko‘rsatilgan normalarini bayon eting.
7. Ongli o‘qishni ifodali o‘qish asosi deyishimizga sabab nima?
8. Ifodali o‘qishga tayyorlashning qanday bosqichlari bor?
9. «She’riy matnni o‘qishda intonatsiyaning roli» mavzusini mustaqil o‘rganing va konseptlashtiring.
10. Namunali o‘qish yuzasidan musobaqa mashg‘uloti uyushtiring.

***Amaliy ish. O‘quv dasturini o‘rganish.
Matn ustida mustaqil ishlash***

Amaliy ish topshirig‘i talabalarga bir dars oldin beriladi. Ular «Umumiy o‘rtta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi» bilan tanishadilar. Boshlang‘ich ta’limning «O‘qish kitobi» uchun tuzilgan o‘quv dasturini o‘rganadilar. Amaliy ish jarayonida uni tahlil qiladilar.

Ma’lumot uchun yo‘riq:

1. Dastur bilan tanishganda, ko‘proq 2-, 3-, 4-sinflarning o‘qish darsiga e’tibor qaratiladi.
2. Dasturda har bir sinf uchun («Sinfda o‘qish», «Sinfdan tashqari o‘qish», «Og‘zaki nutqni o‘stirish», «O‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalariga qo‘yilgan asosiy talablar») berilgan ko‘rsatmalar o‘rganiladi.
3. Ko‘rsatmalarning har bir bosqichida qanday o‘zgarishlarga e’tibor qaratilganligi taqqoslanadi va tahlil etiladi.
4. 3—4-sinf darsliklaridan ikki xil asarni (biri she’riy, biri nasriy) tanlanadi va namunali o‘qish sifatlari asosida tahlil etiladi.
5. Ifodali o‘qish bo‘yicha mushoira tashkil qilinadi.

**O‘QISH DARSLARIDA O‘QUVCHILAR NUTQIGA
QO‘YILADIGAN TALABLAR**

REJA:

1. Nutqning mazmundor va mantiqli bo‘lishi.
2. Nutq aniqligini ta’minlovchi omillar.
3. Nutqda til vositalaridan unumli foydalanish.
4. Nutqning tushunarli bo‘lishi va adabiy til normasiga mosligi.
5. Ifodali nutq — fikr ziynati.

«O‘qish mashg‘ulotlarini o‘tkazish jarayonida, deyiladi o‘quv dasturida, o‘quvchilarda nutq faoliyatining asosiy ko‘nikmalarini hosil qilish, matn va kitob ustida ishslash, bog‘lanishli nutqni o‘s-tirish, muhimmi, nutq madaniyatini rivojlantirish nazarda tutiladi».

Nutq — bu odamlar orasidagi muomala vositasi. Bu so‘z arabcha bo‘lib, «gapirish» ma’nosini anglatadi. Ba’zan «til» so‘zi ham nutq mazmunida qo‘llanadi. «Insонning tiligina uning ichki dunyosini, ma’naviy go‘zalligini ko‘z-ko‘z etadi», deyilganda, «til» so‘zi «nutq» ma’nosida kelganligi bilinib turadi. Mutafakkir olim Abu

Ali ibn Sino «Tadbiri manozil» asarida nutq hikmatini ulug‘lab shunday deydi: «...Siz gaplashish, fikr olishda xayrxohlik talablariga rioya qilgan holda ish ko‘rsangiz, yo‘ldan adashmaysiz va to‘sinqarga duch kelmaysiz».

Demak, nutq — topib aytigan gap, xalq ta’biri bilan aytganda, jon ozig‘idir. Shuning uchun ta’lim standartida og‘zaki nutq ustida ishslashga chuqur yondashilib, 1—4-sinflarda nutq madaniyatini bosqichma-bosqich shakllantira borishning tamoyillari ko‘rsatib berilgan. Shu tamoyillarga ko‘ra, o‘qish darsida o‘quvchilar nutqiga qo‘yiladigan shartlarni mushohada qilib, bir qator talablarga murojaat etaylik.

1. *O‘QUVCHILAR NUTQI MAZMUNDOR VA MANTIQLI BO‘LSIN*. Nutqning mazmundor bo‘lishini uning mantiqiyligidan ajratib bo‘lmaydi: mazmundor nutq mantiqli, mantiqli nutq mazmundordir. Bu talabni bajarish uchun o‘quvchilar savod o‘rganish davridan boshlab, nutq malakalarini egallaydilar.

1-sinf o‘quvchilarining nutqini takomillashtirish uchun uning tilidagi kamchiliklarni o‘qish darslaridagina emas, boshqa predmetlar yuzasidan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda ham, darsdan tashqari uyushtiriladigan tadbirlar jarayonida ham tuzatib borish zarur. Shunda o‘quvchilar berilgan savollarga to‘g‘ri va aniq javob qaytarishga o‘rganishadi. 2-sinfda sidirg‘a o‘qishga o‘tiladi. Bolalarning so‘z boyligi ortadi. Ular o‘qituvchi ko‘magida o‘rganilgan asarning asosiy mazmunini aniqlaydilar. Nutq sofligi va realligiga e’tibor kuchayadi hamda leksikasi boyiydi. So‘zlarni to‘g‘ri qo‘llab, nutq sur‘ati oshadi, ovozni boshqarishga, ohangdor gapirishga o‘rganadi. 3-sinfda so‘zlarni sidirg‘a o‘qish ko‘nikmasi to‘la shakllanadi. Shunda ular ongli va ifodali o‘qishga, matn mazmunini o‘zlashtirish ustida mustaqil ishslashga, hikoyadagi voqeа-hodisalarning izchillagini belgilashga va matnning badiiy xususiyatlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Bundan tashqari, ular o‘z nutqlarida xalq maqollaridan, iborralardan, hikmatli so‘zlardan foydalana boshlaydilar, gapning adabiy til me’yori va sintaktik qurilishiga ahamiyatli bo‘lishadi. 4-sinf o‘quvchilari nutq mazmundorligi va mantiqiyligini ta’millonchi til vositalariga ongli munosabatda bo‘lib, o‘qilgan matn mazmunini to‘liq, qisqartirib yoki tanlab qayta hikoya qilgan holda, matn yuzasidan sodda reja tuza olishadi. Ularda nutqning faollashuvi, so‘zlashda grammatik shakllarni to‘g‘ri qo‘llash va ohangga bo‘lgan

e'tibor kuchayadi. Nutqning mazmundor va mantiqli bo'lishi esa xuddi ana shu tamoyillarni puxta o'zlashtirishga, ko'p o'qib-o'rganishga, nutqiy usullarni muttasil egallahashga bog'liq.

2. *NUTQ ANIQ VA TIL VOSITALARIGA BOY BO'LSIN*. Nutq aniqligi — fikr aniqligi. O'quvchi o'zi bilgan narsasi haqida so'zlaganda yoki o'qigan matnini qayta gapirib berganda, nutqiy bayonning aniq bo'lishiga erishish uchun harakat qiladi. Buning uchun fikrni eng maqbul til vositalaridan — so'z, tasviriy ifoda, ibora, maqol kabi chiroyligi nutq tuzilmasidan foydalangan holda ifodalashga o'rganmog'i lozim. Shunda u fikriy yorqinlikka erishadi, o'rinsiz so'z takroridan, gapni to'mtoq tuzib, talmovsirab qolishdan qutuladi. Nutq aniq va til vositalariga boy bo'lishi uchun o'quvchilar o'qish darslarida muallim ko'rsatmasi asosida quyidagilarni bajarishi shart:

- fikrni ifodalovchi gap qurilmasini to'g'ri tuzishga odatlanish;
- so'zni o'rinsiz takrorlamaslik;
- ma'nosini anglamagan nutqiy birlikni gapda qo'llamaslik;
- har bir mavzuni o'rganganda, yangi so'z va atamalarni lug'at daftariga yozib, imlosini o'rganish;
- she'rlar, xalq maqollari, hikmatli so'zlar, nasriy parchalar va xalq og'zaki ijodi namunalarini yod olish;
- so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari (shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli so'zlar)dan unumli foydalanish malakasiga erishish;
- so'z boyligini oshirish va adabiy til qoidalariga og'ishmay amal qilish.

3. *NUTQ IFODALI VA TINGLOVCHIGA TUSHUNARLI BO'LSIN*. Ixchamligi, so'zlardan o'rinli, oqilona foydalanishi jihatidan jonli so'zlashuv tiliga yaqin bo'lgan, sheva va noo'rin chet so'zları aralashmagan, orfoepiya normalariga muvofiq tuzilgan nutq tinglovchiga tushunarli bo'lgan ifodali nutq sanaladi. Ifodali nutq esa namunali o'qish sifatlaridan biri ekanligi ilm tolibiga ma'lumdir.

4. *NUTQNI TO'G'RI TUZISH UCHUN O'QISH TEKNIKASI MUKAMMAL BO'LSIN*. Muomala munosabatini to'g'ri tashkil etish uchun nutq adabiy til normalariga mos bo'lishi zarur. Nutqning to'g'ri bo'lishi uchun so'z tanlash va mantiqqa tayanish muhim ahamiyatga molik. Bunga erishish niyatida boshlang'ich ta'lim bosqichlaridayoq o'qish texnikasini o'zlashtirishga e'tibor kuchayadi. Vazirlar Mahkamasining «Umumiyl o'rta ta'limning

Davlat ta'lif standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi qaroriga ilova tariqasida 1—4-sinflarning o'qish texnikasi bo'yicha quyidagi ko'rsatma va talablar berilganki, uni aynan keltirish o'rinnlidir:

A. *O'qish texnikasi bo'yicha:*

Miqdoriy ko'rsatkich: bir daqiqada 80—90 so'zni o'qiy olish.

Talablar:

- harflarni to'g'ri talaffuz qilish;
- so'zlarni to'g'ri o'qish;
- gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va obrazli o'qish;
- gapdagi tinish belgilarni talaffuzda aks ettirish;
- sanash va ajratish ohanglaridan to'g'ri foydalanish;
- so'z urg'ulariga rioya qilish;
- ohangga rioya qilish;
- ilmiy atama va ramzlarni to'g'ri talaffuz etish.

B. *Matn mazmuni va o'zgalar fikrini anglash malakasi bo'yicha:*

Miqdoriy ko'rsatkich: 10 daqiqada 4—5 sahifali matnni o'qib, sayta so'zlab bera olish.

Talablar:

- og'zaki nutqning to'g'ri, ravon, aniq, tushunarli va ta'sirchan bo'lishi;
- monologik nutqning ravon bo'lishi;
- dialogik nutqda ta'sirchan, izchil, mantiqiy jihatning aniq bo'lishi.

Shunday qilib, o'qish darslari o'quvchilarga nutq odobini o'zlashtirishdagi asosiy omil bo'lib, ularda ifodali, yoqimli, ta'sirchan gapirish malakalarini shakllantiradi.

Ifodali nutq — fikr ziynatidir.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Ta'lif standartida nutqiy faoliyatga qanday qaraladi?
2. Nutqiy odobni qanday tushunasiz?
3. Nutqning mazmundor va mantiqli bo'lishini izohlang.
4. Nutq aniqligini ta'minlovchi omillar qaysilar?
5. Til vositalarining nutq aniqligiga qanday ta'siri bor?
6. Nutqning tushunarli bo'lishi va adabiy til normalariga mos kelishi deganda nimalarga ahamiyat berilishi lozim?
7. Ifodali nutq fikr ziynati ekanligiga doir manbani o'rganing va konseptlashtiring.
8. O'qish darsida o'quvchi nutqiga qo'yilgan talablarni 3-sinf «O'qish kitobi» materiallari asosida aniqlashtiring.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA BADIY ASARNI IDROK ETISH VA TAHLIL QILISH

REJA:

1. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning badiiy asarni idrok etishdagi ruhiy holati.
2. Metodik qoidalar asosida badiiy asarni tahlil qilish.
3. Tahlil qilinayotgan asarning emotsiunal ta'sirini aniqlash.
4. Tahlil jarayonida o'quvchi fikrini qo'zg'atish.
5. Tahlilda asarning badiiy nafosatiga, estetik qimmatiga alohida e'tibor berish.

Bilish omillaridan biri bo'lgan idrok kichik yoshdagি bolalarda o'z xususiyatiga ko'ra aniqligi, tozaligi, raxonligi va o'tkirligi bilan boshqalardan keskin farqlanar ekan. Ular bir narsaga berilib, sinchkovlik bilan o'rganishga intilishlari bois idrokning muhim jihatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Demak, ularning idroki maqsad uchun xizmat qiladigan istiqbolli faoliyat darajasiga ko'tariladi. Bunday paytda o'qituvchi uni omilkorlik bilan boshqarib, manbalarning muhim va nomuhim belgilarni ajratishni, diqqatni jamlash va taqsimlashni, materiallarni rejali va tartibli tahlil qilishni o'rgatadi. Ta'lum jarayonida o'quv materiallarni yaxlit anglash uchun uni ongli ravishda idrok qilish, ya'ni:

- analiz va sintez;
- qiyoslash;
- umumlashtirish;
- xulosa chiqarish kabi fikriy mezonlardan samarali foydalanish lozim bo'ladi.

Agar shu mezonlarni badiiy asar tahliliga tatbiq etilsa, uslubiyotchilar tomonidan ishlangan yo'riqnomalarga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Shunga ko'ra, boshlang'ich ta'lum «O'qish kitobi»da o'rganidigan badiiy asarlar quyidagi metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish jarayoni bilan namunali o'qish malakalarini shakllantirish ayni bir paytda olib boriladi. O'qituvchilarning matn mazmunini tushunishga doir bergen topshirig'i o'qish malakalarini takomillashtirishga ham daxldor bo'ladi. Binobarin, Alibek Rustamovning «Bayroq nima?» (3-sinf) asarini o'rganishda «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'ida nimalar mavjudligini so'zlab bering» topshirig'i asar mazmunini yoritadigan savollarga javob topishni talab etadi, ya'ni:

Savol: Millat uchun eng muhimi qaysi bayroq?

Javob: Davlat bayrog‘i.

Savol: U nimani bildiradi?

Javob: Xalqning mustaqilligini va xalqaro hurmatga ega ekanligini bildiradi.

Savol: Nima uchun Davlat bayrog‘i hurmat qilinadi?

Javob: Davlat bayrog‘i muqaddas hisoblanadi. U e’zozlanib asraladi va behurmat qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Savol: Bayroq nimadan tayyorlanadi?

Javob: Bayroq gazmol parchasidan tayyorlanadi.

Savol-javobga tayyorlanish jarayonida o‘quvchilar matnni to‘g‘ri, tez, ongli va ifodali o‘qish bilan tushuntiradilar.

2. Asarning g‘oyaviy mazmunini, uning timsollarini, sujeti va kompozitsiyasini, badiiy-tasviriy vositalarini tushuntirish o‘quvchi shaxsining kamol topishiga xizmat qiladi hamda uning bog‘lanishli nutqini o‘stiradi. Chunonchi, «Asotirlar va rivoyatlar» kitobidan keltirilgan «Til qudrati» mavzusini (3-sinf) tahlil qilib, asarda til millatning asosiy boyligi, unda Vatan yashaydi, degan g‘oyani o‘quvchilarga yetkazish uchun to‘rt timsol (oqil odamning qizi, ikki farishta va donishmand) ishtirokidagi voqeа bayoni ixcham sujet asosida yoritiladi. Asar tuguni ikki oshiq farishtaga ma’shuqa qizning ushbu aytgan gaplarida namoyon bo‘ladi: «Men yurt farzandi bo‘ladigan o‘g‘ilga ona bo‘lishni istayman. Uni qanday tarbiyalashga qodirliklarining bilishim kerak. Ana shunga qarab siz-larga qarorimni aytaman».

Shu yerda muammoli savol tug‘iladi: «Qizning istagi nima edi?» Albatta, ma’nnaviyatning muhim tomonini o‘quvchiga anglatish, ya’ni ikkinchi farishta niyati bilan asoslashki, buni matn o‘qiganda his qilish oson kechadi: «Avloddan meros qoladigan asosiy boylik — til. Ona tili bor ekan — Vatan bor! Men o‘g‘limni tilga xiyonat qilmaslikka o‘rgataman»... Bu fikrni donishmand ma’qullaydi, ikkinchi farishta otalikka loyiq, deb topiladi. Asar yechimi o‘quvchida mushohada uyg‘otadi, unga til qudratining yuksak mas‘uliyatini yuklaydi.

3. Asar mazmunini ongli idrok etish va tahlil qilishning zaruriy sharti — o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanishdir. Hayotiy tajriba deyilganda ikki narsa tushuniladi:

1) shaxsning o‘zi ko‘rgan, bilgan, eshitgan narsalariga asoslanishi;

2) o‘qilgan manbadagi detalning hayotdagi muqobilini topa bilish, mavhumiyatini aql bilan tanish.

Masalan, «Odamlar orasini buzadigan chaqimchilikdan saqlaninglar» (3-sinf) deyilgan hadisning mazmunini anglashda, chaqimchilik yomon xususiyat ekanligini idrok etish va uning zararini o‘ziga yuqtirmaslik hissi o‘quvchilarda mavhumiyatni aql bilan tanishdagi hayotiy tajribasidir.

4. Badiiy asar tahlilida o‘quvchilarning bilish istagini faollashtrish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va ilmiy dunyoqarashini shakllantirish zarurati inobatga olinadi. «O‘qish kitobi» (3-sinf)dagи «Koinotga sayohat» nomli ikki qismli sarguzasht-ertakda (A. Umarov asari) Jahongir va Javlonning (aka-uka) sayyoralar sir-asroriga qiziqib, Jasur va Javdat ismli do’stlari bilan birgalikda uchar ot — raketa yasab, uni «Istiqlol» deb nomlashgani bayon qilinadi. Aka-uka koinotga parvoz qilib, Yerdagи do’stlariga qiziqarli xabarlar yo’llashadi. Axborot oluvchi Javdat Yerni sharga o‘xshatilganini eshitib, bobomiz Abu Rayhon Beruniy to‘g‘risida kitobda o‘qiganlarini efirga jo‘natadi, ya’ni:

- bobomiz Yerning sharga o‘xhashligini birinchi bo‘lib o‘rgananlar;
- Yerning dastlabki modeli — globusni yaratganlar;
- Yerning yurtimizga qarama-qarshi tomonida ham quruqlik borligini — Amerikani Kolumbdan besh yuz yil avval kashf qilganlar.

Bundan tashqari, Jasurning: «Sizlar quyosh atrofida Yerdan boshqa yana sakkiz sayyora aylanishini bilasizmi?» savoliga Javdat javob beradi: «Ha, albatta. Bular — Merkuriy (Utorid), Venera (Zuhra), Mars (Mirrix), Yupiter (Mushtariy), Saturn, Uran, Neptun va Pluton sayyoralaridir».

Ko‘rinib turibdiki, bu ertak o‘quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini yuzaga chiqarish bilan birga, ularda ilmiy dunyoqarash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam bermoqda.

Asarni tahlil qilishda o‘qituvchining diqqat markazida turadigan omillardan yana biri — o‘rganilayotgan matnning o‘quvchilarga ko‘rsatadigan emotisional ta’siridir. Agar asar voqealar bayoni hisobiga qiziq bo‘lsa-yu, undan muallifning ko‘targan hayotiy masalaga nisbatan hayajoni sezilmasa, o‘quvchining axloqiy-ma’naviy dunyosini boyitolmaydi. Aslida esa asar tahlilidan maqsad o‘quvchida fikr qo‘zg‘atish, uning hayotiy tajribasi muallif qayd etgan faktlarga yoki ichki tuyg‘ular aks ettirgan qalb manzalariga to‘g‘ri kelish-kelmasligini aniqlashdan iboratdir.

Tahlil davomida asarning g'oyaviy mazmunini yoritadigan obrazlilikka—badiiy nafosatga, tarbiyaviy-estetik qimmatga ahamiyat bermoqlik muhim. O'qituvchi bola ruhiyatini to'g'ri anglagan me'mor sifatida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning iqtidoriga mos keladigan usul tanlab, interaktiv — o'zaro hamkorlikdagi pedagogik texnologiya asosida darsni tashkillashtirishi maqsadga muvofiqdir.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ruhiy holati va idrok etish qobiliyatini qanday izohlaysiz?
2. Badiiy asarni tahlil qilishning qanday metodik qoidalari bor?
3. Asar tahlilida emotsional jarayonni qanday tushunasiz?
4. Asar tahlilida o'quvchilarning mushohadasini yuzaga chiqaradigan qaysi omillarni bilasiz?
5. O'quvchi fikrini qo'zg'atish deganda nimani anglaysiz?
6. 3-sinf «O'qish kitobi»dagi X. Sultonning «Zahiriddin Muhammad Bobur» asarini tahlil qilish uchun mustaqil tayyorlaning. Darslikdagi matndan foydalaniib, asar badiiyligini tushuntiring.
7. Shu asarning g'oyaviy mazmunini ochuvchi matn rejasini tuzing. Asardagi har bir qismga sarlavha toping.

Laboratoriya mashg'uloti. O'qish darsiga tuzilgan reja ustida ishlash va uni tahlil qilish

O'qish darsiga tuzilgan reja ustida ishlashni bevosita tayanch maktablarning boshlang'ich sinflarida kuzatish va har bir amaliyotchi o'z nuqtayi nazari bilan tahlil qilishi mumkin. Ammo bu mashg'ulotni auditoriya sharoitida 2—4-sinflar «O'qish kitobi» mavzulari asosida o'tkazilsa ham bo'ladi. Bunda har qaysi talaba ham o'quvchi, ham o'qituvchi rolini bajaradi, ya'ni rejalar variantini tahlil qilishda faoliyat ko'rsatadi. Metodist-o'qituvchi esa ularning ishini tartibga soladi va baholaydi. «O'qish kitobi»da ayrim reja namunasi bor. Masalan, 4-sinfda Oybeknng «Alisherning yoshligi» asariga shunday reja tuzilgan:

Reja:

1. Alisherning Husayn bilan suhbatni.
2. Alisher qush va hayvonlarni yaxshi ko'radi.
3. Alisherning o'qishga ishtiyoqi.

Hikoya hajmi katta: ikkiga bo'lingan. Talabalar uni o'rgangach, kitobdag'i rejani boyitishi va tahlil qilishi, hikoya qismlarining har biriga reja tuzishi va sarlavha topishi mumkin. Talabalar ikki guruhga

bo‘linib, she’riy va nasriy asarni rejalashtirishsa, mashg‘ulot yanada unumli bo‘ladi. Har qanday holatda ham reja tuzish va tahlil qilish ishida quyidagi ko‘rsatmaga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Matnning g‘oyaviy mazmunini puxta o‘rganish.
2. Mazmunni yoritadigan asosiy gaplarni belgilab olish.
3. Izchil hikoya uchun rejaning amaliy mohiyatini anglash.
4. Reja mazmunning ko‘zgusi bo‘lishiga erishish.
5. Eng yaxshi reja asosida asar tahlilini o‘tkazish.

O‘QISH DARSLARIDA ADABIY NUTQQA E’TIBOR BERISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

REJA:

1. Kichik maktab yoshidagi bolalarda adabiy nutq malakalarini shakllantirish.
2. O‘qish darslarida o‘quvchi nutqidagi orfoepik normalarga e’tibor berish.
3. Adabiy nutqning o‘zlashishida:
 - a) naqliy (hikoyaviy) nutqning roli;
 - b) she’riy nutqning roli.
4. O‘qish darslari vositasida o‘quvchilarga adabiy nutq milliy madaniyatning asosiy ko‘rinishlaridan biri ekanligini o‘rgatib borish, ularning nutqini shevachilik va o‘rinsiz qo‘llangan chet so‘zlardan tozalash.
5. O‘quvchida adabiy nutq ko‘nikmasini takomillashtirish va uning ahamiyati.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning nutqi murg‘ak bo‘ladi. Ular kattalardan o‘zlashtirgan so‘zlarni ma’lum qoidalar asosida adabiy til normalariga solib gap tuzish kerakligini hali tushunib yetishmaydi. Bu borada adabiy nutqqa nisbatan o‘qituvchining e’tiborli bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Chunki boshlang‘ich ta’limda asosiy fanlardan saboqni bir o‘qituvchi beradi. Sinf bilan muntazam muloqotda bo‘ladi. Nutqiy aloqa uzilmaydi.

Shunday ekan, u qaysi o‘quvchida qanday nutqiy kamchilik borligini yaxshi biladi. Agar o‘sha nuqsonlar o‘z vaqtida bartaraf etilsa, nutq sayqallanadi, o‘quvchi murabbiy tergashlarini his qilib, aytadigan gapida so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llashga, fikrni oydin bayon etishga harakat qiladi. Bunday mas’uliyat ko‘proq o‘qish darslarida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar adabiy til qoidalarini nazariy jihatdan

o‘rganishmasa-da, turli janrdagi asarlarni o‘qish, tahlil qilish, qayta hikoyalash, yoddan aytish kabi nutqiy jarayonlarga duch keladi.

Matnlarda qayta-qayta uchragan so‘zlarga ko‘zi tushadi. Natijsada, ular o‘zlashtirgan lug‘atning katta qismi ana shu amaliy faoliyat mahsuli hisoblanadi. Shunday ekan, adabiy nutq mala-kalarini hosil qilishda o‘quvchilar o‘rganilayotgan asarni ongli tushunishi, uning g‘oyaviy mazmunini ilg‘ab olishi uchun analiz-sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullarni qo‘llash zaruriyati tug‘iladi. Chunki shu yo‘l-yo‘riq asosida o‘qituvchi sinf diqqatini asar tahliliga jalb qiladi.

1—2-sinflarda ifodali o‘qilgan matnning ayrim so‘zlarini makhalliy sheva variantiga ega bo‘lsa, ularni lug‘at jadvaliga yozdirish va nutqda adabiy so‘z qo‘llash shart ekanligi hamisha uqtirib borilishi zarur. Masalan, «Daraxtlar suhbat» (2-sinf) mavzusini o‘rganishda lug‘at jadvali quyidagicha tuziladi:

So‘zning sheva shakli	So‘zning adabiy shakli
sochti	sochdi
daraxtla	daraxtlar
kuttak	kurtak
manday	mendek
shaptoli	shaftoli
qo‘shilipti	qo‘shilibdi

Lug‘at ishlovidan keyin asar tahlili o‘rganilsa, o‘quvchilar orfoepik normalarga amaliy ravishda rioya qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishadi.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘quvchilar adabiy nutqini o‘stirish vositalaridan biri — yodlatishdir. O‘quvchilar hadis, hikmatli so‘zlar, xalq maqollari, topishmoq va tez aytishlarni yodlash paytida matn so‘zlarini qayta-qayta o‘qishga majbur bo‘lishadi. Shunda so‘zning adabiy shakli ham ularning xotirasiga joylashadi, ayni damda, ularning shaxsiy leksikasi ham boyiydi. Maktab tajriba-sida adabiy nutqning shakllanishi uchun matnni to‘liq o‘qish, tanlab o‘qish va ijodiy qayta hikoya qilish usullari muhim rol o‘ynaydi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilariga matnni to‘liq o‘qish yoki uni qayta hikoyalash osonroq. Ular beriladigan savolga javob izlab, tahliliy matnning sujetini, obrazlar xatti-harakatini, asarda ko‘tarilgan hayotiy masalani yechishga intiladilar. Savol esa asar g‘oysini ochishga yetaklovchi «aqliy hujum» xarakterida bo‘lishi zarur.

Masalan, «Tejamllilik uchun toma-toma ko'l bo'lur, tommay qolsa cho'l bo'lur maqolini qanday tushunasiz?» («Tejamli bo'ling», 2-sinf), «Omonatning mas'uliyatini qanday his qilasiz?» («Omonatga xiyonat», 4-sinf) kabi.

O'quvchi o'qilgan asar mazmunini savollar ko'magida yechsa, o'z fikrini ayrim dalillarga bog'laydi, qiyoslaydi va umumlashtirib, bir xulosaga keladi. Fikr hamisha nutqda namoyon bo'ladi. O'qituvchi nutq sofligini o'z nazoratida tutib, adabiy nutqimiz milliy madaniyatning asosiy ko'rinishlaridan biri ekanligini muntazam uqtirib boradi. Nutqni shevachilik, varvarizm (chet so'zlarni o'rinsiz qo'llash), ma'nosi buzuq so'zlardan poklash lozimligini o'quvchilar tom ma'noda anglashlari zarur. Adabiy tilni o'zlash-tirishda, asosan, nutqning ikki ko'rinishi ishtirok etadi:

1. Naqliy (hikoyaviy) nutq.
2. She'riy nutq.

O'qish kitoblaridagi mavzularning katta qismini naqliy matnlar tashkil qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning saviyasiga mos bo'lgan naqliy nutqni o'stirish yo'l-yo'riqlarini nisbiy ravishda quyidagilarda ko'rish mumkin:

1. Ifodali o'qilgan asar mazmunini tiklab to'la hikoya qilish.
2. Boshlanmasi berilgan hikoyani davom ettirish.
3. Ertak yoki naqllarni boyitib, ijodiy qayta hikoya qilish.
4. Asar shaxsini o'zgartirib, qayta hikoya qilish.
5. Monologik asarlarning sahna varianti uchun mazmunni saqlagan holda dialogik nutq yaratish.

Adabiy nutq malakalarini shakllantirishning she'riy shakli o'quvchilar uchun zavqli va qulaydir. She'riy nutq bolalar siyratini nafosat tuyg'usi bilan ziynatlaydi, fikrlash qobiliyatini o'tkirlash-tiradi, so'zlarning serqirra ma'no tovlanishlarini namoyon etadi, misralarning vazni va ritmik bichimi ko'ngilga zavq bag'ishlaydi. Shuning uchun Davlat ta'lif standartining o'quv dasturida nutq o'stirishning asosiy omillaridan biri she'r yodlash ekanligiga alohida e'tibor qaratilgan. Fikr dalili sifatida 2-sinflar uchun yodlashga tavsiya etilgan she'rlar ro'yxatini keltiraylik:

- «O'zbekiston» — *Hamza Imonberdiyev*;
«Vatan» — *Narimon Orifjonov*;
«O'lka» — *Erkin Vohidov*;
«O'quvchiga esdalik» — *Quddus Muhammadiy*;
«Vaqt qadri» — *Tolib Yo'dosh*;

«Muallimim» — *Yusuf Shomansur*;
«Kuz keldi» — *Uyg'un*;
«Bog'da» — *Qambar Ota*;
«Yolg'onchi» — *Alisher Navoiy*;
«Humo qushim» — *Po'lat Mo'min*;
«Shudring» — *Muhammad Ali*;
«Hissang qo'sh» — *Eson Rahmon*;
«G'alaba kuni» — *Muxtor Xudoyqulov*;
«Oq terakmi, ko'k terak» — xalq so'zi.

Shunday qilib, o'quvchilarda adabiy nutq ko'nikmasini takomillashtirish nutq odobini egallashga ijobjiy ta'sir qiladi. «Til — millatning ko'zgusi», ta'rifining ma'nosi milliy madaniyatga daxldor ekanligini o'quvchilar anglab yetishadi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Adabiy nutq qanday nutq?
2. O'quvchilar nutqiga qo'yilgan orfoepik talablar qaysilar?
3. Adabiy nutqni o'zlashtirishda naqliy nutq roli qaysi usullar orqali namoyish etiladi?
4. She'riy nutqning ta'sirchanligi nimada?
5. Nega tilni millatning ko'zgusi, deb ta'riflanadi?
6. «Adabiy nutq ko'nikmalarini takomillashtirishning ma'rifiy ahamiyati» mavzusida ma'ruza tayyorlang va muhokama qiling.
7. She'riy nutq nafosatini 3-sinf darsligi asosida ko'rsatib bering va izohlang.

Amaliy ish. Nutq o'stirish ko'nikmasi bo'yicha tahlil

Bu dars har xil janrdagi asarlarni o'rganish uchun boshlang'ich ta'limda keng o'rinn berilgan hikoya va ertak yuzasidan o'tkaziladi. Talabalar 2—4-sinf «O'qish kitobi»dan o'zlari uchun manzur bo'lgan hikoya yoki ertakni tanlab, asarni tahlil qilish uslubini ishlab chiqadilar. Nutq o'stirish ko'nikmasini hosil qilishda matn ustida ishlashning quyidagi turlariga e'tibor berishlari lozim:

1. Asarning g'oyaviy mazmunini yoritadigan qismini topib, unga sharh berish. Tanlab qo'yishni joriy etish.
2. Muhokama vositasida nutq o'stirish ko'nikmasiga ega bo'lish uchun berilgan savolga o'z so'zlari bilan javob berish usulidan foydalanish.
3. O'zaro savol-javob asosida nutq o'stirish usulini qo'llash.
4. Matnni so'z bilan tasvirlash va reja asosida qayta hikoya qilishni amalga oshirish va boshqalar.

MUSTAQIL ISHLAR

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING BILIM SAVIYASIGA INDIVIDUAL YONDASHISHDA JONLI NUTQQA TAYANISH

REJA:

1. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarning ruhiyati haqida.
2. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar bilim savyasining o'ziga xosligi.
3. O'zlashtirishiga qarab o'quvchilarga individual yondashish.
4. Bilim va nutqiy jarayon.
5. Jonli nutqqa tayanish.

Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar deganda, 7—12 yoshdagi boshlang'ich ta'lіm (I—IV sinflar) o'quvchilari nazarda tutiladi. Bola mакtab uchun bog'chada yoki oilada tarbiyalanmog'i lozim. Shunda u bilim asoslarini o'rganishga biologik va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi. Ruhshunoslarning kuzatishlaricha, bu davrda bolaning ruhiyati bilim olishga yetarli darajada to'lishib, idrokning o'tkirligi, sofligi, aniqligi, yorqinligi, bilishga qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayolining musaffoligi, xotirasining mustahkamligi, fikrchanligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'lіmiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatlari va shartli barqaror bo'ladi, ayniqsa, bola diqqatining xususiyatlari didaktik o'yinlarda, muammolar jarayonida o'zgalar nutqini idrok qilishi va tushunishida, hikoya tinglash va qayta hikoya qilishida ko'rindi. Bola maktab davrigacha kattalarga taqlidan u yoki bu axborotni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xohish-irodasi bilan ziar ma'lumotlar toplashga intiladi. O'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi.

Bola xulq-atvoridagi bu o'zgarish va faollik uning xotirasi muayyan darajada rivojlanganligini bildiradi. 1-sinf o'quvchisi ko'proq bilim faoliyatini yaqqol obrazli xotiraga tayangan holda tashkil etadi. Nutq ham izchil, ifodali, grammatik qoidalarga emas, balki miqdor va ko'lamiga ko'ra o'zgalar bilan fikr almashish uchun yetarli darajada shakllangan bo'ladi. Shu bilan birgalikda bolani maktab ta'lіmiga ruhiy tayyorlashning ichki (botiniy) jihatni ham mavjuddir. Unda

shu davrga kelib, bilim olish, o'qish-o'rganish xususida to'g'ri tasavvur yuzaga keladi. Maktab intizomiga itoat qilishga, o'qituvchilar ko'rsatmasini bajarishga moyil bo'ladi. Lekin bolalardagi qobiliyat, iqtidor bir xil emasligidan ular o'rtasida muhim farqlar vujudga keladi. Binobarin, ba'zi bola mакtabga zo'r ishtiyоq bilan intilsa, ba'zisi maktabdan qat'iy voz kechishgacha borib yetadi. Muhimi, mакtab ta'limida o'quvchida o'qishga salbiy munosabat uyg'onmasligi uchun kurashish zarur. Bu ishda eng maqbul yo'l bolalardagi bilim saviyasining o'ziga xosligini inobatga olib, individual yondashishdir. Yangi pedagogik texnologiyaning talablaridan biri ham xuddi shu.

Pedagogik texnologiya (PT) atamasi inglizcha *an educational technology* so'z birikmasining mazmuniga muvofiq bo'lib, ta'lim texnologiyasi, degan ma'noni bildiradi. Bu ibora amerikalik olim B. Skinner tomonidan 50-yillarda birinchi marta «o'qitish texnologiyasi» deb qo'llangan. Bizda esa o'tgan asrning 90-yillarining boshiba bu atamani qo'llash iste'molga kirdi. Texnologiya so'zining 300 dan ortiq ta'rifi berilgan bo'lib, keng tarqalgани quyidagicha: «**TEXNOLOGIYA** — bu o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonuniyatlarini o'zida jamlagan va yakuniy natijasini ko'rsatadigan pedagogik faoliyatdir». Shu ilg'or murabbiylik faoliyati negiziga qurilgan texnologiya talabiga muvofiq o'qituvchi ta'lim bosqichida har bir bolaga individual yondashishi hamda ta'limni Insonparvarlashtirish va Demokratlashtirish talablariga o'quvchida rag'bat uyg'otishi asosiy vazifa sanaladi. Individual yondashishda ta'limning bosh figurasi o'qituvchi hisoblansa-da, ta'lim olishga ixtiyoriy harakat o'quvchi tomonidan bajarilishi lozim. Natijada, ta'lim erkinligi shakllanadi. Bunda:

1. O'rgatuvchi va o'rganuvchi orasida ijobjiy ma'nodagi masoфа yo'qola boradi.

2. O'rganuvchi bilimni o'z shaxsi uchun zarurat ekanligini anglay boshlaydi.

3. O'rganuvchida ta'limdoshlaridan orqada qolmaslik g'ururi paydo bo'ladi.

4. Erkin fikrlash uchun to'siq sezilmaydi va ijodkorlik tuyg'usi qalbida nish uradi.

5. O'rganuvchida o'zlikni anglash tushunchasi umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyanish tushunchasi bilan uyg'unlashadi.

O'quvchida ijodiy fikrni rivojlantirish uchun «O'qituvchi kitobi» muallifi Shohidaxon Yusupova ijobjiy xususiyatga ega bo'lgan «MEN va BIZ» konsepsiyasini ilgari suradi:

MEN – bu o‘zgalarga o‘z bilimining kuchli ekanligini namoyish qila olish.

BIZ –bu juftliklarda, guruhlarda o‘qitganda bir guruh ikkinchi guruhgaga nisbatan kuchliligini ko‘rsata olish.

Bu konsepsiya o‘qituvchi uchun individual yondashishning bir noan‘anaviy tarmog‘i bo‘lib, o‘qish darslarida o‘quvchilarga nutq madaniyatini egallash malakasini kashf etishga yordam beradi. Nutq esa bilimning tashqi (zohiriyl) ko‘rnishidir. Bilim va nutqiy jarayon uzviy aloqa halqlarida birlashib, maktab ta’lim-tarbiya tizimiga asos soladi. O‘quvchilar nutq sharofati bilan:

- a) o‘z aql-zakovatlarini namoyish qiladi;
- b) muomala madaniyatini egallaydi;
- c) tilning an‘anaviy qonuniyatlarini o‘rganadi va hurmat qiladi;
- d) jonli xalq tilini ma‘naviy meros sifatida butun jilolari bilan his qilishga odatlanadi;
- e) jonli nutq adabiy nutqning yadroси va badiiy bezagi ekanligini nutq jarayonida anglab yetadi.

Fikrni dalillash maqsadida boshlang‘ich ta’limning 2-sinf «O‘qish kitobi»ga nazar tashlaymiz. Darslik «Ona yurtim – oltin beshigim», degan sarxat bilan ochilib, unda Vatan, O‘zbekiston va Istiqlol to‘g‘risida, el-yurt uchun kurashgan ajdodlar xususidagi she’riy va naqliy matnlar orqali o‘quvchilarga jonli xalq nutqining jozibasini uqtirish, axloqiy komillik kabi insoniy fazilatlarni targ‘ib qilishga erishilgan.

O‘ZBEK TILINING NUTQ TOVUSHLARI HAQIDA MA’LUMOT

Mavzu seminar mashg‘uloti tarzida topshirilgani ma’qul. Chunki talabalar analistik-sintetik tovush metodi haqida to‘liq bilimga ega. Bu mavzu ularga oldindan beriladi. Har bir ilm tolibi mustaqil ravishda tayyorgarlik ko‘radi. Mavzu materialini turli manbalardan izlaydi. Ularga o‘qituvchi tomonidan yo‘nalish beriladi:

1. Mavzu rejasini har bir o‘quvchi mustaqil tarzda o‘zi tuzadi.
2. Mavzu reja asosida yoritiladi. Ortiqcha tafsilot kiritilmaydi.
3. Mavzuni yoritish uchun zarur bo‘ladigan adabiyotlar ro‘yxati beriladi:

- a) «Ona tili va adabiyoti». A. Rafiyev. T., 2002.

- b) «O‘zbek tili». M. Mirzayev. T., 1978.
- d) «Ona tili». G‘. Abdurahmonov. T., 1995.
- e) «Hozirgi o‘zbek adabiy tili». U. Tursunov. T., 1975.

NUTQ O‘STIRISH KO‘NIKMASI BO‘YICHA TAHLIL

Bu dars har xil janrdagi asarlarni o‘rganish uchun boshlang‘ich ta’limda keng o‘rin berilgan hikoya va ertak yuzasidan o‘tkaziladi. Talabalar 2—4-sinf «O‘qish kitobi»dan o‘zlariga manzur bo‘lgan hikoya yoki ertakni tanlab, asarni tahlil qilish uslubini ishlab chiqadilar. Nutq o‘stirish ko‘nikmasini hosil qilishda matn ustida ishslashning quyidagi turlariga e’tibor berishlari lozim bo‘ladi:

1. Asarning g‘oyaviy mazmunini yoritadigan qismini topib, unga sharh berish. Tanlab o‘qishni joriy etish.
2. Muhojama vositasida nutq o‘stirish ko‘nikmasiga ega bo‘lish uchun berilgan savolga o‘z so‘zi bilan javob berish usulidan foydalanish.
3. O‘zaro savol-javob asosida nutq o‘stirishni yuzaga keltirish usulini qo‘llash.
4. Matnni so‘z bilan tasvirlash va reja asosida qayta hikoya qilishni amalga oshirish va boshqalar.

O‘QISH DARSLARIDA MUSTAQIL ISH

Mavzu talabalarga topshirilganda, o‘qituvchi yo‘nalish beradi. Bunda o‘qish darsliklaridagi (2—4-sinflar) mustaqil ishning quyidagi jihatlariga e’tibor berish lozimligi uqtiriladi:

1. O‘qish darsliklaridan mustaqil ishning maqsad va vazifalarini yoritish.
2. Asarni ichda o‘qishning boshlang‘ich sinflardagi miqdoriy ko‘rsatkichi hamda uning ifodali nutqda tutgan o‘rnini aniqlash.
3. O‘qilgan matnga doir savollarga javob berishda bolalarning diqqatini tushunib o‘qishga jalb etish.
4. O‘qilgan asar mazmunini to‘liq bilib olish uchun o‘qituvchi bergen topshiriqni bajarish. Masalan, «Matndan Alisherning tashqi ko‘rinishi tasvirlangan o‘rinni toping, ovoz chiqarib o‘qing va o‘z so‘zlarining bilan qayta ifoda eting («Bola Alisher», Oybek, 3-sinf).

5. O‘qilgan matnning rejasini tuzish bilan bog‘liq bo‘lgan mustaqil ish:
- o‘qilgan asarga doir rasm chizish;
 - chizilgan rasmga matn so‘zlari yoki o‘z so‘zi asosida sarlavha qo‘yish;
 - o‘qituvchining aralash bergan savollaridan foydalanib reja tuzish;
 - matnni mantiqiy qismlarga bo‘lish, har bir qismga mos sarlavha topish va boshqalar.

UMUMLASHTIRUVCHI O‘QISH DARSI

R E J A :

1. Dars qurilishining o‘ziga xosligi va odatdagi darslardan farqi.
2. Darsda ilgari surilgan maqsad.
3. Dars uchun tanlanadigan ish usuli.
4. Darsni tashkil etishda o‘qituvchining pedagogik mahorati.
5. O‘quvchilar bilimini mustahkamlash, tafakkurini kengaytirish va xotirasini quvvatlantirishda darsning roli.

Boshlang‘ich ta’limda umumlashtiruvchi o‘qish darsini tashkil etish o‘quvchilar bilimini sintezlashning asosiy omili hisoblanadi. Uni noan’anaviy dars usullari asosida qiziqarli, esda uzoq vaqt saqlanadigan tarzda uyushtirish mumkin. Umumlashtiruvchi o‘qish darsini har chorakda bir marta o‘tkazish imkoniyati mavjud.

Davlat ta’lim standartlari o‘quv dasturi talablariga ko‘ra, o‘qish darslarida o‘zlashtirilayotgan har xil janr va mavzudagi asarlar to‘g‘risida o‘quvchilar bilimi, fikrlashi hamda mulohazalari umumlashtirilishi lozim. Bu dars strukturasini noan’anaviy usulning qaysi turida o‘tkazishni o‘qituvchi belgilaydi. Biroq u umumlashtiruvchi darsdan ko‘zlangan maqsadni nazardan qochirmaydi. Bu maqsad quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- o‘quvchilarning bir necha darsdan olgan bilimlarini tizimga solish;
- mavzularda tahlil etilgan asosiy g‘oyani umumlashtirish va ularni hayot bilan bog‘lash;

- o‘rganilgan bilim mohiyatining o‘quvchi shaxsiga ta’sirini aniqlash;
- o‘zlashtirilgan asarning tarbiyaviy xarakterini belgilash.

Bu darsda o‘qituvchi bolalar dunyoqarashini kengaytiradigan va bilimini boyitadigan qo‘srimcha materiallardan foydalanishi mumkin. U o‘tilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash maqsadida «Javob bering, taqdirlayman», «Mantiqan o‘yla, top va ijro et» kabi ta’limiy-didaktik o‘yinlarni tashkil qilishi, o‘quvchilarning farqlanuvchi fikr va tushunchalarini bir g‘oyaviy mazmun atrofida yig‘ishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday darsda o‘quvchilar kitobdan o‘qiganlari bilan chegaralanib qolmasdan, o‘z kuzatishlari natijasida bevosida idrok etgan hayotiy tajribalariga ham tayanadilar. Darhaqiqat, oilaga, tengdoshlar hayotiga va tabiat go‘zalliklariga bag‘ishlangan umumlashtiruvchi darslarning vazifasi kitobda o‘rganilgan voqeа-hodisalarни o‘quvchilarning kuzatishlari va ekskursiyadan olgan taassurotlariga bog‘lashdir.

Bu darsning ish turi ham xilma-xil bo‘lib, uning qamroviga o‘quvchilarning quyidagi faoliyatları mujassam etilgan bo‘ladi:

- o‘qilgan asarlar mohiyatini ochishda hayotiy dalillar keltirish yuzasidan suhabat;
- namoyish materiallari (ekologik yoki axloqiy videolar, manzarali rasmlar)ni ko‘rsatish va muhokama qilish;
- o‘quvchilarning she’riy qiroati yoki o‘ziga jozibali tuyilgan nasriy asardan parcha o‘qishi;
- ekskursiya taassurotlari yoki ko‘rgan-kechirganlari haqida o‘quvchilarning hikoyasi.

Umumlashtiruvchi darsdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning dastur mavzusi yuzasidan o‘qigan, kuzatgan va eshitgallari haqida o‘z mushohadalarini erkin, mustaqil fikr bilan bayon etishlarini tashkil qilishdir. Shunda o‘quvchilar nutq madaniyati malakalariga ega bo‘la boshlaydilar. Zотан, «Umumiyo‘rtta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qaroriga kiritilgan ilovada boshlang‘ich ta’limdagи mustaqil tafakkurni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, matn mazmuni va o‘zgalar fikrini anglash malakasi bo‘yicha aniq tavsiyalar berilgan. Unda:

«Miqdoriy ko‘rsatkich: 10 daqiqada 4—5 sahifali matnni o‘qib, qayta so‘zlab bera olish.

Talablar:

- og‘zaki nutqning to‘g‘ri, ravon, aniq, tushunarli va ta‘sirchan bo‘lishi;
- monologik nutqning ravnligi;
- dialogik nutqda ta‘sirchan, izchil, mantiqiy jihatning aniq bo‘lishi» ko‘rsatib o‘tilgan.

Ana shu ko‘rsatma va talablar mazmunidan kelib chiqib, darslikdagi biror bo‘limni yakunlab o‘tkaziladigan umumlash-tiruvchi darsda o‘quvchilar o‘zlariga yoqqan asarni o‘qituvchi yo‘llanmasi asosida tahlil qiladilar, obrazlarning xatti-harakati, xulq-atvoriga munosabat bildiradilar, ularning qiyofasini so‘z bilan tasvirlab beradilar. Masalan: 3-sinfda «O‘tmishni o‘rganish – burchimiz», degan mavzuda umumlashtiruvchi dars tashkil etilsa, o‘quvchilar «Toshkent» (Erkin Malikov) nomli ikki qismidan iborat matndan poytaxt-shaharning qadimiyligini, Toshkent nomi sayyoohlarning «Toshqal‘a», «Toshminor» deb atashlaridan kelib chiqqanligini, «Jaloliddin Manguberdi» nomli matndan esa Xorazmshoh o‘g‘li Jaloliddinning Chingizxon qo‘sishlariga qarshi qahramonona kurashgan mard sarkarda bo‘lganligini, Chingizxon o‘z raqibi Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolganligini, daryoning u sohilida turib qasoskor musht o‘qtalgandan ta’sirlanib, mo‘g‘ul lashkarboshilariga undan o‘rnak olishlarini uqtirganini, «Cho‘pon yigit Shiroq» afsonasida esa sak qabilasidan bo‘lgan cho‘pon Shiroq o‘z eli erki uchun Doro qo‘sishlarini halokatga uchratib, o‘zi halok bo‘lganini bilib oladilar.

Yurt tarixi va ajdodlar hayoti haqidagi bunday bilimlar o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vositasi sanaladi. O‘qish kitobida bo‘lim yuzasidan berilgan savol va topshiriqlar ham bolalarda kuchli qiziqish uyg‘otadi. Ular o‘rganilgan mavzu yuzasidan to‘g‘ri yakun va umumiylashtiruvchi darsning qay darajada muvaffaqiyatli chiqishi o‘qituvchining avvaldan uni puxta rejalishtirib olishiga, yangi pedagogik texnologiyadan foydalanishiga, o‘quvchini jalb etadigan mashg‘ulot usullarini qo‘llashiga bog‘liq. Bu darsda bir necha materiallar yuzasidan yakuniy xulosalar chiqarishga o‘quvchini da‘vat etish ular fikrini chalkashtirib yuborishi, mulohazalarini xiralashtirishi mumkin. Natijada, diqqati chalg‘igan o‘quvchining fikrlash faolligiga putur yetadi.

Shuning uchun o‘qituvchi umumlashtiruvchi darsni tashkillashtirishdan oldin maqsad va tadbir aniqligiga erishmog‘i kerak:

1. Bu darsni kitobdagagi yirik bir bo‘lim o‘rganilgandan keyin o‘tkazish.
2. O‘quvchilar o‘zlashtirgan har xil janrdagi asarlarning g‘oya-viy mazmunidagi o‘zaro aloqadorlik tizimini aniqlash.
3. O‘quvchilarda akmeologiya (rivojlanishning yuqori darajasi) malakalarini shakkantirish, o‘z intellektini ishga solib «aqliy hujum»ga shaylanish iqtidorini uyg‘otuvchi savol va topshiriqlar yaratish.
4. O‘quvchiga g‘oya berish va g‘oya olish borasida davra suhbatি tayyorlash.
5. Fikrlarni umumlashtirish, axloqiy, ma’naviy-ma’rifiy xulosalar chiqarish.

Xulosa qilib aytganda, umumlashtiruvchi dars o‘quvchilar bilimini mustahkamlashda va hayotiy tasavvurlarini kengaytirishda katta ahamiyatga ega.

BADIY ASARNI O‘QISH VA TAHLIL QILISH

REJA:

1. Badiiy asarni o‘qishda o‘qituvchining amaliy vazifasi.
2. Asarni o‘rganishning asosiy bosqichlari.
3. Badiiy asarning tahlili — ijodiy jarayon.
4. Asar muhokamasining tarbiyaviy ahamiyati.

Boshlang‘ich sinf o‘qish kitoblaridagi badiiy asarlar o‘quvchining idrok etish qobiliyatiga bog‘liq holda o‘qib o‘rganiladi va tahlil qilinadi. Bunda o‘qituvchi asarning janr xususiyatiga, voqeа-hodisa va obrazlar xatti-harakatiga o‘quvchilarning ruhan tayyorligini tekshiradi. Xusan, kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilar asar timsoliga xos xususiyatni tasvirga muvofiq holat bilan belgilaydi. Shuning uchun o‘qituvchi asar tahlilida badiiy komponentlarning o‘zaro bog‘liqligini soddallashtirib tushuntirishi, matnni bosqich-ma-bosqich o‘zlashtirishga imkon yaratishi lozim.

Dastlabki bosqichda matnni yaxlit idrok etish orqali asarning umumiyligi mazmuni bilan tanishadi, muayyan sujet chizig‘i o‘rga-

niladi, asarning emotsional ta'siri aniqlanadi. Keyingi bosqich esa tahlil jarayonini boshlab beradi. Uning mazmuni quyidagi talqinni o'z ichiga oladi:

- a) voqealar rivojidagi imkoniyat, sabab va natija orasidagi bog'lanishni belgilash;
- b) asardagi timsollarning axloqiy fazilatlari va nuqsonlarini aniqlash;
- c) asar kompozitsiyasi (ekspozitsiya, voqealar rivoji, tugun, kulminatsiya, yechim)ni ochish;
- d) asarning g'oyaviy mazmunini tasviriy vositalar ishtirokida tahlil qilish va obrazlar xulq-atvorini baholash.

So'nggi bosqich o'quvchilarda erkin fikrlash, asardagi shaxslarning muhim xususiyatlarini umumlashtirish, ularni taqqoslash va baho berish, asarning g'oyaviy yo'nalishini aniqlash, badiiy bo'yoqlarda hayotiy voqealarning suratlanishini anglash, ma'lum muammolarni hal etish kabi tushunchalarni paydo qiladi.

O'rganilayotgan badiiy asarni idrok etish uchun o'qituvchi matn ustidagi yakunlovchi ishlarni o'quvchilarining hayotiy tajribasi bilan bog'laydi, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlarini aniqlaydi, fikr-mulohazalarini teranlashtiradigan usulga murojaat qiladi. Chunonchi, o'qituvchi Safar Barnoyevning «Bobonur» hikoyasini (3-sinf) o'qish-o'rganishdan avval o'quvchilar bilan qisqacha suhbat o'tkazadi va Vatan osoyishtaligi, askarlik burchi, rizq-nasibaga doir milliy udumimiz haqida so'zlab, Niginaning askar akasidan kelgan xat va uning ichidagi rasmdan suyunganligi sababini tushuntiradi. Hikoyadagi Sabriya bibining nasiba uzilmasligi, rizq butun saqlanishi uchun patir yopib, yaxshi niyat bilan Bobonurga tishlatgani, mamnun askar Samarqandga harbiy xizmat o'tayman, deb ketganligi o'quvchilarda faxr tuyg'usini uyg'otadi. Kitobxon nima uchun Sabriyaning chehrasi yorishgannini, bibi qishloq yigitlariga yopgan patirini uzatib: «Mana, buni issiqligida tishla, bolam, nasibang doimo butun bo'lsin!» degan samimiyl tilagini aniq his qiladilar, yurtimiz mustaqilligi mustahkamlanib borishi to'g'risidagi hikoya g'oyasini teran anglashga muyassar bo'ladilar.

O'qish darslarida o'rganilayotgan badiiy asar maqsadga muvofiq tahlil qilinsa, o'quvchilar faollashadi, madaniy-ma'rifiy saviyasi rivojlanib, fikri boyiydi va:

- a) badiiy asarda tasvirlangan faktlarni hayotiy kuzatishlari bilan bog'lay olishga o'rganadi;
- b) yozuvchining hayoti va ijodiga qiziqadi, boshqa asarlarini topib o'qishga intiladi;
- d) asarning emotsional ta'sirini ilg'ab oladigan bo'ladi;
- e) nutq odobi shakllanadi hamda so'z qo'llashda uning leksik ma'nosiga ahamiyat berishi kuchayadi.

Darhaqiqat, o'quvchi uchun badiiy asar tahlili ijodiy jarayondir. Bu jarayon uning axloqiy sifatlarini mukammallashtiradi. Komil tarbiyaga erishishda asosiy omillardan biri bo'ladi.

O'RGANILGAN SABOQLAR YUZASIDAN SINOVGA TAYYORLANISH UCHUN TEST SAVOLLARI TUZISH

Talabalar mustaqil o'rganilgan mavzulardan tashqari fan yuzasidan olgan saboqlari asosida test savollari tuzadilar. Ular tuzgan savollarning ko'lami keng bo'lib, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, seminarlar va nazariy darslar bilan bog'liq bo'ladi. Namuna:

1. *I-sinfda tilning qaysi tomonini o'rganishga ko'proq e'tibor beriladi?*
 - a) leksika va so'z yasashga;
 - b) fonetika va grafikaga;
 - d) so'z va so'z birikmasiga;
 - e) ibora va gapga.
2. *Ma'no anglatuvchi tovushlar yig'indisi nima?*
 - a) gap;
 - b) tovush;
 - d) so'z;
 - e) qo'shimcha.
3. *Dasturga ko'ra o'quvchilar qachon so'zlarni bo'g'inlarga bo'lish ko'nikmasiga ega bo'ladilar?*
 - a) savod o'rganish davrida;
 - b) bog'chada;
 - d) o'qish davrida;
 - e) «Ona tili» darsida.

4. O‘zbek tili yozuvi qanday yozuv hisoblanadi?

- a) hijo yozuvi;
- b) harf yozuvi;
- c) tovush yozuvi;
- d) grafik yozuv.

5. Davlat ta’lim standarti tavsiyasiga ko‘ra matnni o‘qib, qayta so‘zlash uchun miqdoriy ko‘rsatkich qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

- a) 5 daqiqada 5 sahifa o‘qish;
- b) 3 daqiqada 4 bet o‘qish va qayta so‘zlash;
- c) 10 daqiqada 4—5 sahifali matnni o‘qib, qayta so‘zlay olish;
- d) 10 daqiqada 2—3 sahifali matnni o‘qib, qayta so‘zlash.

Test tuzish mustaqil ravishda davom ettiriladi.

2 - qism

III. TURLI JANRDAGI ASARLARNI O'RGATISH

HIKOYA O'QISH METODIKASI

R E J A:

1. Boshlang'ich ta'limdi turli janrdagi asarlarni o'rganish.
2. Hikoya haqida tushuncha.
3. Hikoyaning boshlang'ich sinflar saviyasiga mos bo'lishi.
4. Hikoya g'oyasini ochishga xizmat qiladigan ish turlari.
5. Hikoya o'qishning tarbiyaviy ahamiyati.

Boshlang'ich ta'limdi hajm jihatidan ixcham bo'lgan badiiy asar janrlaridan hikoya, ertak, masal, she'r, rivoyat, asotirlar, dostondan parcha, xalq og'zaki ijodi namunalari va ilmiy-ommabop maqolalar o'qitiladi.

Turli janrdagi asarlar sujeti, uslubiy bo'yog'i, til vositalarining o'ziga xosligi jihatidan o'quvchilarga har xil ta'sir qiladi. O'qish darslarida o'qituvchi o'rganilayotgan asarning janr xususiyatlarini inobatga olib, unga mos bo'lgan an'anaviy yoki noan'anaviy pedagogik usullardan foydalanishi zarur.

Hikoya — epik tur janrlaridan biri. Kichik hajmli bu badiiy asar kishi hayotidagi ma'lum bir voqeaneing muhim tomonlarini umumlashtirib tasvirlaydi, lekin shu voqeaga qadar ro'y bergan yoki undan keyin yuzaga keladigan voqealar haqida batafsil bayon qilmaydi. Hikoyanavisning mohirligi shundaki, u qaynoq hayot qo'ynidan bir epizodni olib, yashashning muhim, tipik tomonlarini shu ixcham shaklga sig'diradi.

Hikoyadagi ana shu ixchamlik, obrazlar xarakterining murakkab emasligi boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun mos keladi. Kichik yoshdagи bolalar asar qahramonining ruhiy kechinmalarini tahlil qilishga emas, balki o'sha qahramon harakati, portreti, jasorati va nutqiga ko'proq qiziqadilar. Qiziqrли sujet asosiga qurilgan hikoya ularning diqqatini tezda o'ziga jalb etadi. Boshlang'ich sinflarda hikoya mazmunini ko'proq izohli o'qish vositasida o'r ganiladi. Bunda quyidagi o'qish-o'rganish ishlari amalga oshiriladi:

— ifodali o'qish;

- matnni qayta hikoyalash;
- lug‘at ustida ishlash;
- savol-javob vositasida hikoyadagi voqeа-hodisalar bilan obrazlar xatti-harakatidagi ichki bog‘lanishni aniqlash va boshqalar.

Hikoyani o‘qishda mazmun tahlilidan tashqari o‘quvchilar nutqini o‘stirish ham muhimdir. Shuning uchun hikoya matni o‘qilgach, uning g‘oyaviy mazmunini ochishga daxldor bo‘lgan savollar topib yoki darslik savollari va topshirig‘idan foydalangan holda o‘quvchilarni gapirishga, hikoya voqealariga o‘zlarining mustaqil munosabatini bildirishga, obrazlarni taqqoslash va ularning xulq-atvoridagi yaxshi yoki yomon xususiyatlarni ajrata olishga undash zarur.

Masalan, S. Anorboyevning «Bahs» hikoyasidagi (3-sinf) kasbning yaxshi-yomoni bo‘lmaydi, uning xalq manfaatiga xizmat qilishi muhimdir, degan g‘oya Halim, Salim, Karim ismli uch o‘rtoqning bahsli suhbatida namoyon bo‘ladi. Karim otasining cho‘ponligini maqtasa, Halim otasining hisobdonligini ustun qo‘yadi, Salim esa qorovul otasi bilan g‘ururlanadi. Karimning buvasi behuda bahsga chek qo‘yib, kasbning yomoni bo‘lmaydi, deydi. Hikoya g‘oyasi shu cholning gapida aks etadi. Asar tahlilida o‘quvchilar shu g‘oyani anglab olishlari uchun quyidagi savol va topshiriqlarni bajarishi talabga mosdir:

1. Bolalar nima haqida tortishadi?
2. Karim o‘rtoqlarini nega xafa qildi?
3. Bobosi Karimga nima dedi?
4. Uch qismdan iborat bo‘lgan hikoyaning har bir qismiga sarlavha qo‘ying, o‘zingizga yoqqan qismini so‘zlab bering.
5. «Ichlariga chiroq yoqqanday yorishib ketdi» iborasining mazmunini izohlang.

Ushbu savol va topshiriq o‘quvchilar muhokamasi asosida hal qilinib, o‘qituvchi tomonidan fikrlarga aniqlik kiritilsa, hikoya sujetini tushunish osonlashadi. Keyin uch o‘rtoq obraziga tavsif beriladi, asar tili o‘rganiladi.

Asar mazmunini yoritishda o‘quvchilar tuzgan savollardan foydalanish ham yaxshi natija beradi. U sinfda jonlanishni, motivatsiyani yuzaga keltiradi. Biroq maktab tajribasidan ma’lumki, o‘quvchilarning qobiliyati, intellekt darajasi bir xil bo‘lmaydi. Bu farq ularning o‘quv faoliyatiga nisbatan motivatsiya hosil qilish bilan farqlanadi. Dars maqsadini amalga oshirish uchun o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadigan turli pedagogik usullardan foydalanish darkor. Ayniqsa, hikoya yuzasidan sahna varianti yaratish, obrazga

kirib, dialogik nutqni yodlash va uni jonli ijro etish asar ruhiyatini hayotiylashtiradi. Sinfdag'i sust o'zlashtiradigan o'quvchilar ham jonli ijroga befarq qarashmaydi. O'rtoqlarining harakati va asar voqeasining ko'z o'ngida namoyon bo'layotgani ularni ta'sirlantiradi. Natijada, tafsilotlarda adashsalar ham, asar g'oyasini to'g'ri anglashadi.

Hikoyani o'rganish uslubi haqidagi fikrlarni umumlashtirib, izohli o'qish darsining reja variantini metodik tavsiyalarga suyangan holda quyidagicha belgilash mumkin:

1. Hikoyada tasvirlanuvchi voqeа sodir bo'ladigan muhitga o'qituvchi tomonidan qisqacha tavsif berish.
2. Hikoyani bir darsga mo'ljallangan qismini o'qituvchi yoki sxandonligi chirolyi bo'lgan o'quvchi tomonidan ifodali o'qish.
3. O'quvchilar hikoya mazmunini qay darajada idrok etayotganlarini bilish maqsadida suhbat o'tkazish.
4. Tushunishda mavhumlik sezilgan so'z yoki iboralarni, fanga doir terminlar ma'nosini izohlash.
5. Hikoyaning sahna variantini o'qituvchi ko'rsatmasi asosida yaratish va obrazlar replikasini asar ruhiga mos tarzda yodlatish.
6. Hikoya matnini qismlarga bo'lish va har biriga sarlavha topib, alohida-alohida reja tuzish.
7. Hikoyaning ma'lum qismini ifodali o'qish va reja asosida qaytadan bayon qilish.

Hikoyani o'qish va uning mazmunini o'zlashtirishdagi bu reja varianti qat'iy bo'lmay, noan'anaviy dars usullari bilan boyitish mumkin. Biroq shu narsani e'tiborda tutish lozimki, hikoya o'qish darsida undagi asosiy maqsadni aniqlash bilan birga, asarning tarbiyaviy ahamiyatini va ma'naviy ta'sirini nazaridan qochirmaslik zarurdir.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Boshlang'ich ta'limda badiiy asarning qaysi janrlari o'rganiladi?
2. Hikoya qanday janr?
3. Nima uchun hikoyani boshlang'ich sinf o'quvchilari saviyasiga mos janr deymiz?
4. O'qish darsida hikoya matni ustida ishslashning qanday yo'l-yo'riqlari bor?
5. Hikoya g'oyasini aniqlashda qaysi mashg'ulot turidan foydalananish mumkin?
6. Hikoya o'qishning reja varianti haqida nimalarini bilasiz?
7. 4-sinf «O'qish kitobi»dan N. Aminovning «Kekirdak» hikoyasini tahlil qilish uslubini mustaqil o'rganing va konsept qiling.
8. O'zingizga ma'qul bo'lgan hikoyani ifodali o'qing va dialogik nutq ohanglarini o'z o'mniga qo'yib ijro eting.

ERTAK O'QISH METODIKASI

REJA:

1. Ertak janri haqida ma'lumot.
2. Ertakning bolalarbopligi va pedagogik qimmati.
3. Hayvonlar haqidagi ramziy ma'noli ertaklar xususida.
4. Ertak mazmunini tahlil qilish.
5. Ertakni izohli o'qish va uni o'rganishning rejali tartibi.
6. Ertakning axloqiy-tarbiyaviy ahamiyati.

Ertak — xalq og'zaki ijodidagi eng ommaviy va keng tarqalgan janr sifatida hayotiy ildizga ega bo'lgan to'qima voqealarni tasvirlaydi. U xalq tomonidan yaratilgan va uzoq zamonlardan beri ertakchilarning quvvai hofizasida saqlanib, el-ulus urf-odatlari bilan chambarchas bog'langan holda ijtimoiy-siyosiy, moddiy-iqtisodiy hayotni fantastik va badiiy uydirmalar orqali ifodalaydigan folklorning epik janridir.

Boshlang'ich ta'llimning o'qish darslarida xalq ertaklariga keng o'rinn berilgan. Chunki ertaklardagi qiziqarli sujet, voqealar rivojida yuz beradigan tasodiflar, qahramonlarning ko'tarinki ruh bag'ishlaydigan jasorati, tadbirkorligi, eng mushkul damda ham aqliy topqirlik bilan harakat qilishlari o'quvchini maftun etadi. O'zbek xalq ertaklarini g'oyaviy mazmuni, kompozitsiyasi, badiiy xususiyatlari, uslubiy ravonligi asosida tasnif qilgan folklorshunoslar uni to'rt asosiy guruhg'a bo'lish lozimligini ma'qullashadi. Bular:

1. Hayotiy ertaklar.
2. Sehrli-sarguzasht ertaklar.
3. Hayvonlar haqidagi ertaklar.
4. Hajviy ertaklar.

Boshlang'ich ta'llimning «O'qish kitobi»da ertaklar uchun maxsus ruknlar ajratilgan, jumladan, 2-sinf darsligida «Ertaklar — yaxshilikka yetaklar», 3-sinfda «Xalq og'zaki ijodi», 4-sinfda «Ertaklar mamlakatida» turkumlari berilgan. Bundan ko'rindiki, ertaklar pedagogik-tarbiyaviy qimmatga ega bo'lib, o'quvchilarni halollik, to'g'rilik, ezzulik, jasoratli bo'lish, qat'iylik, insonparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vositasi sanaladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar doimo yaxshilik yomonlik ustidan g'alaba qilishini istaydilar. Shuning uchun ertakni tahlil qilish jarayonida undagi timsollarning xatti-harakatini sinchkovlik bilan kuzatib, taqqoslab, xulq-atvoriga baho berishga o'rganishadi.

Masalan, «Botir mergan va chaqimchi» (3-sinf) ertagidagi asosiy g'oya insonparvarlikni targ'ib etish bo'lib, chaqimchilik yomon illat ekanligi aytildi va «Odamlar orasini buzadigan chaqimchilidan saqlaning», degan muborak hadisni yodga soladi. «Hiylagarning jazosi» (4-sinf) ertagida esa do'stiga xiyonat qilib, tuhmati o'z otasining boshiga yetgan hiylagardan nafratlanish hissi o'z ifodasini topgandir.

Ertak qahramoni xalq orzu-istiklari timsoli sifatida o'quvchi qalbidan joy oladi. So'zlashuv uslubiga monand bo'lган ertak matni esa bog'lanishli nutqni o'stirish uchun asosiy manba vazifasini o'taydi.

Boshlang'ich ta'linda hayvonlar haqidagi ertaklar anchagini. Ularning kompozitsiyasi sodda. Sujet tizimini tashkil etuvchi voqealar ko'lami oz: bir yoki ikki voqeа asosiga quriladi. Matnni tashkil etuvchi rivoyat ko'pincha dialogda yechiladi. Ramziy mazmun masaldagi kabi allegorik obrazlar orqali talqin etiladi. Ammo ertak va masalning farqli jihatni bor:

1. Ertaklar ko'proq an'anaviy boshlanmada «Bir bor ekan, bir yo'q ekan» iborasini ishlataladi va «Murod-maqсадларига yetibdi», deb nihoa topadi. Masalda bunday an'ana yo'q.

2. Ertakka qaraganda masallar hajm jihatidan kichik bo'ladi. Ibratli xulosaga asos bo'ladigan voqeа yoki detal masalda ertakdagiga nisbatan bir zumda «o'z vazifasini o'taydi».

3. Xalq ertaklari nasrda, masallar esa juda ko'p hollarda nazmda yoziladi.

4. Ertakda ma'lum bir hayotiy masala hal etiladi, masalda esa axloqqa doir mantiq qissadan hissa chiqarish yo'li bilan yakun topadi.

Shunday qilib, hayvonlar haqidagi ertaklarni bolabop deyishga asos tug'iladi. Chunki unda bolalarning ma'naviy va estetik talablariga javob beradigan xususiyatlар ko'п. Ertakda voqealar tez rivojlanadi, hayvonlar yoki shaxslar o'rtasidagi muammoni yechishda dialog qo'llanadi. Dalil sifatida «O'tinchi yigit va sher» ertagidan (2-sinf) ushbu parchani keltirish joiz:

«Bir yigit dalaga o'tin tergani chiqibdi. Bir daraxt yoniga kelib, uni yiqitmoqchi bo'libdi. Shu payt bir sher kelib qolib:

- Ey, odam, bu yerga nimaga kelding? — debdi.
- Mana shu terakni yiqitmoqchiman, — debdi yigit.
- Men shunday kuchim bilan bu terakni qulata olmayman-ku, sen qanday qilib qulatasan? — debdi sher.
- Ey, jo'ra, men juda zo'rman, — debdi yigit o'zini tetik tutib.

— Sen zo'r bo'lsang, kel, ikkovimiz kurashib, kuchimizni sinaymiz, — debdi sher.

— Mayli, kurashamiz, — debdi yigit o'zini mag'rur tutib, — lekin kuchimning yarmi uyda qolibdi, borib olib kelay.

— Ha, borib olib kel, tag'in yiqlisang, kuchim uyda qolgan edi, — deb tan bermay yurma»...

Bu matndagi oddiy voqeа qiziqarli suhbat vositasida o'quvchi diqqatini o'ziga jalb qiladi. Garchand kichik yoshdagi bolalar ushbu ertakdagi hayvon — sherning gapirmasligini (gapirish insonga xosligini) bilishsa ham, ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar. Shuning uchun boshlang'ich sinfda hayvonlar to'g'risidagi ertaklar ko'p uchraydi.

Masal matni ustida ishslash uchun hikoyani izohli o'qish darsi-dagi pedagogik usullardan foydalilanildi. Maqsad esa ertak mazmunini yaxshi idrok etishga, personajlarning harakatlarini to'g'ri baholashga yo'naltiriladi. Ertak o'rganishning so'ngida: «Ertakning qaysi jihatni sizga ko'proq ma'qul bo'ldi?», «Hayotda ertakka mos hodisalar bo'lishini tasavvur qila olasizmi?», «Ertak matnida o'zingizga yoqqan joyni topib o'qing. Nimasi bilan yoqishini aytинг» kabi savol va topshiriqlar yordamida o'quvchilarning ertak xulosasini tushunishlari, mustaqil mushohada yuritib, o'z fikrini ayta olishlariga erishiladi.

Boshlang'ich ta'limdi hayon haqidagi ertaklardan tashqari «Uzun terak», «Oq ko'ngil chol va xasis boy», «Sanog'idan adash-madi», «Olqar» (2-sinf), «Botir mergan va chaqimchi», «Halollik», «Donishmand yigit» (3-sinf) kabi axloqiy-tarbiyaviy xarakterdagi ertaklar ham o'rganiladi. Bunday ertaklarni hikoya tahlilidagidek o'qituvchi rahbarligida bahs va savol-javob usulida o'zlashtiriladi. Bundan tashqari, o'quvchilar muallifi bor ertak bilan ham tanishdilar. Unda ertak mazmuninigina emas, balki yozuvchi niyatini, u ko'targan hayotiy masalaning mohiyatini bilishlari lozim bo'ladi. Demak, ertak o'rganishda o'quvchilar:

— hayotga ibrat ko'zi bilan qarash ko'nikmalarini shakllantiradilar;
— tabiat, hayvonot va inson orasida uzviylik mavjudligini tushuna boshlaydilar;

— ramziy ma'nolarning hayotiy talqinini ertakdagi oddiy detallar yoki timsollar yordamida mushohada qilishga o'rganadilar;

— nutqning sodda va mantiqiy bo'lishini, ifodaliligin o'zlashtira borishga erishadilar.

Ertak haqida aytilgan yuqoridagi uslubiy talqinlarni inobatga olib, izohli o'qish va ertakni tahlil qilish darsini quyidagi tartibda tashkillashtirish mumkin:

- o‘quvchilarni ertak mazmunini idrok etishga jalb qilish;
- ertakni ifodali o‘qish;
- ertakni qismlarga bo‘lish va qismlar yuzasidan suhbat o‘tkazish;
- ertakning tilini, badiyligini muhokama qilish;
- matnni ichda o‘qish va joriy hikoya qilish;
- ertak g‘oyasini umumlashtiruvchi suhbat vositasini aniqlash;
- ertak voqeasini jonli ijro asosida namoyish etish.

Ertaklarni kichik yoshdagи bolalarga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularda axloqiy sifatlarni tarkib toptiradi, dunyoqarashini kengaytiradi va nutqini boyitadi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Ertak janrini qanday ta’riflaysiz?
2. Boshlang‘ich ta’limda ertakning o‘quvchilar saviyasiga mos janr ekanligi va uning pedagogik qimmati nimada?
3. Ertaklarda oddiy hayot voqealar birmuncha uydirma va xayoliy tarzda talqin etilishiga sabab nimada deb bilasiz?
4. Hayvon haqidagi ertakda aks etgan ramziy ma’noni qanday tushunasiz?
5. Ertakni izohli o‘qish darsi qanday tashkil etiladi?
6. Ertakning axloqiy-tarbiyaviy ahamiyati haqida gapiring.
7. «O‘qish kitobi»dan (2—4-sinflar) biror ertakni uslubiy tahlil qilish yo‘l-yo‘riqlari xususida ma’ruza tayyorlang.

MASAL O‘QISH METODIKASI

REJA:

1. Masal janri haqida ma’lumot.
2. Masal janrining boshlang‘ich ta’limga mosligi.
3. Masaldagi majoziy obrazlar.
4. Masal kinoyasiga e’tibor berish.
5. Masal tahlilidagi dars qurilishi va masal tili.
6. Masalning tarbiyaviy ahamiyati.

Masal — axloqiy, hajviy va kesatiq mazmunni majoziy obrazlar orqali aks ettiradigan kichik hajmli she’riy, ba’zan nasriy asar turidir. Inson xulq-atvoriga xos bo‘lgan xislatlar masalda kinoyaviy obrazlar vositasida ifoda etiladi. Kishilar o‘rtasida sodir bo‘ladigan hayotiy muammolar, turli-tuman jiddiy voqealar hayvonot dunyosi, tabiiy jismlar yoki hasharotlar timsoli orqali gavdalantiriladi. Bu janrning o‘ziga xos xususiyati shundaki, voqeа bayonining kirish

qismida yoki oxirida qissadan hissa, ya’ni axloqiy xarakterdagi ibratli xulosa chiqariladi.

Masal qadimiydir. Antik adabiyotda Ezop masallari juda mashhur bo’lgan. U pinhona tanqidni kinoyaviy so’z va iboralarda tasvirlagan. O’sha vaqtidan boshlab tanqid tili va uslubi Ezopga nisbat berilib, «Ezop tili» deb yuritilgan. Keyinchalik bu janr dunyo kezib, ko’plab masalchi shoirlarni kashf etgan. Bunday «mashhuri jahon»likning xarakterli tomoni shundaki, u kitobxonning axloqiy tarbiyasini «nishon»ga oladi. Shunday ekan, masalda fikr ixchamligi, tilining tasvir vositalariga boyligi, nutqiy ravonligi, xalqchilligi kichik yoshdagagi o’quvchilarining diqqatini o’ziga tortishi tabiiy.

Masal shakl va mazmuni badiiy qolipga solingen vodevil (fransuzcha *vaudeville* — qishloq tovushi) — kichik hajmdagi quvnoq sahna asarini eslatadi. U biror voqeа-hodisani qisqa va mazmundor qilib tasvirlashda noan’anaviy usul bilan o’quvchini hayratga soladi. Bunda hayvon, hasharot yoki o’simliklar odamdek bahslashadi, gurung-lashadi, qandaydir masalalar ustida bosh qotirishadi.

Masal ustida ishlashni hayvonlar haqidagi ertaklar tahliliga o’xshatib uyuştirish mumkin. Ammo noan’anaviy usul bilan o’quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini o’stirish nazarda tutilsa, MODULLI ta’lim (M.A. Choshanovning muammoli-modulli o’qitish texnologiyasiga asoslangan) dasturidan foydalanish o’qituvchi belgilagan rejaga bog’liq bo’ladi. Deylik, 4-sinf o’quvchilari A. Avloniyining «Zuluk va ilon» masalini o’rganishmoqda. O’qituvchi she’riy matnni ifodali o’qib bergach, darslikda izohi berilmagan ayrim so‘zlarni lug’at daftariga yozdiradi:

so’rdi — so’radi;
hab — zap, juda;
larzon — titroq;
suymayur — sevmaydi;
sob — tamom, yakun;
sanchuram — sanchgayman;
xo’b — juda soz, yaxshi.

Keyin o’qituvchi sinf diqqatini masaldagi mazmunni chucherroq mushohada qiladigan tugunli (modulli) savollarga jalb qiladi:

1. Ilon yoki zulukni ko’rganmisiz? Ularning qanday o’xshashligi bor? Farqlari-chi?
2. Ilon zulukdan nima haqida so’radi?
3. Zulukning ilonga javobida xalqning qaysi hikmati yashiringan?
4. Qanday kishilar ilonga o’xshatiladi?

5. «Zulmdan doimo qochar inson» misrasidagi «Zulm» so‘zini qanday tushunasiz? Fikriy xulosangizni oydinlashtiring.

O‘qituvchi savol asosida o‘quvchilarga yo‘nalish berib, jadval chizdiradi va unga masal mazmunidan kelib chiqib, har kim mustaqil fikr bayon etishi lozimligini uqtiradi.

O‘quvchilar jadvalning 1-qismida berilgan savollarga doir nimani bilishsa, shuni yozishadi. 2-qismida berilgan savollar bo‘yicha ularni nimalar qiziqtirsa, o‘shani so‘raydilar. Bu so‘rovga qaysi o‘quvchi javob bersa, bilmaydiganlar uni jadvalning «Bilib oldim» qismiga yozib qo‘yishadi. Nihoyat, biluvchilardan bilmaganlar o‘rganishib, o‘rtada o‘zaro fikr almashish jarayoni yuz beradi, masal tahlilidagi mushohada maydoni kengayadi, o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorligidagi mavzu ijodiy hamda hayotiy dalillarga boy tarzda o‘zlashtiriladi. Dars qizg‘in va jalbkor ruhda o‘tadi. Namuna uchun modulli ta’limga doir jadvalning bir varianti bilan tanishaylik:

Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim
1. Ilonni ko‘rganman. Sudralib yuruvchilar toifasidan.	1. Zuluk ko‘proq qayerda bo‘ladi?	1. Zuluk buloqlarda, tog‘ etagidagi oqar soyfarning havzasida bo‘lar ekan.
2. Masaldan bildimki, ilonga zuluk shaklan o‘xshaydi.	2. Zulukning: «Sog‘ayur tishlasam qayu xasta», deganini kengroq tushunish istagidaman.	2. Zulukdan xalq tabobatida «harom» qonni so‘rdirish uchun foydalanadilar.
3. Ilon chaqsa, kishini zaharlaydi, shuning uchun odamlar uni yomon ko‘radi. Zuluk zaharlamaydi. U qon so‘radi.	3. Ilon qanaqasiga zulm o‘tkaza oladi? Masaldagi «zulm» so‘zida qanday ma’no yashiringanligini bilmoqchiman.	3. Odamga yetkaziladi-gan ozorning barcha turi zulm hisoblanar ekan. Ilon zahri — jiddiy ozor.
4. Ilon ham, zuluk ham so‘zlamaydi. Masaldagi nutq — majoziy obrazlar nutqidir. Ammo ularning gapirishi meni hayratlantirmaydi, aksincha, qiziqarli.	4. Kinoyaviy ma’no ning hayotiy sharhiga qiziqaman. Muhokama qilaylik. Masal xulosasi kishini nimaga undaydi?	4. Kinoyaviy ma’no yuzasidan bilganlarim: — Zuluk va ilon odamlar timsoli; — Zuluk — insonparvar shaxs, u yaxshiligini boshqalardan ayamaydi; — Ilon — dilozor kimsa, uning xulqi ham, turqi ham sovuq; — Masal xulosasi — yaxshi bo‘l, yaxshilik qil.

Masal tahlilida asar tiliga ham katta ahamiyat beriladi. So‘zlarining ko‘chma ma’nolari, stilistikasi, gaplarning grammatik qurilishi, qo’shimcha ma’no bo‘yoq dorligiga ega bo‘lgan nutq birliklarining qo‘llanishi, badiiy tasvir vositalariga asos bo‘lgan morfemalar tizimi o‘qituvchi ko‘magida yoritib boriladi. Bundan tashqari, masal personajlarining individual xarakterini ham hisobga olish zarur. Masalan, «Chumoli va tipratikan» masalini (3-sinf) o‘qishda tipratikanning: «O‘zi kichkina-yu, katta narsani olib ketmoqchi bo‘lib urinishini ko‘ringlar-a, obbo, badnafs-e!» degan masxaraomuz xitobi, «O‘jar toshbaqa»da (3-sinf) toshbaqanining:

*Onasiga: «Dod!» dedi,
Menga iloj top, dedi.
Keragi yo‘q kosamning,
Bunda yurish osonmi?
Xalaqit berar, qarang,
Chopaman sekin, arang,*

degan qaysarona gaplari nutqiy ohangda o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun dialogli masallarni rollarga bo‘lib o‘qish yoki inssenirovka qildirish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, masal o‘rganish darsini qaysi usulda tashkil etilsa ham quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

- masalning g‘oyaviy mazmunini aniq idrok etish;
- masal personajlarining o‘ziga xos xulq-atvorini, ularni qamragan muhit realligini aniqlash;
- kinoyaviy ma’noni ochish;
- masal tiliga e’tibor qaratish;
- masal xulosasini muhokama etish.

Ana shu izchillikka amal qilgan masal o‘qish darsining tuzilishi quyidagicha bo‘ladi:

1. O‘rganilayotgan masal haqida o‘qituvchining ma’lumoti bilan tanishish.
2. Masalni ifodali o‘qish yoki uning mazmunini yoritgan multfilm namoyish etish.
3. Masal mazmunini oydinlashtiradigan badiiy detallar bilan tanishish.
4. Masaldagi kinoya ma’nosini ochish.
5. Axloqiy mantiqni topish.
6. Majozni inson hayotiga taqqoslash.

Boshlang‘ich ta’limda masal o‘rganishning tarbiyaviy tomoniga alohida e’tibor beriladi. Chunki insoniy fazilatlarning shakllanishi kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilar kamolotida bebaho bosqichdir.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Masal nima?
2. Nega masalni boshlang‘ich ta’limga mos janr deymiz?
3. Masaldagi majoziy obrazlar xatti-harakatining insonlarda mavjudligini qanday izohlaysiz?
4. Masaldagi kinoya nimaga asoslanadi?
5. Masal tilini qanday tushunasiz?
6. Muammoli-modulli o‘qitish texnologiyasining soddalashtirilgan usulidan masal tahlilida qanday foydalanish mumkin?
7. Masalning tarbiyaviy ahamiyati haqida gapiring.
8. «O‘qish kitobi»dan biror masalni modulli ta’lim dasturi asosida tahlil qiling va konseptlashtiring.

Laboratoriya ishi. Qayta hikoyalash va uning turlari ishtirot etgan darsni kuzatish hamda tahlil qilish

Bu mashg‘ulot sinov amaliyoti o‘tiladigan tayanch maktab-larning 2—4-sinflaridan birida o‘tkaziladi. Muhimi, qayta hikoyalash va uning turlari dars mazmunini yoritishda to‘g‘ri tanlanishi lozim. Amaliyotchilar tanlab hikoya qilish, to‘liq qayta hikoyalash, qisqartirib qayta hikoyalash va ijodiy qayta hikoyalash kabi ta’limiy ish usullaridan foydalilanilgan darsni kuzatadilar, tahlil qiladilar. Unda ahamiyat berilishi lozim bo‘lgan jihatlar quyidagilar:

1. Qayta hikoyalashning qaysi turi darsda qo‘llanildi? U matning mazmunini yoritishga mosmi?
2. O‘quvchilarning ijodkorligini qayta hikoyalashning qaysi turi ko‘proq ta’minlay oldi? Buni siz qaysi o‘quvchi nutqida va fikrlashida ilg‘ay oldingiz?
3. Qisqartirib qayta hikoyalash, tanlab hikoya qilishning ahamiyati nimada? Ijodiy qayta hikoyalashning afzal tomonini dars jarayonida sezdingizmi?

Darsni amaliyotchilarning ba’zisi maxsus tayyorgarlik bilan o‘tishi yoki tajribali sinf o‘qituvchisi tomonidan tashkil etilishi mumkin. Har ikki holatda ham matn mazmunini o‘zlashtirish samarali bo‘lishi, o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish asosiy vazifa sanalishi lozim.

SHE'R VA UNI O'QISH METODIKASI

REJA:

1. She'rning nazariy ta'rifi.
2. Kichik yoshdag'i bolalarda she'r o'qish zavqini uyg'otish.
3. She'r o'qishdagi ifodalilik.
4. Boshlang'ich sinflarda she'rning sujetli epik turi va lirik turi.
5. O'qish darsida she'r tahlilini o'tkazish.
6. O'quvchilarga estetik tarbiya berishda she'rning o'rni.

She'r — ohang jihatidan bir tartibga solinib, his-tuyg'ular qobig'iga o'ralgan poetik fikr ifodasi sifatida vujudga keluvchi hayajonli ritmik nutq. Atoqli adib, so'z ustasi Abdulla Qahhor she'rغا shunday ta'rif bergen edi: «*She'r* — fikr ekstrakti bo'lishi jihatidan HIKMAT, ko'ngilga yo'l topishi, undan o'zi hamohang sado chiqarishi jihatidan — MUSIQA.

...*She'r* — bir MO'JIZA»...

Akademik adib Oybek esa she'rдаги subyektiv kechinmani teranlashtirib yozadi: «Lirikada shoир ma'lum bir hodisani, ma'lum bir obyektni gavdalantirib, so'ngra bunga o'z qarashlarini, o'zida qo'zg'algan tuyg'ularni ifoda qilar...»

Shoira Zulfiya «*She'riyatning katta karvoni*» maqolasida yuqoridaagi fikrlarni quvvatlantirib, she'rдаги his-tuyg'ular ko'lamenti kengaytiradi: «Lirika inson qalbini kashf etish, uning orzu va tuyg'ularini, muqarrar dramalarini idrok etish demakdir. Insonning ruhiy olami nechog'liq chuqur payqab bilib olinsa, she'riyat shu qadar boy va ta'sirchan bo'ladi».

Mashhur kishilarning she'riyatga bergen ta'rifini ko'plab keltirish mumkin. Demak, she'riyat nafosati yetmagan ko'ngil yo'q, hatto kitob o'qishga xohishi kamlar ham hech bo'limganda tabrik so'ziga she'r qo'shgisi keladi yoki gapiga she'riy shakldagi xalq maqollarini aralashtiradi. Axir, she'r ko'ngil ehtiyoji, ko'ngil esa hammada bor! Shu boisdan bilim maskaniga qadam qo'ygan bola ham savod o'rganish davridayoq she'rغا oshna qilinadi. Ular she'r o'rganishni, ko'pchilik oldida yoddan aytishni yaxshi ko'radi. Qarangki, boshlang'ichlarning «O'qish kitobi» darsligi ham she'r bilan ochiladi. 2-sinf «O'zbekiston» she'ri bilan boshlansa, 3—4-sinflarda O'zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi o'quvchilarga taqdim etiladi.

She'rni o'qiganda kichik maktab yoshidagi o'quvchilar hayot hodisalari, tabiat go'zalliklari, qalb kechinmalarining poetik tasviridan hayajonga tushishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'limda, asosan, she'riy matnning ikki turi o'rganiladi:

1. Sujetli (epik xarakterdagi) she'rlar.
2. Lirik she'rlar.

Sujetli she'rlar ma'lum voqeasiga asosiga qurilgan bo'ladi. Lirik she'rlar esa, mashhur nemis faylasufi V. F. Gegel ta'riflagandek, «boshqar qanday haqiqiy poeziya (*badiiy asar* — G'.E.) kabi inson yuragining chinakam mazmunini ifoda qilib berishi kerak. Biroq hamma narsa va hatto eng xolis, eng moddiy hodisalar ham lirik mazmun kasb etar ekan, shaxsan his qilingan, ko'ngil qo'rida yo'g'-rilgan, tasavvur qilingan va o'yangan holda gavdalanmog'i lozim».

She'r o'rganish darslarini tashkil qilishdagi asosiy ish turi ifodali o'qishdir. Buni amalgalashuvchi uchun o'qituvchi she'rdagi lirik qadriyatni o'zida his qila olishi va uni o'quvchilarga «yuqtira» bilishi lozim. She'rda hikoya qilib beradigan mazmun emas, balki nafis tuyg'u va tovlanib turuvchi kayfiyat mayjud bo'ladi. Bu fikrni asoslash uchun V.G. Belinskiyning she'riyat haqidagi ushbu ta'rifini keltirish o'rinli: «Poeziya bog'da barq urib ochilgan gulni batafsil tasvir etmaydi, balki bichimidagi ko'rimli unsurlarni tashlab yuboradi, faqat muattar hidini, ranglaridagi nafis jilvalanishni oladi va ulardan bog'dagiga nisbatan yaxshiroq, dilbarroq o'z chechagini yaratadi».

Shunday ekan, lirik she'rni o'qish va tahlil qilish o'qituvchidan uslubiy mahorat talab qiladi. U lirik she'rni ifodali o'qigach, matn tahlilini izohtalab so'zlarning ma'nosini tushuntirishdan boshlaydi va o'quvchilarning lug'at daftarchasiga yozdiradi.

Agar she'r tabiat, ona yurt, yil fasllarini BARMOQ vaznida vasf etgan bo'lsa (A. Obidjonning «O'ktam avlod», E. Vohidovning «Yangi yil archasiga» she'rlari — 3-sinf), she'r matnidagi his-tuyg'u va fikrni anglash oson kechadi. Undagi tasvir vositalari, misralarning sintaktik qurilishi, so'zlarning ko'chma ma'nosi o'quvchi tiliga, his qilish va tushunish sezgilariga yaqin turadi. Chunonchi:

*Ko 'zlar bilan, do 'stlar bilan,
Sizlar bilan dillashaylik.
Mehr bilan, sog'inch bilan,
Quvonch bilan birlashaylik,*

kabi Kavsar Turdiyevaning «Dunyoni saqlar bolalar» (3-sinf) she'ridagi lirik kayfiyat har jihatdan o'quvchiga begona emas.

Ammo shu sinfdagi E. Vohidovning «O‘zbegin» qasidasidan olin-gan parcha aruz janrida yozilgan bo‘lib, uni o‘qituvchi maxsus tayyorgarlikdan so‘ng tahlil qilishi lozim:

- she’rni aruz qoidasiga amal qilgan holda o‘qish;
- o‘quvchida she’riy tafakkur uyg‘otish;
- so‘zning lug‘at ma’nosini izohlash;
- tarixiy ishoralarga qisqacha sharh;
- she’riy san’atning fikriy ifodada tutgan o‘rnini sodda qilib tushuntirish.

Ushbu lirik g‘azalning ikki baytini keltiraylik:

*Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon, o‘zbegin,
Senga tengdosh Pomir-u, oqsoch Tyonshon, o‘zbegin.
So‘ylasin Afrosiyob-u, so‘ylasin O‘rxun xati,
Ko‘hna tarix shodasida bitta marjon, o‘zbegin.*

O‘qituvchi birinchi navbatda, o‘quvchilarga kitobiy so‘zlar-ning sinonim lug‘atini yozdiradi:

pinhon — yashirin;
ko‘hna — eski, qadim;
shoda — tizim ...

Keyin «tengdosh», «oqsoch», «so‘ylasin», «shoda», «marjon» kabi so‘zlearning ko‘chma ma’noda qo‘llanganligini tushuntiradi. Misralarda nafosat yaratgan sifatlash (oqsoch), tashbih-qiyos (tarix shodasida bitta marjon), tashxis — jonlantirish (So‘ylasin Afrosiyob-u, so‘ylasin O‘rxun xati) kabi badiiy-tasviriy vositalar tarixga chuqurroq nazar tashlash uchun tafakkurni teranlashtirishga xizmat qilayotganligini aytadi. She’rdan o‘quvchilar o‘zbek xalqi tarixi Pomir va Tyanshan tog‘laridek qadimiylar ekanligini, bunga Afrosiyob (Samarqand tarixiga oid) va O‘rxun xati (V—VI asr-lardagi turkiy xat) guvohligini, uzoq tarix tizimida o‘zbek tarixi ham marjonday yarqirab turishini anglab yetadilar.

Kichik mакtab yoshidagi bolalar sujetli she’rlarni ham zavq-shavq bilan tahlil qilishga o‘rgatilishi o‘qituvchidan jiddiy mahoratni talab qiladi. Ayrim hollarda she’riy mashg‘ulotlar juda ham jo‘n va sodda o‘tkazilishini ko‘rish mumkin. O‘qituvchi, aqalli, o‘quvchi-larni she’r muallifi bilan tanishtirmaydi ham. Faqat o‘qish va tavsiya etilgan bo‘lsa, yodlab kelish talab etiladi, xolos. Ayonki, bunday paytda ta’lim, aldagani bola yaxshi, qabilida tashkillashtirilib, o‘quvchi ma’naviyatiga yetarli ma’naviy oziqa bermaydi. Ular

she’riyat chinakam go‘zallik namunasi ekanligini his qilish ko‘-nikmasiga ega bo‘lmay qoladilar, she’r aytib, shoirni tanimaydilar.

Yangi ta’lim standartining tavsiya va talabidan kelib chiqqan holda nutq odobini takomillashtirish uchun she’riy asarlarni o‘rganish o‘quvchining so‘z boyligini oshiradi, estetik ruhda tarbiyalashning asosiy omili sanaladi. Sujetli she’rlar boshqa janrdagi asarlar tahliliga o‘xshasa-da, lirik she’rlar undan farq qiladi. Lirik she’rlar tahlilida savollar voqeа asosida emas, tuyg‘ular, mushohadalar asosida tuziladi. Masalan, Quddus Muhammadiyning «Kitobni qancha sevsam oz bo‘lur» (2-sinf) she’ri tahlilida savol va topshiriq beriladi:

1. «Kitob desam ko‘nglim bahor, yoz bo‘lur», deganda nimani tushunasiz?

2. Siz kitobingizni qanday saqlaysiz?

3. She’rni ifodali o‘qing.

4-sinfdagи A. Obidjonning «Qaldirk‘och qo‘shig‘i» she’ri uchun esa savol va topshiriqlar ko‘lamni kengayadi:

1. Qaldirk‘och qanday qush? Qurt-u hasharotlar nima uchun undan qochishadi?

2. Qaldirk‘och haqida qanday rivoyatni bilasiz?

3. Qaldirk‘ochlar yurtimizga qaysi faslda keladi?

4. She’rni yod oling. Mazmunini o‘z so‘zingiz bilan bayon eting.

Kichik yoshdagi o‘quvchilar ravshan til bilan yozilgan sodda vaznli jarangdor she’rlarni tez va oson yodlashadi. Faqat ifodali yod olish uchun o‘qituvchi she’r texnikasiga oid komponentlarni (ritm, pauza, vazn, ohang, qofiya kabilarni) to‘g‘ri qo‘llash yo‘l yo‘riqlarini o‘rgatishi zarur.

Shunday qilib, o‘qish darslarida she’riy tahlil o‘tkazish uchun e’tiborga loyiq metodik tamoyillarni boyitish maqsadga muvofiqliр. She’riyat o‘quvchining estetik dunyoqarashini o‘stiradi, nutq madaniyatini egallashda muhim rol o‘ynaydi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. She’riy janr haqida nimani bilasiz?

2. Nega she’rni dil ehtiyoji, deb ta’riflashadi?

3. Boshlang‘ich ta’limda she’r o‘qish usuli qanday amalga oshadi?

4. She’r naqliy va lirik turining tahlili haqida gapiring.

5. Estetik tarbiyada she’rning ahamiyati qanday?

6. Sujetli she’r tahlili uchun mustaqil tayyorlaning.

7. 2-sinf saviyasiga mos bo‘lgan lirik she’r tanlab, tahlil qilish usulini ishlab chiqing va undan amaliyotda foydalaning.

ILMIY-OMMABOP MAQOLALARNI O'QISH-O'RGANISH

REJA:

1. O'qish darsida ilmiy-ommabop maqolalarni o'rganish.
2. Ilmiy-ommabop maqolalarning tematik rang-barangligi.
3. Maqolalarda milliy qadriyatlarning aks etishi.
4. Maqolalarda Vatan tuyg'usi va istiqlol nafasi.
5. Ilmiy-ommabop maqolalarni izohli o'qish darsi.
6. Ilmiy-ommabop maqolalarning tarbiyaviy ahamiyati.

Ilmiy-ommabop maqolalar muayyan talablarga javob beradigan, ilmiy asosga va g'oyaviy yo'nalishga ega bo'lgan, aniq dalil va hujjatlarga asoslangan, masalani ijtimoiy talabga bog'liq holda yoritadigan, ixcham va qiziqarli janrdir. Unda fikr kichik hajmdagi ommabop jumlalar orqali izchillik bilan ifodalanadi. Ommabop maqolalar ijtimoiy hayotning ko'zgusi hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich ta'limda ilmiy-ommabop maqolalarga keng o'rinn berilgan. Bunday asarlarni o'qitishdan maqsad o'quvchilarga ona tabiat ko'rki, yurtimizning boy ma'naviy merosga ega bo'lgan o'tmishi, bugungi ijtimoiy hayotda yaratuvchi kishilarning ulug'vor mehnati haqida muayyan bilim berish, ularni kitob bilan mustaqil ishlashga va o'qiganlaridan qoniqarli hayotiy xulosalar chiqara olishga o'rgatishdan iboratdir.

Boshlang'ich sinflarning o'qish kitoblari kuzatilganda, ilmiy-ommabop maqolalarga keng o'rinn berilganligi hamda ularning tematik rang-barangligiga guvoh bo'lish mumkin:

1. O'quvchilarga ona-Vatan va Istiqlol tuyg'usini singdiruvchi maqolalar.
2. Tabiat ko'rki va fasllar nafosatini vasf etuvchi maqolalar.
3. Barkamollik fazilatlarini hikoya qiluvchi maqolalar.
4. Ilming xosiyatini anglash va kitobga mehr qo'yishni targ'ib qiluvchi maqolalar.
5. Ajdodlar ma'naviyati va milliy qadriyatlarni qadrlovchi maqolalar.
6. Tinchlik va ijodiy mehnatni sharafovchi maqolalar.
7. Ekologik tarbiyaga undovchi maqolalar.

Davlat ta'lim standartlari o'quv dasturi talablari asosida tuzilgan «O'qish kitobi» rang-barang mavzudagi ilmiy-ommabop maqolalarni o'quvchilar e'tiboriga havola qilish bilan birga, ularning dunyoqarashini kengaytirishga, bilim saviyasini ko'tarishga e'tibor qaratadi. 2-sinf o'quvchilari «O'zbekiston — mening Vatanim»

mavzusini o'rganganda, Vatanimiz qanday nom bilan atalishini, unda qanday shaharlar borligini, turli millat vakillari do'st-inoq yashashini, hamma uchun O'zbekiston yagona Vatan ekanini faxr bilan anglay oladilar. 3-sinf o'quvchilari Xurshid Davronning «Vatan mo'tabardir» asarini o'qiganda, qalblariga Vatan tuyg'usi chuqurroq o'rashadi. Ular Vatanga bo'lgan muhabbatni ona tuproqdan, uning dalalari, qir-adirlari, moviyrang tog'lari, dasht-u sahrolariga qo'yilgan muhabbatdan boshlanishini turk davlati xoqoni O'g'uzxonning bir parcha tashlandiq yerni so'ragan dushmanga: «Vatan yolg'iz bizning mulkimiz emas, mozorda yotgan otalarimiz va endi tug'ilajak avlodlarimizning bu muborak tuproqda haqlari bordir. Vatandan ozgina bo'lsa ham yer bermakka hech bir kimsaning haqqi yo'qdir», deb bergan javobidan teran his qiladilar.

Safar Barnoyevning 4-sinfdagи «Asrga tatiqulik kun» nomli ommabop asari Istiqlol tufayli jahonga yuz tutgan O'zbekiston nufuzini o'quvchilarga namoyon etadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarga mo'ljallangan mavsumiy hodisalar, hayvonot dunyosiga doir materiallar bevosita ularning kuzatishlari, ekskursiyalari, o'quv filmlaridan foydalanishlari, pedagogik texnologiyaga tayanib uyuştirilgan darslari asosida tahlil qilinadi.

O'quvchilarni bozor munosabatlariiga o'rgatishda ham ommabop maqolalarning roli katta. Iqtisodiy bilimlarni shakllantirish maqsadida berilgan «Tejamli bo'ling» (2-sinf) nomli maqolani o'qib, bolalar tejamli bo'lish uchun nima qilish kerakligini, tejamlik yaxshi odat ekanligini biladilar, «Toma-toma ko'l bo'lur, tommay qolsa cho'l bo'lur» degan xalq maqolining mazmunini, hayotiy ma'nosini anglab yetadilar. A. Zokirovning «Ro'zg'or daftari» (3-sinf) nomli ommabop maqolasi o'qilganda, o'quvchilar iqtisodga doir dastlabki bilimdan bahramand bo'lib, quyidagi savol va topshiriqlarga javob topadilar:

1. Iqtisod nima?
2. Bozor iqtisodida pulning xizmati haqida nimani bildingiz?
3. «Barter», «tovar», «biznes» so'zlarining ma'nosini izohlang.
4. «Iqtisod», «tovar», «biznes», «barter» so'zlarini daftaringizga yozib, ma'nosini bilib oling.

Boshlang'ich ta'limda ilmiy-ommabop maqolalarni izohli o'qish darsi quyidagi tartibda shakllantirilishi mumkin:

— o'rganiladigan matn yuzasidan o'quvchilarning hayotiy tajribasi va bilimini aniqlash maqsadida muammoli vaziyat yaratuvchi savol-javob usulidan foydalanish;

- maqola tahliliga kirishishdan avval matn lug‘ati ustida ishslash;
- maqola matnini ifodali o‘qish va uning rejasini jamoa bo‘lib tuzish;
- reja asosida hikoyalash;
- maqolaning g‘oyaviy mazmunini muhokama qilishda tanlab o‘qish, qisqartirib hikoya qilish usulidan foydalanish;
- umumlashtirish va xulosalash;
- maqolaga mustaqil ijodiy munosabat bildirish.

Shunday qilib, ilmiy-ommabop maqolalar kichik yoshdagi bolalarni davr talabiga mos dolzarb masalalar bilan tanishtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni mantiqiy tafakkur yuritishga o‘rgatadi, qobiliyatini tiklaydi va nutq madaniyatini o‘stirishga yaqindan yordam beradi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Ilmiy-ommabop maqolalarning dolzarb janr ekanligini qanday tushunasiz?
2. Ilmiy-ommabop maqolalarning tematik rang-barangligini qanday izohlaysiz?
3. Ommabop maqolalarda Vatan tuyg‘usi qanday ifodalangan?
4. O‘qish kitoblarida Istiqlolning istiqboli haqida qanday ommabop maqolalar berilgan?
5. Ilmiy-ommabop maqolalarni o‘rganish kichik maktab yoshidagi bolalar uchun qanday ahamiyatga ega?
6. Boshlang‘ich ta’lim o‘qish kitoblaridan milliy qadriyatlar va ajdodlar ma’naviyatini aks ettirgan biror ilmiy-ommabop maqolani mustaqil tahlil qilib, uni modulli ta’lim dasturi asosida tushuntiring.

Amaliy mashg‘ulot. 2-sinfda she’r o‘qitish va tahlil qilish darsi bilan tanishish

2-sinf «O‘qish kitobi»da o‘qish uchun berilgan she’rlar talaygina. Sinov amaliyoti jarayonida talabalar she’r o‘qish va uni tahlil qilishni o‘zları sinf o‘qituvchisi yordamida tashkil etishlari maqsadga muvofiqdir. Ma’lumki, boshlang‘ich ta’limda she’riy asarning ikki turi: lirik she’r va epik she’r o‘rgatiladi. Ayniqsa, 2-sinf darsligida yod olish uchun bir qancha she’rlar tavsiya etilgan. Chuponchi, «O‘zbekiston» (H. Imonberdiyev), «Vatan» (N. Orifjonov), «O‘lka» (E. Vohidov), «O‘quvchiga esdalik» (Q. Muhammadiy), «Muallimim» (Y. Shomansur), «Yolg‘onchi» (A. Navoiy), «G‘alaba kuni» (M. Xudoyqulov) va boshqalar.

Amaliyotchi she'r o'qish va uni tahlil qilish darsini uyushtirganda «She'r — hikmat, ... musiqa. She'r bir mo'jiza» (A. Qahhor) ekanligini unutmasligi, quyidagilarga amal qilishi shart:

- shoirni o'quvchilarga tanitish;
- she'r ritmiga mos ifodali ohangni topa bilish;
- hissiy obraz yaratish, ya'ni his-tuyg'u, kayfiyatni misralarda jonlantirish;
- qofiyadagi mazmun salmog'ini ohang mezonida yuzaga chiqarish;
- she'rdagi tasvir vositalaridan nafosat tuyg'usini topish va uni o'quvchilarga yetkazish, obrazli qilib aytganda, tuyg'uni moddiylashtirish.

Yaxshi o'rganilgan she'r o'quvchining fikrini boyitadi. Uni estetik ruhda tarbiyalaydi.

HADISLAR, HIKMATLAR, MAQOL, TEZ AYTISH VA TOPISHMOQLARNI O'RGANISH

REJA:

1. Insonni komillikka chorlovchi hadislar.
2. Hikmatlarda axloqiy tarbiyaning mujassamligi.
3. Maqollarda xalq donishmandligi.
4. Tez aytish va topishmoqlar — burrolik va topqirlilik alomati.
5. Hikmat topgan — himmat topar.

Hadislar «Qur'oni karim»dan keyin turuvchi mo'tabar manba bo'lib, islam dini ta'limotini payg'ambar Muhammad sallalohu alayhi vasallam faoliyatiga bog'liq holda o'rganiladi. Adabiyotshunos olim, professor Boqijon To'xliyev arabcha «hadis» so'zining bir qator ma'nolarini ko'rsatadi:

- yangi, yangi narsa, yangi ro'y bergan voqe;
- so'z, hikoya, naql, rivoyat;
- Muhammad (s.a.v.) payg'ambar yoki uning sahobalari haqidagi hikoya qiluvchi xabar yoki rivoyat.

Professor B. To'xliyev akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun yozilgan «Adabiyot» darsligida yuqoridagi fikrga yanada oydinlik kiritib, yozadi: «Hadislar Muhammad payg'ambar hayoti va faoliyati, shuningdek, uning turli sharoitlarga diniy, falsafiy, axloqiy-ta'limi mavzularda aytgan xilma-xil fikrlari, ko'rsatmalarini yoki munosabatlarini aks ettiradi».

Hadislarning aksariyati odob-axloq masalasiga qaratilgan. Bu esa islom e'tiqodini mustahkamlashda komil inson ma'naviyati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal qilishning eng to'g'ri yo'lidir.

Boshlang'ich ta'lim o'qish kitoblarida o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash nuqtayi nazaridan hadislar kiritilganki, bu ularning xulqida eng yaxshi sifatlarni tarkib toptiradi. 2-sinf «O'qish kitobi»dagi HADISlar o'quvchi o'rganadigan mavzuning asosiy g'oyasini yoritish bilan birga axloqqa ziynat beruvchi fazillarni egallashga undaydi. «Bahs» nomli matnda Sarvar ismli bولанин yetuk suxandon bo'lganligi aytildi. Matn tahlili savollar bilan hal qilingach, ushbu hadis keltiriladi: «So'zlashga shoshilma, shoshilgan odam fikrini aslo uqtira olmas». Bu hadis suxandon kasbi uchun abadiy nasihat bo'lib qoladi. Yoki «Urto'qmoq» ertagidagi asosiy fikr yaxshilikka yaxshilik qaytishi, yovuzlik qoralanishini ifodalashdan iborat bo'lsa, savol va topshiriqdan keyin keltirilgan hadislar undagi mazmunni hayotiylashtirib yuboradi, ya'ni «Yaxshini yomon kunda sina», «O'z zararingga bo'lsa ham haqni gapir», «Kimning xulqi yomon bo'lsa, o'zi azoblanadi».

3-sinfda buyuk alloma, muhaddis Ismoil al-Buxoriy to'plagan «Hadislardan naqllar» turkumi berilgan bo'lib, o'qituvchi ko'magida ifodali o'qish va mazmunini yoritib berish talab etiladi. Unda o'quvchilar Payg'ambarimizning «Ochlarga taom, tanishnotanishlarga salom» berish eng yaxshi ish, «nohaq qon to'kilishi» eng yomon ish deb aytgan hadisini atroficha muhokama qiladilar. 4-sinfda «hadis ilmi va sunnat» haqida kengroq ma'lumot beriladi. Ular muborak hadisdan namunalar o'rganadi, leksikasidan «istig'for» (kechirim so'rash), «fiqh» (islom huquqi), «sahobalar» (Rasululloh suhbatdoshlari, do'stlari) kabi yangi so'zlar joy oladi.

Hadislardan keyin xalq maqollari va hikmatli so'zlar kichik yoshdagи o'quvchilar saviyasiga mos ixcham janr hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim o'qish kitoblarida bu janrlarga keng o'rin berilgan.

Maqollar xalq donoligidir. Unda kishilar hayotni obdan ku-zatib, tajriba to'plab aytgan hikmatli so'zлari o'z ifodasini topgan. Ko'pincha, she'riy shaklda izhor etilgan maqollarning mavzusi rang-barangdir. U rad qilinmas darajadagi pishiq nasihatdan iborat bo'ladi. Masalan:

- Bog'li el — yog'li el.
- Bilim kuchda — kuch bilimda.

Yozma adabiyot namoyandalari ham o‘z mulohazalarini aniq va ixcham ifodalab, maqollardek purma’no hikmatlar yaratishgan. 2-sinf o‘quvchilari «Navoiy hikmatlari»ni o‘rganishadi. Masalan, «Olamdan g‘amsiz o‘tay desang, ilm-u hunar o‘rgan», «Sabr bila ko‘p bog‘liq ish ochilur, ishda oshiqqan ko‘p toyilur».

Maqollar va hikmatli so‘zlar mavzularni yakunlovchi, uning g‘oyaviy mazmunini o‘quvchi xotirasida uzoq saqlaydigan janr sifatida berilgan.

3-sinf o‘quvchilari «Xalq og‘zaki ijodi» ruknida berilgan do‘slik, ahillik, ilm va hunar, kitob va mehnat, ota-onva farzand haqidagi xalq maqollarini o‘rganadilar. Maqol va hikmatli so‘zlarni yodlash o‘quvchilarning tafakkurini o‘stiradi, nutqini boyitadi, hayotdagি inkor etib bo‘lmas turmush tajribalarini o‘zlash-tirishga yordam beradi.

Darsliklarda topishmoqlar va tez aytishlarga ham keng o‘rin berilgan. Bular ham xalq og‘zaki ijodi janrlari bo‘lib, o‘quvchilar zehnini o‘tkir qilishga, tilini burro etishga mo‘ljallangan. Tez aytishda biror-bir tovush qayta-qayta takrorlanadi, o‘quvchi undan o‘sha tovushni to‘g‘ri talaffuz etishni o‘rganadi. Masalan, «Erkin egatga ertagi ekin ekdi» (2-sinf), «Qishda qatiq qattiq qotib qolibdi» (3-sinf).

Tez aytishlarning nutqqa aloqadorligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, topishmoqlar undan farqli o‘laroq, zehnga aloqador janrdir. «Topishmoqda ma’lum bir hodisa yoki narsanining belgisi, sifati va xususiyati atayin ochiq emas, balki ramz va ishora bilan aytildi. Tinglovchi (yoki kitobxon) o‘sha ramz va ishora asosida topishmoqqa yashirilgan hodisa yoki predmetni topadi. Bu janr topishmoq to‘quvchilardan juda katta kuzatuvchanlikni talab qiladi». («Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati». T., 1967) Bunday sinchkovlik topishmoqni topuvchida ham bo‘lmog‘i shart. Unda yana zehn kuchi ishga tushadi, belgi va xususiyatdan o‘z tasavvurida shakl tiklaydi va shundagina topishmoq javobini to‘g‘ri topadi. O‘qish kitoblarida topishmoqlar ko‘p. O‘qituvchi shu janr vositasida muammoli vaziyat yaratishi, o‘quvchilar diqqatini jalb qilib, ularning motivatsiyasini kuchaytirishi lozim. Masalan:

Sirti tayoq, ichi bo‘yoq (2-sinf).

Zehni yugurik o‘quvchi tayoq ichida qotgan bo‘yoq «qalam» bo‘lishini topishga muvaffaq bo‘ladi. Yoki:

*Biz edik-u, biz edik,
Yigirma to'qqiz qiz edik.
Birin-birin tizildik,
Ma'no bo'lib tuzildik* (2-sinf — «Harflar»).

Bundan-da murakkabroq bo'lib, ayrim sifatlari bilan o'x-shashlik kasb etadigan, ammo bir e'tibordan yashiringan jihat bilan farqlanuvchi topishmoqlar ham borki, o'quvchi uni kengroq mushohada qilishga majbur bo'ladi:

*Nomini top, Sherali,
Yesang, mazza, shirali.
O'zi polizda pishar,
Bosh harfi-chi almashsa,
Kir tog'oraga tushar* (3-sinf).

Polizda pishadigan shiralilar: tarvuz, qovun, handalak kabiladir. Bu sifati — o'xshash. Ammo bosh harfi o'zgarsa, boshqa narsaning nomi kelib chiqadigani qovundir. «Q» «S»ga aylansa, sovun bo'lib tog'oraga tushadi.

Shunday qilib, kichik janrdagi hadis, hikmat, maqol, tez aytish va topishmoqlar boshlang'ich ta'limga mos bo'lib, o'quvchilarni har tomonlama ma'naviy kamolotga erishuvida salmoqli o'rinn tutadi. Ularni tahlil qilishda, izohli o'rganishda, mustaqil mushohada etishda mushtarak jihatlar mavjud. Bular quyidagilar:

1. Tahlil matnini ifodali o'qish.
2. Tahlil matniga ijodiy yondashish.
3. Matnga nisbatan mulohazali bo'lish.
4. Tahlil matnining hayotiy qirralarini topish.
5. Matnni yodlash bilan tafakkurni boyitish.
6. Nutq ta'sirchanligini ta'minlash uchun tahliliy matn (hadis, maqol, hikmatli so'z)dan o'rinnli foydalanish.

Hikmat topgan — himmat topar, deydi dono xalqimiz. Shunday ekan, kichik mакtab yoshidayoq hikmatlarga ko'ngil bergen o'quvchi kelajakda el-yurt uchun himmatli shaxs bo'lishi tabiiydir.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Boshlang'ich ta'limga mos bo'lgan kichik janrlar qaysilar?
2. Hadis ilmi haqida nimani bilasiz?
3. Xalq maqollari va hikmatli so'zlarning mushtarak jihatlari bormi?
4. Nima uchun tez aytish janri bolalarga mo'ljallangan?
5. Topishmoq o'rganishning qanday ahamiyati bor?
6. Hadis, hikmat va xalq maqollari asosida tahlil darsi konspektini tuzing.
7. Hadis va hikmatli so'zlarning xalq maqollaridan farqini tushuntiring.

IV. SINFDAN TASHQARI O'QISH METODIKASI

SINFDAN TASHQARI O'QISHNI TASHKIL ETISH VA UNGA RAHBARLIK

R E J A:

1. Sinfdan tashqari o'qish — ta'lim-tarbiya tamoyili sifatida.
2. Sinfdan tashqari o'qish uchun kitob tanlash va tavsiya etish.
3. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotini tashkil etish.
4. Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlik.
5. Sinfdan tashqari o'qishning ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati.

Sinfdan tashqari o'qish bolalarning darsda olgan bilimlarini boyitadi, ta'lim-tarbiya tamoyili sifatida badiiy adabiyotni o'qishga qiziqish uyg'otadi, ularda asar orqali ko'p narsani bilish, kitob ustida mustaqil fikr yuritish malakalarini takomillashtiradi.

Amaldagi o'quv dasturi sinfdan tashqari o'qish borasida o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lган bilim, malaka va ko'nikmalarini belgilab, boshlang'ich ta'limning har bir bosqichi uchun alohida-alohida ko'rsatmalar beradi.

1-sinfda:

- o'quvchilarning o'qish malakasini o'stirish;
- badiiy kitob orqali mustaqil o'qish ko'nikmasini hosil qilish;
- ona-Vatan, uning tabiatni, mamlakatimizning bugungi hayoti va sayr-sayohatlardan olgan taassurotlarni so'zlash, rasmida ifodalash, kichik hajmli matn tuzish;
- mustaqil ravishda asar mutolaasiga o'rganish, qahramonlar nomini yozish, ularni tasvirlab ijodiy rasm chizish, fikr yakuniga mos maqollar topish va yod olish;
- tanish kitoblar nomini, muallifini aytish, o'zлари qiziqqan kitobni tanlash, ichda o'qish uchun matn ajratish.

2-sinfda:

O'qish materiallari (17 soat):

- 8—30 betli bolalarbop badiiy, ilmiy kitoblar;
- ovozsiz mustaqil o'qish va tanlab ovoz chiqarib o'qish uchun 1—5 bet hajmli she'r, ertak va hikoyalar.

O'qish mavzulari:

- ona-Vatan mehri, ajdodlar jasorati haqidagi asarlar;
- o'simliklar, qushlar va hayvonlar to'g'risidagi asarlar.

O‘quvchilarning kitob ustida ishlashi, «Kim yoki nima haqida o‘qidingiz?» savoliga javob berishlari, kitob mazmunini aniqlash va obrazlarning xatti-harakatini, xulqini, sarguzashtlarini mustaqil baholay olishlari lozim deb uqtiriladi. Sinf o‘qituvchisi mustaqil o‘qishda bolalarning kitobga ijobiy munosabatini tiklashi, sinf kutubxonasini tartibga solishi, adabiy o‘yinlar tashkil etishi, o‘qilgan asar voqealari asosida inssenirovka qilishi haqida ko‘rsatma beriladi.

3-sinfda (17 soat):

Sinfdan tashqari o‘qish ko‘lamni kengayib, o‘zbek va jahon adabiyoti namunalarida, bolalar jurnali va gazetalarida kichik kitobxon uchun berilgan asarlarni o‘qish tavsiya etiladi. O‘quv materiallari kichik yoshli bolalarga mo‘jallangan 18—150 bet hajmida badiiy, ilmiy-ommabop asarlar bo‘lishi lozim deb aytildi. O‘qish mavzulari turli xil bo‘lib, kitobning ichki muqovasi, mundarijasi, so‘zboshi va xotimasini bilish, ularga qarab notanish kitobning taxminiy mazmunini aniqlash talab etiladi. O‘quv yilining 1-yarmida ikki haftada 10—12 betli va ikkinchi yarim yillikda 20—25 betli asarni o‘qish, mazmunini savol-javob asosida yoritib berish, tanishib chiqilgan yozuvchilarning kamida ikki-uchta kitioni bilish o‘quvchilar zimmasiga yuklanadi.

4-sinfda (17 soat):

Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘uloti sinfda o‘qish dasturi bilan uzviy bog‘lanib, undagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun yaqindan yordam beradi. O‘quvchilarda kitobxonlik mada-niyati tarbiya topadi. Ular oddiy kitobxonidan ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarilish uchun intiladilar. O‘quvchilar o‘ziga maqbul bo‘lgan ijodkorning asarini tanlab o‘qishga erishadi.

Sinfdan tashqari o‘qish dasturi kutubxona bilan hamkorlikda o‘quvchilarni individual jalb etish orqali bajariladi. Bu o‘qish 1959-yildan boshlab amalga oshirilgan bo‘lib, hozirgi kunning amaliy dasturiga muvofiq boshlang‘ich ta’limning hamma bosqichlarida ikki haftada bir marta o‘tkaziladi. Metodik tavsiyalarga ko‘ra, 1-sinfda mazkur mashg‘ulot uchun o‘qish darsining ikkinchi qismidan 20 daqiqa vaqt ajratiladi, ovoz chiqarib o‘qishga e’tibor qaratilib, rangli rasmlar ishlangan ertak, hikoya va she’riy matnlar tanlanadi. Asar tili qanchalik ravon, tushunarli, o‘quvchi hissiyotiga ta’sir qiladigan bo‘lsa, uning ta’lim va tarbiyadagi qimmati shuncha baland bo‘ladi. Shunday ekan, sinfdan tashqari o‘qish uchun kitob tanlashda har qanday tasodiflardan xoli bo‘lgan, bolalar iqtidoriga mos keluvchi tamoyillarga amal qilish zarur:

1. Axloqiy me'yorlarni shakllantiruvchi tarbiyaviy maqsad inobatga olinadi.

2. O'qish uchun tavsija etilgan asarlar janr xususiyati va mavzu ko'lamiga ko'ra, rang-barang bo'lishi ko'zda tutiladi.

3. O'quvchilarning yoshi va saviyasiga muvofiq keladigan folklor namunalari yoki badiiy, ilmiy-ommabop asarlar tanlanadi.

4. Kitob saralashda o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlari, adabiy turning (epik, lirik, sahnaviy) qaysi janridagi asarni o'qishga moyilligi o'rganiladi.

5. O'quvchilarning adabiy-estetik tafakkurini o'stiruvchi, ezzulikka boshlovchi, yomonlikning barcha ko'rinishlariga nisbatan nafrat uyg'otuvchi murakkab sujetga ega bo'limgan asarlar tavsija etiladi.

Sinfdan tashqari o'qish mashg'uloti sinfda o'qish darslari bilan chambarchas bog'liqlikda uyushtiriladi. Olima K. Qosimova ta'biri bilan aytganda, sinfda o'qish hayotga tayyorlash vositasi bo'lsa, sinfdan tashqari o'qish esa hayotning o'zidir. Bu dars o'ziga xosligi jihatidan erkin dars hisoblanadi. Unga o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi asos bo'ladi. Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlikning asosiy shakli — maxsus sinfdan tashqari o'qish darslaridir. Bunda noan'anaviy dars usullaridan foydalanish orqali o'quvchilarning faolligi oshadi. O'rganilgan asar muhokamasi uchun o'qituvchi fikr almashish imkoniyatini yaratadi. Har bir darsda o'quvchilar o'zлari o'qigan yangi-yangi asarlardan parcha keltiradilar, ertak, hikoya mazmunini aytib, o'z munosabatlarini bildiradilar, she'r, hadis, hikmatli so'z, xalq maqollaridan yodlaganlarini ifodali o'qiydilar.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida, asosan, ijodiy faoliyat hukmron bo'ladi. Unda turli usulda hikoya qilish, adabiy kompozitsiya o'tkazish, asar mazmuniga mos rasm chizish, diafilmidan foydalanish, she'mi qiroat bilan o'qish kabi ish usullari namoyish etiladi. Har darsda o'quvchilar besh-olti daqiqa o'qigan asari yuzasidan suhbatga tortiladi. Suhbat mazmuni asosida qiziqarli, ixcham tadbir ishlanadi. Bular:

- adabiy viktorina (savol-javob o'yini);
- eng yaxshi insho ko'rigi;
- modulli ta'lim usuli;
- topshiriqlar albomini tuzish;
- badiha-ertak to'qib aytish;
- «O'yla, izla, top!» didaktik o'yinini tashkil qilish;
- «Intellektual ring» testi tuzish va boshqalar.

Sinfdan tashqari o'qish darslarining rejasini oldindan belgilash, uni yarim yillik yoki butun o'quv yili uchun tuzib, darslar

tizimini aniqlab qo‘yish tavsiya etiladi. Ishni bunday rejalashtirish darslarning mantiqiy bog‘lanishiga, shuningdek, mo‘ljallangan ish turini to‘g‘ri taqsimlashga, o‘quvchilarga ma‘rifiy-tarbiyaviy bilim berish, bayramlar, yil fasllari, ulug‘ sanalarga mos ravishda mavzularni taqsimlash imkoniyatini yaratadi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslari kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga katta ma‘naviy oziq beradi. Ularni mustaqil fikrlashga undaydi, shaxsiy mulohazaga ega bo‘lish malakalarini shakllantiradi, badiiy asardagi voqe-a-hodisalardan hayotiy xulosalar chiqarish va undan ibratlanish hissiyotini tarbiyalaydi, badiiyatdan estetik zavq olishga o‘rgatadi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Sinfdan tashqari o‘qish bolalarning darsdan olgan bilimlariga qanday ta’sir qiladi?
2. Amaldagi dasturda sinfdan tashqari o‘qishga e’tibor berilganligini qaysi faktlar asosida izohlaysiz?
3. 3-sinf o‘quvchilari uchun sinfdan tashqari o‘qish materiallari qanday hajmda bo‘lishi lozim?
4. Sinfdan tashqari o‘qish darsi qachondan joriy qilingan?
5. Sinfdan tashqari o‘qish ishlari bo‘yicha qay turdag'i ixcham tadbirdan foydalanish mumkin?
6. Sinfdan tashqari o‘qish bo‘yicha 1-sinfga mo‘ljallangan mashg‘ulot turini belgilang va konseptlashtiring.
7. Guruhga bo‘linib, topishmoqlar albomini tuzing.

SINFDAN TASHQARI O‘QISH DARSLARINING TURLARI

REJA:

1. Sinfdan tashqari o‘qish darslarining xususiyati.
2. Tayyorlov va boshlang‘ich bosqichda sinfdan tashqari o‘qish darsi.
3. Sinfdan tashqari o‘qishning asosiy bosqichidagi ishlari.
4. Sinfdan tashqari o‘qish darsining rejasi va qurilishi.
5. Sinfdan tashqari o‘qish — mustaqil bilim egallashning asosi.

Metodik qo‘llanmalarda sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarining xususiyati quyidagicha belgilangan:

- sinfdan tashqari o‘qish tizimining bosqichlari bilan;
- o‘quv vazifalarini tartibga soluvchi dastur bilan;
- o‘qituvchining o‘z oldiga qo‘ygan tarbiyaviy yo‘nalishdagi maqsadi bilan;

— o‘quvchilarda kitobga nisbatan uyg‘ongan motivatsiya bilan.

1-sinf uchun sinfdan tashqari o‘qish mashg‘uloti ikki bosqichda olib boriladi. O‘quv yilining 1-yarmida, o‘quvchilar hali alifboni to‘liq o‘zlashtirmagan paytda TAYYORLOV bosqichi o‘tkazilib, tanlangan matnni o‘qituvchi o‘qib beradi. 2-yarim yillik BOSHLANG‘ICH bosqich hisoblanib, tavsiya qilingan kichik hajmli asarni o‘quvchilar o‘qiydi. Lekin ularda hali mustaqil o‘qish malakasi maromiga yetmagan bo‘lib, o‘qituvchining ko‘magi, qo‘llab-quvvatlashi asqatadi.

Tayyorlov bosqichida 1-sinflar bilan 20 daqiqalik mashg‘ulot o‘tkazilib, besh-olti daqiqada o‘qib beriladigan qiziqarli rivoyat, ertak, hikoya, she‘r yoki masal tanlanadi. B. Ma‘qulovarning «Kitobim — oftobim» to‘plami aynan shunday dars uchun mo‘ljallangandir. Bundan tashqari, B. Ma‘qulova, S. Sa’diyevalarning «Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari» qo‘llanmasida savod o‘rgatish jarayonidagi sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari uchun 16 ta o‘quv ishlanmasi berilgan. Namuna sifatida tayyorlov bosqichiga doir bir mashg‘ulot qurilishi tartibi bilan tanishaylik.

BAXTLI BOLALIK QO‘SHIQLARI

«BIZ ENDI ODDIY BOLALAR EMAS — O‘QUVCHILARMIZ»

1. Mashg‘ulot uchun o‘quv materiallari. (Berilgan to‘rt asardan biri tanlanadi: Q. Sobirova — «Maktabim», A. Akbar — «Sentabr quvonchi», A. Ko‘chimov — «Tezroq yangra, qo‘ng‘iroql», S. Barnoyev — «Yaxshilik».)

2. Mashg‘ulotning rejasi. (Bunda tanlangan matnni o‘rganish tartibi ko‘rsatilib, tavsiya ham kiritiladi.)

3. O‘qituvchi suhbat. (O‘qituvchi mashg‘ulot matni bilan tanishtiradi va «Maktabim» she‘rini ifodali o‘qib beradi.)

4. Savollar. (O‘qituvchi bolalardan qaysi she‘rni o‘qib berganligini, kim bu she‘rni avval eshitganini, kim uni yoddan bilishini, she‘rning muallifi kimligini so‘raydi.)

5. Rasm ustida suhbat. (O‘qituvchi she‘rga ishlangan rasmga o‘quvchilarning diqqatini tortadi. Unda nima tasvirlanganligini so‘raydi. Bolalar rasmga qarab bilganlarini aytadilar, so‘ngra she‘rning birinchi bandi birgalikda yodlanadi.)

6. Yakuniy suhbat. (O‘quvchilarni o‘qish burchagi bilan tanishtirilib, darsda ko‘rib chiqilgan rasm qo‘yiladi. O‘qituvchi bo-

lalarga darsda yodlangan to'rt qator she'rni ota-onalariga ayтиб berishlarini, maktabga qaytguncha takrorlashlarini, ularga oiladagilardan biri «Kitobim — oftobim»ning 1-bo'limidagi asarlardan birini o'qib berishini tavsiya etadi.)

1-sinfda o'quv yilining 2-yarmi BOSHLANG'ICH bosqich bo'lib, mustaqil o'qishga rahbarlikning asosiy turi sinfdan tashqari o'qish darslari hisoblanadi. Bu bosqichda sinf o'quvchilariga bir xil kitob taqsimlanishi talab qilinadi. Lekin bunga har doim ham erishish qiyin. Holbuki, sinfdan tashqari o'qish darslarining samaradorligini ta'minlash uchun o'quvchilar bitta matn ustida ishlashi zarur. Dastlab, o'qituvchi kichik hajmdagi biror asarni ifodalni qilib o'qiydi, so'ng o'quvchilardan mustaqil o'qigan asarlari so'ralib, suhbat o'tkaziladi, qisqacha umumlashtiriladi. Keyin o'quvchilar yangi kitob bilan tanishib, savol-javobda faol bo'lish maqsadida talabga ko'ra, ichda o'qishga kirishadilar. Iloji boricha, boshlang'ich bosqich darslari rang-barang usullarda erkin va tarbiyaga boy bo'lishi lozim. Bunda quydagilar tashkillashtiriladi:

1. Mavzulari bir-biriga yaqin bo'lgan yoki bitta muallif qalamiga mansub bo'lgan kitoblar ko'rgazmasini namoyish etish.

2. Albom yoki asar mazmuniga chizilgan rasmlar bukletini tayyorlash.

3. Sinfda kitob burchagini tashkil etish.

4. «Eng yaxshi suxandon» tanlovini o'tkazish.

5. Yordamchi vosita sifatida kompyuter o'yinini joriy etish.

6. Musiqaviy mushohada o'tkazish.

7. Kitobni asrash va ta'mirlashga doir darsni kutubxonada o'tkazish.

Boshlang'ich bosqichda o'quvchilar o'qish malakasiga endigina erishayotganligini inobatga olib, o'qilgan asarni yaxlit idrok etish (sintez qilish) uchun o'qituvchi darsni qiziqarli va hayajonga boy qilib tashkil etishi lozim. Bunga erishish uchun u darsdagi she'riy yoki nasriy matnni qiroat bilan jonli o'qishi, o'quvchilar nutqida ham ifodalilikni yuzaga chiqarishi maqsadga muvofiqdir. Bu ishda o'qituvchi metodik vositalarga murojaat qiladi:

— o'quvchini ifodali o'qishga tayyorlaydi;

— sujetli asarni rollarga bo'lib o'qitadi;

— «Muhokama daqiqasi» nomli savolli-topshiriqli matn tahlili o'tkazadi.

Bu bosqichda o'quvchilar o'qilgan asarga munosabat bildirishga o'rgatib boriladi. Aqliy faoliyati shakllangan, erkin fikrlash va o'qish ko'nikmasiga ega bo'lgan o'quvchilar 2-sinfdan boshlab ASOSIY BOSQICHga o'tadilar. Bu bosqichda ularga tavsiya etiladigan sinf-

dan tashqari o‘qish materialining hajmi kengayadi. Dars tahliliga qo‘yiladigan talablarning sifati ham ortadi:

- asardagi axloqiy masalani yoritadigan o‘rinni topib o‘qish va unga o‘z munosabatini bildira olish;
- tahliliy ishlarni o‘tkazishga uquvli bo‘lish;
- o‘qilgan asarni muhokama qilish, umumlashtirish va xulosaga doir shaxsiy fikrga ega bo‘lish;
- boshqalar huzurida o‘qiganlari yuzasidan g‘oya berishga (yetarli asosga ega bo‘lishmasa-da) o‘rganish va boshq.

Demak, asosiy bosqichda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar umumlashtiruv xarakterida bo‘ladi. Lekin 2-sinf boshlang‘ich bosqichdan asosiy bosqichga endigina o‘tganligini hisobga olib, ularni asosiy bosqich talablariga ko‘niktirguncha o‘qituvchi hamkorligi davom etadi. O‘quvchilar mustaqil o‘qishga o‘rganib boradi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarida taniqli bolalar yozuvchi va shoirlari (Z. Diyor, Q. Muhammadiy, Q. Hikmat, X. To‘xtaboyev, P. Mo‘min, Sh. Sa’dulla, T. Adashboyev, A. Obidjon, K. Turdiyeva, A. Akbar va boshqalar) asarlariga alohida e’tibor beriladi. Bundan tashqari, bolalarbop matbuot nashrlari («G‘uncha», «Gulxan» jurnallari, «Tong yulduzi» gazetasi va boshqalar) bilan tanishtirishga bag‘ishlangan mashg‘ulot o‘tkaziladi. Shu bilan birga, o‘quvchilar mustaqil o‘qigan va darsda muhokama etilgan asarga jamoa bo‘lib taqriz tayyorlash uchun alohida dars ajratish mumkin. Bundan maqsad o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishdir.

Bir o‘quv yiliga mo‘ljallangan sinfdan tashqari o‘qish darslarini rejalashtirishda mavzular taqsimoti 17 soatga (2, 3, 4-sinflarda) mo‘ljallab tuziladi. Mavzular qamrovidagi darslar:

1. Ayrim o‘zbek va jahon bolalar adabiyoti vakillari (J. Swift, Q. Hikmat, Q. Muhammadiy, T. Adashboyev, Z. Diyor, A. S. Pushkin kabi) ijodiga bag‘ishlangan dars.

2. Vatanimiz o‘tmishi va buguni, istiqlol kelajagi, ajdodlar ma‘naviy merosiga doir asarlarni o‘rganuvchi dars.

3. Xalq og‘zaki ijodi (ertak, rivoyat, maqollar, asotirlar, hikoyat va qo‘shiqlar)ni tahlil qiluvchi dars.

4. Tabiatni asrash, hayvonot olamini o‘rganishga doir asarlar muhokamasini o‘tkazuvchi dars.

5. «Ma’naviyat — qalb quyoshi», «Nima yaxshi-yu, nima yomon», «Yashasin tinchlik, bor bo‘lsin do’stlik» mavzularini yorituvchi dars.

6. Erkin tanlangan kitoblar yuzasidan o‘tkaziladigan dars.

7. Axloqiy muammolarni mushohada qilishga chorlovchi dars.

8. Hazil-mutoyibali, yumoristik asarlarni o‘rganuvchi dars.
O‘quv yili boshida yozgi ta’tilda o‘qilgan kitoblar yuzasidan hisobot darsi o‘tkaziladi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarida 2-sinf o‘quvchilarining aqliy faolligi oshsa, 3—4-sinflarda ular xalq og‘zaki ijodi va badiiy ijod bilan chuqurroq tanishadilar. Ularda ilmiy dunyoqarash elementlari paydo bo‘ladi. Muhokama uchun bir necha asarlarni o‘qib chiqish qobiliyatiga ega bo‘lishadi. 3—4-sinf o‘quvchilarini mumtoz adabiyot namoyandalari asarlari bilan ham tanishadilar. Ularning tayyorligi tadbir tusini olsa, sinfdan tashqari ishlar sifatida darsdan tashqari vaqtida o‘tkaziladi. O‘qilgan asar haqida individual taqriz yozishga bag‘ishlangan dars o‘tkazish ham mumkin. Bunda har bir o‘quvchi o‘z tanlagan kitobi haqida yozadi.

Asosiy bosqichdagi sinfdan tashqari o‘qish darsining har bir varianti metodist-olima K. Qosimovaning qo‘llanmasida berilgan bo‘lib, «Q. Muhammadiyning bolalar uchun yozgan kitoblar» mavzusidadir. Bu mavzu o‘quvchilar tomonidan bir oy mobaynida o‘rganilishi aytildi. Davr talabidan kelib chiqib, ayrim o‘zgartirishlar asosida bu darsning namunaviy ko‘rinishini keltiramiz:

1. Q. Muhammadiyning «Qo‘y keladi qo‘zi bilan» she’rini guruh bo‘lib o‘qish yoki ashula qilib aytish bilan boshlanadi. So‘ng yetti-sakkiz o‘quvchi shoirning kitoblarini qo‘lda tutib namoyish etadilar. Kitob haqida qisqacha gapiradilar.

2. O‘quvchilar Q. Muhammadiyning Vatan va uning ko‘rkini vasf etgan she’rlaridan parcha o‘qiylilar, shu kitobga chizilgan rasmlarni ko‘rsatadilar.

3. O‘qilgan kitob haqida suhbat o‘tkaziladi. Savol-javob bo‘ladi.

4. Alohiba tayyorlangan o‘quvchilar Q. Muhammadiyning hajviy she’rlaridan namunalar o‘qiylilar.

5. Jasorat mavzusida yozilgan she’rlardan o‘qiladi. Suhbat o‘tkazilib, matonatli kishilar hayotiga doir ma’lumotlar aytildi.

6. Yakunlovchi suhbatda Q. Muhammadiy asarlarining mavzu ko‘lami va janr xususiyatlari haqida gapiriladi.

7. Q. Muhammadiy asarlaridan o‘qishga tavsiya qilinadiganlarining ro‘yxati ko‘rgazma asosida tuzilgan bo‘ladi.

Dars Q. Muhammadiyning bir hajviy she’rini o‘qish yoki uning so‘zi asosida yozilgan ashulani aytish bilan yakunlanadi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslari 4-sinfda istiqbolli yakun topishi, umumiy o‘rtalim adabiyoti uchun asos bo‘lishi zarur. Buning

uchun kitob tanlashda ham, uni tahlil qilishda ham o‘quvchilarga bilim olishning tub mohiyatini anglatish, kitob hayot ko‘zgusi ekanligini tushuntirish, sinfdan tashqari o‘qish — mustaqil bilim egallashning asosi, deb o‘rgatish talab etiladi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Sinfdan tashqari o‘qish darslarining xususiyatlari nimadan iborat?
2. Tayyorlov bosqichida sinfdan tashqari o‘qish qanday tashkil etiladi?
3. Boshlang‘ich bosqichning vazifasi nimalardan iborat?
4. Asosiy bosqichdagi dars qurilishini aytib bering.
5. «Sinfdan tashqari o‘qish — mustaqil bilim egallashning asosi» degan mavzuda ma’lumot to‘plang va konspektlashtiring.
6. Boshlang‘ich bosqichga doir dars ishlanmasi tuzing.

Amaliy ish. 1—4-sinflar dasturidan «Sinfdan tashqari o‘qish» bo‘limini o‘rganish

Amaliy ishni bajarishda kollej talabalari tayanch maktablarning boshlang‘ich ta’lim bosqichi dasturiga murojaat qilishi lozim. 1—4-sinflar uchun ishlangan o‘quv dasturida sinfdan tashqari o‘qishga 17 soatdan vaqt ajratilgan bo‘lib, dars ikki haftada bir marta o‘tkaziladi. Amaliyotchilar yillik rejani tuzishda davlat ta’lim standartlari o‘quv dasturi talablariga amal qiladi. Shuni hisobga olgan holda, 1—4-sinf dasturidan sinfdan tashqari o‘qish bo‘limini o‘rganishda tanlash shartiga amal qilingan-qilinmaganini kuzatib, quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

1. Bolalarning yosh xususiyati va saviyasiga mos mavzular tanlanganmi yoki yo‘qmi?
2. O‘quvchilarda kitobga havas uyg‘otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish hisobga olinganmi?
3. Maktab kutubxonasi bilan hamkorlik qilinganmi?
4. O‘zbek bolalar adabiyoti yozuvchilarining ijodiy laboratoriysi bilan bog‘liq bo‘lgan mavzu sinfdan tashqari o‘qish soatida o‘z aksini topganmi?
5. Sinfdan tashqari o‘qish soati bilan bog‘liq bo‘lgan biror tadbir o‘tkazish rejalashtirilganmi?
6. Kitobxon madaniyatini tarbiyalash uchun sinf o‘qituvchisining bolalar bilan ishlashda yangi pedagogik texnologiyaga munosabati qanday?
7. Sinfdan tashqari o‘qishda o‘quvchilarning ijodkorligiga, erkin fikrliligiga ahamiyat qaratilganmi?

V. FONETIKA, GRAMMATIKA VA SO‘Z YASALISHINI O‘RGATISH METODIKASI

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘ZBEK TILINI O‘RGATISHNING MAZMUNI

REJA:

1. Matabda ona tilini o‘rgatish va uning mazmuni.
2. O‘zbek tili darslarida beriladigan bilimlar.
3. Til o‘rganishda o‘quvchi hosil qiladigan zarur ko‘nikmalar.
4. Boshlang‘ich sinflarda tilni ongli egallahsha doir bilim berish.
5. Ona tili darslarida til hodisalarini o‘rganishdagi uzviylik.

Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinflarida o‘zbek tilini o‘rgatishning asosiy mazmuni Vatanimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to‘g‘risida»gi Qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagи «O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish to‘g‘risida»gi 203-qarori bajarilishini ta’minlash, islohotlarning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda ta’lim mazmuniga zarur tuzatishlar kiritish, uning sifat va samaradorligini oshirish kabi ulug‘ maqsadlarga moslangan.

Bu maqsadlar serqirra bo‘lib, ularni bajarish o‘quvchilar ongini o‘stirishga, madaniy, ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga, g‘oyaviy-siyosiy, milliy-ma’naviy, axloqiy, estetik, ijodiy tashabbus va mehnat tarbiyasini berishga yo‘naltirilgan.

Shunday ekan, o‘zbek tilini o‘rgatish natijasi o‘laroq o‘quvchilarda o‘z fikrini grammatik qoidalar asosida to‘g‘ri, uslubiy jihatdan aniq, mazmunli, ohangga rioya qilgan holda ifodalay olish va uni imloviy savodxonlik darajasida to‘g‘ri yoza olish malakalari shakllantiriladi. Xususan, o‘quvchilarning aqliy va nutqiy qobiliyatlarini muvaffaqiyatli tarzda o‘stirish kelgusida ularning turli fanlarni puxta o‘zlashtirishlariga imkoniyat yaratadi.

Til o‘rganishning yana bir muhim ma’rifiy ahamiyati shundaki, u tufayli jamiyat a’zolarining har birida hosil bo‘lgan bilim ommalashadi, ko‘pchilik tomonidan lug‘at tarkibi boyib boradi. Mutafakkir olim Alibek Rustamov «Til ilm olishda zamon va makon g‘ovini o‘rtadan ko‘taradi», deb ta’kidlaydi. Til tufayli qadimiy

ma'lumotlarga ega bo'lamiz, hatto kelgusiga oid bashoratlardan xabardor bo'lamiz.

Boshlang'ich ta'limning o'zbek tili darslarida beriladigan bilimlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

— tovush tuzilishi va uni yozuvda ifodalash usullari haqidagi fonetik va grafik bilimlar;

— so'zning morfemik tarkibi va so'z yasash usullari haqidagi bilimlar;

— so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini o'rgatuvchi leksikologik bilim;

— so'zgarishi va gapda so'zlarning ma'no bog'lanishlarini tushuntiruvchi grammatik, ya'ni morfologik va sintaktik bilimlar;

— o'zbek tilida to'g'ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarinining ishlatalishiga oid orfografik va punktuatsion bilimlar.

Bundan tashqari, o'zbek tili kursi fonetik, grafik, grammatik bilimlarning amaliy ko'nikma va malakasini ham o'z qamroviga oladi.

Boshlang'ich ta'lim dasturi va darsligida til qoidalarini ongli o'zlashtirish uchun grafik va orfografik malakani egallashga zamin bo'ladigan bilimlar tanlangan. Bu esa bosqichli izchillik tamoyili asosida tuzilgan bo'lib, fonetika, grammatika, imlodan beriladigan boshlang'ich ma'lumotlar yuqori sinflarda o'qitiladigan ona tili va adabiyot materiallariga uzviy bog'lanadi. Dastur asosida yaratilgan darsliklar tilga doir bilimlarni soddadan murakkabga tomon bosqichma-bosqich izchillik bilan yoritib boradi. Buni qisqacha qilib, quyidagi tartibda ko'rsatish mumkin:

1. Tovushlar va harflar.
2. Bo'g'in. Urg'u. Alifbo.
3. So'z. So'z tarkibi: o'zak, negiz, qo'shimchalar.
4. So'z turkumlari: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, bog'lovchi.
5. Gap. Darak gap. So'roq gap. Undov gap. Gap bo'laklari. Gapda so'z bog'lanishi. Gapning uyushiq bo'laklari.
6. Undalma. Lug'at.

Boshlang'ich ta'limning ona tili darslari 1—4-sinflarda tilning hamma tomonlarini o'zarlo bog'liqlikda o'rgatadi. Bir bosqichda o'rgatilgan bilim keyingi bosqichlarda kengaytiriladi. Masalan, tovushlar va harflarga doir asosiy bilimlar 1—2-sinflarda beriladi. O'quvchilar tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, ularning harfiy ifodasi, bo'g'in, jarangli va jarangsiz undoshlar haqidagi tushunchalarni o'zlashtiradilar. Bolalar ana shu bilimlar asosida aytishli va yozilishida farqlanadigan so'zlarni, «a» va «o», «u» va

«i» unlili so‘zlarning imlosini, so‘z oxirida kelgan jarangli «b» va «d» undoshlarining jarangsiz jufti «p» va «t» tarzida eshitilsa ham (kitob, ozod) «b» va «d» tovushlari yozuvda saqlanishini, ayrim so‘zlar oxirida kelgan «d» va «t» undoshlarining talaffuzda tushib qolishi (baland, musht, do‘sht), ammo yozuvda saqlanishini, yonma-yon kelgan ikki bir xil undoshli so‘zlarning aytilishi va yozilishini bilib olishadi.

3—4-sinflarda esa tovushlar va harflarga doir bilimlar chuqurlashtiriladi, mustahkamlanadi. So‘zlarni tovush, harf tomonidan tahvil qilish takomillashadi. Natijada, o‘quvchilar savodxonligi oshadi, xatosiz ko‘chirish, eshitib yozish va yozilganlarni mustaqil tekshirish ko‘nikmalar oshib boradi. «So‘z», «Gap», «So‘z turkumlari» va «Bog‘lanishli nutq» kabi qismlar ham yuqoridagi tartibda izchil o‘rgatiladi.

Ona tilidan beriladigan bilimlarni puxta o‘zlashtirish va o‘quvchilarni faollashtirish uchun turli xil ta’limiy o‘yinlardan, bino-barin, KROSSVORD (kataklarni harflar bilan to‘ldirib, o‘ylan-gan so‘zlarni topish), SHARADA (mustaqil ma’noga ega bo‘lgan bir necha so‘zdan tuzilgan qo‘shma so‘zni topish: oshqozon, gulbeor, mingoyoq), REBUS (so‘z yoki gapni shakl, harf, belgilar bilan ifodalaydigan topishmoq), har xil ko‘rgazmali qurollar va texnik vositalardan foydalanan holda o‘zbek tilini o‘rgatish o‘quv dasturida tavsiya etilgan ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlan-tiruvchi vazifalarni kompleks tarzda hal etish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta’limning ona tili darslarida til hodisalari uch nuqtayi nazardan, ya’ni SO‘Z MA’NOSI, GAP QURILISHI va GAP FUNKSIYASI tomonidan tadrijiy ravishda o‘quvchilarga o‘rgatib boriladi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. O‘zbek tili o‘rgatishning maqsad va mazmuni nimadan iborat?
2. Boshlang‘ich ta’limda til hodisalariga doir qanday bilimlar o‘rgatiladi?
3. Til qoidalarini o‘rganishda o‘quvchilar hosil qiladigan zarur ko‘nikmalar qaysilar?
4. Ona tilidan beriladigan bilimlar qaysi tamoyilga amal qiladi?
5. Ona tili darslarida til hodisalarini o‘rganishdagi uzviylikni 4-sinf darsligi asosida muhokama qiling.
6. Mustaqil ravishda mavzuga doir test savollari tuzing va qo‘srimcha ma’lumotlar yig‘ib konspektlashtiring.

FONETIKA VA GRAFIKANI O'RGATISH USULI

REJA:

1. Nutqni egallahsha fonetik bilimning o'rni.
2. So'zni aniq va to'g'ri talaffuz qilish ustida ishlash.
3. Tovushlar va harflar.
4. O'zbek tili yozuvi tovush yozuvi ekanligi.
5. Grafik malakani tushunish usuli.
6. Undoshlarning yozuvda ifodalanishi.
7. Fonetika va grafikani o'rganishning ahamiyati.

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri mакtabga ilk qadam qo'ygan kichik yoshdagi o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq malakalarini shakkantirishdir.

Savod o'rgatish davridayoq bolalar fonetik bilimga asoslangan holda o'qish va yozishni o'rgana boshlashadi. Fonetik bilim esa tovushni burro talaffuz qilish, so'z urg'usini to'g'ri qo'yish, bo'g'inni ajratish, qisqasi, orfoepik normaga rioya qilish asosini tashkil etadi.

Bundan tashqari, gap ohangini buzmasdan mantiqiy urg'uni o'z o'rnida qo'llab, gap qurilishidagi to'xtamlarga e'tibor berishni fonetik bilim o'rgatadi.

So'zning tovush tomonini yaxshi bilgan holdagina uning ma'nosini tushunish va nutqda ongli qo'llash mumkin. Shuning uchun 1-sinfda fonetika va grafikani (fonetika yunoncha *phone* — tovush; grafika yunoncha *grafike* — chizuv) o'rganishga katta o'rin beriladi.

O'quvchilar so'zni to'g'ri talaffuz qilish, bo'g'inlarga bo'lish, o'rganiladigan har bir tovushning aytilishi va yozilishini qunt bilan o'zlashtirish uchun analiz, sintez, taqqoslash, guruhlash singari aqliy mashqlarni o'qituvchi ko'rsatmasi asosida muntazam bajaradilar. Shunda ular so'zlar tarkibidagi tovushlarning tabiatini, o'zaro ta'siri kabi ayrim boshlang'ich bilimlarni egallah malakasiga ega bo'lishadi.

Bolalarga alifbodagi harflar unli va undosh tovushlarni bildiradi, harflarni ko'ramiz va yozamiz, tovushlarni aytamiz, eshitamiz, degan ma'lumot beriladi. Ular tovush haqidagi to'g'ri ilmiy tasavvurni amaliy mashqlar yordamida hosil qilishadi.

ALIFBO HARFLARI

Unlilar	Undoshlar
a, o, i, o', u, e (6 ta)	b, d, f, g, h, k, l, m, n, p, r, q, s, t, v, x, y, z, g', j, sh, ch, ng (23 ta)

1-sinfning «Ona tili» darsligida (2-yarim yillikda) berilgan mashqlar asosida o‘quvchilar so‘zning tovush tarkibini aniqlashadi, so‘zdagi tovushlarni tartib bilan aytishga va yozuvda ifoda etishga o‘rganishadi. Shu tarzda ular o‘zbek alifbosini haqida quyidagicha ma’lumotga ega bo‘ladilar:

- o‘zbek alifbosida faqat bir nutq tovushini ifodalaydigan harflar 24 ta;
- ikki harf birikmasi bilan ifodalanadigan nutq tovushlari —3 ta (*sh*, *ch*, *ng*);
- bir belgi bilan nomi o‘zgargan harflar 2 ta (*o—o'*, *g—g'*);
- umumiylashtirilgan harflar soni 29 ta, tovushlar esa 30 ta («j» harfi ikki tovushni bildiradi: *jajji*, *jurnal*).

2—4-sinflarda ham so‘zni tovush tomonidan tahlil qilish mashqlari o‘tkazilib, fonetik bilimlar takomillashtirib boriladi. Ma’lumki, nutq tovushlari ikki guruhga bo‘linadi: *unlilar* va *undoshlar*. Buni o‘quvchilarga tushuntirishning qulay belgilari mavjud. Bular:

1. *Talaffuz qilish usuli*. Unli fonemalarni hosil qilishda havo oqimi o‘pkadan nafas yo‘li orqali hech qanday to‘siqqa uchramay chiqadi. Undosh fonemalarni hosil qilishda o‘pkadan chiqadigan havo oqimi har xil to‘siqlarga uchraydi.

2. *Ovoz va shovqinning ishtiroti*. Unli tovushlar so‘zdan iborat bo‘ladi, undosh tovushlar talaffuz qilinganda ovoz og‘iz bo‘shlig‘ida shovqin bilan aralashadi yoki faqat shovqindan iborat bo‘ladi.

3. *Bo‘g‘in hosil qilish*. Unli tovushlar bo‘g‘in hosil qiladi, undosh tovushlarda esa bunday xususiyat yo‘q.

Bu belgilarni nomigagina yodlab olishga yo‘l qo‘ymaslik uchun 1-sinfdayoq o‘quvchilarga tovushni talaffuz qildirib, nutq organlarining vaziyatini kuzatish ko‘nikmasini hosil qildirish kerak. Unlilarning sifati va xususiyati og‘iz bo‘shlig‘ida nutq organlarning harakati va holati bilan bog‘langan bo‘ladi. Undoshlar talaffuzida esa nutq organlari bir-biriga juda yaqinlashadi yoki jipslashadi. Shuning uchun ichkaridan kelayotgan havo oqimi og‘iz bo‘shlig‘idan portlab yoki sirg‘alib chiqadi.

Tovushlarni sinchkovlik bilan o‘rganish o‘quvchilarning aqliy qobiliyatini o‘stiradi. Xususan, ular kuzatilgan manbaning bir necha belgilarini qiyoslashga, umumlashtirishga o‘rganadi.

O‘zbek tili yozuvi tovush yozuvidir. Tildagi har bir tovushning harfiy belgisi mavjud bo‘lganligi uchun, harf tovushning yozuvda ifodalanadigan belgisidir, degan ta’rif beriladi.

O‘quvchilar fonetik bilim bilan birga grafik malakani ham egallab borishlari zarur. Buning uchun ular quyidagilarni o‘zlash-tirishi lozim:

— bir undosh harfda ikki undosh tovush qiyofalanishi mumkin (masalan, *kitob* so‘zidagi «b» harfi «p» tovushini, *kitobim* so‘zidagisi esa aniq «b» tovushini ifodalaydi);

— *Jasur*, *jo‘ja* so‘zlaridagi «j» tovushi jarangli, portlovchi «j» tovushini, *jurnal*, *Parij* so‘zlaridagi «j» tovushi jarangli, sirg‘aluvchi «j» tovushini anglatadi;

— *ong*, *shisha*, *chang* kabi so‘zlardagi «sh», «ch», «ng» tovushlari harf birikma bilan ifodalanadi.

O‘quvchilarga jarangli va jarangsiz undoshlarni tushuntirilganda talaffuzni kuzatish asosiy o‘rinda turadi. Bunda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar ajratiladi. 3-sinfda undosh tovushlar ovozning ishtirot etishi yoki ishtirot etmasligiga ko‘ra, jarangli va jarangsiz bo‘ladi, deb o‘rgatiladi. Shunda bularni ajratish nechog‘liq muhim ekanligini yaqqol ko‘rsatish uchun bir undosh fonema bilan farqlanadigan so‘zlarni jadvalda taqqoslash maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Misollar	Jarangli	Jarangsiz
Dil — til	d	t
Dala — tala	d	t
Joy — choy	j	ch
Ziyarak — siyrak	z	s
G‘am — xam	g‘	x

Jarangli undoshlarda shovqinga qisman ovoz ham aralashadi, jarangsiz undoshlarda esa faqat shovqin hukmron bo‘ladi, deb tushuntirilgandan keyin o‘qituvchi tavsiyasiga ko‘ra, jufti bor undoshlar alohida yoziladi:

- jarangli undoshlar: *b*, *v*, *g*, *d*, *z*, *j*, *g‘*;
- jarangsiz undoshlar: *p*, *f*, *k*, *t*, *s*, *ch*, *sh*, *x*.

Jufti yo‘q jarangli va jarangsiz undoshlar bilan ham o‘quvchilar har xil fonetik sharoitda tovushlarni talaffuz qilishni kuzatish jarayonida tanishtiriladi:

- jufti yo‘q jarangli undoshlar: *l, m, n, r, ng, y;*
- jufti yo‘q jarangsiz undoshlar: *q, h.*

Jufti yo‘q jarangli undoshlar so‘z oxirida kelganda ham talaffuzi yozilishiga mos keladi, ammo jufti bor jarangli undoshlar so‘z oxirida kelganda ko‘pincha uning jarangsiz jufti talaffuz qilinadi. 3-sinf darsligida bunday so‘zlar oxirida qaysi harf yozilishini aniqlash uchun shu so‘zdan so‘ng unli qo‘sib aytildi, degan qoida keltiriladi. Masalan, *mard(t)—mardona, yalpiz(s)—yalpizli, kitob(p)—kitobi*.

Shundan keyin o‘qituvchi tekshirish mashqlarini bajaradi. Binobarin, nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan harflarni qo‘yib yozdiradi va u qanday tovushni ifodalaganini so‘raydi. Har bir so‘zdan so‘ng ularning yozilishini tekshiruvchi shaklini—jarangli undoshdan so‘ng unli qo‘silgan shaklini yozishga buyuradi. Namuna: *avlo... —avlod — avlod; hisob — hisobdon* kabilar.

Shunday qilib, kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilarga fonetika va grafika asoslarini o‘rgatish ularning og‘zaki va yozma nutqlarini takomillashtirishda katta ma’rifiy ahamiyatga ega.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Og‘zaki va yozma nutqni egallashda fonetik bilimlarning o‘rni nimadan iborat?
2. Tovush tushunchasini qanday izohlaysiz?
3. Harf deb nimaga aytildi?
4. O‘zbek yozuvni qanday yozuv?
5. Fonetika va grafikani o‘rganishning ahamiyati nimada?
6. 3-sinf ona tili darsligidan fonetikaga oid topshiriq va mashqlarni o‘rganing.
7. Fonetika va grafikani o‘rganishga doir didaktik o‘yin namunasini tayyorlang.

Laboratoriya ishi. Yangi grammatik tushuncha ustida ishlanadigan darsni kuzatish

Bu mashg‘ulot kollej talabalari amaliyat darslarini o‘tayotgan tayanch maktabning 3—4-sinflarida kuzatiladi. Bu sinflarda so‘z tarkibi, so‘z turkumlari kabi tilning leksika va grammatikaga doir bilimlari kengroq berilgan bo‘lib, talabalar yangi grammatik tushuncha ustida ishlanadigan darsni kuzatishda quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim:

- yangi tushunchani o‘rganadigan mashq turidan o‘qituvchi qanday foydalanganini kuzatish;

- tushunchani o‘zlashtirishda o‘quvchilar faolligini ta’minlash;
- tushuncha yuzasidan o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga sharoit yaratish;
 - mashqlar bajarilganda undan tushunchaga doir nazariy fikr aytishni o‘qituvchi tomonidan qanday bajarilganligini kuzatish;
 - grammatik tushunchani sinfda qay darajada o‘zlashtirilganini mustahkamlash mashqi va savol-javob asosida o‘rganish;
 - darsdan keyin sind o‘qituvchisi bilan grammatik tushunchani o‘zlashtirishdagi metodik usullarni muhokama qilish.

BO‘G‘IN VA URG‘U TUSHUNCHASI

R E J A:

1. Bo‘g‘inning murakkab tushuncha ekanligi.
2. O‘zbek grafikasida bo‘g‘in yetakchi tamoyil ekanligi.
3. So‘z ko‘chirishda bo‘g‘inning ahamiyati.
4. Urg‘u haqida tushuncha.
5. O‘zbek tilida urg‘uning o‘rni.
6. Og‘zaki va yozma nutqda bo‘g‘in va urg‘uning ahamiyati.

O‘zbek tilidagi fonetik birliklardan biri bo‘g‘indir. So‘z tovushlar kompleksidan iborat bo‘lib, matnda qismga, bo‘g‘inlarga bo‘linadi. Bo‘g‘in tushunchasi ilmiy jihatdan murakkab sanalganligi bois boshlang‘ich sinflarda uning mufassal qoidasi berilmaydi. Lekin boshlang‘ich ta’limning o‘quv dasturiga ko‘ra, o‘quvchilarda so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish ko‘nikmasini shakllantirish assosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Akustik (eshitilish) jihatdan bo‘g‘in nutqning tovush bo‘lakchasi bo‘lib, unda bir tovush boshqalaridan jarangdorligi bilan ajralib turadi. O‘sha tovush unli tovushdir. So‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish uning tarkibidagi unlilar soniga qarab belgilanadi, degan tushuncha mavjud bo‘lib, o‘quvchilar shunga amal qiladi. Masalan, *bo-la, tan-ta-na, tong, ki-tob...*

Savod o‘rgatish davridayoq bolalar yozilgan so‘zdan unli tovushlarni topadi va uning miqdoriga qarab bo‘g‘inni aniqlaydi. 1-sinf o‘quvchilari o‘quv yilining 1-yarmida deyarli har kuni o‘qituvchi hamkorligida yangi harf o‘rgangach, hosil qilinadigan so‘zlarni bo‘g‘inlashga duch kelishadi. So‘zni bo‘g‘inlarga tez va bexato ajratish ko‘nikmasini hosil qilish muhim mashqlar qatoriga kiradi. Shuning uchun o‘qituvchi bo‘g‘in tushunchasini bolalarga amaliy tarzda singdirish maqsadida qo‘l harakatlari bilan so‘zni qismlarga bo‘lib ko‘rsatadi. Chunki o‘zbek yozuvida bo‘g‘in yetakchi tamoyil hisoblanadi.

O‘quvchining malakasi avtomatlashgunga qadar biror so‘zni yozmoqchi bo‘lsa, avval bo‘g‘inga bo‘ladi, ko‘nglidan o‘tkazgan tovushlar tizimini tartibga soladi. Bu ishni u aniq bajarsa, harflarni tushirib qoldirmay, o‘rnini almashtirmay savodli yoza oladi. Shuning uchun bo‘g‘in ustida ishlash mashqiga turli ta’limiy-didaktik o‘yinlar bilan yondashish zarur. Masalan, «O‘yla, izla, top» o‘yin-mashqida (2-sinf) *tog‘, osh, xat, o‘n, qish, oy* kabi bir bo‘g‘inli so‘zlarga *o‘, j, o, t, a, b, g‘* harflaridan mosini qo‘yib, yangi bo‘g‘inli so‘z yasash va ayrim yasovchi qo‘shimchalar qo‘shib, ikki bo‘g‘inli so‘z jadvalini tuzish quyidagicha bajariladi:

Bir bo‘g‘inli so‘zlar	Harflar	Yangi so‘zlar	Yasovchi qo‘shimchalar	Ikki bo‘g‘inli so‘zlar
<i>tog‘</i>	<i>a</i>	<i>tog‘a</i>	—	<i>to-g‘a</i>
<i>osh</i>	<i>b</i>	<i>bosh</i>	-lik	<i>bosh-liq</i>
<i>xat</i>	<i>o</i>	<i>xato</i>	—	<i>xa-to</i>
<i>o‘n</i>	<i>t</i>	<i>to‘n</i>	-li	<i>to‘n-li</i>
<i>qish</i>	<i>o‘</i>	<i>o‘qish</i>	—	<i>o‘-qish</i>
<i>oy</i>	<i>j</i>	<i>joy</i>	-la	<i>joy-la</i>
<i>o‘r</i>	<i>g‘</i>	<i>g‘o‘r</i>	-a	<i>g‘o‘-ra</i>

So‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish ko‘nikmasining yana bir e’tiborli tomoni imlo qoidalariiga bog‘lanishidir. 4-sinf o‘quvchilariga so‘z ko‘chirish haqida darslik shunday eslatma beradi: «So‘zlar bir yo‘ldan keyingi yo‘lga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi. Bir unlidan iborat bo‘lgan bo‘g‘inni avvalgi yo‘lda qoldirib ham, keyingi yo‘lga ko‘chirib ham bo‘lmaydi. Masalan, *u-ka, a-sal* kabi so‘zlar bo‘g‘inga ajraladi, ammo bo‘g‘inlab qatordan qatorga ko‘chirilmaydi.

Ko‘ngil, singil, shisha, chiroq kabi so‘zlarda «ng», «sh», «ch» harf birikmalari bir tovushni ifodalagan uchun satrdan satrga ajratilib ko‘chirilmaydi. Masalan, *ko‘ngil—ko‘-ngil—ko‘ng-lim, singil—si-ngil—sing-lim, tong—to-ngi—tong-gi* (*shabada*), *shisha—shi-sha, epchil—ep-chil* kabi.

Tutuq belgisi bir yo‘ldan keyingi yo‘lga ko‘chayotgan so‘zning o‘zi turgan bo‘g‘inida qoladi: *is-te‘-dod, jur‘-at* va boshq.

O‘quvchilar urg‘u bilan 2-sinfda tanishadilar. Ammo urg‘uning ta’rifi 4-sinfda to‘liqroq beriladi. So‘z bo‘g‘inlaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq aytilishi URG‘U deyiladi. Ma’lumki, o‘zbek tilida so‘z urg‘usi bog‘liq urg‘u bo‘lib, ko‘pincha so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi: *gul, gulchi, gulchilar, gulchilardan...*

O‘quvchilarga beriladigan urg‘u haqidagi boshlang‘ich bilim bir necha mashq yordamida mustahkamlanadi. Ammo bu umumiy qoidaga mos kelmaydigan holatlar, ya’ni urg‘u oxirgi bo‘g‘inga emas, balki oldingi bo‘g‘inlarga tushadigan so‘zlar ham anchagina uchraydi. Masalan, *dovim*, *albattra*, *chunki*, *ba’zan*, *barcha*, *har kim*, *gazeta*, *sakkizta*, *boshla* kabilar. O‘quvchilarning aktiv lug‘atidagi bunday so‘zlarning urg‘usi o‘qituvchi ko‘magida aniqlanadi. Bir qancha yozma va og‘zaki mashqlar o‘tkaziladi. Chunonchi, sonlar o‘rniga alifbo tartibidagi harflardan mosini qo‘yib, maqollar o‘qitiladi va o‘sha so‘zlar urg‘usi belgilanadi:

2, 8, 11, 8, 12 BAXT KELTIRAR.

KO‘P 25, 16, 8, 6, 1, 13 KO‘P BILAR.

Bo‘g‘in va urg‘u haqidagi bilimlarni kichik yoshdagi o‘quvchilarga puxta o‘rgatib borish ularda nutq odobini o‘zlashtirishga imkon yaratadi va savodxonligini oshiradi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Dastur talabiga ko‘ra, boshlang‘ich ta’limda bo‘g‘in qay tarzda o‘rgatiladi?
2. 1-sinf o‘quvchilariga so‘z bo‘g‘inlarini aniqlashning qaysi usuli yaxshi natija beradi?
3. Imlo qoidalalarini o‘rganishda bo‘g‘in ko‘chirishning xizmati nimadan iborat?
4. Urg‘u qanday tushuncha?
5. O‘zbek tilida so‘z urg‘usi qanday urg‘u sanaladi?
6. Bo‘g‘inni mashqlar bilan o‘rganishga doir mustaqil ish bajaring va unga konsept-reja tuzing.
7. So‘z urg‘usi turli bo‘g‘inlarda kelgan matn tuzing va undagi bog‘liq urg‘u qoidasiga mos kelmagan so‘zlarini aniqlang hamda izohlab bering.

GRAMMATIKA VA SO‘Z YASASHGA DOIR TUSHUNCHALAR

REJA:

1. Grammatik tushunchalarni shakllantirish.
2. Grammatik tushunchalarni o‘zlashtirishda abstrakt tafakkurning o‘rni.
3. Grammatik tushunchalarda til hodisalaridagi muhim belgilarni umumlashtirish.
4. Tushunchani samarali o‘zlashtirish asosida so‘z yasash.
5. O‘quvchilarda so‘z va gapga lingistik munosabatni o‘stirish.

Boshlang‘ich ta’limda grammatik tushunchalarni shakllanirish, o‘quvchilarning aqliy faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish murabbiydan tiniq tafakkur va sobit iroda bilan ishlashni talab etadi. Darhaqiqat, mohir rus pedagogi K.D. Ushinskiy ta’kidlaganidek, o‘quvchi fikriy qobiliyatining o‘sishida grammatik tushunchalar muhim o‘rin tutadi va umumiylar bilim doirasini kengaytirishga yordam beradi.

Grammatik tushunchalar insonning fikrlash, abstrakt tafakkur qilish ishining tajribasi, oqibat-natija umumlashmasidan iborat. Ana shu mavhumlik tufayli o‘quvchilar grammatik tushunchalarni o‘zlashtirishda ko‘p qiyinchiliklarga duch keladi. Ruhshunos olimlarning aniqlashicha, tushuncha hosil qilish tafakkurga oid hodisa bo‘lib, analiz, sintez, qiyoslash, umumlashtirish, tizimlash-tirish, mavhumlashtirish va aniqlashtirish amallarini bilish jarayoni ham sanaladi.

O‘quvchida biror-bir tushunchaning hosil bo‘lishi mavhumlashtirish qobiliyatining qay darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Agar unda bu qobiliyat sust bo‘lsa, so‘zlarni o‘zaro taqqoslab, uning muhim grammatik belgilariiga ko‘ra guruhlashda qiynaladi yoki xatoga yo‘l qo‘yadi. Masalan, *yozdi*, *yugurdi*, *kuldi* kabi so‘zlarning leksik ma’nosini predmetning harakatini bildirgan grammatik ma’nosiga mos keladi. Ammo *o‘yladi*, *sezmadi*, *uxladi* kabi fe’llar holatni bildirgani uchun moslik yo‘qoladi.

Grammatika shu so‘zlarning hammasi uchun umumiylar bo‘lgan harakat va holat bildirish hodisasini o‘rganadi hamda ularni bir toifaga birlashtiradi. Biroq otning kelishik bilan turlanishi bosh-qacha xususiyatga ega bo‘lgan grammatik abstraksiyadir: *daftар*, *o‘quvchi*, *shahar*, *bodalik*, *tog‘* kabi so‘zlar boshqa-boshqa ma’no-siga qaratishda qat’i nazar tildagi o‘zga otlar kabi kelishiklar bilan turlanadi: *daftarning*, *o‘quvchiga*, *shaharda*, *tog‘dan...*

Demak, ma’lum grammatik tuzilmaning ma’no va xarakteri aniqlanganda, faqat u ma’noning umumiyligini, mavhumiyligini xususiyatiga e’tibor beriladi. Shunday ekan, tushunchani shakllantirish uchun o‘quvchilarda mavhumlashtirish ko‘nikmasini o‘stirish, ular diqqatini so‘zning aniq leksik ma’nosidan grammatik ma’nosiga qaratish va shu guruhdagi so‘zlarga oid umumiylar bilan hisobga olgan holda ularni bir guruhga yig‘ish talab etiladi. Tushunchani o‘zlashtirish ustida ishlaganda, uning mavhum belgilarini ajratish uchun muayyan til materiali tahlil qilinadi. Masalan, 3—4-sinflarda so‘z tarkibini o‘rganishga kengroq o‘rin

So‘zlar	O‘zak	Qo‘srimchalar				
		So‘z yasovchi qo‘srim- cha	Shakl ho- sil qiluv- chi qo‘- shimcha	So‘z o‘zgartuvchi qo‘srimcha		
				ega- lik	turlov- chi (ke- lishik)	tuslov- chi (shaxs- son)
Vatandoshimga	Vatan	-dosh	—	-im	-ga	—
Gulzorimizda	gul	-zor	—	-imiz	-da	—
O‘qiyimiz	o‘qi	—	-y	—	—	-miz
Yozdik	yoz	—	-di	—	—	-k
Kitobimni	kitob	—	—	-im	-ni	—

Topshiriq shunday bo‘ladi: «Jadvaldagi so‘zlarga e’tibor bering, namunadagi tahlilni kuzating. Berilgan so‘zlarni qismlarga bo‘lib, yasovchi va so‘z o‘zgartuvchi qo‘srimchalarining xizmati nimadan iborat ekanligini tushuntiring».

Sinfda o‘tkazilgan muhokamadan keyin o‘quvchilar fikriga xulosa yasaladi, ya’ni Vatan so‘zi makonni bildiradi, vatandosh esa bir joyda yashash ma’nosini anglatadi. So‘zning *-dosh* qismi tub ma’noni o‘zgartirgan so‘z yasovchi qo‘srimchadir, *-im* egalik, *-ga* esa jo‘nalish kelishigi qo‘srimchasi bo‘lib, gapda so‘zlarni bir-biriga bog‘laydigan so‘z o‘zgartuvchi qo‘srimchadir.

Shu yo‘sinda, so‘z va gapga lingvistik munosabat uyg‘onadi, o‘quvchilar nazariy bilimlarni o‘zlashtirish asnosida mavhum tafakkurni o‘stiradi hamda tilning semantik va grammatik jihatdan o‘zaro ta’sirdoshligini tushunish ko‘nikmasiga ega bo‘lishadi. Bu ko‘nikma quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- so‘zni tovush-harf tomonidan tahlil qilib, uning tovush va yozuvdagagi bog‘lanishini aniqlash;
- so‘zni morfemik tahlil qilish;
- so‘zdagi o‘zak morfemaning rolini tushunish;
- so‘zni grammatik tahlil qilish;
- so‘zning ma’lum bir so‘z turkumiga taalluqli ekanini bilan uning grammatik belgilari o‘zaro bog‘liq ekanligini anglash.

Ta’lim jarayonida so‘z va gapga lingvistik munosabatni shaklantirib borish o‘quvchilarda nutq madaniyatini egallashning asosiy omili hisoblanadi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Grammatik tushunchalarni aqliy faoliyat bilan bog'liqligini qanday izohlaysiz?
2. Grammatik tushunchalarni o'zlashtirishda abstrakt tafakkurning roli nimadan iborat?
3. «Til hodisasiidagi muhim belgilarni umumlashtirish» deganda nimani tu-shunasiz?
4. Boshlang'ich ta'lilda tushunchani o'zlashtirish asosida so'z yasash usuli qanday olib boriladi?
5. O'quvchilar so'z va gapga lingvistik munosabatni o'stirish borasida 4-sinflar uchun mavzu tanlang va reja-konspekt tuzing.
6. So'z yasashga doir noan'anaviy dars ishlammasini tayyorlang va muho-kamaga qo'ying.
7. Tilning semantik va grammatik jihatdan o'zaro ta'sirdosh bo'lishini ang-latuvchi ko'nikmalarini aytинг.

GRAMMATIKA VA SO'Z YASASHGA OID MASHQ TURLARI HAMDA ULARNI QO'LLASH

REJA:

1. Til nazariyasini mashqlar asosida tushunish.
2. Grammatik mashq turlari:
 - a) morfologik mashqlar;
 - b) sintaktik mashqlar.
3. Morfologik tahlilda so'z yasalishini o'rghanish.
4. So'z yasashga oid mashq turlari.
5. Tilga oid bilimlarni egallashda mashq turlarining ahamiyati.

Maktabda o'quvchilarning nutq madaniyati va orfografik savorxonligini oshirish grammatik bilimlarga asoslanadi. O'quvchi adabiy tilning qoidalarini o'rghanib olgandan keyin uni turli orfografik, punktuatsion va nutq o'stirishga doir mashqlar vositasida mustahkamlaydi, o'z fikrini og'zaki va yozma nutqda to'g'ri ifodalash malakasini hosil qildi. Bu esa o'zgalar fikrini to'g'ri tushunishga imkon yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari grammatik qoidalarni quruqdan quruq yodlashga moyil bo'lmasliklari uchun o'qituvchi amaliy mashqlarga tayangan holda tushuntirish yo'l-yo'riqlarini belgilashi lozim. Ilmiy tushunchaning mohiyatini anglatadigan mashq turlari darslikda berilgan bo'lsa ham, uni o'quvchiga «yuqtira» olish o'qituvchi zimmasida turadi. Grammatik mashqlar bajarish turli asosga ko'ra tasnif qilinadi. Agar nazariy bilimni o'zlashtirish maqsadi asosga olinsa, grammatik mashqlar ikki guruhg'a bo'linadi:

1. Leksik-morfologik mashqlar.

2. Sintaktik mashqlar.

Agar mashq jarayonida o‘quvchilar bajaradigan aqliy omillar inobatga olinsa, mashqlar:

- a) analitik;
- b) sintetik;
- d) qiyoslash;
- e) guruhlash;
- f) umumlashtirishga doir mashq turlariga bo‘linadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida sof morfologik yoki sof sintetik mashq turi juda kam qo‘llanadi, shuning uchun darsdagi yetakchi maqsad hisobga olinadi. Masalan, matn mazmuniga mos egalik qo‘sishimchalarini qo‘yish va shaxs-sonni ko‘rsatish talab etilsa (4-sinf), bu *leksik-morfologik mashq* hisoblanadi. O‘quvchidan egalik qo‘sishimchasini olgan so‘z bilan u bog‘langan so‘zni aniqlab, so‘z birikmasi hosil qilish talab etilsa, bu holat *sintaktik mashq* sanaladi.

Grammatik tahlil analitik mashqqa kiradi. Bu tahlil so‘z turkumlariga nisbatan morfologik tahlilni, gap bo‘laklari va gapga nisbatan sintaktik tahlilni o‘z ichiga oladi.

Morfologik mashq tahlilining mohiyati shundaki, unda o‘rganiladigan so‘z qaysi so‘z turkumiga mansubligi, gap tarkibida qanday grammatik shaklga ega ekanligi aniqlanadi. Binobarin, 1-sinf o‘quvchisi mashg‘ulotda o‘rganilayotgan so‘zning qanday so‘roqqa javob bo‘lishini va nimani bildirishini (predmet nomi, predmet belgisi, predmet harakati) aytadi.

3-sinfda so‘z turkumlari ona tili termini bilan nomlanadi va morfologik tahlil quyidagi tartibda o‘rganiladi:

OT: 1. *So‘z turkumi*. 2. *So‘rog‘i*. 3. *Birlik va ko‘plik shakli*.

SIFAT: 1. *So‘z turkumi*. 2. *So‘rog‘i*. 3. *Qaysi ot bilan bog‘langanligi*.

FE’L: 1. *So‘z turkumi*. 2. *So‘rog‘i*. 3. *Bo‘lishli, bo‘lishsizligi*.

Og‘zaki tahlildan namuna:

Zilol suvlar paxtazorda

Shildirab oqar.(J. Rahim)

ZIOL — sifat, qanday suvlar? — zilol, suvlar otiga bog‘langan — zilol suvlar; suvlar — ot, nimalar? — suvlar, ko‘plik qo‘sishimchasini olgan; oqar — fe'l, nima qilar? — oqar, bo‘lishsiz.

3—4-sinflarda o‘rganilgan mavzularni hisobga olib, morfologik tahlil to‘ldiriladi.

4-sinfda:

OT

1. So‘z turkumi.
2. So‘rog‘i.
3. Birlik va ko‘plik shakli.
4. Bosh harf bilan yoziladigan otlar.
5. Egalik qo‘sishimchasi, shaxs-soni.
6. Kelishiklar va ayrim kelishik qo‘sishimchalari imlosi.
7. Kelishik qo‘sishimchasini olgan so‘zlarning gapdagi vazifasi.

SIFAT

1. So‘z turkumi.
2. So‘rog‘i.
3. Qaysi ot bilan bog‘langanligi.
4. Gap bo‘lagi vazifasini bajarishi.

SON

1. So‘z turkumi.
2. So‘rog‘i.
3. Ot bilan bog‘lanishi.
4. Sanoq yoki tartib sonligi.
5. Tartib sonlarning imlosi.

OLMOSH

1. So‘z turkumi.
2. So‘rog‘i.
3. Kishilik olmoshi, shaxs-soni.
4. Kishilik olmoshining kelishiklar bilan turlanishi va imlosi.

FE’L

1. So‘z turkumi.
2. So‘rog‘i.
3. Bo‘lishli yoki bo‘lishsizligi.
4. Fe’llarda shaxs-son.
5. Fe’l zamonlari va ularning tuslanishi.
6. Sodda va qo‘shma fe’llar.

Boshlang‘ich sinflarda tahlilning og‘zaki va yozma turidan foydalilanildi. O‘z o‘rnida, morfologik tahlilning vazifasi hozirgi o‘zbek adabiy tilida so‘z qanday ma’noli qismlardan tuzilganligini aniqlashdan iboratdir. Tahlilning bu turi 2—4-sinflarda bos-qichma-bosqich o‘rgatiladi. 3-sinfda o‘zak va o‘zakdosh so‘zlar, so‘z yasovchi qo‘sishimchalar, so‘z o‘zgartuvchi qo‘sishimchalar haqidagi birmuncha kengroq bilim beriladi.

So‘z tarkibi bo‘yicha o‘tkaziladigan tahlil quyidagi tartibda bo‘ladi:

1. So‘roq vositasida so‘z anglatgan ma’noni bilish.
2. O‘zakni aniqlash.
3. So‘z yasovchi qo‘srimchani topish.
4. So‘z o‘zgartuvchi qo‘srimchani aniqlash va uning vazifasini tushuntirish.

So‘z tarkibini tahlil qilish ham og‘zaki va yozma shaklda o‘tkaziladi. Yozma shakl belgilari va tahlil namunasi darslikda yaxshi ko‘rsatilgan.

So‘zlarni morfologik tahlil qilish uning leksik ma’nosini tushunishda, morfemaga ajratilgan so‘zni to‘g‘ri yozishda o‘quvchilarga yordam beradigan muhim vositadir.

So‘z tarkibini o‘rganish so‘z turkumlarini puxta o‘zlashtirishga zamin yaratadi. Chunki so‘zning morfologik qurilishini yaxshi bilmagan o‘quvchi so‘z turkumlarining mohiyatini ongli tarzda mushohada qilolmaydi. Zotan, imlo qoidalaridagi morfologik tamoyil bo‘yicha so‘zlarni to‘g‘ri yozish uchun ham o‘quvchi har qanday so‘zni ma’noli qismlarga ajrata olishi zarur. Masalan, jonli tilda «silani», «bizzi» kabi sheva shakkari uchrasa-da, doimo «sizlarni», «bizni» deb yoziladi.

So‘z yasash ham so‘z takibini o‘rganish bilan chambarchas bog‘liq. Chunonchi, *son-a—sana*, *bo‘ya-q—bo‘yoq*, *qishla-q—qishloq*, *tara-q—taroq* kabi. Darsdagi mashqlardan tashqari morfologik tahlil vositasida yasovchilar yordami bilan so‘z yasash yo‘llarini ijodiy tashkil etish o‘quvchilarda so‘z topish, o‘z lug‘atini boyitish mas’uliyatini oshiradi. Masalan:

a) bir o‘zakli so‘zlar ro‘yxatini tuzish (3-sinf): *ish—ishla, ishchi, ishchan, ishsiz, ishli; bosh—boshla, boshchi, boshliq, bebosh, boshqar* kabi;

b) qo‘srimchani har xil o‘zakka qo‘shib yangi so‘z hosil qilish: *intizom-siz, paxta-kor, aql-li, gul-la, ter-im, to‘p-la* va boshqalar;

d) so‘z qismlarini jadvalda ko‘rsatish:

So‘zlar	O‘zak	So‘z yasovchi qo‘srimchalar
muqovachi	muqova	-chi
mazali	maza	-li
vatandosh	Vatan	-dosh
suvdon	suv	-don
bog‘bon	bog‘	-bon
bog‘dorchilik	bog‘	-dor, -chilik
o‘roq	o‘r	-oq

Hozirgi o‘zbek orfografiyasining ko‘p qoidalari morfologik tamoyilga asoslangan. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘quvchilar o‘zbek tili morfologiyasini puxta o‘rganib borsa, lug‘ati boyiydi, og‘zaki va yozma nutqi mukammallahadi, muhimmi, nutq odobini egal-lash imkoniyatiga ega bo‘ladi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Orfografik savodxonlikka qaysi bilim asos bo‘ladi?
2. Grammatik qoidalalar boshlang‘ich sinflarda qaysi usul bilan tushuntirilgani ma’qul?
3. Grammatik mashqlar qaysi asosga ko‘ra tasnif qilinadi?
4. Nima uchun grammatik mashqlarni analitik mashq turiga kiritamiz?
5. Morfologik tahlilning ahamiyatini qanday izohlaysiz?
6. So‘z yasashni o‘rganishning qimmati nimada?
7. Morfologik tahlilga doir dars ishlchanmasini tayyorlang.
8. So‘z tarkibini o‘rganishga doir ko‘rgazmali jadval tuzing, varaqalar yozing va test savollari tayyorlang.

Amaliy mashg‘ulot. 1—4-sinf ona tili darslarini o‘rganish va qiyoslash

Amaliy ishdan topshiriq kollej amaliyotchilariga bir-ikki dars oldin beriladi. Ular 1—4-sinflarning ona tili darsliklari va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining taqvim-rejasi bilan tanishadilar. Amaliy ish jarayonida talabalar ma’lumot uchun quyidagilarga e’tibor qaratadi:

1. Boshlang‘ich ta’lim ona tili darsliklarining programmaga mosligi yoki tafovuti.
 2. 1-sinf o‘quvchilar ona tiliga doir bilimlarni qay tartibda o‘rganishadi?
 3. Tilga doir nazariy bilimlar o‘quvchilarga qaysi usulda tu-shuntiriladi?
 4. Leksika, so‘z tarkibi, so‘z turkumlari, gap, gap bo‘laklari ona tili darsliklarida bosqichma-bosqich qay tartibda takrorlangan?
 5. Ona tili darslari soddadan murakkabga prinsipini qay tarzda qo‘llaydi?
 6. Grammatik tushunchalarni o‘zlashtirishda nima uchun turli talabrlarga doir mashqlar berilgan va uning ahamiyati nimadan iborat?
- Yuqorida berilgan savol-ko‘rsatmalar asosida to‘plangan ma’lumotlarni kollej talabalari mustaqil bajaradilar va darsda keng muhokama qiladilar. Tahlil darajasiga qarab metodist ularni baholaydi.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SO'ZNING MORFEMIK TARKIBINI O'RGANISH

REJA:

1. Morfema haqida ma'lumot.
2. So'zning morfemik tarkibi:
 - a) o'zak morfema;
 - b) affiks morfema.
3. Boshlang'ich sinflarda so'zning morfemik tarkibi ustida ishslash.
4. So'z tarkibini o'rganishning ahamiyati.

Tilning lug'at tarkibidagi har bir so'zni morfemaga ajratish undagi qismlarni hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida o'zaro munosabatga kirisha olish xususiyati bilan belgilanadi.

Morfema — so'zning ma'noli qismi bo'lib, o'z navbatida, u boshqa yana ma'no bildiruvchi qismga bo'linmaydi. Masalan, «odobl» so'zi ikki morfemadan iborat: *odob* va *-li*. Odob o'zak morfema bo'lib, so'zning asosiy leksik ma'nosini ifodalaydi; *-li* esa o'zak morfema orqali ifodalangan belgiga egalik ma'nosini keltirib chiqaradi. Xuddi shunday, «odobsiz» so'zi ham ikki morfemaga ajraladi: *odob* va *-siz*, *-siz* morfemasi o'zak orqali ifodalangan predmet yoki belgini inkor qilish ma'nosini bildiradi. Bundan ko'rindaniki, morfemani dastlab ikki turga ajratish mumkin:

1. O'zak morfema.
2. Affiks (qo'shimcha) morfema.

O'zak morfema so'zning bosh qismini, ya'ni ma'nodor bo'lagini anglatadi va yasaluvchi so'zlar uchun asos bo'ladi. Masalan, *ingichka*, *ingichka/lik*, *ingichka/la/moq*, *ingichka/la/n/moq*, *ingichka/la/sh/moq*, *ingichka/la/sh/tir/moq*...

Affiks morfema mustaqil holda leksik ma'no bildirmaydi, ammo so'zning o'zak qismiga qo'shilib, yangi ma'noli yasama so'z hosil qila oladi yoki so'zning grammatik ma'nosini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Masalan, *tez*, *tezlik*, *tezlashmoq*, *tezlashtirmoq* kabi so'zlarda «tez» so'zi o'zak morfema bo'lib, *-lik*, *-lash*, *-tir*, *-moq* qismlari esa affiks morfemalardir.

Shu o'rinda bir narsani aytish joizki, so'zning leksik ma'nosini anglatuvchi qismini ajratishda so'z tarkibidagi tarixiy holat va hozirgi holat nazarga olinadi. Tildagi *qishloq*, *o'qi*, *ko'krak*, *sholcha*, *yaproq*, *qopqoq*, *ko'racha*, *qimiz* kabi so'zlar hozirgi o'zbek adabiy tilida morfemik qismga ajratilmaydi, ammo bunday so'zlar tarixiy jihatdan qismlarga ajratilgan. Maktabda esa so'zning morfo-

logik tarkibini aniqlashda uning hozirgi holati (etimologik tahlili emas) hisobga olinadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchi so'z tarkibini qiyalmay ajrata olishi uchun ko'proq tub so'zlar, sodda yasama so'zlar va ayrim fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar (*o'g'il* — *o'g'li*, *ko'ngil* — *ko'nglim*, *yosh*—*yasha*, *son*—*sana*) tahlil qilinadi.

Boshlang'ich ta'lif ona tili darsliklarida affiks morfemaning ikki turiga alohida e'tibor qaratiladi:

1. So'z yasovchi affikslar.
2. So'z o'zgartuvchi affikslar.

So'z yasovchi affikslar yasama so'zning ma'nosini tiklash uchun xizmat qilsa (*bog'/bon*, *bog'/dor*, *zar/gar*, *zamon/dosh* kabi), so'z o'zgartuvchi affikslar sintaktik vazifani bajarib, gap tarkibidagi so'zlarni bir-biriga bog'laydi va turli grammatik ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, «hovlimizda» so'zida *-miz*, *-da* so'z o'zgartuvchi qo'shimchalari bo'lib, *-miz* otdagi egalikning I shaxs ko'plik ma'nosini, *-da* o'rinn-payt kelishigi ma'nosini bildiradi. 4-sinf darsligida so'z tarkibini aniqlashning amaliy ko'nikmasini mustahkamlash maqsadida, tahlil qilishning quyidagi chizmasi berilgan:

So'zlar	O'zak	So'z yasovchi qo'shimcha	So'z o'zgartuvchi qo'shimcha
<i>bog'ning</i>	<i>bog'</i>	—	<i>-ning</i>
<i>mevali</i>	<i>meva</i>	<i>-li</i>	—
<i>so'zladi</i>	<i>so'z</i>	<i>-la</i>	—
<i>darslikka</i>	<i>dars</i>	<i>-lik</i>	<i>-ka</i>

So'zning morfemik tarkibi ustida ishlashda o'qituvchi turli metodik omillardan foydalanishi, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stiruvchi usullarni izlashi zarur. Binobarin, yuqorida chizmani yanada boyitish, o'quvchilar mushohadasini kengaytirish mumkin:

Yasama so'zlar	O'zagi qaysi so'z turkumida?	So'z yasovchi qo'shimchasi	Qaysi turkumdag'i so'z yasalgan?
<i>qadrdon</i>	<i>qadr</i> — <i>ot</i>	<i>-don</i>	otdan sifat
<i>beshlik</i>	<i>besh</i> — <i>son</i>	<i>-lik</i>	sondan ot
<i>kirim</i>	<i>kir</i> — <i>fe'l</i>	<i>-im</i>	fe'lidan ot
<i>yaxshilik</i>	<i>yaxshi</i> — <i>sifat</i>	<i>-lik</i>	sifatdan ot

O'quvchilar so'zning morfemik tarkibini tahlil qilishda so'z yasalishidagi o'zgarishlarni ongli idrok etadilar, so'z yasovchi qo'shimchalar tufayli so'zlar bir turkumdan boshqasiga o'tishini,

bir oiladagi o‘zakdosh so‘zlar paydo bo‘lishini, tilning lug‘at tarkibini boyitishda ichki imkoniyat sanalishini tushunadilar.

Shunday qilib, so‘zning morfemik tarkibini tahlil qilish o‘quvchilar uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘qituvchiga ham eng qulay usullarni izlash mas’uliyatini yuklaydi.

1. So‘z tarkibini o‘rganishda o‘quvchi lug‘atdagи so‘zlarning leksik ma’nosini aniqlash ko‘nikmasiga erishadilar. Bunda o‘qituvchi ularga leksik va grammatik ma’no bog‘lanishlarini tushun-tiluvchi oson yo‘l-yo‘riqlar bilan rahbarlik qilishi lozim.

2. So‘z yasalishini kuzatish natijasida o‘quvchilar tilning rivoj-lanish qonuniyatlariga befarq bo‘lmaydilar, tilning ijtimoiy hodisa ekanligi haqidagi dastlabki ilmiy dunyoqarash tushunchasiga ega bo‘lishadi. Bunda o‘qituvchi ularning ilmiy saviyasini shakllanti-rishga yo‘l ochadi.

3. So‘z tarkibini ajratish va so‘z yasash asoslari bilan tanishish o‘quvchilar leksikasini borliq haqidagi bilimlar bilan boyitishga imkon beradi. O‘qituvchi so‘z bilan predmet, voqeа-hodisa, jarayon va turli holatlar o‘rtasidagi mutanosib bog‘lanishning tabiiy jihatlarini o‘rgatadi.

4. O‘quvchilar nutqining benuqson shakllanishida so‘z morfe-malarini bilish, qo‘srimchalarning semantik ma’nosini anglash muhim hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi matn gaplarida morfemalardan ongli foydalanish mashqini takror-takror o‘tkazadi.

5. So‘zning morfemik tarkibini o‘rganish o‘quvchilarining orografiq malakalarini shakllantiradigan muhim omil sanaladi. Chunki o‘zbek tili imlo qoidalarining tiklanishida morfologik tamoyil asosiy o‘rinda turadi. Bunda o‘qituvchi to‘g‘ri yozish mala-kasini nazariy tushuncha vositasida o‘zak va qo‘srimchalalar imlosiga doir mashqlar bilan to‘ldiradi.

So‘z tarkibini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarining aqliy qobiliyatları rivojlanadi, til birligi sifatida so‘zni ongli ishlatish, uni taqqoslash ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. «Taqqoslash — degan edi mohir pedagog K.D. Ushinskiy, — har qanday tushuncha va har qanday fikr yuritishning asosidir. Dunyoda hamma narsani taqqoslash orqaligina bilib olamiz. Binobarin, agar oldimizda hech narsaga tenglashtirib bo‘lmaydigan yangi bir narsa paydo bo‘lsa, bu vaqtida biz ana shu buyum to‘g‘risida biror fikr ham tuzolmas edik va bu buyum to‘g‘risida biror so‘z ham aytta olmas edik».

Demak, so‘zning morfemik tarkibini chuqrur o‘zlashtirish o‘quvchilarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Morfema tushunchasini qanday izohlaysiz?
2. So‘zning morfemik tarkibiga nimalar kiradi?
3. O‘zak morfema bilan affiks morfemaning farqi nimada?
4. So‘z yasashda qaysi morfema asosiy rol o‘ynaydi?
5. Boshlang‘ich sinflarda so‘zning morfemik tarkibi ustida ishslash qanday ahamiyatga ega?
6. «O‘zbek tilining morfem lug‘ati» dan alfavit tartibida 60 ta so‘z tanlang va o‘qituvchi tomonidan so‘ralgan so‘zni izohlab bering.

Amaliy mashg‘ulot. 1—4-sinf dasturlarining «Fonetika», «So‘z tarkibi», «So‘z turkumlari» qismlarini o‘rganish

Bu mashg‘ulot uchun material to‘plashda talabalar ta’lim standarti asosidagi o‘quv dasturiga murojat etadilar. Uni o‘rganib, boshlang‘ich ta’lim programmasiga mos tuzilgan «Ona tili» darsligi bilan tanishadilar. Shunda e’tibor qaratiladigan jihatlar quyidagilar bo‘ladi:

1. 1-sinfda fonetika bo‘yicha ayrim unli tovushlar (*a* va *o*, *i* va *e*, *u* va *o'*, *h* va *x*, *sh*, *ng*, *ch* harf — tovushlarning aytilishi, yozilishi va undoshlar, *kim?*, *nima?* so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar (ot va sifat atamasi qo‘llanmaydi) haqidagi fikrlarni o‘rganish.

2. 2-sinfda fonetikaga, so‘z tarkibini o‘rganishga, so‘z turkumlaridan ot, sifat, fe’lga doir dastlabki amaliy bilimlar mashqlar bilan mustahkamlanganligiga e’tibor qaratish.

3. 3-sinfda fonetikadan tovushlar va harflar, bo‘g‘in, alifbo, jarangli va jarangsiz undoshlar, talaffuzda tushib qoladigan va ketma-ket kelgan bir xil undoshlar berilganligiga, so‘z tarkibi bo‘yicha o‘zak va o‘zakdosh so‘zlar, so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchilarga doir mashg‘ulotlar hamda ot, sifat, fe’l kabi so‘z turkumlarini o‘rganishga diqqatni jalb etish.

4. 4-sinfda fonetika va so‘z tarkibi takrorlash mashqlar bilan mustahkamlanib, ot, sifat, son, fe’l mavzulari kengaytirilganiga hamda olmosh, bog‘lovchi kabi yangi so‘z turkumlari o‘rganishiga e’tibor berish.

Barcha ma’lumotlar umumlashtirilib, talabalar mavzuga doir fikrlarni tartibga soladilar va dars ishlanmasini tayyorlaydilar.

SO‘ZNING MA’NOLI QISMLARINI O‘RGANISH TIZIMI

REJA:

1. So‘z tarkibi haqidagi bilimlarni boshlang‘ich sinflarda o‘rganish.
2. Mavzuni o‘zlashtirish bosqichlari:
 - a) o‘zak va o‘zakdosh so‘zlarni o‘rganish;
 - b) so‘z yasovchi qo‘srimchalar vazifasi ustida ishslash;
 - c) so‘z o‘zgartuvchilarni o‘rganishning o‘ziga xos xusu-siyatlari.
3. So‘zning ma’noli qismlarini o‘rganishga doir mashqlar.
4. So‘zning morfemik tarkibini o‘zlashtirish va uni aniqlashga doir yo‘l-yo‘riqlar.

Boshlang‘ich ta’lim ona tili dasturiga ko‘ra, so‘zning morfemik tarkibini o‘rganish 3-sinfdan boshlanadi. 4-sinfda takrorlash mashqlari va ayrim qoidalar bilan so‘z turkumlariga bog‘langan holda so‘z tarkibiga oid bilimlar kengaytiriladi.

So‘zning morfemik tarkibini o‘rganishning kichik mifik yoshidagi bolalarga xos bo‘lgan sodda tizimi mavjud. Buni quyida gicha ko‘rsatish mumkin:

1. So‘zning tub ma’nosini bildiruvchi o‘zak qismi va bir o‘zakdan yasalgan o‘zakdosh so‘zlarni o‘rganish.
2. O‘zakdan yangi ma’no hosil qiladigan, tilning lug‘at tarkibini boyitadigan so‘z yasovchi qo‘srimchalarini o‘rganish.
3. Gap tarkibidagi so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishini ta’mindaydigan va grammatik ma’noga ega bo‘lgan so‘z o‘zgartuvchi qo‘srimchalarini o‘rganish.
4. So‘zning leksik ma’nosini tamoman o‘zgartirmay, unga har xil semantik-grammatik ma’no bo‘yoqdorligini yuklovchi shakl hosil qiluvchi qo‘srimchalarini o‘rganish.
5. So‘z morfemalarini to‘g‘ri ajratish va so‘z tarkibining og‘zaki yoki yozma tahlilini o‘rganish.

Kichik yoshdagisi o‘quvchilar so‘z tarkibini qiyalmay ajrata olishi uchun dastlab, tub so‘zlar ustida tahlil o‘tkaziladi. *Kitob, gul, paxta* kabi predmetlar aniq tushunchalar nomi bo‘lganligi bois, bu so‘zlarning ma’no va tuzilishiga ko‘ra bog‘lanishini tushunish oson kechadi: *kitob-xon, gul-zor, paxta-kor*.

Qo‘srimcha qo‘shilishi bilan yangi ma’noli so‘z hosil bo‘lganini anglagan o‘quvchi mushohada yuritadi va dastlabki so‘zlar

ma'nosiga taqqoslaydi: *kitob* — predmet, *kitobxon* esa shaxs; *-xon* qo'shimchasi predmetdan shaxs ma'nosini bildiruvchi yangi so'z yasadi. Shu tarzda o'zakdosh so'zni tushunish osonlashadi. Har holda, o'qituvchi hali tafakkuri yetarli darajada rivojlanmagan 3-sinf o'quvchilariga savol va topshiriqlar beradi, bir so'zdan boshqa so'z qanday hosil bo'lganligini so'raydi, o'zi o'quvchi javobiga aniqlik kiritib boradi. Natijada, aqliy hujum mahsuli si-fatida bolalar predmet va uning belgisini aniqlashdan so'zlarning ma'nosini va tarkibidagi umumiyligini topishni o'rganadilar. Chunoichi, *paxtakor* va *g'allakor* so'zlaridagi *-kor* qo'shimchasi ma'lum bir ish bilan shug'ullanuvchi kishini anglatar ekan, degan xulosa hosil bo'ladi.

So'z tarkibini aniqlashga oid tahlil ishlari, ayniqsa, orfografiya va so'z yasash hodisalari bilan uzviy bog'lanib ketadi. Hatto so'z turkumlarining ayrim xususiyatlari ba'zan aniq bir qo'shimcha bilan ham birkadi. Masalan, *-la*, *-sa* qo'shimchasi vositasida yasalgan so'zlar (*gulla*, *suvsa*) fe'l bo'ladi. Demak, so'zning morfologik tuzilmasini farqlamaslik ayrim turkumdagagi so'zlarining xususiyatini tushunmaslikka olib keladi. Shunday ekan, so'zni o'zak va qo'shimcha morfemalarga ajratishni bilmagan o'quvchi so'z o'zgarishini, so'z yasash yo'llarini, to'g'ri yozish qoidalari ongli ravishda o'zlashtira olmaydi.

O'qituvchi so'zning morfemik tarkibiga oid barcha belgilarni o'quvchilar o'rganishi uchun ta'lim jarayonida qulay sharoit yaratish yo'lini topishi lozim. Bu esa o'quvchilarni o'zakdosh so'zlarning leksik ma'nolari bilan morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash ko'nikmasiga erishtiradi. Ular *ish*, *ishchi*, *ishchan*, *ishsiz*, *ishla* kabi so'zlarni taqqoslab, bu so'zlar ish, mashg'ulot ma'nosiga ko'ra o'xshashligini va barchasi bir xil — umumiy qismga ega ekanini, shuning uchun bularni bitta o'zakdan yasalgan o'zakdosh so'zlar guruhiga kiritish mumkinligini aniqlashadi.

3-sinf o'quvchilar o'zak va o'zakdosh so'zlar haqida boshlang'ich ilmiy tasavvurga ega bo'lishadi. Ular barcha yaqin ma'noli so'zlardagi umumiy qism o'zak deb nomlanishini, o'zakdosh so'zlarning umumiy qismi bir xil yozilishini bilib oladilar. Masalan, *o'rin*, *o'rindosh*, *o'rinli* *o'rinlat* kabi.

4-sinf o'quvchilar esa so'z tarkibi haqidagi bilimlarni chuqraroq o'zlashtirib, ushbu ko'nikmani egallahashi:

- o'zak, so'z yasovchi qo'shimcha, so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarining xususiyatlarini va tildagi rolini tushunish;
- so'zning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibi o'rtasidagi uziy bog'lanish to'g'risidagi tasavvurni boyitish;
- o'zak va o'zakdosh so'zlarda jufti bor jarangli hamda jarangsiz undoshli so'zlarni to'g'ri yozish malakasini shakllantirish;
- nutqda so'z yasashni va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar ishtirok etgan so'zlarni ongli ishlatish malakasiga ega bo'lish.


O'quvchilar so'zning morfologik tarkibini og'zaki tahlil qilish bilan birga yozma tahlildan ham foydalanadilar. Bu ish ularning ilmiy tushunchalarini qat'iylashtiradi, esda uzoq saqlash ko'nikmasini vujudga keltiradi. Shuning uchun so'z tarkibi yuzasidan o'tkaziladigan yozma tahlil foydali bo'lib, uning bir necha varianti o'quvchilarga tavsiya etiladi:

1. So'zni ma'noli qismlarga ajratish jadvalidan foydalanish:

So'zlar	O'zak	Yasovchi qo'shim- cha	Shakl yasov- chi qo'- shimcha	So'z o'zgartuvchi qo'shimcha		
				egalik	turlov- chi (keli- shik)	tuslov- chi (shaxs- son)
Shifokonlarga	shifo	-kor	-lar	—	-ga	—
Ishlaymiz	ish	-la	-y	—	—	-miz
Yurtdoshimiz	yurt	-dosh	—	-imiz	—	—
Tayyorlaysiz	tayyor	-la	-y	—	—	-siz

2. O'zak va qo'shimchalar ustiga turli shartli belgilar chizish.
3. So'z morfemalarini ajratib, ustiga qisqacha yozib qo'yish.
4. O'zakdosh so'z hosil qiluvchi yasovchi qo'shimchalarni chizmada ajratib ko'rsatish:

*yoz, yozma, yozuv, yozuvli, yozuvchi;
gap, gapdon, gapdonlik, gapiruvchi, gaplash.*



5. Gapdag'i biror so'zning qaysi so'z bilan bog'langanini so'roq yordamida aniqlab yozish va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalarini belgilash:

Mehnatning qadrini beba ho bil. — Mehnatning (nimaning?) qadri. Odobli bola elga manzur. — Elga (kimga?) manzur.

6. Raqamlar o'rniga alifbo tartibidan mos harflarni qo'yib, gap mazmunini tiklash va so'z tarkibini aniqlash:

Odobni 2, 4, 14, 3, 14, 2, 3, 1, 13 o'rgan — Odobni beodobdan o'rgan.

So'zning morfemik tarkibiga doir mashqlarni rang-barang tarzda o'tkazish mumkin. Bu xildagi mashg'ulot o'quvchilarni so'z turkumlariga oid tahlilga tayyorlaydi.

Sxema asosida o'tkaziladigan tahlil o'qituvchiga o'quvchilarining so'z tarkibi yuzasidan olgan bilimlarini sinash uchun imkon beradi. Odatda, bunday darslar o'quvchini faoliyikka chorlaydi, so'z mas'uliyatiga nisbatan sezgirligini oshiradi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Boshlang'ich sinflarda so'z tarkibini o'rganish qanday kechadi?
2. So'z yasovchi qo'shimchalarning vazifikasi nima?
3. So'z o'zgartuvchi qo'shimchalarning o'ziga xos xususiyatlarini qanday izohlaysiz?
4. So'z tarkibini o'rganishning ahamiyati nimada?
5. So'zning ma'noli qismalarini o'rganishga doir noan'anaviy dars ishlamasini tuzing.
6. So'z tarkibini o'rganishning yozma tahliliga doir ko'rgazma yasang.

Laboratoriya ishi. «So'z tarkibi» bo'yicha umumlashtiruvchi darsni kuzatish va tahlil qilish

Bu mashg'ulot ham odatdagidek, talabalar amaliyot o'tayotgan tayanch maktabda o'tkaziladi. Bunda sinf o'qituvchisidan umumlashtiruvchi dars o'tish yo'l-yo'riqlarini o'rganish va uni ijodiy boyitish pedagogik faoliyatni ta'limiy-tashkiliy jihatdan mustahkamlash uchun ko'maklashadi.

Talaba-o'qituvchi bu darsni auditoriya sharoitida o'tkazishi ham mumkin. Mavzuga maxsus tayyorlanadi, metodist o'qituvchidan maslahatlar oladi va darsni o'tib, kursdoshlarining kuzatish va tahlil qilishiga sharoit yaratadi. Dars muhokamasida so'z tarkibini o'rganishga doir asosiy xususiyatlar e'tiborga olinadi:

1. So‘zni morfemalarga ajratishda xato qilmaslik, ya’ni bo‘g‘in-dan farqlash.
2. O‘zak va o‘zakdosh so‘zlar to‘g‘risida ta’rif berish.
3. So‘z yasashda ichki imkoniyat sanalgan so‘z yasovchi qo‘shimchalarining lug‘at tarkibidagi o‘rnini aniq baholash.
4. So‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalarining grammatik ma’nosini matn asosida yoritib berish.
5. So‘z tarkibini o‘rganishga doir didaktik va ta’limiy o‘yinlar tashkil qilish.
6. Savol-javob o‘tkazishda aqliy hujum usulidan foydalananish va topshiriq bajarishda muammoli vaziyat yaratish.

Kuzatuvchi va tahlil qiluvchi talabalar tomonidan ijobiy baho langan umumlashtiruvchi dars metodist-o‘qituvchi rahbarligida rag‘batlantiriladi.

VI. SO'Z TURKUMLARINI O'RGANISH METODIKASI

OTNI O'RGANISH METODIKASI

REJA:

1. So'zlarning turkumlanishi.
2. So'z turkumlarini o'rganishning asosiy maqsadi.
3. Otni o'rganish va uning vazifalari.
4. Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi.
5. Otlarda egalik qo'shimchalari.
6. Otlarning kelishiklarda turlanishi.

Tilimizdagi so'zlar anglatgan ma'nolari, morfologik belgilari va gapda bajaradigan asosiy vazifalariga ko'ra turkumlarga ajratiladi.

So'zlardan tushuniladigan asl moddiy yoki mavhum ma'no ularni turkumlarga ajratishda asosiy belgi hisoblanadi. Chunochi, ot turkumi predmet yoki predmetlik ma'nosini bildirsa (*yurt, maktab, do'stlik, ilm, qalam* kabi), fe'l predmetning harakati yoki holati ma'nosini anglatadi (*o'r gan, yur, boshla, ko'kartir* kabi). Sifat predmetning belgisini (*yashil, baland, go'zal, fayzli* kabi), son esa predmetning sanog'i, miqdori va tartibini (*ikki, olti, beshinchi* kabi) ifoda etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar bosqichma-bosqich ot, sifat, son, olmosh, fe'l va bog'lovchi kabi so'z turkumlari bilan tanishib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini, grammatik belgilarini ajratadilar.

So'z turkumlarini o'rganishda didaktik tamoyilga amal qilish qat'iy talab etiladi. O'quvchilarga biror grammatik kategoriyanı tushuntirish uchun ishni oddiy misollardan boshlash, tahlil qilish, so'ng ta'rifini keltirib, mashqlar bilan mustahkamlash lozim.

Boshlang'ich ta'lim dasturiga ko'ra, 1-sinfda so'zlar morfolo-gik so'roqlar asosida tasnif qilinadi, lekin ilmiy atama yoki ta'rif berilmaydi. So'z turkumi tushunchasi 3-sinfdan boshlanadi. O'quvchilar har bir so'z turkumiga xos bo'lgan ayrim belgilar bilan tanishtiriladi.

4-sinfda so'z turkumlarining morfologik-sintaktik xususiyatlari bo'yicha o'rgangan bilimlari chuqurlashtiriladi, olmosh, kishilik olmoshlari va uning kelishiklar bilan turlanishi, fe'l zamon-

lari, qo'shma fe'llar, bog'lovchi kabi so'z turkumlariga oid yangi mavzular o'rganiladi. Biroq boshlang'ich ta'limda so'z turkumlari mustaqil va yordamchi so'z turkumlari, deb ajratilmaydi.

O'qituvchi bolalarni so'z turkumlarining o'ziga xos belgilari bilan amaliy tarzda tanishtiradi. Masalan, o'quvchilar ot, sifat, son, olmosh, fe'l gap bo'lagi vazifasida kelishini, bog'lovchi gap bo'lagi bo'la olmasligini mashqlar asosida tushunadilar.

So'z turkumlarini o'rganishning asosiy vazifasi o'quvchilar nutqini o'stirish, lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqda iste'moldagi so'zlardan o'rinni foydalanish ko'nikmasini hosil qilishdir. Zotan, ot so'z turkumi o'rganilganda ham o'quvchilarning yosh xususiyatiga mos ravishda har bir sinf uchun material izchilligi inobatga olingan. 1-sinf o'quvchilari o'quv yilining 2-yarmidan boshlab otni *kim? nima?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar sifatida o'rganadi. Ular *kim?* so'rog'i insonga, *nima?* so'rog'i insondan tashqari barcha predmet va jonzotlarga berilishini tushunadilar. Darslikdagi mashqlarni shartiga binoan bajarish jarayonida bolada mavhum grammatik tafakkur uyg'ona boshlaydi. Shu bilan birga, atoqli otlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasi shakllana boradi. 3-sinfdan boshlab, ot so'z turkumi sifatida o'rganiladi. Predmet va shaxsni bildirib, *kim? nima?* so'rog'iga javob bo'lgan har bir so'z ot sanalishi aytildi. Shunda predmet so'ziga kengroq izoh berish lozim bo'ladi, ya'ni bu so'z borliqdagi hamma narsa haqidagi tasavvurdan tashqari o'yangan, fikrlangan mavhum tushunchalarini ham nomlaydi. *Havo, shamol, sezgi, xayol* kabi so'zlar predmet tasavvuri bilan bog'liq bo'lganligi uchun ot sanaladi. Turli xil nomlanishlar predmet tushunchasiga umum-lashtiriladi (3-sinf):

- aniq narsalar nomi: *qalam, nok, tosh, eshik, atirgul* kabi;
- jamlik ma'nosini anglatuvchi predmet nomlari: *o'simlik, ovqat, meva, sabzavot* kabi;
- tabiat hodisalari va turli voqealar nomi: *to'fon, zilzila, shamol, bayram, namoyish* kabi;
- harakat ifodasi bo'lgan nomlar: *yig'im, terim, chopiq, saylov* kabi;
- belgi-holat nomlari: *yaxshilik, uyqu, ko'ngilchanlik, o'y* kabilar.

O'quvchilar otlardagi son toifasi bilan ham tanishadilar. O'zbek tilida birlikdagi otlar qo'shimchasiz qo'llanadi va predmetning yakka nomi birlik hisoblanadi. Ko'plikda esa *-lar* qo'shimchasini oladi. Masalan, *bog'—bog'lar, bulbul—bulbullar, daryo—daryolar*.

3-sinf darsligida ko‘plikdagi otlarning aytilishi va yozilishiga doir qoida keltiriladi: ot tarkibida kelgan *-lar* qo‘shimchasi so‘zlashuvda ba’zan *-la* tarzida aytildi, ammo doim *-lar* yoziladi. O‘qituvchi otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanishini taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiradi. Bu sinf o‘quvchilariga *meva, xalq, qo‘shin, olomon, poda, suruv* kabi birlik shaklida qo‘llanadigan otlar mazmuniga ko‘ra ko‘plikni anglatishi aytildi. Keyin ayrim ot yasovchi qo‘shimchalar haqida ma’lumot beriladi, ya’ni so‘zning o‘zak qismiga qo‘shilgan *-chi, -kor, -dosh* qo‘shimchalari shaxs ma’nosini, *-zor, -log* qo‘shimchalari o‘rin-joy ma’nosini bildirgan otlar yasaydi: *navbat — navbatchi, paxta — paxtakor, tosh — toshlog, olma — olmazor* kabilar. O‘qituvchi mashq, topshiriq va ko‘rgazma vositasida ot yasovchi qo‘shimchalar haqidagi bilimni mustahkamlaydi, lekin boshqa tur qo‘shimchalar sharhi bilan mashhg‘ulotni murakkablashtirmaydi.

Ot haqidagi bilim 4-sinfda ancha teranlashadi. Takrorlash mashqlaridan tashqari quyidagi bilimlar eslatiladi:

- predmet nomini bildirib, *kim? kimlar?* yoki *nima? nimalar?* so‘roqlaridan biriga javob bo‘lgan so‘zlar ot deyiladi: *Bahriniso, bog‘bon, kitoblar, behi* va boshqalar;
- otlar birlikda (*lola*) va ko‘plikda (*lolalar*) qo‘llanadi;
- kishilarning ismi va familiyasi (*Muattar, Ortigali Ernazarov*), hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar (*Olapar, Malla, Saman*), shahar, qishloq va daryo nomlari (*Buxoro, Ko‘chkina, Sirdaryo*), ko‘cha nomlari (*Bobur ko‘chasi, A. Qodiriy ko‘chasi*) bosh harf bilan yoziladi.

O‘quvchilarning bilimi otlarning egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishiga doir yangi ma’lumot asosida boyitiladi. O‘qituvchi dastlab «egalik» so‘zining leksik ma’nosini izohlaydi. Unda tegishlilik, qarashlilik, xoslik ma’nosini mavjud bo‘lib, predmetga egalikni anglatadi.

Otga qo‘shiladigan egalik qo‘shimchasi shu ot ifodalagan predmetning kimadir qarashli ekanligini bildiradi. Masalan:

*Men uchun mehringiz bir jahon,
Baxtinga bor bo‘ling har qachon.
Men sizni quyosh deb atayman,
Oyijon, oyijon, oyijon!*

Po‘lat Mo‘min

O‘qituvchi egalik qo‘sishchalari haqidagi ma’lumotni sodda-lashtirib tushuntiradi. Tilda uch shaxs bor:

- I shaxs — so‘zlovchi;
- II shaxs — tinglovchi;
- III shaxs — o‘zga.

Egalik qo‘sishchalari o‘zi qo‘shilgan otning qaysi shaxsga qarashli ekanini ko‘rsatadi. Masalan, *ukam*, *ukamiz* otidagi *-m*, *-miz* qo‘sishchalari shu otning I shaxsga (*men*, *biz*) qarashliliginibildiradi.

Egalik qo‘sishchalari otlarga ikki variantda qo‘shiladi. Buni UZUM va OLMA so‘zlarini misolida jadval bilan o‘rgatish qulayroqdir:

Shaxslar	Undoshdan so‘ng		Unlidan so‘ng	
	birlik	ko‘plik	birlik	ko‘plik
I shaxs	uzumim	uzumimiz	olmam	olmamiz
II shaxs	uzuming	uzumingiz	olmang	olmangiz
III shaxs	uzumi	uzumlari	olmasi	olmalari

Jadvaldagagi oxiri unli va undosh tovush bilan tugagan otlar so‘z tarkibiga ko‘ra tahlil qilinadi, qo‘sishchalalar taqqoslanadi va xulosa chiqariladi. Demak, unli bilan tugagan otlarga *-m*, *-ng*, *-si*, *-miz*, *-ingiz*, *(-lar)i* egalik qo‘sishchalari, oxiri undosh bilan tugagan otlarga *-im*, *-ing*, *-i*, *-imiz*, *-ingiz*, *(-lar)i* egalik qo‘sishchalari qo‘shiladi.

O‘quvchilar bilimini mustahkamlash uchun matn mashqlaridan foydalanib, so‘z birikmasida egalik qo‘sishchalarining o‘rni borligi (*Mo‘tabarning kitobi*) aytildi.

4-sinf o‘quvchilar egalik qo‘sishchalaridan keyin otlarning kelishik qo‘sishchalari bilan turlanishini puxta o‘rganishadi. Kelishiklar sintaktik kategoriya bo‘lib, otlarning gap tarkibidagi boshqa so‘zlar bilan munosabatini ifodalaydi. Shunday ekan, kelishiklarni o‘rgatishda gap qurilishidagi so‘zlar bog‘lanmasi inobatga olinadi. O‘quvchilar fikr bayon qilishda kelishiklardan ongli foydalanishi va to‘g‘ri yozuvga o‘rganishlari muhim sanaladi. Bu sinfda turlanish izchil o‘rgatiladi:

1. Turlanish haqida tushuncha beriladi.
2. Ko‘plik shaklidagi otlarning turlanishi o‘rgatiladi.
3. Har bir kelishikning o‘ziga xos morfologik va sintaktik xususiyatlari tushuntirilib, unga bog‘liq bo‘lgan imlo qoidalariga ham e’tibor qaratiladi.

Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi turlanish ekanligi haqida tushuncha berish bilan o'quvchilarga o'zbek tilidagi olti kelishik, uning nomi, so'rog'i, qo'shimchalari va joylashish tartibi o'rgatiladi.

Kelishiklar	So'roqlari	Qo'shimchalari
Bosh kelishik	kim? kims? nima? nimalar? qayer? qayerlar?	—
Qaratqich kelishigi	kimning? kimlarning? nimaning? nimalarning? qayerning? qayerlarning?	-ning
Tushum kelishigi	kimni? nimani? kimlarni? nimalarni? qayerni? qayerlarni?	-ni
Jo'nalish kelishigi	kimga? nimaga? kimlarga? nimalarga? qayerga? qayerlarga?	-ga (-ka, -qa)
O'rinn-payt kelishigi	kimda? nimada? kimlarda? nimalarda? qayerda? qachon? qayoqda? qayerlarda?	-da
Chiqish kelishigi	kimdan? nimadan? kimlardan? nimalardan? qayerdan? qachondan?	-dan

Kelishiklarning xususiyatlarini o'rganishga qulaylik yaratish uchun har bir kelishikni quyidagi umumiy reja asosida o'rganish mumkin:

1. Kelishikning grammatik ma'nosi.
2. Qanday so'roqlarga javob bo'lishi.
3. Qo'shimchasi va qo'shimcha varianti.
4. Gapdagi sintaktik vazifasi.

O'quvchilardan har bir kelishikning o'ziga xos muhim belgilarni o'rganish talab etiladi. Ayniqsa, ular qaratqich va tushum kelishigini farqlashda qiynalib, birining o'rniga boshqasini ishlatalalar. Bu kelishiklarning xususiyatini o'rganishda ularning o'ziga xos jihatlari taqqoslanadi:

1. Qaratqich kelishigida turlangan ot qarashlilik ma'nosini bildirib, gapda boshqa otga bog'lanadi va u bog'langan ot egalik qo'shimchasini oladi (*Shohruxning qalami, gulning hidi* kabi). Tushum kelishigidagi ot fe'l bilan bog'lanadi (*Abdulahadni ko'rdim, nokni terdik*).

2. Qaratqich kelishigi *kimning? nimaning? qayerning?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi, tushum kelishigi esa *kimni? nimani?
qayerni?* so'roqlariga javob bo'ladi.

3. Qaratqich kelishigining qo'shimchasi *-ning*, tushumnniki esa *-ni*.
4. Qaratqich kelishigidagi ot gapda aniqlovchi bo'lib keladi, tushum kelishigidagi ot esa to'ldiruvchi, hol vazifasida keladi.

Otlar birlik va ko'plikda qo'llanish, egalik qo'shimchalari bilan o'zgarish, kelishiklar bilan turlanish, gapda ko'proq ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol hamda kesim vazifasida kelish kabi grammatik belgilarni o'zida jamlaydi, nutqda sifat, son, olmosh, fe'l bilan birikadi.

Ot so'z turkumi haqidagi bilim o'quvchilarga nutq madaniyatini egallashda katta imkon yaratuvchi ma'rifiy ahamiyat kasb etadi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Tilimizdag'i so'zlar qaysi vazifasiga ko'ra turkumlanadi?
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bosqichma-bosqich qaysi so'z turkumlari bilan tanishadilar?
3. 1-sinfda, tayyorlov bosqichi sifatida, so'z turkumlari qay tarzda o'rgatiladi?
4. Ot so'z turkumining grammatic belgilarini aytинг.
5. Otlarga egalik qo'shimchalari necha variantda qo'shiladi? So'zlarning shaxslarda o'zgarishini tushuntiring.
6. Kelishiklarni so'rog'i, qo'shimchasi bilan aytинг.
7. Kelishiklarning o'ziga xosligini o'rganing va u haqda ma'lumot to'plab, konseptlashtiring.

Amaliy mashg'ulot. Orfografik mashqlarni tartibga solish

Talabalar bu mashg'ulotni bevosita o'zlarining sinov amaloytidagi tajribalariga tayangan holda yoritadilar. Orfografik mashqlar boshlang'ich ta'limning barcha bosqichlarida o'tkaziladi. Kichik yoshdagi o'quvchilarning yozma savodxonligini shakllantirish va orfografik qoidalarga amal qilish ko'nikmasini yuzaga keltirish uchun to'g'ri yozuv mashqlariga murojaat qilinadi. Talabalar amaliyot jarayonida bunday mashqlarning bir necha xillari bilan tanishadilar:

- grammatic-orfografik tahlil;
- ko'chirib yozish;
- har xil diktantlar;
- leksik-grammatik tahlil;
- bayonlar.

Talabalar o'z kuztishlari va metodik bilimlariga tayangan holda orfografik mashqlarni tartibga solishga doir dars ishlanmasini yozadilar. Uni yoritishda quyidagi yo'l-yo'riqlarga amal qilishlari ishni yengillashtiradi:

1. Grammatik-orfografik va leksik-orfografik tahlilda to‘g‘ri yozuv qoidalarining grammatika va leksika bilan bog‘lanishiga e’tibor berish.

2. Ko‘chirib yozish mashqi leksik, grammatik va so‘z yasashga doir vazifalarni bajarish bilan birga o‘tkazilishini izohlash:

- a) matndan o‘zakdosh so‘zlarini topib, o‘zakni ajratish;
- b) mashq so‘zlarida tushirilgan qo‘sishmchalarni qo‘yib ko‘chirish;
- c) aralash berilgan so‘zlardan gap tuzish;
- d) tartibsiz berilgan gaplardan bog‘lanishli matn tuzish;
- e) sonlar o‘rnida alifbo tartibidagi harflarni qo‘yib, gap ma’nosini tiklash va boshqalar.

3. Diktant o‘qituvchidan eshitgan matn so‘zlarini idrok qilib yozishdir. Uning bir necha turidan foydalanish:

- a) ta’kidiy diktant;
- b) izohli diktant;
- c) saylanma diktant;
- d) rasm diktant;
- e) erkin diktant;
- f) lug‘at diktant;
- g) tekshiruv diktant.

4. Bayon o‘quvchilarning lug‘atini boyitadigan, nutqini o‘s-tiradigan, gaplarni mantiqan to‘g‘ri qo‘llashni o‘rgatadigan orfografik mashq turlaridan biri ekanligini tushuntirish.

Amaliy mashg‘ulot muhokama qilinadi, metodist-o‘qituvchi tomonidan baholanadi va yaxshi yozilgan dars ishlanmasi rag‘-batlantiriladi.

FE’LNI O‘RGANISH METODIKASI

REJA:

1. Fe’lni o‘rganishning asosiy vazifalari.
2. Fe’lni izchil o‘rganish:
 - a) 1-sinfda fe’l ustida ishslash;
 - b) 2-sinfda fe’lni o‘rganish;
 - c) 3-sinfda fe’l haqidagi bilimni boyitish;
 - d) 4-sinfda fe’l tushunchasini kengaytirish.
3. Fe’l so‘z turkumini o‘rganishning ahamiyati.

Fe’lni o‘rganish boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida kichik yosh-dagi o‘quvchilarning yosh xususiyatiga qarab belgilanadi. Bu keng mavzuni o‘rgatish quyidagi asosiy vazifalarni o‘z zimmasiga oladi:

- so‘z turkumi sifatida fe’l haqidagi til nazariyasiga doir dastlabki tushunchani shakllantirish;
- o‘quvchilarning leksikasini fe’llar bilan boyitish;
- og‘zaki va yozma nutqda fe’ldan to‘g’ri foydalanish uchun o‘quvchining aqliy faoliyatini rivojlantirish;
- grammatik mavzular bilan bog‘langan holda ayrim imlo qoidalarini o‘quvchilar ongiga singdirish.

Fe’Ining lisoniy xususiyatlari boshqa so‘z turkumlariga nisbatan birmuncha murakkablikka ega va u gap tuzishda ot kabi sintaktik asos bo‘lib xizmat qiladi. Fe’llarda uyuştiruvchanlik xususiyati kuchliligidan, ko‘pincha, boshqa so‘zlarni o‘ziga ergashtirib keladi. Otning kelishiklar bilan turlanishi fe’lda ifodalangan ma’no talabiga ko‘ra yuz beradi. Masalan, *o‘qishdan qaytdi, kitobni oldi* kabi sintaktik birlikda kelgan ikkinchi darajali bo‘laklar — to‘ldiruvchi va hol, asosan, fe’lga bog‘lanadi. Bularning bari fe’lda nutq elementlarini birlashtiruvchi xususiyat, ya’ni sintaktik holatning kuchli ekanligini ko‘rsatadi. Shuning uchun fe’lni boshlang‘ich sinflarda ma’lum izchillik asosida o‘rganiladi.

Fe’l ustida ishlashga tayyorgarlik savod o‘rgatish davridayoq boshlanadi. Bu davrda o‘quvchilarning diqqati, asosan, fe’Ining leksik ma’nosiga qaratiladi. O‘qituvchi «Alifbe» kitobidagi so‘z va kichik matnlarni o‘qish, rangli rasmlarga qarab gap tuzishda mazmunga mos fe’lni topish mashqini boshqarib boradi. U gapni fe’l topiladigan savol qismigacha tuzadi. O‘quvchilar fe’lni topadi. Masalan:

- O‘qituvchi:* — Kuzda daraxtlarning bargi nima bo‘ladi?
 - O‘quvchi:* — Sarg‘ayadi, to‘kiladi.
 - O‘qituvchi* (rasm ko‘rsatib): — Osiyoxon anhordan chelakka suvni nima qilyapti?
 - O‘quvchi:* — Suvni olyapti.
 - O‘qituvchi:* — Qishda havo nima qiladi?
 - O‘quvchi:* — Havo soviydi.
- 1-sinf o‘quvchilari *nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi?* so‘-roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar haqida mashqlar o‘rgansa, 2-sinf «Ona tili» darsligida o‘sha mavzuni kengroq o‘zlashtira boshlaydi. 3-sinfda fe’lni so‘z turkumi sifatida o‘rgatish, bu tushunchaga ta’rif berish, bo‘lishli, bo‘lishsiz fe’llar haqida ma’lumot taqdim etish yo‘lga qo‘yiladi. O‘quvchida aniq tasavvur hosil qilish uchun o‘qituvchi harakat-holatga doir suhbat uyuştiradi. Sinfda bajarilayotgan ishlarni: *Muhammad Amin doskaga nima qilmoqda? – (Yozmoqda)*,

*Farrux rasmga qarab nima qildi? — (So'zлади) каби со'роqlar vositasida aniqlaydi va yozdiradi. Shundan keyin, savol-javob asosidagi gaplardan birini tahlil qilib, xulosa chiqariladi: *nima qildi?* *nima qilyapti?* *nima qilmogchi?* каби со'роqlardan biriga javob bo'lib, predmetning harakatini ifoda etgan so'z FE'L deyiladi. Fe'l gapda, asosan, kesim vazifasida keladi.*

Mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida turli xil ta'limiy mashqlar o'tkaziladi.

Bu sinfda fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz shakli suhbat asosida tushuntiriladi. Suhbat uchun «*Ona tili darsida fe'l qoidasini kim tez tushundi? Asilbek fe'lga misol aytdimi? Abdulla-chi? Zayniddin gapirmoqchimi? Sizlarga hozir kim murojaat qilyapti?*» каби со'роqlardan foydalaniladi. Javoblar doskaga yoziladi: «*Ona tili darsida fe'l qoidasini Murod tez tushundi. Asilbek misol aytdi. Abdulla shoshib qoldi. Zayniddin gapirmagach, o'qituvchi sinfga murojaat etyapti.*». O'quvchilar gaplardan fe'lni topib, ma'nosini qiyoslashadi, keyin xulosa chiqariladi. Demak, harakatning bajarilishini anglatgan fe'l — bo'lishli (*tushundi*, *aytdi* каби), bajarilmaganini bildirsa — bo'lishsiz (*gapirmagach*) deb ataladi. Bo'lishsiz fe'l -ma qo'shimchasini oladi. Ayrim hollarda -ma qo'shimchasi -mi tarzida aytilda ham, hamisha -ma yoziladi. Masalan, *yozmaydi* emas — *yozmaydi, aytmaydi* emas — *aytmaydi* каби.

3-sinfda fe'lni o'rganish vazifasi kengayadi:

— shaxs va narsaning harakatini bildirgan so'zlar fe'l bo'lishi, uning leksik ma'nosи, bo'lishli, bo'lishsizligi, gapdagi vazifasi haqidagi bilimlar mashq vositasida chuqurlashtirilib o'rgatiladi;

— nutqda fe'lidan ongli foydalanish ko'nikmasi rivojlantiriladi;

— *la, -illa* каби fe'l yasovchi qo'shimchalar o'rganiladi (*ko'z — ko'zla, qars — qarsilla* каби);

— berilgan aralash gaplardan hikoya tuzishda, «Uy ishlariга yordam» sarlavhali hikoya yozishda fe'llardan to'g'ri foydalanish malakasi o'stiladi.

4-sinfda fe'l haqidagi bilim ancha kengayadi. O'quvchilar avvalgi fe'l haqidagi olgan ma'lumotlarini takrorlash bilan birga fe'llarda shaxs-son qo'shimchalari mayjudligini o'rganadilar. O'qituvchi, fe'lning shaxs-son qo'shimchasi bilan o'zgarishi TUSLANIŠH deyiladi, degan qoida bilan o'quvchilarni tanishtirgandan keyin, uch shaxsni yozib ko'rsatadi:

I shaxs — so'zlovchi;

II shaxs — tinglovchi;

III shaxs — o'zga.

«Otlarning egalik qo'shimchalari bilan o'zgarishi», «Kishilik olmoshlari» mavzulari o'quvchilarga tanish bo'lib, shaxs-son tushunchasi fe'llarga ham taalluqli ekanligi eslatiladi. Keyin fe'l-dagi har bir tuslovchi shaxs-sonni ko'rsatishi aniqlanadi. Massalan, «o'qidim» fe'lidagi *-m* qo'shimchasi I shaxs birlikni, «o'qidik» so'zidagi *-k* esa I shaxs ko'plikni bildiruvchi shaxs-son qo'shimchalaridir.

Fe'Ining shaxs-son qo'shimchasi bilan o'zgarishiga oid jadval o'quvchi diqqatiga havola etiladi va uni yodda saqlash uqtiriladi.

Fe'Ining shaxs-son qo'shimchalari		
Shaxslar	Sonlar	
	Birlik	Ko'plik
I shaxs	<i>-m</i> ; bildim <i>-man</i> ; yozyapman, bormoqchiman	<i>-k</i> ; bildik <i>-miz</i> ; yozyapmiz, bormoqhimiz
II shaxs	<i>-ng</i> ; biling <i>-san</i> ; yozyapsan, bormoqdasan	<i>-ngiz</i> ; bilingiz <i>-siz</i> ; yozyapsiz, bormoqdasiz
III shaxs	<i>-</i> : bildi <i>-</i> : yozyapti <i>-</i> : bormoqchi	<i>- (-lar)</i> : bildilar <i>- (-lar)</i> : yozyaptilar <i>- (-lar)</i> : bormoqchilar

O'quvchilar fe'l zamonlari va uning tuslanishi bilan ham tanishadilar. Fe'lidagi o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon shakllari nutq so'zlanib turgan paytga nisbatan belgilanadi. O'qituvchi bu fikrni sinfda suhbat asosida hal qiladi va xulosa yasaydi: harakatni nutq so'zlanib turgan paytdan avval bajarilganligini bildirsa, o'tgan zamon (*keldim, oldi*), nutq so'zlanayotgan paytda bajarilganligini bildirsa, hozirgi zamon (*o'qiyapsan, kelyapman*), nutq so'zlanayotgan paytdan keyin bajarilishini bildirsa, kelasi zamon (*kelarman, yozmoqchi*) fe'llari deyiladi. Buni quyidagi chizma asosida o'quvchilarga ko'rsatish va yozdirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Fe'l zamonlari	Fe'llar
O'tgan zamon Hozirgi zamon Kelasi zamon	tayyorladim, izladim tayyorlayapti, izlayapti tayyorlamoqchi, izlamoqchi

Fe'llarda zamon ma'nosи maxsus qо'shimchalar vositasida ifodalanadi. -*di*, -*yap*, -*moqda*, -*moqchi* kабilar zamon qо'shimchalaridir. Bu qо'shimchalar fe'lga shaxs-son qо'shimchalaridan oldin qо'shiladi. Masalan, *o'rganmoqchiman* fe'lida *o'rgan* — o'zak, -*moqchi* — kelasi zamon qо'shimchasi, -*man* — I shaxs ko'plikni ko'rsatuvchi shaxs-son qо'shimchasi.

Zamon va shaxs-son qо'shimchalarini olgan fe'llar gapda kessim vazifasini bajaradi va ega bilan bog'lanadi. O'qituvchi doskaga yozilgan gap yordamida yuqoridagi fikrlarni aniqlashtiradi. Masalan, *Biz jonajon Vatanimiz tarixini o'rganmoqchimiz*.

4-sinf o'quvchilari har bir zamonning o'ziga xos xususiyatlari alohida-alohida o'rganadilar. Buni ixchamlashtirib, shunday ko'rsatish mumkin:

- har bir zamonning o'z qо'shimchasi borligi va shaxs-son bilan tuslanishi;
- fe'l zamonlaridagi ayrim qо'shimchalarning imlosi (masalan, o'tgan zamon -*di* qо'shimchasi jarangsiz undoshdan so'ng -*ti* tarzida aytilsa ham -*di* yoziladi);
- fe'l zamonlarida bo'lishli va bo'lishsiz shaklning qо'llanishi (*bordim*—*bormadim*, *o'qiyapti*—*o'qimayapti* kabi).

Bu sinfda sodda va qо'shma fe'llar va ularning yozilishi haqida ham ko'nikma hosil qilinadi. Ular bir so'zdan iborat bo'lgan fe'llar (*yurdim*, *so'zladi*) sodda fe'l, ikki va undan ortiq so'zdan tuzilgan fe'llar (*ahd qildi*, *aytib berdi*, *gapira olar ekan*) qо'shma fe'llar ekanligini mashqlar bilan mustahkamlaydilar.

Fe'l so'z turkumini puxta o'rganish o'quvchilarning nutqda fe'ldan ongli foydalanish, sinonim va antonim fe'llarning ma'no bo'yoqdorligini anglash, fe'llar o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'no bildirishini va nutqning ta'sirchanligini oshirishini tushunish kabi malakalarni rivojlantiradi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Fe'lni o'rganishning asosiy vazifasi nimadan iborat?
2. 1-sinfda fe'lni o'rganishga tayyorlov davri qanday o'tkaziladi?
3. 2-sinf fe'l ustida ishslashning qanday davri sanaladi?
4. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar haqida gapiring.
5. Fe'lning tuslanishi deb nimaga aytildi?
6. Fe'l zamonlarini o'rganish va ularni tuslashda nimalarga e'tibor qaratiladi?
7. Fe'lni o'rganishning og'zaki va yozma nutqdagi ahamiyati haqida o'z fikrlaringizni muhokamaga qo'ying.

Laboratoriya ishi. Yangi orfografik qoida o'rgatiladigan darsni kuzatish

Bu mashg'ulotni talabalar amaliyot o'tayotgan tayanch maktabning 4-sinfida «O'tgan zamon fe'li va uning tuslanishi» mavzusi o'rganilayotganda kuzatish mumkin. Bundan tashqari «Otlarning kelishiklar bilan turlanishi», «Kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishi» kabi mavzularni o'rganish jarayonida ham kuzatish va tahlil qilish mumkin. (Sifat, son, so'z tarkibiga doir mavzular ham orfografik qoidalarni o'rganadigan darsni kuzatishga asos bo'la oladi).

Jo'nalish kelishigiga doir darsda orfografik qoidalarni o'rgatish uchun nimalarga e'tibor berish kerakligini eslatish maqsadga muvoziq bo'ladi (darslikka tayangan holda):

1. Jo'nalish kelishigi va uning qo'shimchasini variantlari bilan keltirish (-ga, -ka, -ga).

2. Jo'nalish kelishigining qo'shimchasi unlilar, *m, n, l, r, ng, z, y, g'* kabi undoshlardan so'ng -ga tarzida aytilishi va yozilishini (*pillaga, tongga, Zafarga, tog'ga, ilmga*) tushuntirish.

3. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi oxiri *k* undoshi bilan tugagan otlarga -ka, *oxiri q* bilan tugagan otlarga -qa tarzida qo'shili shini (*terak — terakka, buloq — buloqqa*) o'rgatish.

4. Jo'nalish kelishigining qo'shimchasi jarangsiz va ba'zi bir jarangli undoshlardan so'ng -ka tarzida aytilishi, ammo -ga shaklida yozilishi (*yog'och—yog'ochga* (aytilishi *yog'ochka*), *jamiyat—jamiyatga* (aytilishi *jamiyatka*), *kasb—kasbga* (aytilishi *kasbka*))ni mashqlar asosida tushuntirish.

5. Yuqorida keltirilgan orfografik qoidalarni mashq va topshiriqlar bilan mustahkamlash.

O'quvchilar qoidalarni samarali o'zlashtirganini anglash uchun savol-javob, ta'limiy-didaktik o'yin-mashqlar, test savollari tuzish yaxshi natija beradi.

Talabalar tahlilda o'z fikr-mulohazalari bilan ishtirot etadilar, metodik maslahatlar oladilar.

SIFATNI O'RGANISH METODIKASI

REJA:

1. Sifat tushunchasini o'zlashtirish.
2. Sifatning leksik va grammatik ma'nolari ustida ishslash.
3. Sifatni o'rganishdagi mashq turlari.
4. Sifat yasovchi qo'shimchalarni kuzatish.
5. Sifatning nutqdagi rolini aniqlash.

Sifatni o‘rganishning tayyorlov bosqichi 1-sinf ona tili darsida «*qanday? qanaqa?* so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar» sarlavhasi ostida berilgan mashqlarmi bajarish bilan boshlanadi. Aslida, sinf o‘qituvchisi savod o‘rgatish davridayoq belgi ifoda etgan so‘zlarni so‘roq bilan aniqlashga e’tibor qaratgan bo‘ladi. Sifat so‘z turkumi tarzida 3-sinfda o‘rgatiladi. Bunda sifatning leksik ma’nosi va grammatik belgilari ustida kuzatish o‘tkazilib, o‘qituvchi turli predmetlar yoki ularning rasmini ko‘rsatadi. O‘quvchilar o‘sha predmetning belgisini aytadi va yozadi. Masalan, *qanday qalam?* — *qizil qalam*, *qanday bino?* — *baland bino*. O‘quvchilar *nima?* so‘rog‘iga javob bo‘lgan predmetning belgisini *qanday?* so‘rog‘i bilan aniqlashni o‘zlashtiradilar. O‘qituvchi borliqdagi har bir narsaning o‘z belgisi borligini, ular o‘sha belgisi bilan bir-biridan farqlanib turishini otli so‘z birikmasi asosida tushuntiradi: *qanday tog‘lar?* — *qorli tog‘lar*, *qanday shamol?* — *mayin shamol* va h.k.

Shundan keyin, *qanday? qanaqa?* so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar predmetning belgisini bildiradi, degan xulosa chiqariladi. O‘qituvchi «belgi» so‘zining ma’nosini kengroq izohlaydi, chunki o‘quvchilar ko‘pincha predmetning belgisi deb, rang-tusni tushunadilar. Belgi ma’nosi ostida predmetning rang-tusidan tashqari uning mazasi (*shirin taom*), xususiyati (*ishchan bola*), shakhajmi (*katta ko‘cha*), vaqtga munosabati (*kuzgi don*), o‘ringa munosabati (*hovlidagi daraxt*), biror-bir belgiga xosligi (*jasur askar*), jismoniy holati (*yosh bola*), vazn-o‘lchovi (*og‘ir tosh*) kabilalar ham tushuniladi. 3—4-sinf o‘quvchilari bu ma’nolarning hammasini yaxlit holda so‘roqqa qarab (*qanday? qanaqa?*) tez va oson topadilar. Aslida ular sifatni aniqlashda uning leksik ma’nosini nazarda tutishlari, so‘roqlar yordamchi vosita ekanini tushunishlari kerak. Bu holat belgi bildirgan so‘zlarning nutqimizdagi rolini chuqurroq anglashga asos bo‘ladi. 3-sinf darsligida predmetni aniq tasvirlash uchun uning belgisini bildiradigan so‘zlardan iborat turli xil topshiriqli mashqlar berilgan:

- so‘roq yordamida qo‘yish uchun berilgan sifatlardan mosini topib, ot bilan birga ko‘chirish (*qanday tosh?* — *qattiq tosh*);
- matnni ifodali o‘qib, sifatni o‘zi bog‘langan ot bilan birga so‘z birikmasi shaklida yozish (*keng vodiy*, *kumush dala*);
- aralash berilgan so‘zlardan gap tuzish;
- tayanch so‘zlar va rasm asosida kichik hajmli hikoya tuzish;
- sifatlarni aniqlab, tagiga to‘lqinli chizish (aniqlovchi belgisi);
- berilgan sifatga qarama-qarshi ma’noli sifat tanlab yozish (*uzun—qisqa*, *achchiq—chuchuk*, *baland—past*).

Nutqni sifatlar bilan boyitish maqsadida sifat yasovchi qo'shimchalardan ayrimlari keltirilib, so'z asosi bo'lgan o'zakka yasovchi *-li*, *-siz*, *-dor* qo'shimchalari qo'shilib, sifat hosil qilish mumkinligi aytildi. Bunda *-li*, *-dor* qo'shimchalari bilan yasalgan sifatlar belgiga egalik ma'nosini, *-siz* esa belgiga ega emaslik ma'nosini anglatadi: *odobli* (*odobga ega bo'lgan*) *bola*, *tuzsiz* (*tuzga ega emas, tuz solinmagan*) *taom*.

Sifatlarning muhim sintaktik vazifa bajarishini, badiiy ada-biyotda sifatlash usuli asosan sifatlar orqali yuzaga kelishini 4-sinf o'quvchilari bilib oladilar:

*Istasangiz issiq yomg'ir,
Istasangiz sovuq yomg'ir,
Bir murvatni burasangiz
To'xtab qolar, qiziq, yomg'ir.*

M. Qahhorov

Bundan tashqari, sifatlar imlosiga doir qoida bilan ham o'quvchilar tanishadi, ya'ni *yam-yashil*, *qop-qora*, *tip-tiniq* kabi sifatlar chiziqcha bilan yoziladi, *oppoq* sifati esa qo'shib, *tim qora*, *eng kuchli*, *to'q sariq* kabi sifatlar ajratib yoziladi.

Sifatlarning leksik ma'nosi bilan birga uning xarakterli grammatik belgilari ham ajratiladi. Sifat:

- predmet belgisini bildiradi;
- *qanday? qanaqa?* so'rog'iga javob bo'ladi;
- gapda otga (ba'zan fe'lga) bog'lanib, so'z birikmasi hosil qiladi;
- gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi.

Shunday qilib, sifat haqidagi bilimlarni takomillashtirish og'-zaki va yozma nutqda undan o'rinni foydalanish ko'nikmasini o'stiradi, orfografik malakani mustahkamlaydi, o'quvchilarning nutq madaniyatini egallashlarida ta'sirchan vosita bo'lib xizmat qiladi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Sifat tushunchasining tayyorlov davri qanday boshlanadi?
2. Sifat so'z turkumi sifatida qachondan boshlab o'rganiladi?
3. Sifatni o'rganishda qaysi mashq turlaridan foydalaniladi?
4. Sifatning sintaktik vazifasi nima?
5. Sifatning nutqdagi rolini tushuntiring.
6. Sifat yasovchi qo'shimchalarga asoslangan mashq turiga doir mustaqil ravishda dars ishlanmasi yozing.

SONNI O'RGANISH METODIKASI

R E J A:

1. Son haqidagi dastlabki tushunchalar.
2. Sonni o'zlashtirish mashqlari.
3. Miqdor va tartib sonlarni o'rganish.
4. Sonning ma'nosi va grammatik belgilari.
5. Sonlar imlosi va sonni o'rganishning ahamiyati.

O'zbek tilida miqdor tushunchasi juda muhim bo'lganligi sababli, uni ifodalovchi so'z turkumi — son ham abstrakt xususiyatga ega. Son mana shu jihat bilan boshqa so'z turkumlaridan farq qiladi. Masalan, *uch*, *besh*, *o'n olti*, *bir yuz o'n to'qqiz* kabi sonlar alohida olinganda miqdor tushunchasini ifodalaydi, xolos. Son biror predmet nomi bilan bog'langanda uning mazmuni aniqlashadi. Chunonchi, *yetti bahodir*, *bir ming bir hikmat*.

Son ma'nosidagi mavhumlik borliqni bilish jarayoni bilan bog'lanadi. Chunki son tushunchasi tafakkur taraqqiyotining shunday bir bosqichida paydo bo'lganki, o'sha davr kishilari predmetlarni kuzatishda uning miqdoridan boshqa barcha jihatlarini e'tiborga olmaganlar. Demak, son ilmiy tadqiqot nuqtayi nazaridan murakkab til hodisalaridan biri sanaladi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda son tushunchasi o'quvchilarning yosh xususiyati va saviyasiga qarab soddalashtirib o'rgatiladi.

Bolalar maktab yoshiga yetmasdanoq oiladagilar qistovi yoki maxsus o'rgatishi tufayli sonlarni matematik hisob raqami tarzida yodlab yuradilar.

1—2-sinflarda o'qituvchi sonni miqdor ma'nosi anglashgan, ot bilan bog'langan shaklini elementar tarzda o'rgatadi. Ayniqsa, topishmoqlarda sonning ishtiok etishi uning javobini aniqlashga yordam beradi:

*Ikki yaproq bir tanda
Kezar gulzor-chamanda. (Kapalak)*

Bundagi «bir», «ikki» sonlari kapalakning qiyofasini tasavvur qilishga bir ishora vazifasini o'taganligi uchun o'quvchilar qanotni yaproqqa qiyoslaydilar va kapalak gulgorda kezishini tez anglaysilar. Yoki yil fasllari haqidagi boshqa bir topishmoqda ham son-

ning qo'llanishi, ya'ni «to'rt» raqamining ko'chma ma'nodagi «gilam» so'ziga bog'lanishi javobni tez topishga yordam beradi:

*Bor rang-barang to'rt gilam,
Xizmatga shay to'rti ham.
Navbat bilan to'shalar,
Qani, kim topa olar? (To'rt fasl)*

2-sinf o'quvchilar ham sonlar predmetning sanog'ini, tartibini, ba'zan harakatning daraja-miqdorini anglatib, ot va fe'lga bog'lanishini amaliy ravishda o'rghanishadi. O'qituvchi xalq maqollari, tez aytishlar yordamida fikrni oydinlashtiradi. Chunonchi, «*Yetti to'ti, mitti to'ti, yetmishtaga yetdi to'ti*» degan tez aytishda son ot va fe'lga bog'langan bo'lsa (*yetti to'ti* – son+ot, *yetmishtaga yetdi* – son+fe'l), «*Yetti o'lchab, bir kes*», degan xalq maqoldida son faqat fe'lga bog'langanligini (*yetti o'lchab* – son+fe'l, *bir kes* – son+fe'l) ko'rish mumkin. Ammo maqolda «marta» so'zi qo'llanmay, son otlashayotganligi haqida izoh berilmaydi. Bu qoida yuqori sinflarda maxsus o'rganilishi nazarga olinadi.

Son so'z turkumi sifatida 3-sinfdan boshlab ilmiy tushunchalar asosida ta'riflanadi. Shaxs va narsalarning sanog'ini bildirgan so'zlar SON deyiladi, sonlar *nechta?* *qancha?* so'roqlariga javob bo'ladi. Chunonchi, *nechta daftar?* – *o'nta daftар, qancha yuk?* – *besh qop yuk* kabi misollar bilan mustahkamlanadi. Sonlar tartibni bildirganda «*nechanchi?*» so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan, *nechanchi qavat?* – *to'rtinchi qavat* kabi. Sanoq sonlar unli bilan tugaganda *-nchi*, undosh bilan tugaganda *-inchi* qo'shimchasi qo'shilib tartib son hosil bo'ladi: *uch* – *uchinchi*, *olti* – *oltinchi*.

Tartib sonlar so'z bilan emas, raqam bilan yozilganda *-inchi*, *-nchi* qo'shimchalari o'rniga chiziqcha qo'yiladi: *2010-yilning 20-dekabri, 25-bet*.

Bu qoidalar o'quvchilar ongiga mustahkam o'rnashishi uchun matn mashqlaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Bundan tashqari, topshiriqli mashqlarning quyidagi turidan foydalanish mumkin:

- a) nuqtalar o'rniga sanoqni yoki tartibni bildirgan sonlarni qo'yib yozing (*Akam ... sinsda o'qiydi. – Akam 8-sinfda o'qiydi.*);
- b) sonlarni otlar bilan yonma-yon yozish (*uch echki, to'rtta guldon*);

- d) raqam bilan berilgan sanoq sonlarni tartib songa aylantirib so‘z birikmasi hosil qilish (*3-kun – uchinchi kun*);
e) sanoq va tartib songa doir jadval tuzish:

Sanoq sonlar	Otlar	Sanoq sonli birikma	Tartib sonli birikma
olti	qop	olti qop	oltinchi qop
sakkiz	shirkat	sakkizta shirkat	sakkizinchi shirkat
o‘n	bino	o‘nta bino	o‘ninchchi bino
yigirma	kun	yigirma kun	yigirmanchi kun
qirq	qo‘zi	qirqta qo‘zi	qirqinchi qo‘zi

4-sinfda son haqidagi bilimlar takrorlanadi va mustahkmalanadi. Shu bilan birga, son ko‘pincha otga bog‘lanib, gapda ikkinchi darajali bo‘lak bo‘lib kelishiga doir mashqlar bajariladi. Masalan, *Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to‘g‘ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin.* (Amir Temur o‘gitlaridan)

O‘quvchilar sonning ma’nosini va uning grammatik belgilari bilan tanishib, mustaqil ravishda fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishadi. Ular sonning quyidagi grammatik belgilarini ajratadilar:

1. Son predmetning sanog‘i va tartibini bildiradi.
2. *Necha? qancha? nechanchi?* kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi.
3. Asosan o‘zgarmaydi.
4. Gapda ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida keladi.

Boshlang‘ich sinflarda sonni so‘z turkumi sifatida o‘rganish o‘quvchilarning tafakkurini o‘stiradi, so‘z boyligini oshiradi, nutqda sondan to‘g‘ri foydalanish malakasini takomillashtiradi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Boshlang‘ich ta’limda son tushunchasini o‘rgatish qay tartibda amalga oshiriladi?
2. Sonni o‘zlashtirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar nimadan iborat?
3. Sonni elementar tarzda o‘rganish boshlang‘ich sinflarning qaysi bosqichida, qay tartibda amalga oshiriladi?
4. Sonni so‘z turkumi sifatida o‘rganish uchun dastlab nimalarga e’tibor qaratish lozim?
5. Tartib sonlarning yozilishiga doir qoida o‘quvchilarga qaysi metodlar asosida tushuntiriladi?
6. 4-sinfda sonning ma’nosini va grammatik belgilarini o‘rganishga doir usul-larni dars ishlanmasi sifatida yozing va metodik muhokamaga qo‘ying.

Amaliy mashg'ulot. Orfografik kartalar tuzish

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning yozma savodxonligini takomillashtirish uchun mavzularga bog'liq bo'lgan imlo qoidalari o'rganish, 2—4-sinf «Ona tili» darsligini kuzatish va o'shangasoslanib, orfografik kartalar tuzish talabalarga bir-ikki dars oldin topshiriladi.

Ular yodda tutiladigan orfografik qoidalarni o'z ishlariga asos qilib olishlari uchun quyidagilarga e'tibor berishlari maqsadga muvofiqdir:

1. Jarangli va jarangsiz undoshlarni farqlash: *javo* (p-b), *ozo* (d-t) v.b.
2. «P» va «f» undoshlarini farqlash (r-f) *ayvond, da* (f-p) tar kabi.
3. «H» va «x» tovushlarining talaffuzi va yozilishini farqlash: *daraxt, ahil, hadis, puxta* v. b.
4. Qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalarini gap tarkibida to'g'ri qo'llay olish: *quyosh* (-ning, -ni) *o'tkir nurlari qorlar* (-ning, -ni) eritdi.
5. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi (-ga) ni orfografik qoidasosida qo'llay olish: *ish* (-ga, -ka, -qa), *yurak* (-ga, -ka, -qa), *bulog* (-ga, -ka, -qa) kabilar.
6. So'z va raqam bilan yozilgan tartib sonlarning imlosida adashmaslik (*beshinchi sinf, 7-nchi qavat emas, 7-qavat, XX-asr emas, XX asr kabi*).
7. Men, sen olmoshlari qaratqich va tushum kelishigi bilan o'zgarganda bir «n» tovushi talaffuzda tushib qolishi va shunday yozilishi (*menning emas, mening; senni emas, seni*), u olmoshi jo'nalish, o'rinn-payt, chiqish kelishiklari qo'shimchasini olganda talaffuzda bir «n» tovushi qo'shib aytilishi va shunday yozilishi (*uga emas unga, uda emas, unda, udan emas, undan*) haqidagi qoidani o'zlashtirish.

Talabalar yuqorida sanalgan orfografik qoidalarga oid kartalarni mustaqil tarzda ishlaydilar va eng yaxshi ish uchun metodist-o'qituvchi tomonidan baholanib, rag'batlantiriladi.


KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI OLMOSH BILAN TANISHTIRISH

REJA:

1. O'quvchilarga olmosh haqida tushuncha berish.
2. Olmoshning so'z turkumi sifatida o'rgatilishi.

3. Kishilik olmoshlari ustida ishlash.
4. Kishilik olmoshlariga oid imloviy qoidalar.
5. Olmoshning nutqdagi ahamiyati.

Olmoshning ma’nosni ot, sifat va sonning ma’nosiga nisbatan umumiyligi, keng va noaniq bo‘ladi. Olmoshlar predmet, uning belgisi va miqdorini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Olmoshlarining mavhum ma’nosni uning qo‘llanish me’yorida ham ko‘rinadi. Masalan, predmet bildiruvchi olmosh ko‘pincha otlardan keyin qo‘llanib, shu otning o‘rindoshni, morfologik ma’nosni bo‘lib keladi. Chunonchi: «*Ustoz Navoiy o‘ta saxiy va bag‘rikeng inson bo‘lganlar. Ilm va hunar ahlini hech kim ularchalik qo‘llab-quvvatlab turmagan*». Ushbu gaplarda *Navoiy* va *u* so‘zlarini o‘rindoshdir. *U* olmoshining aniq ma’nosni avvalgi gapda qo‘llangan *Navoiy* so‘zi o‘rnida kelganligi uchun oydinlashmoqda. Aytish mumkinki, *u* olmoshi ot bilan ifodalangan har qanday predmetni anglatib kela oladi:



Ot, sifat, son o‘rnida almashib qo‘llanadigan so‘zlarning liso niy xususiyatlari mavhum va murakkabligi nuqtayi nazaridan kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilarga olmosh haqida atroficha nazarini ma’lumot berilmaydi, hatto uning so‘z turkumi sifatidagi ta’rifi ham keltirilmaydi.

O‘qituvchi 1—3-sinflarda o‘rganiladigan turli toifadagi amaliy mashqlarni bajartirish jarayonida shaxs ma’nosini, o‘zlik va ko‘rsatish ma’nosini, so‘roq va gumon ma’nosini anglatadigan (1. *Bizning tog‘da ilgari kiyik ko‘p bo‘lgan*. 2. *Yilqilar ichidan o‘z otimni tez topdim*. 3. *Allakim devor osha mo‘raladi*) olmoshlarni elementar tarzda o‘rgatib, o‘quvchilarda olmosh haqidagi dastlabki tushunchalarni yuzaga keltiradi. Faqat 4-sinfda kishilik olmoshlariga doir berilgan mashqlar asosida quyidagilarni bilib olish tavsiya etiladi:

- *men, sen, u, biz, siz, ular* so‘zlarini olmoshdir;
- *bu so‘zlar kishilar* (shaxslar)ni ko‘rsatadi;
- shuning uchun bu olmoshlardan kishilik olmoshlari deyiladi;
- kishilik olmoshlari *kim? kimlar?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi;

- ana shu xususiyati bilan kishilik olmoshlari otlarga o‘xshaydi;
- *men*, *sen*, *u* olmoshlari birlikni (yakka shaxsni), *biz*, *siz*, *ular* olmoshlari ko‘plikni (ko‘p shaxsni) bildiradi;
- *men*, *biz* — I shaxsni; *sen*, *siz* — II shaxsni; *u*, *ular* — III shaxsni ko‘rsatadigan kishilik olmoshlaridir.

Kishilik olmoshlari jadvali quyidagicha:

Shaxslar	Son	
	birlik	ko‘plik
I shaxs	men	biz
II shaxs	sen	siz
III shaxs	u	ular

Shundan keyin o‘qituvchi «*Shaxs nima? Shaxslarda nima ang-lashiladi?*» kabi so‘roqlar bilan sinfga murojaat qiladi va bu muam-moli vaziyatni o‘quvchilar bilan birlgilikda hal qiladi. O‘quvchilar I shaxs — so‘zlovchi, II shaxs — tinglovchi, III shaxs — o‘zga ekan-ligi va bu shaxslarning birlik hamda ko‘plik shakli haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishadi. Ularda kishilik olmoshlarining mohiyatiga tushunish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi. Kishilik olmoshidagi birlik va ko‘plikning ifodalanishi otlardagi son kategoriysi bilan qiyosla-nadi: *men*—*biz*; *qalam*—*qalamlar*; *akamlar*—*ular* kabi. O‘quv-chilar kishilik olmoshining III shaxs birligi (*u*)ni ko‘rsatish ol-moshi (*u*) bilan aralashtirmasliklari lozim. O‘qituvchi bu ikki olmoshni bir-biriga solishtirib mashq o‘tkazishi foydalidir. Masalan, *U o‘qidi*. — «*u*» — kishilik olmoshi. *U bola o‘qidi*. «*U*» — ko‘rsatish olmoshi. Bu olmoshlarning qo‘llanishi bilan aloqador bo‘lgan ay-rim eslatmalar o‘quvchilarga yetkazilsa, maqsadga muvofiqdir:

- «*u*» kishilik olmoshi shaxsni bildiradi, «*u*» ko‘rsatish ol-moshi predmetni ko‘rsatadi;
- «*u*» kishilik olmoshi *kim?* so‘rog‘iga, «*u*» ko‘rsatish olmoshi esa *qaysi?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi;
- «*u*» kishilik olmoshi shaxs oti o‘rnida qo‘llanadi, «*u*» ko‘r-satish olmoshi o‘ziga tegishli bo‘lgan ot bilan birga keladi.

Shundan keyin o‘quvchilar kishilik olmoshlarining kelishikda turlanishi haqidagi ayrim qoidalar bilan tanishtiriladi:

- kishilik olmoshlari kelishikda turlanadi (*men*, *menga*, *menda* kabi);
- kelishik bilan turlangan kishilik olmoshlari *kim?* *kimning?* *kimga?* *kimdan?* kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi;

- bosh kelishikdagi kishilik olmoshlari gapda ega vazifasini bajaradi (*Biz kitobni sevamiz*);
- qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigida qo'llangan kishilik olmoshlari ikkinchi darajali bo'lak vazifasini bajaradi (*Beshik kabi tebranar dengiz, go'yo meni uxlatmoqchiday. T. Nizom*).

O'quvchilar turlanish namunasi bilan tanishtiriladi:

Kelishiklar	Birlikda	Ko'plikda	So'rog'i
Bosh kelishik	men	biz	kim?
Qaratqich kelishigi	mening	bizning	kimning?
Tushum kelishigi	meni	bizni	kimni?
Jo'nalish kelishigi	menga	bizga	kimga?
O'rin-payt kelishigi	menda	bizda	kimda?
Chiqish kelishigi	mendan	bizdan	kimdan?

O'qituvchi kelishiklar bilan bog'liq bo'lgan ayrim imlo qoidalariga o'quvchilar e'tiborini qaratadi:

1. Men, sen olmoshlari qaratqich va tushum kelishigi bilan o'zgarganda aytilishiga muvofiq bir «n» tovushi tushib qoladi va shunday yoziladi: *men-ning—mening, sen-ni—seni* kabi.
2. U olmoshi jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari qo'shimchasini olganda bir «n» tovushi qo'shib aytildi va shunday yoziladi: *u-ga—unga, u-da—unda, u-dan—undan* kabi.

Olmosh haqidagi tushunchalarni mustahkamlash uchun turli xil topshiriqli mashqlar bajarish bilan bir qatorda «Javob bering, taqdirlayman», «Mantiqan o'yla, top va ijro et» kabi yangi pedagogik texnologiyaga oid metodik o'yinlardan foydalanish ilmiy jihatdan bilim samaradorligini ta'minlaydi, tarbiyaviy jihatdan ularni faollikka undaydi, ruhiyatini ko'taradi va nutq odobini egal-lash borasidagi ishtiyoqini kuchaytiradi. «Javob bering, taqdirlayman» o'yini quyidagi tartibda tashkil etiladi:

Avvalo, o'qituvchi dars hajmiga qarab, deylik, yetti dona bilim qopchasi yasaydi. Keyin shu qopchalarga moslab, o'tilgan dars yuzasidan yettita savol tuzadi. Savollar o'quvchilarni jalb etishi va ta'sirchanligi nuqtayi nazaridan she'riy tarzda yozilsa, yaxshiroq bo'ladi.

I-savol: Jurnaldan o'qimasdan
Bu gal ism-u sharifni,
Kim aytadi KISHILIK
OLMOSHIning ta'rifin?

(*Javob:* Shaxsni bildirgan olmoshlar kishilik olmoshidir.)

2-savol: O'tkir aql — pichoqdir,
Bilim unga qin bo'lar.
Olmoshdagi SO'ZLOVCHI
Qaysi shaxsda, kim bo'lar?

(Javob: I shaxs, MEN.)

3-savol: O'quvchim, o'ylab aytning,
So'zning gali sizgadir.
Olmoshda qaysi shaxslar
TINGLOVCHIdir, O'ZGAdir?

(Javob: II shaxs, SEN — tinglovchi; III shaxs, U — o'zga.)

4-savol: Kimga nasib aylagay
Savolga javob topish,
Qay olmoshlar turlansa
Tushib qolgay «N» tovush?

(Javob: MEN, SEN olmoshlari qaratqich, tushum kelishigida turlansa, talaffuzda bir «N» (en) tovushi tushib qoladi va shunday yoziladi.)

5-savol: Oltita kelishikdan
Qaysilari, xo'sh, ular,
Bir olmosh turlanganda
«N» tovushi qo'shilar?

(Javob: III shaxs birlidagi «U» kishilik olmoshi jo'nalish, o'rinn-payt, chiqish kelishigida turlansa, talaffuzda bir «N» (en) tovushi qo'shiladi va shunday yoziladi.)

6-savol: Kim to'g'ri aytsa, olgay
Baholarning a'losin,
Anglatar qaysi shaxsda
Olmosh KO'PLIK ma'nosin?

(Javob: I, II shaxsdagi BIZ, SIZ olmoshlari ko'plik ma'nosidadir.)

7-savol: So'nggi so'roq: kim dadil
Qatnashadi bahslarda?
To'liq aytsin kishilik
Olmoshlarin SHAXSLARda.

(Javob: BIRLIKDA: I shaxs — men, II shaxs — sen, III shaxs — u. KO'PLIKDA: I shaxs — biz, II shaxs — siz, III shaxs — ular.)

O'quvchilar to'g'ri aytgan javoblari uchun bittadan «bilim qopchasi» bilan taqdirlanadi. Kim ko'p yutuq olsa, keyingi bosqichda ham qatnashadi. Uchinchi bosqichda avvalgi bosqich g'o-libi va unga da'vogar doskaga chiqariladi: biriga OLMOSH, ikkinchisiga KELISHIK degan yozuv beriladi. O'qituvchi aytgan

ta’rif qaysi o‘quvchiga to‘g‘ri kelsa, «Men!» deb bir qadam oldinga chiqadi. Sinf o‘quvchilari hakamlik qilishadi.

Ta’riflar:

1. *O‘zim* so‘zi — *men*, *o‘zing* so‘zi — *sen* so‘ziga ma’nodosh bo‘ladi. (Olmosh)

2. Turlovchi qo‘srimchasi yo‘q. (Bosh kelishik)

3. So‘zlovchiga tegishli shaxsga ega. (*Men*, kishilik olmoshi)

4. Shaklan ko‘plik, lekin birlikda ham qo‘llanadi. (*Biz*, *siz* — kishilik olmoshlari)

5. *Kimda?* *nimada?* *qachon?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi. (O‘rin-payt kelishigi)

6. U boshqa so‘z turkumidan yasalmaydi. (Olmosh)

7. Qarashlilik ma’nosini anglatadi. (Qaratqich kelishigi)

8. Yasovchi qo‘srimchasi yo‘q. (Olmosh)

O‘yin so‘ngida g‘olibga sinf kutubxonasi dagi eng yaxshi badiiy kitob o‘qish uchun sovg‘a qilinadi.

Bu o‘yin ilmiy, metodik, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarni faollikka undaydi, ma’nana rag‘batlantiradi, ruhiyatini ko‘taradi, o‘qish-o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytiradi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Olmosh haqidagi ilmiy tushuncha kichik maktab yoshidagi bolalarga qaysi usullar bilan o‘rgatiladi?
2. Kishilik olmoshlarni o‘rganishda o‘quvchilar nimalarga e’tibor qaratishi lozim?
3. Kishilik olmoshlarning shaxslarda o‘zgarishini o‘qituvchi amaliy ravishda qanday tushuntiradi?
4. Olmoshni o‘zlashtirishda ta’limiy-didaktik o‘yinlarning ahamiyati nimalarda ko‘rinadi?
5. Kishilik olmoshlarning imlosiga doir orografik mashqlarni ijodiy boyitib, amaliy dars ishlamasini yozing va muhokama qiling.
6. «Mantiqan o‘yla, top va ijro et» nomli metodik o‘yinni o‘tkazish ishlamasini tayyorlang.

BOG‘LOVCHI USTIDA ISHLASHNING O‘ZIGA XOS TOMONLARI

REJA:

1. Bog‘lovchi tushunchasi haqida.
2. O‘quvchilarni bog‘lovchi bilan amaliy tanishtirish.
3. Bog‘lovchi vazifasini o‘quvchilarga o‘rgatish.
4. Bog‘lovchining gap qurilishidagi roli va ahamiyati.

Boshlang'ich sinflarda yordamchi so'z turkumlari haqida ma'lumot berilmaydi. Faqat 4-sinfda bog'lovchi so'zlarni so'z-larga yoki gapni gapga bog'lashi, VA bog'lovchisi qo'llanganda, yozuvda vergul qo'yilmasligi, AMMO, LEKIN, BIROQ bog'-lovchilaridan oldin yozuvda vergul qo'yilishi o'quvchilar hukmiga havola etiladi.

Shunday bo'lsa-da, 1—3-sinf o'quvchilari bog'lovchi gap bo'laklarini yoki qo'shma gapning qismlarini bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'z turkumi ekanligi bilan amaliy ravishda tanishadilar. Chunki o'rganiladigan matnlarda va mashqlarda bog'lovchi gap bo'laklari hamda qo'shma gap komponentlari orasidagi aloqani, munosabatni ko'rsatadi. 2-sinfda ot, sifat, fe'l so'z turkumi sifatida o'rganilganda, bog'lovchi grammatik vazifa bajarib, uyushgan otlarni (*Dildoraning o'yinchoqlari juda ko'p: Tulkivoy va Bo'rivoy, Xo'rozcha va Quyoncha, Arslon va Ayiq polvon*), uyushgan sifatlarni (*Chana qizil va ko'k rangga bo'yalgan*), uyushgan fe'llarni (*Muhriddin velosi pedni haydab ketdi, ammo muyulishda ariqqa ag'darilib tushdi*) biriktirganligi mashqlarda o'z ifodasini topgan.

Bog'lovchining vazifasi haqida amaliy ko'nikmaga ega bo'lgan o'quvchilar 4-sinfda uni so'z turkumi sifatida o'rganadilar. Ammo bu sinfda ham bog'lovchining tuzilishiga ko'ra, sodda va qo'shma tarkibli bo'lishi, vazifasi jihatidan teng va ergashtiruvchi bog'-lovchilarga bo'linishi, teng bog'lovchi ma'nosi, grammatik aloqalarni ko'rsatishiga qarab biriktiruvchi, zidlovchi va ayiruvchi bog'-lovchilarga bo'linishi, ergashtiruvchi bog'lovchi ham grammatik aloqalarni ifodalashi va ma'nolariga qarab aniqlov, sabab, chog'ishtiruv, maqsad, shart va to'siqsiz bog'lovchilarga bo'linishi haqida ma'lumot berilmaydi. 4-sinf o'quvchilari bog'lovchining umumiy vazifasi to'g'risida tasavvurga va ko'nikmaga ega bo'ladigan bilim hosil qiladilar. Buning uchun o'qituvchi turli xil topshiriqli mashqlarni o'quvchilarga bajartiradi:

1. Matn gaplarini o'qish va bog'lovchi nimalarni o'zarbo'laganligiga diqqatni jalb etish (*so'zlarnimi, gaplarnimi*).
2. Matnda bog'lovchi qaysi so'z turkumini bog'laganiga e'tibor berish (*Ninachi ikki soatda qirqta pashsha va mayda chivinlarni paqqos tushiradi. — Pashsha va chivin; otlarni bog'lagan*).
3. Matn gaplarini ko'chirib, tinish belgisi qo'llanganligini tu-shuntirish (*Kun tikkaga kelgan, ammo issiq badanni kuydir-maydi. — AMMO bog'lovchisidan oldin vergul qo'yilgan*).

4. Gap tarkibidan bog‘lovchini topib, qo‘llanish sababini aytish (*Roziya oyisini kutdi, lekin Fotima tezda kelavermadni*. — Gapni gapga bog‘lash uchun qo‘llangan).

5. Matn gaplaridagi nuqtalar o‘rniga VA, LEKIN, AMMO, BIROQ bog‘lovchilaridan mosini qo‘yib ko‘chirish (*O‘zbekistonidagi qushlarning ko‘pi kuzda issiq o‘tkalarga uchib ketadi, ...ular bahorda qaytishadi — biroq*).

6. Bog‘lovchining vazifasini aniqlaydigan jadvaldan foydalanish:

So‘zlarni o‘zaro bog‘lagan bog‘lovchi	Gaplarni o‘zaro bog‘lagan bog‘lovchi	Bog‘lovchi bog‘lagan so‘z qaysi gap bo‘lagi ekani
1. Vatan sog‘inchi behad nozik va noyob tuyg‘udir.	2. Diyorbek notanish chavandoz yordamida otga arang mingashibdi va ular so‘qmoq yo‘ldan tog‘ga tomon ketishibdi. (Ertakdan)	1-gapda aniqlovchi, 2-gapda kesim.
3. Qadimda kuchuk, mushuk va sichqon do‘st ekan. (Ertakdan)	4. Onabibi xatni o‘qitmoqchi bo‘ldi, lekin u hech kimni topa olmadi.	3-gapda ega, 4-gapda esa kesim.

7. Uyushiq bo‘laklarning bog‘lovchi yordamida bog‘lanishini o‘rganish:

a) uyushiq bo‘laklar o‘zaro va, *ammo, lekin, biroq* bog‘lovchilari bilan bog‘lanadi (*Men Bayotbekni ko‘rdim, lekin so‘zlasha olmadim*);

b) uyushiq bo‘laklar VA bog‘lovchisi bilan bog‘langanda, ular orasiga vergul qo‘yilmaydi. Masalan:

*Bir bug‘doy boshog‘i
Hovuch-hovuch don.
U menga va senga
Shirin, totli non.*

Do‘sjon Matjon

d) uyushiq bo‘laklar *ammo, lekin, biroq* bog‘lovchilari bilan bog‘langanda ularidan oldin vergul qo‘yiladi (*Oy yoritadi, biroq isitmaydi*);

e) bog‘lovchili chizmalarga mos uyushiq bo‘lakli gaplar tuzish:

1. —————— va ——————
 ======
 2. ^^^^^^^^^^^^^^va^^^^^—————
 =====.
 3. ——————, ammo—————
 ——————.

Shunday qilib, bog'lovchi mavzusi o'quvchilarning orfografik va punktuatsion qoidalarni puxta o'zlashtirishi uchun imkon yaratadi, nutq uchun material beradi, bundan tashqari, «Gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi» (3-sinf), «Gapning uyushiq bo'laklari», «Qo'shma gap» (4-sinf) kabi mavzularni teran anglash uchun zamin yaratadi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Bog'lovchi haqidagi tushunchani qanday izohlaysiz?
2. O'quvchilar bog'lovchi bilan amaliy ravishda qachon tanishadi?
3. Bog'lovchining vazifasi nechanchi sinfda va qay tarzda o'rgatiladi?
4. Bog'lovchining gap qurilishidagi ahamiyati nimadan iborat?
5. Bog'lovchini boshlang'ich ta'limda o'rganishga doir ma'lumot to'plang va konspektlashtiring.

VII. IMLONI O'RGATISH METODIKASI

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINTAKSIS VA PUNKTUATSİYA ELEMENTLARINI O'RGANISH

REJA:

1. Sintaksisning asosiy manbayi so'z birikmasi va gap ekanligi.
2. Boshlang'ich sinflarda gap ustida ishlash.
3. Gapda so'zlarning bog'lanishini (so'z birikmasini) o'rganish.
4. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tinish belgilarini tanishtirish.

Sintaksisning asosiy manbayi so'z birikmasi va gap hisoblanadi. Ayni paytda, u leksikologiya, fonetika, orfografiya, morfologiya, punktuatsiya va nutq o'stirish bilan bog'lanadi. Sintaksis tilshunoslikning muhim qismi bo'lib, boshlang'ich ta'lilda morfologiya bilan qiyoslab o'rgatiladi. Xususan, so'z turkumlari bilan gap bo'laklari o'rtasidagi bog'lanish va farqni tushuntirish sintaksisning zimmasiga tushadi. O'quvchilar uni o'rganish jarayonida o'z nutqlarida uchraydigan ba'zi nuqsonni tuzatib boradilar hamda sodda va qo'shma gapni bemalol ajratib tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Muhimi, ifodali o'qish san'atini o'zlashtirishda ham sintaksisni yaxshi bilish talab etiladi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan ona tili darsining yetakchi vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapni mazmunli tuzish ko'nikmasini shakllantirishdir. Gap sintaktik kategoriya bo'lib, nutqning asosiy birligi sanaladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlari o'rgangan barcha morfologik bilimlarning tilimizdagi rolini gap asosida o'zlashtiradilar. So'zning leksik ma'nosi va uning qo'llanish xususiyati so'z birikmasi yoki gapda ma'lum bo'lishini amaliy mashqlar asosida mustahkamlab boradi.

Boshlang'ich ta'lilda gap ustida ishlashning bir necha yo'nalishi mohir metodistlar tomonidan ishlangan bo'lib, quydagi gilarni o'z ichiga oladi:

1. Muhim belgilar vositasida gap xususidagi grammatick tushunchani shakllantirish.
2. Gap qurilishini o'rgatishda so'zlarning bog'lanishiga, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning joylashish tartibiga e'tibor berish.

3. Bog'lanishli nutqda gapning maqsadga va ohangga ko'ra turlaridan o'rinli foydalanish.

4. Fikrni yorqin ifoda etadigan so'zlar ishtirokida gap tuza olish ko'nikmasini egallah.

5. Yozma nutqni orfografik normalar asosida to'g'ri tashkil etish.

Bundan ko'rinadiki, gap fikr ifodalash, aloqa bog'lashning eng qulay shakli hisoblanadi. «Gap» mavzusi boshlang'ich ta'limning barcha bosqichlarida o'rganiladi. O'quvchilar 1-sinfdayoq ona tili darsining dastlabki mashqlaridan boshlab, matndagi gaplar sonini va har biri nechta so'zdan iborat ekanligini aniqlaydilar. Ular «Gap so'zlardan tuziladi», degan tushunchani o'zlashtirildilar. Gapning uch belgisi o'quvchilar xotirasiga havola etiladi:

1. Gap tugashida ovoz pasayadi.

2. Yozuvda gap oxiriga nuqta qo'yiladi.

3. Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi.

2-sinfda gap ustida ishlashning yangi bosqichiga o'tilib, o'quvchilar gapni amaliy o'rganishdan tushuncha sifatida o'zlashtirishga o'tadilar. O'qituvchi ularga gapning muhim belgilarini, bosh bo'laklar — ega va kesimning ta'rifi tushuntiradi. Bu sinfda gapning grammatik asosi (*ega* va *kesim*) ajratiladi. So'zning bog'lanishiga katta e'tibor bilan qaraladi.

3-sinfda gap ustida ishslash doirasi kengayadi. O'quvchilar gapning maqsadga ko'ra turlari (*darak gap*, *so'roq gap*, *undov gap*), gap bo'laklari (*bosh bo'laklar*, *ikkinchi darajali bo'laklar*) va gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi bilan kengroq tanishadilar. Ular gapning asosiy mazmuni bosh bo'lakdan anglashilib turishini, fikr yanada to'liq bo'lmog'i uchun boshqa so'zlar ishtirok etishini, bunday so'zlar ikkinchi darajali bo'laklar deyilishini, gapda ular ham ma'lum bir so'roqqa javob bo'lishini tahlil qiladilar.


Masalan, *Yosh qo'shiqchilar tanlovga puxta tayyorlandilar*.

Bosh bo'laklar: qo'shiqchilar (kimlar?) — *ega*, tayyorlandilar (nima qildilar?) — *kesim*.

Ikkinchi darajali bo'laklar: qanday qo'shiqchilar? — *yosh*. Nimaga tayyorlandilar? — *tanlovga*. Qanday tayyorlandilar? — *puxta*.

Bu sinfda ikkinchi darajali bo'laklar turlarga ajratilmaydi. So'z ostiga bir xil belgi chiziladi. Gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash muhim sintaktik va nutqiy ko'nikmaga kiradi. Bosh bo'laklar so'roq yordamida aniqlanadi, keyin ularga mazmunan bog'langan so'zlar ham so'roq berib topiladi. Masalan: *Mardonav qo'shiq safimizni mustahkamlaydi*.

Bu gapdag'i so'zlarning bog'lanishi quyidagicha:



Nima? — *qo'shiq* — ega; Nima qiladi? — *mustahkamlaydi* — kesim;

Qanday qo'shiq? — *mardonavor*; Nimani mustahkamlaydi? — *safimizni*.

4-sinfda so'z birikmasi gap komponenti sifatida ajratiladi va gapning uyushiq bo'laklarini o'rganish jarayonida gap bo'laklari haqidagi bilimni kengaytiradi. Bu sinfda ham «so'z birikmasi» atamasi qo'llanmasa-da, o'quvchilar uning muhim belgilarini amaliy tarzda bilib olishlari lozim:

1. So'z birikmasi — mazmun va grammatik jihatdan bog'langan ikki yoki undan ortiq so'z. Masalan, *aqli bola*, *Shukriyaning qo'g'irchog'i*, *tinchlik uchun kurash*, *paxta gulli chinni piyola* va b.

2. So'z birikmasida bir so'z hokim, keyingilari tobe bo'ladi. Hokim so'zdan tobe so'zga so'roq beriladi. Tobe so'z o'sha so'roqqa javob sifatida keladi. Masalan, *Daraxtning (nimaning?) bargi, Roziyani (kimni?) ko'rmoq*.

Ma'lumki, yozma nutqda gapning sintaktik qurilishi punktuatsiya bilan uzviy bog'liq. Punktuatsiya tinish belgilarining ishlatalishi haqidagi qoidalar majmuyidir. Boshlang'ich ta'limda, asosan, to'rtta tinish belgisi: *nuqta*, *vergul*, *so'roq* belgisi, *undov* belgisining ishlatalishi o'rgatiladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni tinish belgisi bilan tanishtirishda o'qituvchi, avvalo, uning yozma nutqda ishlatalishi va rolini ko'rsatadi.

1-sinf o'quvchilari savod o'rgatish davridayoq nuqta, so'roq belgisi va undov belgisi bilan amaliy tanishadilar. O'qituvchi ularga bir gap ikkinchisidan to'xtam bilan ajratilishini, gapning oxirida ovoz pasayishini kichik-kichik matnlarni o'qish orgali tushuntiradi. O'quvchilar «Gap» mavzusi o'qtilganda nuqta, so'roq va undov belgisi qo'yishni chuqr o'rganadilar va gap oxiriga tinish belgilarini sintaktik asosda qo'yilishini anglay boshlaydilar. Zotan, «Darak gap» mavzusida «Darak gap oxirida ovoz pasayadi. Darak gapning oxiriga nuqta (.) qo'yiladi», degan qoida keltiriladi. 4-sinf

o‘quvchilari «Gapning uyushiq bo‘laklari» mavzusi bilan tanishganda, sanash ohangi asosida bog‘langan bo‘laklardan keyin vergul (,) qo‘yilishi o‘rgatiladi.

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichlarida o‘quvchilar har xil mashqlarni bajarish orqali ikki nuqta, chiziqcha, tire va qo‘shtirnoqning qo‘llanishi bilan umumiy yo‘sinda tanishadilar. O‘qituvchi aniq misollar keltirish bilan (*Bog‘imizda mevali daraxtlar: nok, olma, xurmo, o‘riklar birin-ketin gullay boshladti*) uyushiq bo‘lakli gaplarda umumlashtiruvchi so‘zdan keyin ikki nuqta qo‘yilishini aytsa, juft so‘zlar orasiga va so‘z ko‘chirishda chiziqcha qo‘yilishini amaliy tarzda o‘rgatadi.

O‘quvchilarni sintaktik va punktuatsion bilimlar bilan tanishtirish og‘zaki va yozma nutqda gapdan ongli foydalanishga, nutq madaniyatini egallashga imkon yaratadi, milliy til nufuzini ko‘tarish hissiyotini uyg‘otadi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Sintaksisning asosiy manbayi nima?
2. Boshlang‘ich sinflarda gap ustida ishlash qanday tashkil etiladi?
3. Gapda so‘zlarning bog‘lanishiga doir mashq turlari qaysilar?
4. Boshlang‘ich sinflarda, asosan, qaysi tinish belgilari o‘rgatiladi?
5. Punktuatsiyani o‘rgatishning ahamiyati nimadan iborat?
6. 3-sinfda gapning bosh bo‘laklarini o‘rganishga bag‘ishlangan dars ishlanmasini tuzing.

Amaliy mashg‘ulot. 2—4-sinf dasturidan bog‘lanishli nutq qismini o‘rganish va tahlil qilish

Bu mashg‘ulot mavzusini amaliyotchilar DTS o‘quv dasturi asosida tahlil qilishi lozim. Dasturda 2-sinf o‘quvchilari bog‘lanishli nutqni «Gap» mavzusi bilan bog‘liq holda o‘rganishlari tavsiya etilgan. Shuning uchun talabalar bog‘lanishli nutqning uch jihatiga e’tibor qaratadi:

1. Nutq:
 - a) og‘zaki va yozma nutq haqida tushuncha;
 - b) nutqning ahamiyati.
2. Matn:
 - a) matnning mazmunan bog‘liq bo‘lgan bir necha gapdan tuzilishi;
 - b) so‘roqlar yordamida matnni ismlarga bo‘lish va har bir qismiga sarlavha topish;
 - d) bayon haqida tushuncha berish va o‘qituvchi rahbarligida uchto‘rtta so‘roq gapdan tuzilgan reja asosida 30—45 so‘zli bayon yozish;

e) o'qituvchi boshqaruvida bir mavzuga doir bir nechta gap tuza olish va savollar yordamida rasmga qarab matn yaratish o'z qiziqishlari asosida hikoya (insho) yozish.

3. Nutq odobi:

Mannuniyat, iltimos, insonga hurmat kabi muomala mada-niyatiga xos so'zlarni o'z nutqida ifodalay olish. 3-sinfda bog'lanishli og'zaki nutqni o'stirishga e'tibor beriladi:

a) bir daqiqada 60—75 so'zli notanish matnni ichda o'qib, mazmunini tushunish;

b) o'qilgan asarning rejasini tuza olish;

d) o'z kuzatishlari asosida maktab jamoasi haqida hikoya tuzish;

e) o'qilgan asardagi qahramon xatti-harakati, xulq-atvori va his-tuyg'usini anglash, asar obrazlariga munosabat bildirish;

f) nutqiy birlıklarni adabiy til qoidalariga mos ravishda talaffuz etish.

4-sinfda bog'lanishli nutq ona tili fanining so'nggi choragiga ilova qilinadi. Unda quyidagilarga ahamiyat berish tavsija etiladi:

a) nutq, matn va gapni farqlash;

b) matndagi asosiy fikrni aniqlay olish;

d) muhokama va tasvir janri elementlari qatnashgan ta'limiy bayon yozish, ijodiy qayta hikoyalash, tanlab qayta hikoyalash asosida bayon yozish;

e) turkum rasmlar va mazmuni bitta rasmda ifoda etilgan ko'rinish asosida, shuningdek, o'qilgan, kuzatilgan, eshitilgan, guvohi bo'lgan voqeja va hodisalar asosida material to'plash, reja tuzib insho yozish;

f) o'quv yili davomida o'rganilgan imlosi qiyin so'zlar lug'ati (astoydil, ekskavator, eskalator, festival, kolleksiya, kosmonavt, na'matak, portfel, suxandon, xohlamoq va h.k.)ni tuzish va yodda saqlash. Talabalar tayyorlagan amaliy mashg'ulot mavzusi metodist-o'qituvchi rahbarligida muhokama qilinadi va baholanadi.

IMLONI O'RGATISH METODIKASI

REJA:

1. Imloni o'rgatishning mohiyati.

2. Imlo qoidalaringin grammatic nazariyaga bog'liqligi.

3. Darslik bo'yicha qoidani o'rganish mashqlari ustida ishlash.

4. Qoida ustida jamoa bo'lib yoki mustaqil ishslash usulini qo'llash.

5. Imlo qoidalari o'rganishning ahamiyati.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning orfografik savodxonligini shakllantirish uchun grammatik nazariyaga bog‘liq tarzda imlo qoidalari o‘rgatib boriladi. Buning ahamiyatli tomoni shundaki, imloda maxsus bir so‘zni emas, balki umumiy jihatni mavjud bo‘lgan so‘zlar guruhining yozilishi tartibga solinadi. Qoidani yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchi lug‘atdagi har bir so‘zni yodda saqlab, xotiraga olish qiyinchiliklaridan xalos bo‘ladi. Belgilangan qoidaga amal qilib, xususiyati bir xil so‘zlarni osonlikcha to‘g‘ri yoza oladi.

Grammatik, fonetik va so‘z yasalishiga doir nazariy tushunchalarni ma’lum darajada o‘rganmay turib, imlo qoidalarini o‘zlashtirish qiyin, chunki grammatik nazariya imlo qoidalarini mohiyatini ochadigan kalitdir. Shuning uchun boshlang‘ich ta’limda imlo qoidalari o‘ziga asos bo‘ladigan grammatik nazariyaga bog‘liq holda tushuntiriladi. Masalan, 3-sinfda talaffuzda tushib qoladigan undoshlarga doir mashq bajarilgandan keyin shunday qoida keltiriladi: Ayrim so‘zlar oxirida kelgan «*d*» va «*t*» undoshlari talaffuz qilinmaydi, lekin yoziladi: *rost, go’sht, baland* kabi.

Imlo qoidalari ustida ishlash bevosita grammatik nazariya elementlaridan keyin o‘rgatiladi. Binobarin, 4-sinfda ot kelishiklari birma-bir o‘zlashtirilishi jarayonida kelishik qo‘sishchalarining yozilishi haqidagi ko‘nikma shakllantiriladi. Masalan, o‘rin-payt kelishigi qo‘sishchasi olgan ot *kimda? nimada? qayerda? qachon?* kabi so‘roqlardan biriga javob bo‘ladi, ko‘pincha, fe’lga bog‘lanadi va gapda ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida keladi, degan ta’rif o‘quvchilarga tushuntirilgach, mashq bajartirilib, so‘ng quyidagi imlo qoidasi tanishtiriladi:

1. O‘rin-payt kelishigining qo‘sishchasi unlilardan va *y, m, n, p, ng, l* kabi jufti yo‘q jarangli undoshlardan keyin *-da* tarzida aytildi va shunday yoziladi: *jalada, cho’lda, joyda, poygada, Andijonda*.

2. O‘rin-payt kelishigining qo‘sishchasi jarangsiz undoshlardan keyin va ba’zi bir so‘zlar oxirida kelgan jarangli undoshlardan so‘ng *-ta* tarzida aytilsa ham har doim *-da* shaklida yoziladi: *Oltin o’tda* (aytilishi *o’tta*), *odam mehnatda* (aytilishi *mehnatta*) *bilinar*. (Maqol)

O‘quvchilar qoidani mustahkamlash uchun berilgan darslik mashqlarini o‘qituvchi ko‘rsatmasi asosida to‘g‘ri bajarishga odatlansa, orfografik savodxonlikni ongli ravishda o‘zlashtirishga erishadi.

O‘qituvchi imlo qoidalari ustida ishlash murakkabligini, qoida-ning mohiyati uni yozuvda tatbiq eta olishga bog‘liq ekanligini o‘quvchilarga qulay usullar bilan tushuntirishi lozim. U nazariy fikrni oydinlashtirishda yetakchi belgilarga alohida e’tibor qaratadi. Darslik mashqlaridan foydalanib, sinfda mustaqil ishslash usulini joriy qiladi. Masalan, o‘tgan zamon fe’li o‘rganilganda, 4-sinfga quyidagi imlo qoidalari bilish tavsiya etiladi:

1. O‘tgan zamon fe’lining qo‘srimchasi *-di* jarangsiz undoshlardan so‘ng *-ti* tarzida aytildi, ammo *-di* yozildi: *aytti* — *aytdi*, *tushti* — *tushdi*.

2. O‘tgan zamon fe’lining qo‘srimchasi *-gan* jarangsiz undoshlardan keyin *-kan* tarzida aytildi, ammo *-gan* yozildi:

Aytilishi	Yozilishi
eshitkanman keskan tushkansan bitkanmi	eshitganman kesgan tushgansan bitganmi

3. *-gan* qo‘srimchasi «*q*» undoshi bilan tugagan fe’llarga qo‘silganda *-gan* shaklida, «*k*» undoshi bilan tugagan fe’llarga qo‘silganda *-kan* tarzida aytildi va shunday yozildi: *chiq—chiq-qan*, *boq—boqqansiz*, *cho k—cho kkan*.

Ushbu qoidaga muvofiq nuqtalar o‘rniga qavs ichida berilgan qo‘srimchalardan mosini qo‘yib terma gaplarni ko‘chirish mashqi tavsiya etilgan bo‘lib, o‘quvchilar uni o‘qituvchi nazorati ostida mustaqil bajaradi va qoidaning mohiyatini anglashga e’tibor kuchaytiriladi:

1. *Ular ovga Bayotni ham olib ketish...(-ti, -di).*

2. *Hazrat Abu Ali ibn Sino fursatlari tig‘iz bo‘lgan kezlarda ham g‘azal bit... (-kan, -gan)lar.* (Sayyor)

Shunday qilib, mavzularga bog‘lab o‘zlashtiriladigan imlo qoidalari o‘quvchilarda u haqdagi aniq tasavvurning mavjudligiga bog‘liq bo‘ladi. Bu esa so‘zlarda zohir etiladi. Shuning uchun o‘quvchilardan qoidani quruq yodlab kelish talab qilinmasligi, balki so‘zni to‘g‘ri yozish xususiyatlari ishonchli manba vositasida gayta tushuntirilishi kerak.

Imlo qoidalari muntazam o‘rganish o‘quvchilarda kuzatuvchanlikni tarbiyalaydi, nutq madaniyatini takomillashtiradi, fikrlash qobiliyatini o‘stiradi, lug‘atini boyitadi, savodli yozish malakasini mukammallashtiradi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Boshlang'ich ta'llimda imloning mohiyati qanday ochiladi?
2. Grammatik tushunchalarining shakllanishi imlo qoidalarini bilishga qaysi jihat bilan yordam beradi?
3. Qoidani o'rganish mashqlari ustida ishlash uchun nimaga e'tibor qaratiladi?
4. Imlo qoidalarini o'rganishning ahamiyatini aytin.
5. Qoida ustida ishlash bo'yicha noan'anaviy usulga moslab dars ishlanmasi tuzing va uni amaliyot kengashida muhokama qiling.

O'QUVCHILAR SAVODXONLIGINI O'RGANISH VA XATOLARNI TUZATISH

REJA:

1. O'quvchilar savodxonligi darajasini o'rganish.
2. O'quvchilarning orfografik malakasini shakllantirish.
3. Orfografik xatolarni hisobga olish.
4. Xatolarni tuzatish usullari.

Boshlang'ich ta'llimda o'quvchilarning orfografik savodxonligini muntazam kuzatib borish, xatolarni tuzatish va ular ustida mustaqil ishlarni tashkil qilish usullari alohida ahamiyatga ega. Avvalo, yoziluvchi barcha turdag'i yozma ishlar o'quvchilarning savodxonligini aniqlash vositasi hisoblanadi. 2—4-sinf o'quvchilarning savodxonlik darajasini belgilashda yozma ishning hamma turidan foydalanish mumkin. Orfografik malakani tekshirish uchun diktant, bayon va inshodan sinov o'tkazish samarali bo'ladi.

Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarni to'g'ri yozishga o'rnatishning muhim vositalaridan biri imlo lug'ati bilan ishlashdir. Bunda ko'proq imlosi qiyin bo'lgan so'zlarni o'rgatish nazarda tutiladi. Masalan, «Talaffuzda tushib qoladigan undoshlar» (3-sinf) rukni ostida berilgan mashqlarni bajarish jarayonida o'qituvchi SAMARQAND, DARAXT, FARZAND, DO'ST kabi bir necha so'zlarni tanlaydi. Darsni boshlashdan avval «Imlo lug'ati» yoki maxsus lug'atdan o'quvchilarga tarqatadi. Vazifa tushuntirilgach, sinf diqqati lug'at bilan ishlashga jalb etiladi. O'qituvchi vaqt belgilagandan keyin birinchi so'zni (Samarqand) aytadi. O'quvchilar bu so'zni lug'atdan topishga kirishadi. Birinchi bo'lib topgan o'quvchi rag'batlantiriladi va faollik ko'rsatishda davom etsa, baholanadi. Shu usul bilan qolgan so'zlar ham lug'atdan topiladi. Dastlab, bir so'zni lug'atdan topish uchun uch daqiqa sarflansa, muntazam mashq tufayli, keyinchalik, bu vaqt 20—30 soniya-

gacha qisqaradi. O‘quvchilar ayrim so‘zning boshlang‘ich harfini ajrata olmaganda (ko‘proq «*p*» va «*f*», «*x*» va «*h*» bilan boshlanuvchi so‘zlarda) lug‘atdan topishga qiynalishadi, izlanayotgan so‘zni oldin o‘zi taxmin qilgan harfdan qidiradi, topilmasa, keyingi harf tizimidagi so‘zlarga o‘tadi.

Mashqning bu turi, *birinchidan*, o‘quvchini alifboden foy-dalanishga o‘rgatsa, *ikkinchidan*, topilgan so‘zlarning yozilishini esda qoldirishga yordam beradi. «Imlo lug‘ati» bilan ishlash jayronida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma savodxonligini takomillashtirish uchun turli xil topshiriqlar beriladi:

1. Talaffuzi va yozilishida farq seziladigan so‘zlarni lug‘atdan toptirish va o‘sha so‘zlar ishtirokida gaplar tuzish (*insof*, aytishi — *insop*; *avtobus*, aytishi — *aftobus*. Gap: *Insolfi bo‘l, baraka topasan*).

2. Lug‘at yordamida «*x*» va «*h*» tovushlari; portlovchi va sirg‘aluvchi «*j*» undoshi hamda tutuq belgisining qo‘llanishini mustahkamlashga doir jadvallar tuzish. Masalan:

Portlovchi « <i>j</i> » undoshi	Sirg‘aluvchi « <i>j</i> » undoshi
jajji	jurnal
jayron	jeton
jilg‘a	Parij
Jasurbek	ajdar
gultojixo‘roz	mujda

3. Lug‘atdan o‘tilayotgan mavzuga oid to‘rt-beshta so‘z top-tirib, ular ishtirokida gap tuzdirish. Masalan, tutuq belgisining qo‘llanishini mustahkamlash uchun (3-sinf) «Imlo lug‘ati»dan belgining unli tovushdan so‘ng kelishiga uchta so‘z, undosh tovushdan keyin kelishiga to‘rtta so‘z topish buyuriladi. O‘quvchilar *a’zo*, *ta’zim*, *sa’va*; *an’ana*, *san’at*, *Tal’at*, *mash’al* kabi so‘zlarni tanlab, daftariга yozadi. Keyin ularni qatnashtirib gap tuzdiriladi. O‘qituvchi bolalardan tutuq belgisining qo‘llanishiga doir qoidani so‘rab, bilimni mustahkamlaydi. (Mashqning bu turi uyga vazifa qilib berilishi ham mumkin.)

4. Ta’limiy diktant o‘tkazishda ham «Imlo lug‘ati»dan foy-dalanish mumkin. O‘qituvchi ketma-ket kelgan bir xil undoshlar imlosi bo‘yicha ta’kidiy diktant o‘tkazish uchun oldin matn tay-yorlaydi, keyin o‘qib beradi va bir xil undoshli so‘zlarni lug‘atdan topilgan so‘zlar ostiga chizdiriladi.

5. «Ona tili» darsligi va «Diktantlar to‘plami»da lug‘at diktant uchun berilgan so‘zlarni «Imlo lug‘ati»dan toptirish, o‘quvchilar diqqatini uning yozilishiga jalb etish.

6. Biror so‘zning to‘g‘ri yozilishini aniqlash ehtiyoji tug‘ilganda, ayniqsa, yozma ishlarda imlosi qiyin so‘zlarni lug‘atdan ko‘rishga ruxsat etiladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchining orfografik savodxonligini takomillashtirib borish ona tili darsining eng muhim vazifasi sanaladi. Ayniqsa, orfografik xatolarni hisobga olish o‘qituvchining birinchi darajali mas’uliyatidir. Agar xatolar hisobga olinmasa, darsni qoniqarli maromda davom ettirish, o‘quvchilar savodxonligini aniqlab borish qiyin. Xatolar xarakteriga ko‘ra tahlil qilinganda, dastlab, ikkiga bo‘linadi: *fonetik xatolar* va *morfologik xatolar*.

Fonetik xatolarga ayrim tovush-harflarning yozilishi hamda bo‘g‘in ko‘chirishga oid xatolar kiradi. Morfologik xatolarga esa so‘z negizi va qo‘sishchalarining yozilishida, qo‘shma so‘zlar, juft so‘zlarda qilingan xatolar kiradi. Tajribali o‘qituvchi o‘quvchilarining orfografik savodxonligini hisobga olishda varaqqa jadvalidan foydalanadi. U xatoni aniqlab, yoniga o‘quvchining sind jurnaldiagi tartib raqamini qayd etadi. O‘quvchilarning yozma ish daftariga ham o‘sha tartib raqami qo‘yiladi. Chunonchi:

VARAQA

2013-yilning 20-dekabri. 3-«B» sinf

T/r	Qaysi qoidada xato qilingan	Kimlar xato qilgan	Xato qiluvchilar soni
1.	Tutuq belgisining qo‘yilishida (ma’qul ...)	5, 7, 11, 15, 16	5
2.	Bir xil undoshli so‘zning yozilishida (murakkab ...)	6, 9, 10, 12	4

Agar bir so‘zda ikki xil xato qilingan bo‘lsa, u ikki marta yoziladi. Varaqa shaklidagi bu hisobot butun bir sinfning va har bir o‘quvchining o‘tilgan orfografik qoidalarni qanchalik o‘zlash-tirganligi haqida to‘la tasavvur bera oladi. O‘qituvchi shu varaqqa asosida o‘quvchilar dasturning qaysi qismini yaxshi o‘zlashtir-maganligini aniqlab, qoida ustida qanday mashg‘ulot olib borish kerakligini rejalashtiradi.

Bu usulni punktuatsion xatolarni hisobga olishda ham qo'llash mumkin. Hisobga olingan xatolarni tuzatish ham ijodiy xarakterdagi ish sanaladi. Xato tuzatishning bir necha ko'rinishi bor:

1. Xato yozilgan harfning ustidan chizib, tepasiga to'g'risini yozish.
2. Grammatik shaklda bo'lgan xatoning ostiga chizish (*kilib — kulub*).
3. Xatoni to'g'rilamasdan o'sha noto'g'ri harf, bo'g'in yoki so'zning ostiga chizish.
4. Xato ostiga chizib, hoshiyaga belgi qo'yish.

O'quvchilarning orfografik va punktuatsion malakalari qanchalik takomillashtirib borilganligini ko'rsatish uchun hisobot varaqasi asosida jadval tuzish va to'ldirib borish yaxshi natija beradi. Masalan, 4-sinfning yozma ishda qilgan xatosi va unga qo'-yilgan baholar:

T/r	O'quvchilar ismi va familiyasi	Olingan diktantlar vaqtini va qo'yilgan baholar					
		10.IX		15.X		17.XI	
		xato	baho	xato	baho	xato	baho
1.	Akbaraliyev A.	4/3	3	3/3	3	2/2	4
2.	Berdiqulova Sh.	7/4	2	8/1	2	6/1	3
3.	Valiyeva D.	7/3	2	5/2	3	2/1	4

Bu jadval o'quvchilar savodxonligida qanchalik o'zgarish bo'lganligini ko'rsatish bilan birga, xatolar ustida ishslashning siyatini ham namoyon etadi. O'quvchilar ijodiy va ijobiy yo'lni belgilashga ko'nika boradi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. O'quvchilarning savodxonlik darajasini aniqlashda nimalarga e'tibor beriladi?
2. O'quvchilar savodxonligini shakllantirish qachondan boshlanadi va qanday boshlanadi?
3. «Imlo lug'ati» bilan ishslashning orfografik bilimni egallashdagi roli nima-dan iborat?
4. Orfografik xatolar qaysi yo'l bilan hisobga olinadi?
5. Xatolarni tuzatish usullari haqida gapiring.
6. Xatolarni tuzatish, hisobga olish va baholashga doir hisobot varaqalari tuzing, undan amaliyot jarayonida foydalaning.

TO‘G‘RI YOZISH MASHQLARI

REJA:

1. To‘g‘ri yozish mashqlari haqida.
2. Orfografik mashq turlari:
 - a) ko‘chirib yozish mashqi;
 - b) diktantlar o‘tkazish mashqlari.
3. Bayon va sodda rejali insho.
4. Yozma nutqda orfografik mashqlarning ahamiyati.

To‘g‘ri yozish malakasini hosil qilish ongli nutq faoliyatining bir bo‘lagidir. Bu faoliyatni barqarorlashtirish uchun uzoq vaqt davomida maqsadga yo‘naltirilgan turli xil mashqlar bajartirib borildi. To‘g‘ri yozish mashqlarini o‘tkazish o‘quvchilarda orfografik ziyraklikni yuzaga keltiradi, mashqlararo bog‘lanishni yagona faoliyat tizimiga kiritish lozimligini o‘rgatadi, imlo qoidalarining mohiyatini aniqlashtiradi. Zotan, orfografik qoidalarni yozma nutqqa tatbiq qilish davridagina uning mazmuni chuqurroq o‘zlashtiriladi.

To‘g‘ri yozuvga o‘rgatishda yozma mashqlar bilan birlashtirishda og‘zaki mashqlarning muvofiqligiga erishish lozim. Bunday mutanosiblik qoida va amaliy mashqlarning o‘quvchi xotirasida mustahkam o‘rnashishiga yordam beradi.

Metodikada orfografik mashqlar tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- 1) ko‘chirib yozish;
- 2) diktantlar;
- 3) grammatik-orfografik topshiriqlar;
- 4) ijodiy ishlar (leksik-grammatik tahlil, erkin diktant, bayon va insho).

Ko‘rib idrok qilingan so‘z, gap yoki matnni yozma shaklda berish, ko‘chirib yozish hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’limda imlo qoidalari va husnixat qoidalari amal qilib, bo‘yash va tuzatishlarga yo‘l qo‘ymay, so‘z tarkibidagi harflarni tushirib qoldirmay, o‘rnini almashtirmay, tinish belgilarni to‘g‘ri qo‘llab ko‘chirib yozish ko‘nikmasi shakllantirilishi lozim. O‘qituvchi bu mashqlarni amalgalashish uchun alifbe davridan boshlab, o‘quvchilarga ko‘chirib yozish mashqlarini izchillik bilan o‘rgatadi. Ko‘chirib yozishning ikki turi bor:

1. Matnni o‘zgartirmasdan ko‘chirib yozish.

2. Matn mazmunini o'zlashtirib, o'zgartirib ko'chirib yozish.

Matnni o'zgartirmasdan ko'chirib yozish ko'proq 1-sinfning oxirgi choragi, 2—3-sinfning birinchi yarim yilligida qo'llansa, matnni o'zgartirib ko'chirib yozish 3-sinfning ikkinchi yarim yilligi va 4-sinfda qo'llanadi.

Matnni o'zgartirmay ko'chirib yozishda o'quvchilarga quyidagi talablar qo'yildi:

1. Ko'chiriladigan matnni diqqat bilan o'qib chiqish.

2. Matn gaplaridagi so'zlarni bo'g'inga ajratish.

3. Ko'chirib yozilgan matnni asliga solishtirish.

Ko'chirib yozish mashqlari grammatik, leksik va so'z yasalishiga oid topshiriqlarni bajarish asosida olib boriladi: ayrim so'zlarning ma'nosi ta'kidlanadi, keyin o'quvchilarga o'rganilayotgan zarur orfogrammani topish vazifasi yuklatiladi. O'quvchilar uni topib, tagiga chizib qo'yadi yoki tepasiga yozadi.

Ko'chirib yozishda o'quvchi diqqati muhim omildir. Shuning uchun o'qituvchi ularda e'tibor bilan yozish hissini tarbiyalashi lozim. U sinfni kuzatib, ish bajarilgandan so'ng, qo'shimcha topshiriqlar berish bilan oradagi munosabatni faollashtiradi. Masa lan, «Tartib bilan berilgan barcha harflar alifbodir» (3-sinf) degan qoidaga muvofiq, «Alifbo tartibini yod oling va ularning talaffuzini o'rganining» deyilgan topshiriqli mashqdan so'ng o'qituvchi tomonidan qator so'zlar ro'yxati berilib, uni alifbo tartibida ko'chirish topshiriladi. Bunda so'zlar avval o'qitilib, ayrimlarining ma'nosi so'raladi va talaffuzga alohida e'tibor beriladi.

Bulardan tashqari, kompleks mashqlar asosida orfografik mala ka bilan nutq o'stirish vazifasini uyg'unlashtiradigan topshiriqlar mavjud. Bular:

1. Ko'chiring. *Ch, sh, ng* harf birikmalarining bir yo'ldan ke yingi yo'nga qanday ko'chirilishini ajratib ko'rsating.

2. Tushirib qoldirilgan harflarni qo'yib so'zlarni yozing va imlosini yodda tuting (*Mua.....ar—Muattar, mi.....atdar—minnatdor* kabi).

3. Ko'chiring. O'zakdosh so'zlarni aniqlang.

4. Aralash berilgan so'zlardan gap tuzib yozing.

5. Tartibsiz berilgan gaplardan bog'lanishli matn tuzib yozing.

6. Tanlab ko'chiring. (Berilgan matndan turlicha birikkan (*ot+fe'l, sifat+fe'l*) so'z birikmasini topib ko'chirish.)

7. Erkin ko'chirib yozing. Ko'chirib yozishning bu turi ko'proq 4-sinfda o'tkaziladi. Avval matn to'liq yoziladi. Keyin har bir xat

boshi e'tibor bilan o'qitilib, qaysi xat boshi matnga qaramasdan yozilishi aytildi. Qiyn orfogrammalar uchrasa, izohlanadi. O'quvchilar matnni yana bir karra ko'zdan kechirib, kitobga qaramasdan mazmunini saqlagan holda erkin yozadilar. Ish oxirida kitobni ochib, yozganlarini tekshiradilar. Matnni o'zgartirib ko'chirishning bu turida o'quvchilar zehni va xotirasi sinovdan o'tadi.

Boshlang'ich ta'llimda to'g'ri yozish mashqi sifatida diktantning xilma-xil turlaridan foydalanish mumkin. O'quvchi diktant yozyotganda xato qilmaslik uchun to'g'ri yozish qoidalarini eslashga va tinish belgilarini tushirmaslikka harakat qiladi.

Diktant — bu eshitib idrok qilingan so'z, gap, bog'lanishli nutq matnnini yozishdir. Tekshiruv, lug'at, izohli va ta'kidiy diktant turlarida so'zlar yoki matn o'zgartirilmay yozdiriladi.

Saylanma, erkin va ijodiy diktant o'tkazish paytida esa matnga ma'lum bir o'zgartirishlar kiritish uchun imkon beriladi.

TEKSHIRUV diktanti o'rganilib, mashqlar bilan mustahkamlangan qoidalarni o'quvchilar qay darajada o'zlashtirganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Dastlab matn bir marta ifodali qilib o'qib beriladi, keyin aytib turib yozdiriladi.

LUG'AT diktant ixcham, ko'p vaqt talab qilmaydigan yozma ish turi bo'lib, to'g'ri yozish, yodda saqlash uchun ayrim so'zlarga tayanib, darsni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. Masalan, qo'sh undoshlar imlosi bo'yicha (3-sinf): *izzat, ittifoq, tonna, zarra, tashakkur, xokkey, g'alla* kabi.

IZOHЛИ diktantda o'quvchilar terma gaplardan tuzilgan matnni yozib bo'lgach, tekshiriladigan qoida asosida fikr yuritadilar va qoidaga asos bo'lgan so'zni topib tagiga chizadilar, to'g'ri yozilganligini tekshiradilar.

TA'KIDIY diktant o'quvchining orfografik qoidani ongli o'zlashtira olganligini sinash maqsadida o'tkaziladi. Chunonchi, tutuq belgisining ishlatalishini mustahkamlash uchun o'qituvchi sinfga shunday savollar tashlashi mumkin:

- Tutuq belgisi tovush bildiradimi?
- Yozuvda qaysi payt tutuq belgisi ishlataladi?
- Qanday holatda tutuq belgisi tushirib qoldiriladi?

Savollar javobini o'qituvchi umumlashtiradi, keyin ta'kidiy diktant matnnini yozdiradi. Bunda bir o'quvchi doskaga yozishi, boshqalar daftarga yozib borish jarayonida unga solishtirishi, no-to'g'ri yozilgan o'rinni qoidaga muvofiqlashtirishi lozim bo'ladi. Diktantning bu turini og'zaki tartibda o'tkazish ham mumkin.

SAYLANMA diktantda o‘quvchilar ayrib turib yozdirilgan gaplarni yoki matnni to‘liq yozmaydilar. O‘qituvchi belgilagan imlo qoidasiga mos so‘zlarnigina ajratib yozadilar. Masalan, o‘qituvchi qo‘shma fe’llarning yozilishini mustahkamlash maqsadida (4-sinf) matn tanlaydi. Diktantdan oldin qo‘shma fe’llar imlosi eslatiladi va maqsad tushuntiriladi. Keyin birinchi gapni o‘qiydi: «*Dildora ko ‘m-ko ‘k maysalar orasida bo ‘ynini cho ‘zib yotgan toshbaqani ko ‘rib goldi*». O‘quvchilar bundan «*ko ‘rib goldi*» qo‘shma fe’lini ajratib daftarlariga yozadilar. Diktant tugagach, o‘quvchilarining qo‘shma fe’llarni qanday yozganliklari tekshiriladi. Saylanma diktant uchun 10 daqiqa vaqt ajratilsa kifoya.

ERKIN diktantda o‘quvchi matnning umumiy mazmunini saqlagan holda o‘qituvchi tomonidan o‘qib berilgan matndagi ayrim so‘z yoki so‘z birikmalarini boshqasiga almashtiradi. Bunday xususiyati bilan erkin diktant bayonga yaqin turadi. Ammo erkin diktant ma’lum orfogrammani mustahkamlash maqsadida o’tkaziladi. Unga reja tuzilmaydi. Diktant oxirida o‘quvchilar o‘z yozganlarini (3—4-sinflarda) grammatika, orfografiya va punktuatsiya qoidalariga ko‘ra tekshiradilar. Keyin o‘qituvchi daftarlarni yig‘ib oladi va tekshirganda imlo bilan birga mazmunga ham e’tibor beradi.

IJODIY diktant o‘quvchidan faol va mustaqil fikrlashni talab etadi. Boshlang‘ich sinflarda (asosan, 3—4-sinflarda) ijodiy diktant o‘tkazishning ikki turidan foydalanish mumkin:

1. O‘rganilgan orfogrammalar yordamida gap tuzish. Masalan, sifatning yozilishini mustahkamlash uchun o‘qituvchi doskaga *bo ‘m-bo ‘sh, tip-tiniq, oppoq, tim qora, eng kuchli, och sariq* kabi so‘zlarni yozadi va izohlaydi. Keyin o‘quvchilar bu so‘zlar ishtirokida gap tuzib, daftarga ko‘chiradilar. Mashqning bu turi boshqacha shaklda o‘tkazilishi ham mumkin. O‘qituvchi qoidani aytadi, o‘quvchilar misollar topadilar. Keyin yozdiriladi.

2. Berilgan matnni kengaytirish. Sifat yozilishini mustahkamlash uchun (4-sinf) o‘qituvchi doskaga quyidagi gaplarni yozadi: «*1. Tog‘lar soyasida bir tosh yastanib yotibdi. 2. Qishlog‘imiz vodiyda joylashgan*». Bu gaplarni sifatlar bilan kengaytirib yozish topshiriladi. O‘quvchilar tog‘lar so‘zini «*buyuk*», tosh so‘zini «*ulkan*», vodiy so‘zini «*ko ‘m-ko ‘k*» sifatlari bilan kengaytirib yozadilar. Sifatlarning ostiga chizadilar. Bunday ish uyga vazifa qilib berilishi ham mumkin.

Ijodiy diktant o‘quvchining nutq madaniyatini o‘stirishda muhim ahamiyatga ega.

Bayon va insho ham o‘quvchilarning lug‘atini boyitish, bog‘-lanishli nutqini o‘stirishga qaratilgan orfografik mashq turlari hisoblanadi. Nutq odobining shakllanishida bu xildagi yozma ishlarning ahamiyati beqiyosdir.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. To‘g‘ri yozish malakasini hosil qilish qanday tashkil etiladi?
2. To‘g‘ri yozishga o‘rgatishda og‘zaki va yozma mashqlarning rolini qanday izohlaysiz?
3. Ko‘chirib yozish mashqlarining ahamiyati nimada? Uni qanday tashkil-lashtirish mumkin?
4. Diktant turlarining imlo qoidalariiga ta’siri haqida gapiring.
5. Orfografik mashqlarning ta’limiy ahamiyati nimadan iborat?
6. Mustaqil ravishda ijodiy diktant uchun dars ishlanmasi tayyorlang.
7. «Ot kelishiklarni o‘rganish» mavzusi bo‘yicha (4-sinf uchun) orfografik mashq usulini o‘rganing va metodist-o‘qituvchi rahbarligida muhokama qiling.

Laboratoriya ishi. Matnni til tomonidan tahlil qilib, uning mazmunini to‘liq bayon etadigan darsni kuzatish

Bu mashg‘ulotni tashkil etish amaliyot o‘taladigan tayanch maktablarda amalga oshiriladi. Binobarin, 4-sinfda «Kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishi» mavzusiga doir topshiriqli va matnli mashqlar berilgan bo‘lib, sind o‘qituvchisi matnli mashqni til tomonidan qanday tahlil qilishi, mavzuning mazmuni ochib berishdagi ilmiy-metodik tayyorgarligi kuzatiladi. Amaliyotchilar ushbu mashg‘ulotdan quyidagi jihatlarni sinchiklab o‘rganishi va amaliy ko‘nikma hosil qilishi maqsadga muvofiqdir.

1. Tanlangan matn darslikdagi topshiriqli matnni yoki o‘qituvchining tanlovi bilan boshqa manbadan olingan matnni?
2. Matn tahlilida kuzatilayotgan mavzu («Kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishi») uchun yetarli dalil so‘zlar mavjudmi? (Masalan, men, sen olmoshlariga qaratqich va tushum kelishiklari qo‘srimchalari qo‘shilganda talaffuzda bir «n» tovushi tushib qoladi shunday yoziladi: (*mening emas, mening, senni emas, seni* kabi.)
3. O‘qituvchi tanlangan matnda mazmunning to‘liq bayon etilishi o‘z maromiga yetdimi? (O‘quvchilar kishilik olmoshlarining olti kelishikda turlanishi, qaratqich, tushum, jo‘nalish, o‘rinn-payt, chiqish kelishigi qo‘srimchalari kishilik olmoshlariga qo‘shilganda qanday orfografik qoidalarni keltirib chiqarishi bilan mu-kammal tanishdilarni?)

4. Darsning ilmiy, metodik mutanosibligi sizda yaxshi taassurot qoldirdimi?

5. Dars haqidagi shaxsiy mulohazalariningizni qayd etib bordin-gizmi? Uni muhokama qilishga tayyormisiz?

ONA TILIDAN O'QUVCHILARNING BILIM, MALAKA VA KO'NIKMALARINI TEKSHIRISH

REJA:

1. O'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarni tekshirish didaktik talab ekanligi.
2. Bilimni tekshirishning og'zaki va yozma shakli.
3. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yilgan talablar.
4. Ona tilidan yozma ishlarni tekshirishni tashkil qilish va uning hajmi.

Boshlang'ich ta'lilda ona tilidan berilgan bilimlarni o'quvchilar qanday o'zlashtirishini muntazam tekshirib borish didaktik talablardan biri hisoblanadi. Davlat ta'lim standartlari o'quv dasturida boshlang'ich ta'liming har bir bosqichi uchun o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalariga alohida-alohida talablar qo'yilgan. Binobarin, to'rt yilda o'quvchilar o'qish texnikasi bo'yicha bir da-qiqada 80—90 so'zni adabiy til normalariga rioya qilgan holda, o'rtacha tezlikda ovoz chiqarib o'qishi lozimligi ko'rsatilgan bo'lsa (ichda 110—130 so'z), diktant yozish malakasi bo'yicha 75—80 so'z-dan iborat matnni quyidagi talab asosida yoza olishlari ta'kidlanadi:

- imloviy xatoga yo'l qo'ymaslik;
- ijodiy matnning mantiqiy izchilligi;
- berilgan izohlarning aniqligi;
- lug'atlarning to'g'ri va aniq berilishi.

Bu talablar ona tili va o'qish darslari zimmasiga mas'uliyat yuklaydi. Har bir dars o'quvchilarning bilim sifatini, o'z navbatida, shakllantirilayotgan malakalardan qay darajada foydalana olishini ta'minlaydi. Me'yoriy bilimni, ko'nikma va malakalarni izchillik bilan tekshirib borish ana shu talablar asosida amalga oshadi. Tekshirish, avvalo, o'quvchilarning yangi materialni o'rganishga tayyorligini aniqlashga, darsda qo'llanilgan metod va usullarning samaradorligini belgilashga, ish sifatiga ayrim o'zgartirishlar kiritishga imkon beradi. Ayni paytda, o'quvchilar uchun:

- to'g'ri yo'nalishda bo'lgan bilimlarni mustahkamlaydi;

— amaliy faoliyatni yaxshilaydi;

— o‘z-o‘zini tekshirish bo‘yicha ijodkorlikni o‘stiradi.

Maktab tajribasida o‘zlashtirilgan bilimlarni tekshirishning og‘zaki va yozma shakli keng qo‘llanadi. Har ikki shaklda tatbiq etiladigan jihatlar ikki ko‘rinishda olib boriladi:

1. Kundalik mavzu bo‘yicha tekshirish.

2. Yakuniy bilim va malakalarini tekshirish.

Boshlang‘ich sinflarda ona tilidan o‘zlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalar og‘zaki yoki yozma shaklda tekshirilsa-da, o‘quvchiga bitta umumiyo baho qo‘yiladi. Bunda quyidagilar hisobga olinadi:

— o‘quvchilar bilimidagi grammatik aniqlik;

— imlo qoidalariga amal qilish darajasi;

— gapni va uning tarkibidagi so‘zni grammatik tahlil qila olish;

— o‘zlashtirilgan nazariy bilimni yozma nutqqa (diktant, ijodiy, ko‘chirib yozish, bayon, insho) tatbiq etish.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar yozma ishni qanday bajarishlari doimo nazorat qilib boriladi. O‘qituvchi 1-sinfda o‘quvchilarning barcha yozma ishlari (uy topshirig‘i va sinf ishlari)ni tekshiradi. Keyingi bosqichlarda yangi mavzu o‘rganilgan paytdagi bajarilgan yozma ishlarni tekshiradi, boshqa vaqtida esa tekshirishning tanlash usulidan foydalanaadi.

Ona tilidan bilimlarni og‘zaki tekshirishda savol-javob, test varianti, mantiqan o‘yla, izla, top kabi usullar qo‘llanilsa, yozma tekshirish uchun, asosan, diktant turlari, bayon, insho, shuningdek, leksik-grammatik va so‘z yasashga doir, ko‘chirib yozish va imloga doir topshiriqlarni tashkil etib boriladi. Yakunlovchi tekshirish uchun har chorakda bir marta yozma ish o‘tkaziladi. Buni quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

T/r	Yozma ish shakli	1-sinfda	2-sinfda	3-sinfda	4-sinfda
1.	Topshiriqli tekshirish diktanti	3	4	4	5
2.	Bayon	—	4	4	4

Bulardan tashqari, o‘quv yili davomida mashg‘ulot turining xarakteriga qarab, bir necha marta har xil diktantlar, grammatik topshiriqli yozma ishlari, bayon va insholar o‘tkaziladi. Davlat ta’lim standartlari o‘quv dasturi tekshirish maqsadida o‘tkaziladigan yozma ishlardagi so‘zlar sonini quyidagicha ko‘rsatadi:

T/r	Yozma ish shakli	1-sinfda	2-sinfda	3-sinfda	4-sinfda
1.	Tekshirish diktanti: a) 1-yarim yillikda b) 2-yarim yillikda	— 20—25	25—35 35—45	45—55 55—65	65—70 70—80
2.	Bayon	—	35—40	65—70	70—80

Ona tilidan bilim, ko‘nikma va malakalarni muntazam tekshirib borish o‘quvchilar savodxonligini oshiradi, ularda adabiy til normalariga amal qilish, nutq madaniyatini egallash uchun tilga doir nazariy bilimlarni puxta o‘rganish ko‘nikmasini takomillashtirib boradi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. O‘quvchilar bilimini tekshirish didaktik talab ekanini qanday tushunasiz?
2. Bilimni tekshirishning qanday shakllari bor?
3. O‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmasiga qo‘yiladigan talablar nimalardan iborat?
4. Ona tilidan yozma tekshirishni tashkil qilish va uning hajmini belgilash o‘quv dasturi bo‘yicha qanday ko‘rsatilgan?
5. Bilimlarni tekshirishning ta’limiy ahamiyatini tushuntiring.
6. Tekshirish uchun baho me’yorini o‘rganib chiqing va uni konspekt qiling.

VIII. BOG'LANISHLI NUTQNI O'STIRISH

BOG'LANISHLI NUTQNI O'STIRISH VA UNING VAZIFALARI

REJA:

1. Boshlang'ich sinflarda bog'lanishli nutqni egallash ustida ishlash.
2. Bog'lanishli nutqdan mashq o'tkazish turlari.
3. O'quvchilarni o'z fikrini mustaqil yoza olishga o'rgatish.
4. Bog'lanishli nutqda hikoya qilish va bayondan foydalanish:
 - a) tanlab hikoya qilish va bayon;
 - b) qisqartirib hikoya qilish va bayon;
 - c) ijodiy qayta hikoyalash va bayon.
5. Bog'lanishli nutq va uni o'stirishning ma'rifiy ahamiyati.

O'quvchilar nutqini o'stirish mashg'uloti bola mакtabga ilk qadam qo'ygan kundan, ya'ni savod o'rgatish davridan boshlanadi. Nutq ko'nikmalari izchil va muntazam olib boriladigan amaliy ishlar natijasida namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi ona tili darsidan grammatic tushunchaga doir har bir mashg'ulotda o'quvchilarning nutq malakasini o'stirishga e'tibor berishi zarur. Bu ko'nikmaga erishish uchun, avvalo, nutqning ixcham, sodda, ravon va mazmundor bo'lishini ta'minlash lozim.

Shunday ekan, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish ona tili darsining asosiy vazifasi sanaladi.

Tafakkur ehtiyoji tufayli yuzaga kelib, mantiqiy va grammatic qoidalar asosida o'zlashtirilgan mavzuni ifodalash uchun tuzilgan nutq BOG'LANISHLI NUTQ, deb ataladi.

Boshlang'ich sinflar o'qitish metodikasida bog'lanishli nutqdan mashq turlari amaliy ko'rinishga ega bo'lib, ular nazariyasiz, aniq reja asosida o'tkaziladi:

- aniq savolga ravon, mukammal javob;
- lug'atni faollashtiradigan har xil topshiriqli mashqlar;
- sinchkovlik bilan kuzatish asosida tabiatshunoslikka doir kundalikni yuritish;
- kuzatish, rasm yoki berilgan mavzu bo'yicha o'quvchining ijodiy hikoyasi;
- o'qilgan matnni turli variantda qayta hikoya qilish;
- badiiy matnni yod olish va uni qayta yoddan yozish;
- badiha (maxsus tayyorgarliksiz) hikoya yoki kichik hajmdagi she'r ijod qilish;

- namunasi berilgan ilmiy-ommabop yoki badiiy matn asosida bayon yozish;
- o'qituvchi tavsiyasiga ko'ra matnni qayta (og'zaki yo yozma) tuzish;
- ijodiy va erkin mavzudagi insho.

Bulardan tashqari, pedtexnologiya asosidagi nutqiy mashqlaridan foydalanish bolalarni mustaqil fikrashga o'rgatadi va ularning nutqini yangi lug'at bilan boyitadi. Savod o'rganishda o'quvchilar ayrim so'zlarni, so'ng kichik-kichik gaplarni yozishga va nuqsonisz gapirishga muvaffaq bo'ladi. 1-sinfning 2-yarim yilligidan boshlab, o'qituvchi tanlagan maxsus matn asosida bayon yozishga kirishi-ladi. O'qituvchi yoki sidirg'a o'qiydigan o'quvchi bayon matnnini ikki marta o'qib beradi. Mazmun tushunarli bo'lganligini aniqlash uchun suhbat o'tkaziladi, keyin lug'at ishi bajarilib, o'qituvchi rahbarligida so'roq gaplar bilan bayon rejasи tuziladi. O'quvchilar mustaqil tarzda yozishga kirishganda, o'qituvchi ularni birma-bir kuzatadi va ayrim bolalarga individual yordam beradi. Ish oxirida o'quvchilar yozgan bayonini o'zi tekshirib, sezgan kamchilagini to'g'rilaydi, so'ng o'qituvchi tekshiruviga topshiradi.

Bayon muhokamasi paytida yozma ish bilan matn qiyoslanadi, xatolar aniqlanadi. Bu esa bog'lanishli nutq uchun bajarilgan amaliy mashqning qimmatini oshiradi.

Bog'lanishli nutq va uni o'stirishning boshlang'ich ta'limda keng qo'llanadigan turlari mayjud bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Tanlab hikoya qilish va bayon.
2. Qisqartirib qayta hikoya qilish va bayon.
3. Ijodiy qayta hikoya qilish va bayon.
4. Matn mazmunini qayta hikoyalash va bayon.

Tanlab qayta hikoya qilish yirikroq hajmdagi matnga nisbatan belgilanadi. Masalan, o'qilgan matndan faqat undagi biror qat-nashuvchi shaxsning tashqi qiyofasini tasvirlovchi o'rinni tanlab, qayta hikoya qilish yoki faqat tabiat manzarasi tasvirini tanlab, qayta hikoya qilish kabilar.

Tanlab qayta hikoyalashning bir necha turi bor:

1. Matnga chizilgan rasm asosida qayta hikoya qilish. Masalan, A. Navoiyning «Yolg'onchi» she'riga (2-sinf) chizilgan rasmda yolg'onchi kishining bir sandiq ustida ko'zacha ushlab, g'amgin o'tirgani va orqada yonayotgan uy tasviri berilgan. O'quvchi «Yolg'onchining rost so'zi ham yolg'on bo'lur», degan xalq ma-qolini shu she'r asosida tushuntirib bera oladi.

2. Asardagi alohida epizodni o‘qituvchi talabiga ko‘ra, qayta hikoya qilish. Masalan, o‘quvchilar Oybekning «Mehnatkash qiz» hikoyasidan Shokir otaning oilaviy qashshoqligini yetim qiz Unsin mehnati asosida qayta hikoyalash bilan tushuntiradilar.

3. Mavzu bo‘yicha matnning turli qismlaridan olingan parchalarni qayta hikoya qilish. Masalan, Pirimqul Qodirovning «Xatarli uchrashuv» hikoyasidagi bolaning bo‘rilarga duch kelishi voqeasini tanlab hikoya qilish uchun (4-sinf) uni to‘liq o‘qib chiqishga, kerakli detalni yig‘ishga to‘g‘ri keladi. Matn ichda o‘qiladi. Tanlab hikoyalashning bu turi ba’zan yozma bayon sifatida o‘tkazilishi mumkin.

Matn mazmunini qisqartirib hikoya qilish va bayon yozish murakkab bog‘lanishli nutq turi bo‘lib, bunda o‘rganilayotgan matndan ikkinchi darajali o‘rinlar tushirib qoldiriladi, asosan, muhim o‘rinlar tanlab olinadi va qisqartirib qayta hikoya qilinadi. Buning uchun o‘quvchi matn mazmunini o‘zi aniqlashi, izchil qayta hikoyalashi, asosiy mazmunni o‘z so‘zlar bilan bera olishi zarur.

Qisqartirib qayta hikoya qilish bog‘lanishli nutq malakalarini egallashda asosiy bosqich sanaladi. Dasturga ko‘ra, matn mazmunini qisqartirib bayon yozish 3-sinfning oxirgi choragida amalga oshiriladi. 2-sinfda bunga tayyorgarlik ishlari boshlangan bo‘lib, quyidagilar mashq qilinadi:

- matnni qismlarga bo‘lish;
- qismlarga sarlavha topish;
- jamoa bo‘lib matn rejasini tuzish.

Metodikada bog‘lanishli nutqqa o‘rgatishning yana bir turi ijodiy qayta hikoyalash va bayon bo‘lib, boshlang‘ich sinflarda uning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Shaxsni o‘zgartirib, qayta hikoya qilish va bayon. Boshlang‘ich ta’limda I shaxs tilidan berilgan hikoyani III shaxs tilida qayta hikoya qilishdan ko‘proq foydalaniladi. Bunda ijodiylik yaqqol seziladi: o‘quvchilar hikoya gaplarini qaytadan tuzishadi. Gaplar kesimi o‘zgaradi, hikoya qiluvchi shaxs —«men» «u» olmoshiga almashadi. Shaxsni o‘zgartirib ijodiy qayta hikoyalash asosida bayon yozish ham mumkin.

2. Hikoyadagi timsolni boshqasi bilan almashtirib, uning tilidan qayta hikoya qilish. Masalan, «Hiylagarning jazosi» (4-sinf) ertagidagi voqealarni soddadil yoki hiylagar shaxs tilidan qayta hikoya qildirish mumkin. Bunday qayta hikoyalash turi, asosan, og‘zaki tarzda o‘tkaziladi.

3. Matnni to‘ldirib ijodiy qayta hikoya qilish. Masalan, «Bo‘-rining tabib bo‘lgani haqida ertak» (A. Obidjon) asarida Quyon bilan To‘ng‘iz nima uchun Bo‘ridan qochib qolishganini o‘z mulohazalari bilan boyitib, matnni ijodiy qayta hikoya qiladilar. Bu ham, ko‘pincha, og‘zaki tarzda o‘tkaziladi.

4. So‘z bilan tasvirlash yoki sahnalashtirish. Ijodiy qayta hikoyalashning bu turi o‘quvchining ijodiy tafakkuriga bog‘liq bo‘lib, uning mushohadasi va tasavvur doirasi keng bo‘lishini, o‘qituvchi topshirig‘iga yetarli material to‘play olishini taqozo etadi. Bu tur ko‘p hollarda og‘zaki bajariladi, lekin ba’zi paytlarda sinfning umumiyligi ruhiyatiga munosib deb topilganda, bayon shaklida yozdiriladi.

Matn mazmunini qayta hikoyalash va bayon yozish shakli boshqa turlarga nisbatan boshlang‘ich sinflarda ko‘p o‘tkaziladi. O‘quvchilar o‘rganiladigan matnni barcha detallari, obrazlari, til va mazmunini yaxlit o‘zlashtirishi lozim bo‘ladi. Ular hikoya tarzidagi matnning g‘oyaviy mazmunini o‘qituvchi rahbarligida tahlil qilib, o‘z so‘zlari bilan to‘liq qayta hikoya qilishga o‘rganadilar. She’riy matn lirik xarakterda bo‘lsa, uning mazmunini gapirib berish o‘quvchidan talab etilmaydi, balki she’rni ifodali o‘qish, lirik kayfiyatni his qilish, badiiy tasvir vositalarini aniqlash va matndan estetik zavq olish asosiy maqsad hisoblanadi.

To‘liq hikoya qilish uchun sujetli, hikoya uslubida yozilgan matn tanlanadi va o‘qituvchi ifodali o‘qish jarayonida sinf diqqatini o‘ziga jaib etadi. Keyin qizg‘in savol-javob uyuşhtiriladi va matn rejasi tuzilib, bayon yozishga imkoniyat yaratiladi. Bu usul boshlang‘ich ta’limning barcha bosqichlari uchun o‘quvchilar motivatsiyasini uyg‘otadigan sur’atda leksik faoliyatni boyitishga qaratilgan bo‘ladi.

Bog‘lanishli nutqni o‘stirish o‘quvchining ichki dunyosi — qobiliyati, rostgo‘yligi, odamiyligi, samimiyati singari fazilatlarni namoyon etadigan muhim omildir.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Boshlang‘ich sinflarda bog‘lanishli nutq ustida ishslash qanday yo‘lga qo‘yiladi?
2. Bog‘lanishli nutqdan o‘tkaziladigan mashq turlarini aytинг.
3. Tanlab hikoya qilishning qaysi usulida bayon yozish mumkin?
4. Qisqartirib hikoya qilishning tafakkurga ta’siri bormi?
5. Ijodiy qayta hikoyalash va bayon uchun material to‘plang.
6. Qisqartirib hikoya qilishga doir dars ishlanmasini tuzing (4-sinf «O‘qish kitobi» asosida).

SINONIM VA ANTONIM SO‘ZLAR USTIDA ISHLASH

REJA:

1. Sinonim tushunchasi haqida.
2. Til leksikasini boyitishda sinonim so‘zlarning roli.
3. Boshlang‘ich sinflarda sinonimlarga oid mashq turlari.
4. Antonim tushunchasi haqida.
5. Antonimlarga doir mashq turlari.
6. Sinonim va antonimlarning nutqiy faoliyat uchun ahamiyati.

Sinonimlar — talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma’nosи bir xil (umumiy) bo‘lgan, qo‘srimcha ma’no nozikligi, emotsiyonal bo‘yog‘i, qo‘llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan so‘zlardir. Ana shunday umumiy ma’no bilan bog‘lanuvchi so‘zlar guruhi sinonimik qatorni tashkil etadi. Bu qator ikki yoki undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin. Masalan, *aniq, ravshan, yaqqol, yorgin, oydin, ayon...*

Sinonimlar tilni leksik tomonidan boyitadi. Lug‘at tarkibida sinonim so‘zlar qancha ko‘p bo‘lsa, tilning ifodaliligi shuncha ortadi. Chunonchi, *afzal, ortiq, ustun, yuqori, a’lo* kabi sinonimlar belgining darajasiga ko‘ra O‘TA YAXSHI degan ma’noga ega. AFZAL so‘zi insoniy fazilat xususidagi belgini baholashda qo‘llansa, ORTIQ so‘zi miqdor jihatidan bo‘lgan yuqorilikni ifodalaydi, A’LO so‘zida esa belgi darajasi kuchliroqdir.

O‘zbek tili sinonimlarga boy. Azim Hojiyev o‘zining «O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati»da KATTA so‘zining 11 ta (*katta, ulug‘, zo‘r, buyuk, azim, azamat, ulkan, bahaybat, yirik, gigant, haybatli*), MARTA so‘zining 13 ta (*marta, karra, bor, gal, navbat, daf‘a, qayta, dapqir, qur, yo‘l, qatla, qat, safar*), UYATSIZ so‘zining esa 15 ta (*uyatsiz, benomus, behayo, orsiz, nomussiz, hayosiz, betsiz, yuzsiz, andishasiz, sharmanda, sharmsiz, besharm, beibo, ibosiz, betavfig*) sinonimini izohlagan.

Boshlang‘ich ta’limda sinonim (ma’nodosh) so‘zlar haqida nazariy bilim berilmaydi, biroq sinonimlar haqidagi tushuncha amaliy mashqlar ko‘magida shakllantiriladi. 1-sinfdan boshlab o‘quvchilar berilgan so‘zning ma’nodosh shaklini topishga, o‘sha so‘zning boshqacha atalishini aytishga o‘rgatiladi. 2—4-sinflarda esa o‘quvchilar berilgan so‘zning 2—3 sinonimini aytishga muvaffaq bo‘ladi. Buni amalga oshirish uchun ma’nodosh so‘zlarga doir turli xil mashqlardan foydalanish mumkin:

1. QUYOSH, YUZ, KASAL kabi so‘zlarni boshqa so‘z bilan atalishini topish (1-sinfda). O‘quvchilar quyoshni *kun, oftob; yuzni bet, aft, bashara*; kasalni *bemor, xasta deb* atalishini topishadi.

2. Aralash berilgan sinonimlarni ma’no yaqinligiga qarab guruhlarga ajratish (2-sinfda). Masalan, *ma’lum, sabab, ayon, bois, vaj, oshkor, bahona, aniq* kabilar.

3. Berilgan so‘zlarga sinonim tanlash (3-sinf): OT mavzusini o‘rganish paytida: *vatan, ish, baxt; SIFATni o‘rganishda: gavdali, jasur, shirin; FE’Lni o‘zlashtirishda: yordamlashmoq, yonmoq, kulmoq* kabi so‘zlar aytildi. O‘quvchilar unga ma’nodosh so‘z topadilar: *vatan — yurt, o’lka, diyor, mamlakat; gavdali — jussali, norg’ul, barvasta; kulmoq — jilmaymoq, tabassum qilmoq, tirjaymoq, iljaymoq, xoxolamoq, qah-qah urmoq* va boshqalar.

4. Tushirib qoldirilgan ma’nodosh so‘zlarni topish va matnni ko‘chirish (4-sinf). Bu topshiriqni bajarishda tekshiruv uchun sinonim so‘zlar beriladi. O‘quvchi ulardan mosini o‘z o‘rniga qo‘yib, qo‘llashda farqlanadigan ma’no bo‘yoqdorligini tushuntiradi.

5. Ma’nodosh so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chirish. Masalan, *oltin (o’tda, olovda, gulxanda, cho‘g‘da), odam (ishda, mehnatda, yumushda) bilinadi. Vaqting (fursating, muddating, paying) ketdi — iqboling (baxting, saodating) ketdi* va boshq.

6. Test, rebus, krossvord, didaktik o‘yin-mashqlardan foydalaniш.

Boshlang‘ich ta’limda lug‘at mashg‘ulotiga doir antonimlar ustida ishlashning amaliy mashqlari mayjud. Binobarin, ANTONIM deyilganda qarama-qarshi, zid ma’noli so‘zlar tushuniladi.

Antonimlar nomni anglatgan, belgi bildirgan, harakat-holatni, harakatning belgisini ifoda etgan so‘zlarda uchraydi. Bunda tashqari, ma’nodagi zidlik munosabati so‘z bilan ibora orasida ham vujudga keladi: *xafa — og‘zi qulog‘ida, shod — qovog‘idan qor yog‘moq* kabilar.

Boshlang‘ich sind o‘quvchilariga zid ma’noli so‘zlar qoidasiz, amaliy yo‘l bilan tanishtiriladi. O‘qituvchi buni matn vositasida tanishtiradi. Ayniqsa, xalq maqollari va topishmoqlarda zid ma’noli so‘zlar ma’no mohiyatini oydinlashtirish va kuchaytirish uchun xizmat qiladi:

Gapni OZ so‘zla, ishni KO‘P ko‘zla.

KATTAni hurmat qil, KICHIKni izzat.

BIRLASHGAN o‘zar, BIRLASHMAGAN to‘zar

kabi xalq maqollari va:

KUNDUZI OCHIQ yurar,
KECHASI YOPIQ turar. (Ko'z)

KALTA oyoq, UZUN dum,
Bo'yni yo'g'on, kallaxum,
Unga makon to'qay, qum,
Afti xunik, juda shum (Arslon)

(4-sinf) kabi topishmoqlarni keltirish mumkin.

Boshlang'ich sinflarda antonim bilan tanishish amaliy bo'l-ganligi uchun, dastlab, zid ma'noli so'zlar matndan topiladi, keyin esa maxsus mashqlar o'tkaziladi:

1. So'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda o'qituvchi tomonidan berilgan so'zga antonim tanlash. OTni o'tganda: *yoz* —..., *yer* —..., *yoshlik* —...; SIFATni o'tganda: *issiq* —..., *rost* —..., *shirin* —...; FE'Lni o'tganda: *keldi* —..., *yondi* —..., *qizidi* —... kabi so'zlar beriladi. O'quvchilar ushbu so'zlarning antonimini topib, jufti bilan yozadi: *yoz-qish*, *issiq-sovuq*, *qizidi-sovidi* kabi.

2. O'qituvchi tavsija etgan so'zlarga antonim tanlab gaplar tu-zish. Masalan, *jasur*, *tiniq*; *jasur—go'rroq*, *tiniq—loyqa*. JASURni el suyar, QO'RQOQdan el kuyar. TINIQ suvda kechma, LOYQA bo'ladi.

3. Antonimlarni topib xalq maqollarini tiklash va yozish. Masalan, *TO'G'RI odam* ... so'zdan or qilar. *YAXSHIdan* ot qolur ... dod. *DO'ST achitib gapirar*, ... *kuldirib*.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning lug'atini sinonim va antonim so'zlar bilan boyitish ularda fikrni aniq ifoda etishga, so'z tanlashda ma'no bo'yodqorligini his qilishga imkon beradi va nutq odobini o'rganishga bo'lgan ko'nikmani yuzaga keltiradi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Qanday so'zlarni sinonim deymiz?
2. Tilni leksik tomonidan boyitishda sinonim so'zlarning ahamiyati nima-dan iborat?
3. Boshlang'ich sinflarda sinonimni o'rganishga doir qanaqa mashq turidan foydalanish mumkin?
4. Antonim tushunchasiga ta'rif bering.
5. Antonimga doir qanday mashq turlari o'tkaziladi?
6. Sinonim va antonim so'zlar bilan o'quvchilarni amaliy tanishtirishning ahamiyati nimalardan iborat?
7. 3-sinfda antonim ustida ishslash bo'yicha ijodiy dars ishlanmasi yozing va metodik konsultatsiya paytida muhokamaga qo'ying.

OMONIM VA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARGA DOIR MANTIQIY MASHQLAR O‘TKAZISH

REJA:

1. Boshlang‘ich sinflarda omonim va ko‘p ma’noli so‘zlarni amaliy ravishda o‘rganish.
2. So‘zlardagi ko‘p ma’nolilikning matnda aks etishi.
3. Mantiqiy mashqlar o‘tkazish.
4. Mantiqiy mashqlarni o‘quvchilarning tajribasi bilan boyitish.
5. Nutqda omonim va ko‘p ma’noli so‘zlarning qo‘llanishi hamda uning ma’rifiy ahamiyati.

Ma’lumki, ko‘p ma’noli so‘zlar inson bilimining xususiyati, tafakkurining o‘ziga xosligi bilan yuzaga keladi. U hayot qonuniyatni mahsuli sifatida yaratiladi va taraqqiy etadi. Binobarin, ruhshunos olimlarning kuzatishicha, to‘rt yashar bola o‘z yoshiga nisbatan so‘z boyligining eng yuqori cho‘qqisiga chiqqan hisoblanar ekan. U shu davrda o‘rtalik hisob bilan ikki ming so‘zni o‘z nutqida ishlatib, olti ming so‘z ma’nosini tushunish imkoniyatiga ega bo‘larkan. Agar o‘zlashtirilgan so‘zlar ko‘p ma’nolilik xarakteriga ega bo‘lmaganda, o‘sha bola avvalgi sharoitda bera oladigan fikrni, taxminan, o‘n ming so‘z orqali ifodalab, kamida yigirma ming so‘zni farqlashi lozim bo‘ldi. Bu esa to‘rt yashar boladan so‘z ishlatish qobiliyatini besh, anglash qobiliyatini uch yarim barobar orttirishini talab etadigan hodisadir. Vaholanki, Uilyam Sheks-pirdek mashhur dramaturg butun umri davomida yigirma mingga yetar-yetmas so‘zni o‘z ijodida ishlata olgan edi. Shunday ekan, so‘zning ko‘p ma’noligi nutq uchun qulay omil bo‘lib, so‘zlarni kam miqdorda yodlagan holda nisbatan ko‘p ma’no ifoda etish va unda fahmlashdan yuqori darajada foydalanish imkoniyatini beradi.

Boshlang‘ich sinflardayoq o‘quvchilar ko‘p ma’noli so‘zlarga duch keladi, lekin bir so‘zning bir necha ma’no anglatish xususiyatiga ega ekanligini mulohaza qilib o‘tirmaydi. Masalan, u KO‘Z so‘zini insonning ko‘zi, taxtaning ko‘zi, buloqning ko‘zi, ishning ko‘zi, uzukning ko‘zi, derazaning ko‘zi tarzida nutqiy ma’nosini yaxshi tushunadi, ammo «ko‘z» so‘zining ko‘chma ma’noda qo‘llanishiga e’tibor qaratmaydi. Shuning uchun o‘qituvchi matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarni ko‘chma ma’noli so‘zlar bilan tanishtirib, ayrim so‘zlarning ko‘p ma’no anglatishini tu-shuntirib boradi. Ayni paytda, maxsus mashqlar ham o‘tkazadi:

1. Gap tarkibidagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar ma'nosini aniqlash:
Ovgatga TUZ sol. So'zlar ishtirokida gap TUZ.

2. So'z birikmalaridagi ayrim so'z ma'nolarini qiyoslash: *keng tosh yo'l, toshbag'ir odam; jarning yoqasi, ko'yakning yoqasi...*

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga omonim va ko'p ma'noli so'zlar yuzasidan nazariy bilim berilmaydi, faqat tildagi bu xil tushunchani shakllantirishga tayyorgarlik ko'rildi. Chunonchi, 1-sinfning «Ona tili» darsligida Qudrat Hikmatning «Suv» she'ri berilgan. Uni o'qish va yod olish topshirilgan:

*Tog'dan kelar pildirab,
Ariqlardan shildirab,
Muzday tiniq, zilol suv,
Simob kabi o'ynar u.
Qaysi yerdan oqsa ham
Gurkirab yashnar o'lkam.*

O'qituvchi bu she'rni yodlatishdan oldin o'quvchilar diqqatini matnga jalb etadi. Misralardagi har bir so'z anglatayotgan ma'noni oydinlashtirishga e'tibor berib, sinfni faollashtiruvchi vaziyat yaratadi.

O'qituvchi: — Qani, kim aytadi, suv «pildirab» keladimi, ya'ni pildirab yurish suvga xosmi?

O'quvchi: — Yo'q, suvda oyoq bo'lmaydi, u yurmaydi. Bola pildirab yuradi.

O'qituvchi: — To'g'ri. Suvning oqib kelishi bolaning pildirashiga taqqoslanyapti. Natijada, so'z ma'nosi ko'chayapti. Diqqat bilan o'qinglar-chi, matnda yana shunday so'z uchraydimi?

O'quvchi: — «O'ynab» so'zi bor.

O'qituvchi: — Qanday tushunsa bo'ladi?

O'quvchi: — Suv o'ynay olmaydi, bola o'ynaydi.

O'qituvchi: — Juda to'g'ri. Suvning oqishi bola o'ziniga o'x-shatilib, harakatdagi yaqinlik tufayli «o'ynab» so'zi ko'p ma'no bildirib kelyapti.

Bu xildagi fikrlashga undaydigan mantiqiy mashqlar 2—4-sinf-larda yanada chuqurroq o'rgatiladi. 3-sinfda birlik va ko'plikdag'i otlarga doir mashq berilgan bo'lib, Musa Jong'oziyevning to'rt misra she'rini yoddan yozish talab etilgan:

*Hech erinmay bulutlar
Uch kun elagin qoqdi.
Qishloq, ovul, tomlarga
Osmondan shakar oqdi.*

Topshiriq so'ngida shunday savol qo'yiladi: «Elagin qoqdi», «Osmondan shakar oqdi», deganda nimani tushunasiz?

Bu savol o'quvchilarni mantiqiy o'ylashga, «elagin qoqmoq» — yog'moq, «shakar oqmoq» — qor tushmoq ma'nosida ekanligini aniqlashga, qorning osmondan enishi elanmoqqa, mayda-mayda donalanib tushishi, oqligi shakarga taqqoslanganligini tushunish imkoniyati yuzaga keladi.

O'quvchilar nutqini boyitishda ko'p ma'noli va omonim (shakldosh) so'zlar ustida mantiqiy mashqlar o'tkazish muhim ahamiyatga ega. Bunday mashqlar turlichadir. Faqat bolalarning yosh xususiyatiga qarab sodda, esda qoladigan mashqlar bajartirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun dastlab, ko'p ma'noli so'z bilan omonim so'zlarni farqlash ko'nikmasi hosil qilinishi kerak. Ayniqsa, 4-sinf o'quvchilari boshlang'ich ta'llimning eng yuqori bosqichi bo'lib, mantiqiy mashqlarni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Ular uchun quyidagi mashqlarni tashkilashtirish mumkin:

1. Berilgan gaplardan shakli bir xil, ammo ma'nolari har xil bo'lgan so'zlarni aniqlang va uni alohida yozib, ma'nosini izohlang: *Kabutarim, qanot qoqib UCH! Vazifani yaxshi bajar-may*, «UCH» baho olganidan uyaldim. (O'quvchi izohi: 1-gapdagi uch so'zi kabutarga tegishli bo'lib, parvoz qil ma'nosida, 2-gapdagi «uch» so'zi son, miqdor ma'nosida baho darajasini aniqlash uchun qo'llangan.)

2. KO'Z so'zi ishtirokida birikkan har xil ma'nodagi so'z birikmasini yozing. Ma'nodagi farqlanishga e'tibor bering. (O'quvchi ishi: *Odamning ko'zi, derazaning ko'zi, taxtaning ko'zi, buloqning ko'zi, uzukning ko'zi*. Ushbu so'z birikmalarida qatnashgan «ko'z» so'zining ma'nolarida o'xhashlik va ichki bog'lanish bor. Odamning ko'ziga derazaning ko'zi tiniqligi bilan, taxtaning ko'zi bo'rtmaligi bilan, buloqning ko'zi shakli va tiniqligi bilan, uzukning ko'zi shakli va ravshanligi bilan o'xshaydi.) Bu fikrni o'quvchida tug'dirish uchun o'qituvchi ko'mak va yo'nalish berishi shart.

3. *Xat yoz. Yoz keldi. Kumush qoshiq, kumush qish* misollaridagi YOZ va KUMUSH so'zlari fikr anglatishi jihatidan farqlanadimi?

(O'qituvchi ko'magida o'quvchi izohi: «Yoz» so'zlari shaklan o'xhash, lekin ma'nolari mutlaqo begona. Birida yozish ma'nosi ifoda etilgan bo'lsa, ikkinchisida fasl ma'nosi mavjud. «Kumush» so'zlari ham shaklan o'xhash, lekin qoshiq kumushdan yasalgan

bo‘lib, kumushning oq tusi qish qoriga qiyoslangan. Demak, rang tufayli «*kumush*» so‘zlarining ma’nosida ichki bog‘lanish sezilib turadi. Ana shu jihatlari bilan «*yoz*» va «*kumush*» so‘zları shaklan o‘xshash bo‘lishiga qaramay, bir-biridan farq qiladi.)

4. Aralash berilgan so‘zlardan ma’nosı begona bo‘lganlarını alohida, ma’nosıda ichki bog‘lanish sezildigalarını alohida yozing. So‘zlar: *ot, bet, og’iz, o’t, quloq, chaqmoq, quymoq, etak, mayna, bosh, tana, jilmaydi, yoqa*.

Topshiriqning bajarilishi

Ma’nolari begona so‘zlar	Ma’nosida ichki bog‘lanish sezilib turgan so‘zlar
OT (ot mindi, tosh ot, oting nima). O’T (o’t yondi, o’ti kasal, ariqdan o’t, o’t o’r). CHAQMOQ (chaqmoq chaqdi, danakni chaqmoq). QUYMOQ (quymoq pishirmoq, suv quymoq). MAYNA (mayna— qush, mayna— masxara). TANA (tana— badan, tana— ikki yoshli g‘unajin).	OG‘IZ (odamning og‘zi, qopning og‘zi). BEL (odamning beli, tog‘ning beli). QULOQ (odamning qulog‘i, qozonning qulog‘i). ETAK (ko‘ylakning etagi, tog‘ning etagi). BOSH (kishi boshi, ariqning boshi). JILMAYDI (odam jilmaydi, quyosh jilmaydi).

Boshlang‘ich sinflarda ko‘p ma’noli va omonim so‘zlar ustida mantiqiy mashqlar o‘tkazish o‘quvchilar nutqini jozibali bo‘lishida, leksikasining boyishida muhim omil sanaladi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Boshlang‘ich ta’limda ko‘p ma’noli so‘zlar va omonimlar qay tarzda o‘rgatiladi?
2. Matndagi so‘zning ko‘p ma’noga ega ekanligini qanday aniqlaysiz?
3. So‘zning ko‘chgan ma’nosı nutq uchun qanday ahamiyat kasb etadi?
4. So‘z ma’nolarini tushunishda mantiqiy mashqlar o‘tkazishning samarasini nimalarda ko‘rinadi?
5. Nutqda omonim va ko‘p ma’noli so‘zlarni qo‘llashning ma’rifiy rolini qanday tushunasiz?
6. Ko‘p ma’noli so‘zlar va omonimga doir amaliy mashq o‘tkazish uchun dars ishlanmasi tuzing.
7. 3-sinfda mantiqiy mashq bajarish uchun noan’anaviy usuldan foydalanish yo‘l-yo‘riqlari ustida mustaqil ishlang va «Topshiriqli mashq» mashg‘ulotiga tayyorlaning.

Amaliy mashg'ulot. Bayon va insho darslarini rejelashtirish

Metodist-o'qituvchi talabalarga «Boshlang'ich sinflarda bayon va insho darslarini rejelashtirish» mavzusidagi amaliy ishni bir dars oldin topshiradi. Amaliyotchi-talabalar boshlang'ich sinf o'qituvchisi siftida darsni tashkil etish usulini izlaydilar. Metodist ularga yo'nalish beradi. Ma'lumki, uslubiy an'anaga ko'ra matnli mashqlar hikoya qilish, tasvirlash va muhokamaga bo'-linadi. Boshlang'ich ta'limda esa ko'proq hikoya va tasvirdan foy-dalaniladi. Muhokama bog'lanishli nutqning ancha qiyin shakli bo'lganligi uchun dasturda boshlang'ich sinflarda muhokama tar-zida insho yozdirish tavsiya etilmaydi. O'quvchilar inshoda o'z fikrlarini erkin bayon etish, yoritilayotgan manbaga shaxsiy mu-nosabatini bildirish niyatida muhokama elementlaridan foy-dalanadilar. Masalan, «Paxta milliy boyligimiz», «Tabiatni asrash burchimiz» kabi mavzularda insho yozdirilsa, muhokama elementlari qatnashishi tabiiy. Shunday ekan, bayon va insho darslarini rejelashtirishda talabalar bo'lajak o'qituvchi sifatida quyi-dagilarga e'tibor berishi lozim:

1. Bayon yozish uchun boshlang'ich sinflarda hikoya janri-ning o'quvchilar didiga mosligini mulohaza eta bilish.
2. Insho uchun tasviriy mavzu qulayligini e'tiborga olish. Unda tabiat, ayrim voqeа-hodisalar tasvirlanishi o'quvchilarga qulaylik yaratadi. Chunki ular o'qish kitobida berilgan ko'pgina tasviriy matnlar bilan oldin tanishgan bo'lishadi.
3. Bayon va insho uchun zarur bo'ladigan tayanch so'z va iboralarни aniqlash.
4. Bayon va insho mavzusi o'quvchining hayotiy tajribasi bilan uzviy bog'langan bo'lishini inobatga olish.

Darsni rejelashtirish bo'yicha ishlangan talabalarning materiali metodist-o'qituvchi rahbarligida muhokama qilinadi, baholanadi.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA BAYON O'TKAZISH USULLARI

REJA:

1. Bayon — qayta hikoya qilishning yozma shakli ekanligi.
2. Boshlang'ich ta'limda bayon yozishga o'rgatish.
3. Matn asosida bayon yozish usullari.
4. Bayonning nutq faoliyatidagi ahamiyati.

Boshlang‘ich ta’limning o‘qish va ona tili darslarida o‘rgani-ladigan matn og‘zaki va yozma tarzda qayta hikoya qilinadi. Buning yozma shakli bayondir. Bayonda o‘qib berilgan namunaviy matn mazmuni savol-javob asosida tuzilgan rejaga muvofiq yoziladi. Har bir o‘quvchi matnning mazmunini qay darajada o‘zlash-tirganiga qarab, mustaqil ravishda savodxonligini namoyon etadi. O‘quvchining yosh xususiyatiga mos keladigan har qanday matn yuzasidan bayon yozish mumkin, lekin u og‘zaki qayta hikoya-lashga nisbatan murakkab faoliyatdir. Bundan tashqari, boshlang‘ich sinflarning yozish sur’ati sekin bo‘lishini inobatga olib, bayon uchun tanlangan matn hajm jihatdan ixcham, tili sodda bo‘lishi lozim.

Bayon matni bosqichma-bosqich shakl va mazmuniga ko‘ra boyitib boriladi: dastlab, hikoyaga o‘xshagan bir epizodli matn tanlanadi. Keyin unga yana qo‘srimcha epizodlar, tasvir elementlari kiritiladi, qo‘srima gap va sodda dialoglar qo‘shiladi. 3-sinfning 2-yarmidan boshlab, matn shaxsini o‘zgartirib bayon yozishga o‘tiladi. Bayon asta-sekin o‘quvchi faoliyatida ijodiy xarakterga ega bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda Davlat ta’lim standarti o‘quv dasturi-ning ona tilidan bayon o‘tkazish ko‘rsatmasiga binoan 1-sinf uchun (o‘quv yilining 2-yarmidan keyin) 20—30 so‘zli matn yuzasidan o‘qituvchi yordamida tuzilgan reja asosida bayon yozish, 2-sinf uchun 30—45 so‘zli matn yuzasidan so‘roq gaplardan tuzilgan tayyor reja asosida bayon yozish, 3-sinf uchun jamoa bo‘lib yoki mustaqil ravishda tuzilgan darak gapli reja asosida 50—70 so‘zli matndan bayon yozish, 4-sinf uchun mustaqil tuzilgan reja aso-sida 70—90 so‘zli matndan iborat bayon yozish nazarda tutildi.

Bayon uchun tabiat tasviri, tadbirkor kishilarimizning fidokorona mehnati, milliy qadriyatlarimizni e’zozlashga o‘rgatadigan hayotiy lavhalar, vatanparvarlik, madaniyatimiz yutuqlari, fan va texnika taraqqiyoti kabi ulug‘vor g‘oyalarni aks ettiradigan matn tanlanishi zarur. Bu esa o‘quvchilarning dunyoqarashini, o‘z-o‘zini anglash tuyg‘usini boyitadi.

Bayon matnnini o‘quvchi ko‘r-ko‘rona yodlab olmasligi, balki tushunib, o‘zining tabiiy nutqi bilan insho etishi muhimdir. Binobarin, yozma nutqdagi til vositalari matnni o‘qish, suhbat va tahlil jarayonida o‘zlashtiriladi. Tushunilgan matn so‘zlari va nutq tuzilmasi bola «mulk»iga aylanadi, u mazmunni to‘laroq va aniq-roq ifodalash uchun mustaqil ravishda gaplar tuzadi. Bu esa o‘quvchida ijodiy tashabbusni uyg‘otadi.

Boshlang'ich ta'lilda bayon o'tkazishning turli usullaridan foydalanish ona tili darslaridagi mashg'ulot turiga bog'liq holda uyushtiriladi:

1. Hikoyani qismlarga ajratib, rejasini tuzish va bayon yozish. («Ziyarak» mavzusida mustaqil rejali bayon, 3-sinf.)

2. Topshiriqli, tayyor rejali bayon yozish. (Matnda ajratib berilgan so'zlarning qaysi so'z turkumiga kirishi aniqlanadi. Matn mazmunini qayta so'zlab, sarlavha topib, reja bo'yicha qismlarga bo'lgan holda bayon yoziladi:

Reja:

- I. Husayn Boyqaroning buyrug'i.
- II. Amaldorlarning Navoiyga murojaati.
- III. Dehqon boboning maslahati.
- IV. Podshoning mammun bo'lishi.

Bu rejali rivoyatga o'quvchilar «Non hidi» deb sarlavha qo'yadilar, 4-sinf.)

3. Nazariy bilimni mustahkamlash maqsadida grammatik tu-shunchani izohlab beruvchi bayon yozish. (Masalan, «Chiya-bo'rilar yengildi» hikoyasida ajratib ko'rsatilgan otlarning qaysi kelishikda ekanini aytib, matn asosida bayon yozish talab etiladi, 4-sinf.)

4. Yangi leksik qatlama yoki tarixiy so'zlarning mazmunini o'zlashtirish uchun lug'atni boyituvchi bayon yozish. (Masalan, Navoiy haqidagi matnni qayta hikoya qilib, reja tuziladi va shu reja asosida bayon yoziladi. Matndagi tayanch so'zlar: xonardon, unsiya (do'stlik uyi), rabot (karvonsaroy), dinor (pul birligi), xarajat, xayriya, 4-sinf.)

5. Tasvir elementli bayon yozish. (Berilgan matn yil fasllari yoki tabiat manzarasi tasviridan iborat gaplardan tuzilgan bo'ladi. O'quvchilar mashg'ulot shartiga binoan matnni o'qib, mustaqil ravishda reja tuzadi va shu reja asosida tasvir elementli bayon yozadi. Chunonchi, bahor vasfini tarannum etuvchi «Hayot qo'shig'i» matni, 4-sinf.)

Boshlang'ich sinflar uchun yozma nutqni shakllantiruvchi mashq sifatida bayonning ahamiyati beqiyosdir. U bolalarga adabiy nutq normalarini to'g'ri o'zlashtirishga yordam beradi, nutq odobini o'rgatadi, badiiy uslubni egallahsga yo'l ochadi, tilga nisbatan sezgirlikni oshiradi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Bayon yozma ishning qanday turi hisoblanadi?
2. Bayonning o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
3. Boshlang‘ich ta’limda bayon yozishga o‘rgatish qay tarzda tashkil etiladi?
4. Bayon yozishning qaysi usullari mavjud?
5. Nutq faoliyatida bayonning ahamiyatini izohlang.
6. 2-sinfda bayon yozish usuli bo‘yicha dars ishlanmasi tuzing.

INSHO — TARBIYA OMILI

REJA:

1. Insho — mustaqil fikrlashga undovchi yozma ish turi.
2. Inshoda voqeа-hodisalarning chuqur his etilishi.
3. Jamiyat hayotini tushunishda inshoning roli.
4. Inshoning tarbiyaviy ahamiyati.

Insho aqliy mustaqillikni tarbiyalaydigan yozma ish turi bo‘lib, o‘quvchini ijodiy fikrlashga, ko‘rgan-kechirganlarini, eshitgan-bilganlarini va o‘qib o‘zlashtirganlarini baholashga, ularga o‘z munosabatini bildirishga o‘rgatadi. Insho o‘quvchilardan faollikni talab qiladi: mavzu uchun material to‘plash, uni ma’lum tizimga solish, mantiqiy bog‘lanishni belgilash, rejani mavzu doirasida tuzish, gap tarkibida so‘z tanlashga e’tibor berish, imloviy xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka erishish kabi murakkab ishlar majmuyini tashkil etish barobarida ma’naviy faoliyatni boshqarish ko‘nikmasini ham talab etadi. Inshoda tildagi nazariy tushunchalar nutq tajribasi bilan uyg‘unlashadi. Inshoning o‘quvchi uchun yoqimli tomoni shundaki, u mustaqil, ijodiy xarakterda bo‘lib, yoziladigan narsa shaxsning o‘ziga tegishli tarzda ko‘ngil ehtiyojini qondiradi.

Boshlang‘ich ta’limda insho 1-sinfdayoq kichik og‘zaki xabarlar va zavq beruvchi hikoyadan boshlanadi. Keyinchalik inshoning material manbayi kengayadi. 2—4-sinf o‘quvchilari insho yozishda eng tanish manbalardan foydalanadilar. Bunday qulaylik ularning ichki motivatsiyasini uyg‘otadi.

Chunonchi:

1. O‘quvchilarga juda yaqin bo‘lgan jonli voqeа-hodisalar (ko‘rgan-bilgan, eshitgan, mehnat jarayoni, ekskursiya, kuzatishlar, o‘yinlar kabi) asosidagi insho.

2. O‘qilgan kitob yuzasidan paydo bo‘lgan taassurotlar, o‘qituvchi hikoyasi, rasmlar seriyasi, film va tomosha asarlari asosida yoziladigan insho.

3. Har xil manbalardan o‘rganib, hayotiy hodisalar asosida yoziladigan insho. Masalan, «Qushlar bizning do‘stimiz» mavzusida insho yozish uchun o‘quvchi kitobdan o‘rgangan qushlar haqidagi ma’lumot bilan birga o‘z tajribasi, kuzatishidan ham foydalanadi.

4. Kasb-hunarga moyillikni aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan insho. Masalan, «Orzuga intilib yashayman» (4-sinf) mavzusida savol-javob vositasi bilan aniqlik kiritilgan hikoya qilish tarzidagi insho bolaning ichki dunyosini, orzu-intilishlarini namoyon etishga yordam beradi.

Insho tufayli o‘quvchi jamiyat hayotini tushuna boradi. Ularda tabiatni sevish, mehnatni qadrlash, ota-bobolar merosiga mehr qo‘yish, tadbir bilan ish tutishning xosiyatini anglash, Vatan tuyg‘usini his etish, yaxshilikka intilish, axloqiy go‘zallikka erishish kabi insoniy sifatlarni egallash iqtidori kamol topadi.

Boshlang‘ich sinflarda inshoning tarbiyaviy darajasini rivojlan-tirish uchun metodik tavsiyalarga amal qilish talablari mayjud:

1. Osondan — qiyinga tamoyili asosida og‘zaki va yozma inshoni muntazam o‘tkazib borish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash qobi-lyatini o‘stirish.

2. Kundalik yuritish, xat, maqola yozish, o‘qish kitobida o‘rganilgan asarga nisbatan shaxsiy fikr bildira olish, kuzatishlar asosida yozilgan inshoni hayot bilan bog‘lash ko‘nikmasiga erishish.

3. Insho uchun insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik xislatlarini o‘quvchi qalbiga muhrlay oladigan sodda, samimiyl, fidokor kishilar hayotiga bog‘liq bo‘lgan mavzuni tanlash.

4. Insho yozish jarayonini qizg‘in faoliyatga aylantirish, ya’ni matnni qiziqarli, ta’sirchan qilib tasvirlash. Bunda mavzuning oydinligi, o‘quvchi tasavvuriga yaqinligi muhim ahamiyatga ega. Masalan, «*Bahor tarovati*», «*Bizning oila*», «*Ko‘chat o‘tgazdik*», «*Suyukli qishlog‘im*», «*Bog‘da*», «*Hashar — go‘zal odat*», «*Kitob mening do‘stim*» va boshqalar.

Sinfda yaxshi yozilgan inshoni ifodali o‘qib berish, insho ko‘rik-tanlovi o‘tkazish, g‘olib o‘quvchini moddiy, ma’naviy rag‘batlan-tirish quvvatni oshiradi, o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkam-laydi, bilimdonlikka yo‘l ochadi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Insho yozma ishning qanday turi hisoblanadi?
2. Boshlang'ich sinflarda material manbayiga ko'ra, inshoning qaysi turlaridan foydalanish mumkin?
3. Jamiyat hayotini tushunishda inshoning qanday roli bor?
4. Inshoning ta'limiylaridan ahamiyati nimadan iborat?
5. 3-sinfda «Suyukli qishlog'im» mavzusida insho yozish uchun dars ishlamasi tayyorlang.
6. Boshlang'ich sinflarda sodda insho rejasini tuzish haqidagi ma'lumotlarni to'plang va konseptlashtiring.

INSHO YOZISH VA UNI YORITISH

REJA:

1. Mavzuning insho predmeti ekanligi.
2. Insho uchun material to'plash.
3. Inshoda rejaning muhim ahamiyati.
4. Insho matnini yaratishdagi asosiy bosqichlar.
5. Insho muhokamasining shartlari haqida.

Mavzu insho uchun material hisoblanib, uning mazmunini o'zida mujassam etadi. Inshoda aks etadigan materiallar mavzuga qarab tanlanadi. Shuning uchun tanlangan mavzu o'quvchilarga tanish va tushunarli bo'lgan voqealari asosiga qurilishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda og'zaki va yozma insho mavzusini yoritish o'qituvchining savol asosida tuzgan rejasiga javob yozishdan boshlanadi. Bunga o'quvchilar 1-sinfning 2-yarmidan boshlab o'rgatiladi. Harflarni to'liq o'rgangan bolalar mavzuga oid gap tuzib, o'qituvchi ko'magida yoza boshlaydilar. Dastlabki davrda insho uchun tanlangan mavzu aniq va chegaralangan bo'lishi maqsadga muvofiq. Shuning uchun 2—4-sinf ona tili darsliklarida rasm asosida hikoya qiluvchi insho turiga keng o'rinn berilgan. «Uy ishlariga yordam» mavzusida yoziladigan kichik hajmdagi insho (3-sinf) bog'da meva terayotgan bolalarning mehnatini gaplar vositasida hikoya qilish imkonini beradi. Keyinchalik insho yozishni kuzatish va tasavvur bilan boyitish usuli qo'llanadi. Darslikda berilgan mavzu va rejadan foydalanib: «Kuzatishingiz asosida insho yozing», degan topshiriq o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi.

BAHORDA

Reja:

1. Kunlar isiy boshladi.
2. Tabiat jonlandi.
3. Bahorgi ishlar.
4. Bahor tabiati.
5. Mehnat zavqi.

Rejaning berilishi fikriy izchillikni ta'minlaydi. O'quvchi o'zining ichki nutqidan asosiy gaplarni belgilab oladi. Shuning uchun reja zarur va u inshoning kaliti sanaladi. 1-sinfda mavzuga doir tuzilgan o'qituvchining savollari reja vazifasini bajarsa, 2-sinfda u jamoa bo'lib o'qituvchi ko'magida tuziladi. 3—4-sinflarda esa insho rejasi uchun erkinlik beriladi. Boshlang'ich sinflar uchun 3—5 punktli reja tavsiya etilib, uning tuzilmasi quyidagi tartibda o'zgarib boradi:

- a) avval so'roq gap tarzida;
- b) keyin darak gap shaklida;
- d) oxiri nominativ gap shaklida.

Reja, ko'pincha, insho yozishdan oldin unga material tayyorlash jarayonida tuziladi. Insho yozish paytda jamlangan dalillarni qaytadan ko'rib chiqib, ayrim aniqliklar kiritish mumkin.

Inshoga tayyorgarlik ko'rishni o'qituvchi boshqaradi:

1. Mavzu mohiyati va uning yoritilishida nimaga e'tibor berish lozimligini o'rgatadi.
2. Tasvir imkoniyatiga mos vaziyat yaratadi.
3. Insho uchun yetarli bo'lgan zarur materiallarni yig'ishga doir manbalar haqida tushuntirish beradi.
4. Mavzuni yoritishga munosib va mos bo'lgan til vositalarini tanlash yo'l-yo'riqlari o'rgatiladi.

Bu ishlar insho yozishdan bir necha (ikki-uch) dars oldin boshlanadi. Tajribali metodistlar insho ustida ishlashning uch bosqichi xususida fikr yuritadi:

1. Material yig'ish. (Rasmlarni o'rganish, ekskursiya, adabiyot o'qish, mehnat jarayoni bilan tanishish, film yoki sahma asarini ko'rish.)
2. Mavzuni yoritish uchun to'plangan materialni muhokama qilish, tartibga solish, reja tuzish, lug'at ustida ishslash, faktlarni saralash.
3. Inshoni nutqiy jihatdan tiklash, ya'ni uning matnini tuzish, yozish, xatolarini tuzatish va qayta tekshirish.

1-va 2-bosqich ishlari, odatda, darsdan keyin bajariladi, yozish esa dars jarayonida ko‘chiriladi. Insho yozish uchun 1-sinfda bir dars miqdorida, 2-sinfda bir dars va zarurat tug‘ilsa, 2-darsdan 15—20 daqiqa, 3-sinfda bir yarim darsgacha, 4-sinfda esa ikki darsgacha ajratiladi. Bulardan tashqari, insho tahlili va xatolar ustida ishslash uchun 20—25 daqiqa vaqt sarflanadi. Bunda eng yaxshi insho rag‘batlantiriladi.

Insho yozish darsini tashkil etishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- mavzuning qisqa muhokamasi;
- to‘plangan materialni tartibga solish;
- reja tuzish yoki tuzilgan rejaga aniqlik kiritish;
- matn uchun tayanch so‘zlar va iboralarni aniqlash;
- inshoni yozishda o‘qituvchining ayrim o‘quvchilarga individual yordami;
- o‘quvchilar yozib bo‘lgan inshoni qaytadan ko‘rib chiqish, kerakli tuzatishlarni kiritish (boshlang‘ich sinflarda bolalar inshosi oqqa ko‘chirtirilmaydi);
- o‘quvchilar inshosini ikki kun ichida tekshirish va baholash.

Baholashda quyidagilar hisobga olinadi:

- mavzuni yoritishda mazmmunning haqiqatga mosligi;
- reja, insho tuzilmasi, izchillik;
- janri, uslubi, ya’ni hikoya matnida tasvir va muhokama elementlarining mayjudligi, uslub jihatdan puxtaligi;
- insho hajmidagi mazmunga moslik;
- matn leksikasi;
- gaplardagi sintaktik konstruksiya;
- husnixat, imlo va punktuatsion savodxonlik.

Insho yozishga o‘rgatish o‘quvchilarning yozma nutqini takomillashtirish uchun xizmat qiladi, fikrini kengaytiradi, nutq mantiyatini o‘stiradi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Mavzuning insho matnidagi mavqeyini qanday izohlaysiz?
2. Inshoga material to‘plash qay tarzda tashkil etilishi lozim?
3. Insho yozishda rejaning ahamiyati nimadan iborat?
4. Inshoga tayyorgarlikni o‘qituvchi qanday boshqaradi?
5. Insho ustida ishslash qaysi bosqichlarni o‘z ichiga oladi?
6. Boshlang‘ich ta’limda insho yozish uchun vaqt taqsimotini tushuntiring.
7. 4-sinfda rasm asosida insho yozishni tashkillashtirish to‘g‘risida dars ishlanmasi tuzing va muhokamaga qo‘ying.

Amaliy mashg‘ulot.
4-sinfda insho uchun material to‘plash

Mashg‘ulot uchun topshiriq talabalarga bir dars oldin tayin etiladi. Metodist-o‘qituvchi 4-sinfga tavsiya qilinadigan rasmni kuzatish va uni to‘ldiradigan hayotiy detallarni yig‘ish haqida ko‘rsatma beradi. Darslikda rasmlı mashq berilgan bo‘lib, unda kuzatgan rasmingiz mazmunini hikoya qiling, reja tuzing va tuzgan rejangiz asosida «O‘lkamizda qish» degan mavzuda insho yozing, deyilgan.

Talabalar ana shu mavzuni kengroq yoritish uchun material to‘playdilar, reja tuzadilar va matn tizimini shakllantiruvchi til vositalarini o‘rganadilar. 4-sinf saviyasiga mos usulni tanlashda quyidagi ish jarayoni e’tiborga olinadi:

1. Rasmdagi manzarani ifodalash uchun xizmat qiladigan tasvir matniga mos nutq birliklarini tanlash.
2. Rasmdagi qish manzarasini kuzatish asosidagi tasavvur bilan boyitish.
3. O‘lkamizda qishning o‘ziga xos ziynati borligini badiiy ifodalar bilan qisqacha bayon etish.
4. Insho mazmuniga mos keluvchi ixcham shakldagi matn tuzish.

Mustaqil bajarilgan amaliy mashg‘ulotning ishlanmasi metodist-o‘qituvchi rahbarligida muhokama qilinadi, baholanadi va eng yaxshi deb topilgan insho ishlanmasi tayanch maktabning boshlang‘ich ta’lim uslubiyot xonasiga taqdim etiladi.

**NUTQIY XATOLAR VA UNI BARTARAF QILISH
YO‘L-YO‘RIQLARI**

REJA:

1. Boshlang‘ich sinflarda nutqiy xatolar ustida ishlash.
2. Lug‘aviy-uslubiy xatolarni tuzatish.
3. Morfologik-uslubiy xatolarni bartaraf etish.
4. Sintaktik-uslubiy xatolarni belgilash.
5. Nutqiy xatolarni to‘g‘rilash va uning ta’limiy ahamiyati.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning nutqiy xatolarini o‘z o‘rnida tuzatib borishga katta e’tibor beriladi. Nutqiy xatolar, asosan, gap tuzishda noo‘rin tanlangan leksik birliklar, morfo-

logik shakllarning buzilishi, gapni sintaktik jihatdan to‘g‘ri qo‘l-lay olmaslik kabi holatlarda sodir bo‘ladi. Bunday xatolarni kichik maktab yoshidagi bolalar faoliyatidan bir yo‘la bartaraf etish qiyin, chunki ular til nazariyasi bilan endigina tanisha boshlaysilar. O‘quvchilar nutqini muntazam sayqallab borishni amalgaloshirish uchun nutqqa doir bo‘lgan asosiy xato turini aniqlash lozim. Metodik kuzatishlar nutqiy xatolarning uch ko‘rinishi haqida fikr yuritadi:

- a) lug‘aviy-uslubiy xatolar;
- b) morfologik-uslubiy xatolar;
- c) sintaktik-uslubiy xatolar.

Boshlang‘ich sinflarda ko‘proq uchraydigani lug‘aviy-uslubiy xatolardir. Bunday xatolarning sodir bo‘lishiga bir qancha sabablar bor:

1. Mahalliy sheva yoki oilaning ta’siri.
2. So‘z boyligi yetarli bo‘lmanidan bir so‘zni nutqiy parchada qayta-qayta qo‘llash.
3. «Ko‘cha tili»ning (varvarizm) ta’siri.
4. O‘quvchilarning og‘zaki nutqini sinfda va sinfdan tashqari ishlarda barcha fanlar bo‘yicha jiddiy kuzatib bormaslik, gap tuzilmasiga e’tiborsiz qarash.
5. So‘z ma’nosini yoki ma’nodagi bo‘yoqdorlikni anglamaslik oqibatida so‘zni o‘z o‘rnida ishlata olmaslik.
6. Adabiy til normalariga amal qilmaydigan o‘qituvchining nutqi.

Lug‘aviy-uslubiy xatolar xilma-xil bo‘lganligi uchun uni to‘g‘ri-lash va tushuntirish usullari ham turlichadir. Lekin doimiy mashg‘ulotlarga bog‘liq tarzda bunday xatolarning oldini olish mumkin bo‘lgan umumiy jihatlar mayjuddir. Bular:

- nutqiy vaziyatni shakllantirish;
- o‘rganilayotgan matnni til tomonidan tahlil qilish;
- gap qurilishini tartibga solish;
- matndagi ayrim so‘zlarning ma’no bo‘yoqdorligini tushun-tirish.

Morfologik-uslubiy xatolar og‘zaki va yozma nutqda so‘z shaklini, so‘z yasovchi hamda so‘z o‘zgartuvchi qo‘sishimchalarni noto‘g‘ri qo‘llash jarayonida yuzaga keladi.

Sintaktik-uslubiy xatolar so‘z birikmasini grammatisk vositalar yoki ko‘makchilar yordamida to‘g‘ri tuza olmaslik, gap strukturasini buzish kabi hollarda namoyon bo‘ladi. Til qoidalari bilan kengroq tanishgan sari yuqori sinflarda bunday xatolarning boshqa xiliga

ham duch kelish mumkin. O'shanda uni bartaraf etish yo'l-yo'rig'i ham mukammalroq o'rgatiladi.

Boshlang'ich sinflarda so'z tarkibining o'rgatilishi (3-sinf), otlardagi egalik va kelishik qo'shimchalarining imlo qoidalari asosida berilishi (4-sinf), gap bo'laklari, gapda so'zlarning bog'lanishi (3-sinf), gapning uyushiq bo'laklari va ularning bog'lovchilar yordamida birikishi (4-sinf) kabi mavzularni ham nazariy, ham amaliy mashqlar bilan o'rgatish morfologik-uslubiy va sintaktik-uslubiy xatolarning oldini olish uchun imkon yaratadi. Masa-lan, ajratib ko'rsatilgan otlarga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib gaplarni ko'chirish (4-sinf) morfologik va sintaktik bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi:

1. Qushlar osmon ... (-ga, -da) parvoz etdi.

2. Dehqon bog'dorchilik ... (-ga, -ka, -da) havas bilan qarardi.

Nutqqa oid xatolarni to'g'rilash va ularning oldini olish bevosita o'qituvchi rahbarligida sinf jamoasi faolligiga bog'liq. Bu faoliik tufayli xatolarni tuzatish tizimi ishlab chiqiladi. Bular:

— o'quvchilarning yozma ish daftarida nutqiy xatolarni belgilash va to'g'rilash;

— tekshirilgan bayon yoki inshoni tahlil qilish uchun xato topish va to'g'rilashni o'quvchilar hukmiga havola qilish (darsning 2-qismidan 15—20 daqiqa ajratgan holda);

— yozma ishlardan birini (hikoya yozish, bayon yoki insho) o'tkazishdan oldin tuzilma matnni til jihatdan puxta o'rganish;

— grammatik mavzu o'zlashtirilayotganda, xatoning oldini olish uchun asos bo'lishini o'quvchilarga tushuntirish;

— ayrim individual xatolar ustida ishlashni darsdan tashqari paytda o'tkazish, tekshirish, to'g'rilash.

Xato to'g'rilashning eng muhim sharti o'quvchi o'zi yo'l qo'y-gan xatoning to'g'ri variantini o'zlashtirib olishidir. Shunda u xatoning kelib chiqish sababini tushunadi. O'qituvchi xato tuzatish tartibini belgilaydi:

— so'z boshqasi bilan almashtiriladi;

— zarur so'z qo'shiladi;

— takror yoki ortiqcha qo'llangan so'zning ustidan chiziladi;

— so'z birikmasi yoki gap qaytadan tuziladi.

Boshlang'ich ta'limda xatolar ustida ishslash va ularni bar-taraf etish ta'limiy-tarbiyaviy xarakterdagi mashg'ulot bo'lib, o'quvchilarning nutqiy madaniyatini shakllantirishda asosiy bos-qich hisoblanadi.



Darsni mustahkamlashga doir savol va topshiriqlar

1. Nutqiy xatolarga nimalar kiradi?
2. Boshlang'ich sinflarda lug'aviy-uslubiy xatolarning qaysi tipik ko'rinishlari bor?
3. Qanday xatolarni morfologik-uslubiy xatolar deymiz?
4. Sintaktik-uslubiy xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun nimalarga e'tibor berish kerak?
5. Xatolarni to'g'rilash va uning oldini olish tizimiga nimalar kiradi?
6. Nutqiy xatolarni to'g'rilashning ahamiyatini gapirib bering.
7. Nutqiy xatolarning oldini olishga doir 4-sinf darsligidagi otlarning kelishiklarda turlanishi haqidagi grammatik qoidalarni o'rganing va muhokama uchun dars ishlanmasi yozing.

O'TILGAN MATERIALLAR YUZASIDAN UMUMLASHTIRISH DARSI

Umumlashtiruvchi dars — mustaqil ish. Uni talabalarga ikki dars oldin o'tilgan mavzularni takrorlash maqsadida bo'lib beriladi. Talabalar uch guruhga taqsimlanadi. Ularning har biriga o'quv yili davomida o'tilgan bo'limlar quyidagi tartibda yukланади:

I. Boshlang'ich ta'limda so'zning morfologik tarkibini o'rganish haqidagi uslubiy bo'limni 1-guruh talabalari o'rganishadi, ular eng muhim ma'lumotlarni umumlashtiradi. Bo'lim yuzasidan test savollari, boshqotirma va rebuslar tuzadi. Noan'anaviy usullardan, pedtexnologiya metodlaridan foydalanadi. Bu guruhning e'tiboriga ushbu eslatma havola etiladi:

1. Morfema atamasining mohiyatini chuqur tushunish.
2. So'zdan o'zak va affiks morfemani ajrata olish.
3. Taqqoslash asosida o'zak va affiks morfemani bir-biridan farqlash.
4. Morfemani so'z tarkibidagi bo'g'indan farqlay olish.
5. So'z tarkibini o'rganishda topshiriqli mashqlar ahamiyatini anglash.

II. So'z turkumlarini o'rganish haqidagi metodik bilimlarni 2-guruh talabalari umumlashtiradi. Bu guruhning e'tiboriga ushbu eslatma taqdim etiladi:

1. So'zlarni turkumlashda asosiy belgini ajrata olish.
2. So'z turkumidagi muhim xususiyatlar qaysilagini bilish.
3. Ot so'z turkumi va uning vazifalarini aniqlash.
4. Sifatning o'ziga xos tomonlarini belgilash.

5. Sonni o'rganish metodikasini tahlil qilish.
6. Olmosh va fe'lning asosiy belgilarini aniqlash va umumlashtirish.
7. Bog'lovchini o'rganish haqida ma'lumot to'plash.

III. O'quvchilar savodxonligini tekshirish va xatolarini tuzatish uslubiyoti hamda bog'lanishli nutqni o'rganishga 3-guruh talabalar maxsus tayyorlanishadi. Bu guruhning e'tiboriga ushbu eslatma havola etiladi:

1. O'quvchilar savodxonligi darajasini o'rganish.
2. Orfografik xatolarni hisobga olish va tuzatish yo'llarini belgilash.
3. Ona tilidan o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish haqida ma'lumot to'plash.
4. Bog'lanishli nutqni o'stirishga oid uslubiy bilimni takrorlash.
5. Boshlang'ich ta'limda bayon va insho yozish hamda xatolarni tuzatish haqida ma'lumot to'plash, umumlashtirish.

O'rganilgan materiallar yuzasidan o'tkaziladigan umumlash-tirish mashg'ulotida har uch guruh o'z bilimlarini namoyish etadi. Metodist-o'qituvchi talabalar mulohazasini, uslubiy bilimlarini tartibga solib turadi va sinov asosida mustahkamlaydi hamda ularni baholaydi.

O'QUVCHILARNING OG'ZAKI VA YOZMA NUTQLARINI BAHOLASH ME'YORI

Bu mavzu bo'lajak o'qituvchilar uchun muhimligini nazarda tutib, ona tili o'qitish metodikasi fani bo'yicha ishlangan dasturda o'quvchilarning og'zaki va yozma bilimlarini baholash me'yorlariga diqqat qilish foydadan xoli emas, deb topildi va reja asosida bu mavzuni to'liq yoritish maqsadi amalga oshirildi.

REJA:

1. Og'zaki javoblarni baholashda hisobga olinadigan jihatlar.
2. Og'zaki javoblarni «1» dan «5» gacha baholash shartlari.
3. Diktantni baholash me'yori haqida.

O'quvchilar bilimini tekshirish uchun ularning og'zaki javoblarini baholashda quyidagi jihatlar inobatga olinadi:

1. Javoblarning to'g'riliqi va to'liqligi.
2. O'quvchining bilim o'zlashtirish darajasi.
3. Bayon qilishdagi izchillik va o'quvchining so'zlash madaniyati.

4. Ona tilidan og‘zaki bilim uchun baho qo‘yilishi:
- a) o‘rganilgan grammatik qoidalar ta’rifi va uning isbotlanishiga;
 - b) o‘qituvchi topshirig‘iga mos tarzda tahlil qila olishiga (fonetik, so‘z tarkibi va grammatic tahlil);
 - c) ayrim qoidalarga mos so‘zlarining yozilishini tushuntirishiga;
 - d) amaliy mashqlarni bajarishda o‘z fikrlarini mustaqil bildira olishi va nutqdagi mohirligiga.

BAHO ME’YORI

«5» BAHO

Agar o‘quvchi mavzuni to‘liq ochib bersa, savolga to‘g‘ri javob atysa, amaliy mashqlarni mustaqil, xatosiz bajara olsa, nutqi ongli, ifodali, izchil bo‘lsa, lekin nutqiy xatosi bittadan oshmasa, «5» baho qo‘yiladi.

«4» BAHO

O‘quvchi a‘lo bahoga yaqin javob bersa-yu, nutqida ikkita-gacha gapni noto‘g‘ri tuzsa, mavzu ustida ishlashda, gap va so‘zlarni tahlil qilishda, mashq bajarishda o‘zi yoki o‘qituvchining ozgina yordami bilan yo‘l qo‘yilgan xatoni tuzatsa, nutqi yaxshi bo‘lsa-yu, nutqiy nuqsoni ikkitadan oshmasa, «4» baho qo‘yiladi.

«3» BAHO

Agar o‘quvchi mavzuni tushunsa-yu, lekin to‘liq javob berolmasa, o‘qituvchi yordamida ham misollar bilan tushuntira olmasa, tahlil va amaliy mashqda mavzuni ocholmay izchillikni buzsa, so‘z qo‘llashda va gap tuzishda kamchiliklarga yo‘l qo‘ysa, «3» bahoga loyiq deb topiladi.

«2» BAHO

Agar o‘quvchi mavzuning ko‘p qismini bilmasa, qoidalarni tushuntira olmasa, o‘qituvchining qo‘sishimcha savollari yordamida ham gapira olmasa, tahlil va amaliy mashqlarda beshta yoki undan ortiq xatoga yo‘l qo‘ysa, fikr bayonida nutqi g‘aliz bo‘lsa, xatolar ko‘p yuz bersa, «2» baho qo‘yiladi.

«1» BAHO

Agar o‘quvchi o‘rganilgan mavzuni umuman bilmasa, «1» baho qo‘yiladi.

* * *

Har bir bosqichda yozma ish olinayotganda o‘quvchilarning yoshi, saviyasi, o‘zlashtirish darajasiga qaraladi.

Diktantni baholashda quyidagi mezon belgilanadi:

«5» BAHO

Mutlaqo xatosiz yozilgan bo‘lsa yoki qo‘pol bo‘lмаган битта имло ю битта исхорат xatosi bo‘lgan chirolyi husnixatdagi diktantga «5» baho qo‘yiladi.

«4» BAHO

Ikkita imlo va ikkita ishorat xatosi bo‘lgan chirolyi husnixatdagi diktantga «4» baho qo‘yiladi. Xatolar nisbati o‘zgarishi mumkin, lekin ularning miqdori to‘rttadan oshmasligi kerak.

«3» BAHO

To‘rtta imlo va to‘rtta ishorat xatosi bo‘lgan, husnixatga amal qilingan diktantga «3» baho qo‘yiladi. Xatolar nisbati o‘zgarsa ham miqdori sakkiztadan oshmasligi kerak.

«2» BAHO

Yettita imlo va yettitagacha ishorat xatosi bo‘lgan diktantga «2» baho qo‘yiladi.

«1» BAHO

Xatolar miqdori 15 tadan ortgan diktantga «1» baho qo‘yiladi.

ESLATMA: 1. Diktantdagi xatolar nisbati turli ko‘rinishda bo‘lishiga qaramay, baholashda imlo xatolari soni asosiy chegara sanaladi.

2. Agar diktantda tuzatishlar miqdori beshtadan ortiq bo‘lsa, baho bir ballga pasayadi.

3. Agar diktantda uch va undan ortiq tuzatish bo‘lsa, «5» baho qo‘yilmaydi.

(Baholar mezoni K. Nazarovning «O‘zbek tili va adabiyotidan baho me’yori» metodik qo‘llanmasi asosida tuzilgan.)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *I. A. Karimov*. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. T., 1997.
2. *Q. Abdullayeva*. Savod o‘rgatish. T., 1975.
3. *Q. Abdullayeva, K. Nazarov, Sh. Yo ‘ldoshev*. Savod o‘rgatish metodikasi. T., 1996.
4. *Q. Abdullayeva, M. Yusupova, M. Mahmudova, M. Maylonova*. O‘qish kitobi (2-sinf darsligi). T., 2001.
5. *Q. Abdullayeva, R. Shukurova, N. Rahmonbekova*. Ona tili (2-sinf darsligi). T., 2000.
6. *T. Boboyev*. She’r ilmi ta’limi. T., 1996.
7. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim-tarbiya ishlari. T., 2005.
8. *S. Fuzailev, M. Xudoyberganova*. Ona tili (3-sinf darsligi). T., 2002.
9. *A. Hojijiyev*. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. T., 1974.
10. *H. Homidiy, Sh. Abdullayeva, S. Ibrohimova*. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. T., 1967.
11. *R. Ikromova, Sh. Yo ‘ldosheva*. Ona tili (4-sinf darsligi). T., 2002.
12. *S. Inomxo ‘jayeva, A. Zunnunova*. Ifodali o‘qish asoslari. T., 1978.
13. *Y.A. Komenskiy*. Buyuk didaktika. T., 1975.
14. *B. Ma ‘qulova, S. Sa ‘diyeva*. Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari. T., 1997.
15. *M. Mirtojiyev*. O‘zbek tilida polisemiya. T., 1975.
16. *S. Nishonova*. Komil inson tarbiyasi. T., 2003.
17. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T., 1993.
18. *K. Qosimova*. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. T., 1985.
19. *K. Qosimova, S. Fuzaileva, A. Ne ‘matova*. Ona tili (2-sinf darsligi). T., 2004.
20. *A. Rafiyev, N. G‘ulomova*. Ona tili va adabiyot. T., 2003.
21. *Sh. Rahmatullayev*. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. T., 1984.
22. *H.C. Рождественский, В.А. Кустарова*. Методика начального обучения по родному языку. М., 1965.
23. *A. Rustamov*. So‘z xususida so‘z. T., 1987.
24. *N. Saidahmedov*. Yangi pedagogik texnologiyalar. T., 2003.

25. *U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Rahmatullayev*. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., 1975.
26. *B. To‘xliyev*. Adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T., 2002.
27. *M. Umarova*. O‘qish kitobi (3-sinf darsligi). T., 2000.
28. *Sh. Yusupova*. O‘qituvchi kitobi. T., 2003.
29. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. T., 2003.
30. O‘qish kitobi (4-sinf darsligi). T., 2000.
31. *A. G‘ulomov, A.N. Tixonov, R. Qo‘ng‘irov*. O‘zbek tilining morfem lug‘ati. T., 1977.
32. *I. G‘ulomov, L. Rasulov, X. Rustamov, M. Mirzaahmedov*. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. T., 2000.
33. *E. G‘ozziyev*. Psixologiya. T., 1994.
34. *M. G‘ulomov*. Husnixat (2-sinf). T., 1997.

MUNDARIJA

Kirish	3
«Ona tili o‘qitish metodikasi» fanining maqsad va vazifalari, uning tarkibiy qismi hamda boshqa fanlar bilan aloqasi	3

I-qism

I. SAVOD O‘RGATISH METODIKASI

Boshlang‘ich ta’limning savod o‘rgatish bosqichida analitik-sintetik tovush metodi.....	6
O‘zbek tilida tovushni o‘rgatish. Yozuvning o‘ziga xos xususiyatlari	8
Savod o‘rgatish mashqlari. Diksiya — ifodali nutq asosi	12
Savod o‘rgatish jarayoni. Savod o‘rgatishgacha bo‘lgan davr va uning vazifalari	16
Savod o‘rgatish davri bosqichlari	19
Savod o‘rgatishdan keyingi davrning vazifasi	23
Hozirgi yozuv. Yozuvga o‘rgatish va undagi orfografik elementlar	25
Kichik maktab yoshidagi bolalarga husnixat o‘rgatishning maqsad va vazifalari	29

II. O‘QISHGA O‘RGATISH VA NUTQ O‘STIRISH METODIKASI

Sinfda o‘qish darslarining olib borilishi va uning vazifalari	33
Namunali o‘qish malakasining sifati va uni takomillashtirish usuli	37
O‘qish darslarida o‘quvchilar nutqiga qo‘yiladigan talablar	42
Boshlang‘ich ta’limda badiiy asarni idrok etish va tahlil qilish	46
O‘qish darslarida adabiy nutqqa e’tibor berish va uni takomillashtirish	50

MUSTAQIL ISHLAR

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning bilim saviyasiga individual yondashishda jonli nutqqa tayanish	54
O‘zbek tilining nutq tovushlari haqida ma’lumot	56
Nutq o‘stirish ko‘nikmasi bo‘yicha tahlil	57
O‘qish darslarida mustaqil ish	57

Umumlashtiruvchi o‘qish darsi	58
Badiiy asarni o‘qish va tahlil	61
O‘rganilgan saboqlar yuzasidan sinovga tayyorlanish uchun test savollari tuzish	63

2-qism

III. TURLI JANRDAGI ASARLARNI O‘RGATISH

Hikoya o‘qish metodikasi	65
Ertak o‘qish metodikasi	68
Masal o‘qish metodikasi	71
She‘r va uni o‘qish metodikasi	76
Ilmiy-ommabop maqolalarni o‘qish-o‘rganish	80
Hadislar, hikmatlar, maqol, tez aytish va topishmoqlarni o‘rganish	83

IV. SINFDAN TASHQARI O‘QISH METODIKASI

Sinfdan tashqari o‘qishni tashkil etish va unga rahbarlik	87
Sinfdan tashqari o‘qish darslarining turlari	90

V. FONETIKA, GRAMMATIKA VA SO‘Z YASALISHINI O‘RGATISH METODIKASI

Boshlang‘ich ta’limda o‘zbek tilini o‘rgatishning mazmuni	96
Fonetika va grafikani o‘rgatish usuli	99
Bo‘g‘in va urg‘u tushunchasi	103
Grammatika va so‘z yasashga doir tushunchalar	105
Grammatika va so‘z yasashga oid mashq turlari hamda ularni qo‘llash	109
Boshlang‘ich ta’limda so‘zning morfemik tarkibini o‘rganish	114
So‘zning ma’noli qismlarini o‘rganish tizimi	118

3-qism

VI. SO‘Z TURKUMLARINI O‘RGANISH METODIKASI

Otni o‘rganish metodikasi	123
Fe’lni o‘rganish metodikasi	129
Sifatni o‘rganish metodikasi	134
Sonni o‘rganish metodikasi	137
Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni olmosh bilan tanishtirish	140
Bog‘lovchi ustida ishlashning o‘ziga xos tomonlari	145

VII. IMLONI O'RGATISH METODIKASI

Boshlang‘ich sinflarda sintaksis va punktuatsiya elementlarini o‘rganish	149
Imloni o‘rgatish metodikasi	153
O‘quvchilar savodxonligini o‘rganish va xatolarni tuzatish	156
To‘g‘ri yozish mashqlari	160
Ona tilidan o‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini tekshirish	165

VIII. BOG‘LANISHLI NUTQNI O‘STIRISH

Bog‘lanishli nutqni o‘stirish va uning vazifalari	168
Sinonim va antonim so‘zlar ustida ishlash	172
Omonim va ko‘p ma’noli so‘zlarga doir mantiqiy mashqlar o‘tkazish	175
Boshlang‘ich ta’limda bayon o‘tkazish usullari	179
Insho — tarbiya omili	182
Insho yozish va uni yoritish	184
Nutqiy xatolar va uni bartaraf qilish yo‘l-yo‘riqlari	187
O‘tilgan materiallar yuzasidan umumlashtirish darsi	190
O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini baholash me’yori	191
Foydalaniman adabiyotlar	194

G‘OYIBNAZAR ERNAZAROV

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI
O‘QITISH METODIKASI**

Pedagogika kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

6-nashr

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2016

Muharrir *I. Usmonov*
Texnik muharrir *F. Samatov*
Musahhih *M. Ibrohimova*
Sahifalovchi *S. Sunnatullayeva*

Noshirlik litsenziyasi AI 275, 15.07.2015-y.
2016-yil 15-avgustda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90^{1/16}.
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma tabog‘i 12,5.
Nashr tabog‘i 12,0. 852 nusxa. Buyurtma № 57
«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
Shartnoma 30 — 2016.

«PAPER MAX» xususiy korxonasida chop etildi.
Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

E67 **Ernazarov G‘. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi.** Pedagogika kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma (6-nashr). T.: «ILM ZIYO», 2016. — 200 b.

UO‘K 373.31(075)
811.512.133
KBK 74.268.IO‘zb.ya722

ISBN 978-9943-16-361-4